

PEDAGOGIK MAHORAT

6(1)
2024



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2024-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2024, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 6, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 6, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>NARZIYEVA Shaxnoza Rustamjon qizi</i>	Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	7
2.	<i>XUDOYQULOVA Gulshoda Baxronovna</i>	Yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	11
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>KUSHARBAYEV Djonibek Uralbayevich</i>	Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari	14
4.	<i>MIRALIMOV Mirjamol Yuldashevich</i>	O‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini o‘rganish psixologik muammosi sifatida	18
5.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari	23
6.	<i>IGILIKOV Aybek Jarilqasinovich</i>	Oliy ta’lim muassasalari talabalarini zamonaviy dasturlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni va funksiyalari	28
7.	<i>AXADOVA Gulnoza Said qizi</i>	Professional ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati va uni takomillashtirish zaruriyati	33
8.	<i>BAZAROV Sardor Kenjaboy ugli, BAZAROVA Gulnoza Ziyodullo kizi</i>	Psychological foundations for the development of coaching competencies in students	40
9.	<i>BOBOKELDIYEVA Aziza Abdusamatovna</i>	Kreativ qobiliyatlarni o‘stirish orqali bolalardagi tortinchoqlikni bartaraf etish	44
10.	<i>DJABBAROV Botirjon Begimovich</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish	48
11.	<i>ELMURODOVA Dilnoza Shuhrat qizi</i>	Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishga doir “muammoli ta’lim texnologiyalari”ni amalga oshirish metodikasi	52
12.	<i>JO‘RAYEVA Nargiza Oltinboyevna</i>	Ta’lim tizimida kasbiy kompetenlik va uni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar hamda ularning rivojlanish bosqichlari	56
13.	<i>JUMANOVA Fotima Uralovna</i>	Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning konseptual asoslari	61
14.	<i>JUMANOVA Xafiza Xoliqulovna</i>	O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda nazariy pedagogik yondashuvlar	65
15.	<i>KAMOLOVA Azimaxon Odiljon qizi</i>	Pedagogik qobilaytlarni rivojlantirish orqali kasbiy kasaliklarni oldini olish	70
16.	<i>KENJABOYEV Sharifjon Shuxrat o‘g‘li</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi uzkuksiz jarayon sifatida	74
17.	<i>MINGYASHAROVA Sevara Abdulla qizi</i>	Ta’limda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari	79
18.	<i>MUSAEVA Amina Karomatovna</i>	Talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi	83
19.	<i>NAZARKULOVA Gulnora Abdullakulovna</i>	Pedagogical and psychological features of the work of the tutor	88
20.	<i>QODIROV Olim Odilovich</i>	O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xosligi va zaruriyati	92
21.	<i>QOSIMOVA Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	Talabalar ongida manipulyatsion ta’sirlarga qarshi immunitetni hosil qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	97
22.	<i>SHERNAFASOVA Husniyo Ravshanbekovna, SAFAYEVA Diyora Hamid qizi</i>	Ta’lim sifatini ta’minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	102
23.	<i>SOBIROV Axror Burxonovich</i>	Ijtimoiy psixologik bilimdonlik samarali muomalaning muhim omili	106
24.	<i>MATYAKUBOVXamidjan</i>	Texnologiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga politexnik ta’lim	

	<i>Razzaqovich, SOTIMOVA Farog‘at Safarboy qizi</i>	berishning didaktik yondashuvlari va tamoyillar	111
25.	<i>TO‘XTAYEVA Munira Omonovna</i>	O‘quvchilarda kognitiv qobiliyatning rivojlanishida didaktik o‘yinlar o‘rni	116
26.	<i>TEMIROVA Gulbahor G‘ulomovna, YUSUPOVA Nodira Nurdinovna</i>	Kreativ ta’limda interaktiv texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish	122
27.	<i>UMAROVA Zebiniso Nizom qizi</i>	Zamonaviy metodologiyada sotsiomadaniy kompetensiyaning o‘rni	126
28.	<i>XUDAYAROV Sa‘nat Samadovich, SAFAROV Fayoz Obloqulovich</i>	Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga kombinatorikaning asosiy qoidalarini tushuntirish metodikasi	131
29.	<i>XASANBOEV Azizbek Botirali o‘g‘li</i>	Turli yosh bosqichlarida xulq-atvor deprivatsiyasining namoyon bo‘lishi	135
30.	<i>XUDAYKULOVA Zarifa Ummatkulovna</i>	Opportunities for preparing students for spiritual and educational activities on the basis of axiological approaches	140
31.	<i>ПИРМАНОВА Гавхар Назаркуловна</i>	Развитие интеллектуально-творческого потенциала обучающихся – социально-педагогическая проблема	145
32.	<i>РАДЖАБОВ Мансур Рустамович</i>	Муҳандислик графикаси фанидан аудитория амалий машғулотларни ўқитиш методикасини такомиллаштириш	149
33.	<i>TURAEVA Dilrabo Erkinovna</i>	Development of future teachers' competence as an actual pedagogical problem	155
34.	<i>ТУХТАШЕВА Рушана Садуллаевна</i>	Олий таълим муассасаларида масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштириш	159
35.	<i>ХАЙДАРОВА Олия Каххаровна</i>	Педагогик ижодкорликнинг креативлик потенциалини ривожлантиришдаги ўрни	164
36.	<i>ХАКИМОВА Малика Ўктамовна</i>	Техника олий таълим муассасаларида “муҳандислик графикаси” фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти	168
37.	<i>NE‘MATULLAYEVA Sarvinoz Xushvaxt qizi</i>	Art-terapiyani qo‘llashning ahamiyati	173
38.	<i>ХАСАНОВА Мархабо Носировна</i>	Использование дидактических принципов для совершенствования методики обучения инженерной графике посредством разработки электронной платформы	177
39.	<i>BAQOYEVA Maftuna Botir qizi</i>	Maktab o‘quvchilarining dars jarayonlariga qiziqtirishning pedagogik-psixologik usullari	183
40.	<i>ХАСАНОВ Рустам Адизович</i>	Многовариантные профессионально-педагогические функции и возможности педагога-тренера и их социальная значимость	186
41.	<i>YULDOSHEV Rustam Dilshod o‘g‘li</i>	Talabalar pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini pedagogik modellashtirish	190
42.	<i>XOLMIRZAYEV Nuriddin Abdullayevich</i>	Bo‘lajak maktab o‘qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari	194
43.	<i>NURALIEVA Dildora Mamurjonovna, OLIMOVA Yorqinoy Mashrapovna</i>	Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishni empirik o‘rganishni tashkil etish metodologiyasi	198
44.	<i>BAQOYEVA Maftuna Botir qizi</i>	Oliy ta’limda talabalarga ustoz-shogirdlik munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari	202
45.	<i>MURODOVA Nafisa San‘atjonovna</i>	“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	205
46.	<i>ЯФАСОВА Анжела Анваровна</i>	Сочинение как средство развития творческих способностей студентов	209
47.	<i>ХОJIYEVA Nasiba Baxodirovna</i>	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	214
48.	<i>ХАКИМОВА Nargiza Suphanovna</i>	“Lifelong learning” konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli	219

DOLZARB MAVZU

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

Ushbu maqolada o‘smirlarda deviant xulq-atvorni vujudga keltiruvchi motivlar va sabablar haqida fikr yuritilib, o‘smirlik yosh davrining psixologik xususiyatlari, har bir yosh xulq-atvorning shakllanishi pedagoglar, ma’naviyat targ‘ibotchilari hamda psixologlar yoshlar tarbiyasiga e’tibor berishlari muhim jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *emotsional holat, o‘smirlik, imitatsiya, deviant, g‘amxo‘rlik, tarbiyaviy funksiya, oilaviy tarbiya, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktsional, agressiv xulq-atvor, oilaviy munosabatlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

В данной статье рассматриваются мотивы и причины девиантного поведения подростков, психологические особенности подросткового возраста, формирование поведения каждого молодого человека, обсуждаются важные для педагогов, духовных пропагандистов и психологов вопросы воспитания молодёжи.

Ключевые слова: *эмоциональное состояние, подростковый возраст, подражание, девиантное, забота, воспитательная функция, семейное воспитание, семейные проблемы, конфликты, делинквентность, аффективная сфера, дисфункциональное, агрессивное поведение, семейные отношения.*

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

This article discusses the formation of people with deviant behavior in society, the reasons, the motives that cause deviant behavior in teenagers, and the important aspects that pedagogues, spiritual promoters and psychologists should pay attention to in the education of young people.

Keywords: *emotional state, adolescence, imitation, deviant, caring, educational function, family bringing up, family problems, conflicts, delinquency, affective sphere, dysfunctional, aggressive behaviour, family relationships.*

Kirish. Deviant tushunchasi lotincha «deviation» so‘zidan olingan bo‘lib, og‘ish, chetga chiqish degan ma‘noni bildiradi. Deviant xulq-atvorli kishilarni xulqi og‘ishganlar deb ham ataladi. Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi bilan jamiyatda jinoyatchilikning kuchayishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bor deyish mumkin. Asosan o‘smirlarda deviant xatti-harakatlarning rivojlanishi bilan noqonuniy xatti-harakatlar bilan shug‘ullanish istagi ortib bormoqda.

Aynan shunday holatlar tufayli barcha ta‘lim muassasalarida profilaktika ishlari yo‘lga qo‘yilishi yuqorida ta‘kidlangan ko‘ngilsiz holatlarni oldini olishda samarali yechim bo‘la olardi.

Deviant xatti-harakatlarning oldini olish va uning sabablarini bartaraf etishda holatga adekvat baho bera oladigan, yoshlarning ichki motivlarini tushunadigan ma’naviyat targ‘ibotchilari, psixologlar, va shuningdek holatga befarq bo‘lmagan aholining faol qatlami orqali yordam bera olishimiz mumkin. Deviant xulq-atvorli deb baholanadigan yoshlarni tarbiyalashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan ijtimoiy, biologik va psixologik omillar mavjud.

O‘smirlik davri sezilarli fiziologik, biokimyoviy va psixologik o‘zgarishlar bilan birga keladi. Bu rivojlanishning muhim davrlaridan biri bo‘lib, bu rivojlanish kompensatsiya mexanizmlarining, shu jumladan adekvat ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Asosiy qism. Deviant xulq-atvor umumiy qabul qilingan ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar deb ta’riflanadi. O‘smirlik davrida odamlarning 50% dan ortig‘i u yoki bu darajada deviant

xulq-atvor belgilarini namoyon qilishlari mumkin. O‘smirlardagi deviant xulq-atvori, albatta, mustaqil kasallik deb baholanmaydi.

Og‘ishning namoyon bo‘lishi quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- tajovuzkorlik;
- yolg‘onchilik;
- o‘g‘irlik;
- sarsonlik;
- fobiyalar;
- depressiya;
- bezovtalik.

Deviant kasalliklarga turli xil qaramliklar (nikotin, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar) kiradi. O‘smirlarda ,shuningdek,o‘z joniga qasd qilishga urinishlar hozirda professional yordam talab qiladigan og‘ishlarning ko‘rinishi sifatida izohlanishi mumkin.

Ijtimoiy jihatdan noqulay muhitda o‘sgan shaxslarda balog‘at yoshida og‘ish xavfining ortishi kuzatiladi.

O‘smirlardagi ijtimoiy og‘ish nafaqat dori-darmonlarni, balki psixoterapevtik tuzatishni ham talab qiladigan holatdir. Shuning uchun deviatsiyani davolash bir nechta mutaxassislarni jalb qilgan holda har tomonlama amalga oshirilishi kerak.

O‘smirlik davrida deviatsiyaning sabablari.

Deviant xulq-atvorning xarakterli xususiyati shundaki, u nafaqat biologik, balki ijtimoiy omillar ta‘sirida shakllanadi. Shunday qilib, ijtimoiy qoralangan xatti-harakatlarning barcha sabablarini 2 guruhga bo‘lish mumkin.

Patologiya rivojlanishi uchun biologik sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

-balog‘at yoshining xususiyatlari. Ushbu davrda gormonlar ta‘siri ostida tananing ulkan qayta tuzilishi sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, miya yarim korteksining kamolotga yetish jarayoni tugallanadi. Shaxsning barcha mavjud asotsial belgilari kuchayadi va aniqroq namoyon bo‘ladi;

-markaziy asab tizimining patologiyalari. Miyadagi neyronlar rivojlanishning barcha bosqichlarida juda zaifdir. Shuning uchun ularga patologik ta‘sirlar adaptiv funktsiyaning pasayishiga, shuningdek, hissiy labillikka olib kelishi mumkin;

- irsiy moyillik. Ba‘zi patologik sharoitlar meros bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, agar qarindoshlari alkogolizmdan, aqliy zaiflikdan aziyat cheksa yoki antisotsial xarakterga ega bo‘lsa, o‘smirda deviant xatti-harakatlar xavfi yuqori bo‘ladi.

Deviant xulq-atvorni rivojlantirish uchun ijtimoiy sabablar:

-to‘liq bo‘lmagan oilalar(noto‘liq oilalar). Ota-onalardan biri o‘z farzandlari bilan sog‘lom munosabatlarni shakllantirish, ularga qarama-qarshi jins vakillari bilan adekvat munosabatlar namunasini ko‘rsatish qiyinroq. Shuning uchun bunday oilalarda ota-onaning hukmronligi va bolalarning qurboni bo‘lish xavfi yuqori;

-oiladagi nizolar(notinch oilalar). Oiladagi antisotsial tendentsiyalar bolaning patologik xarakter xususiyatlarining keskinlashuvida namoyon bo‘ladi. Voyaga yetmagan psixikaga nafaqat ota-onaning ichkilikbozligi va deviant xulq-atvori, balki uydagi janjallar, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishning yetmasligi ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi;

-ta‘limdagi xato-kamchiliklar. O‘smir tarbiyasida nafaqat ota-onalar, balki maktab o‘qituvchilarining ham o‘rni katta. Bola bilan aloqa o‘rnatish va uni ta‘lim jarayoniga jalb qila olmaslik ko‘pincha og‘ishning rivojlanishiga olib keladi.

Ko‘pincha deviant xatti-harakatlarning sababi biologik va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun patologiyani davolashda tanaga va muhitga har tomonlama ta‘sir ko‘rsatish kerak.

Deviant xulq-atvor diagnostikasi.

Deviant xulq-atvor tashxisini qo‘yish uchun o‘smir psixiatr va tibbiy psixolog bilan maslahatlashuvdan o‘tishi kerak. Deviant xatti-harakatlarning organik sabablari juda kam uchraydi. Shuning uchun diagnostikaning birinchi qatori psixologik texnikalar va anketalarni kiritamiz.

O‘smir bilan suhbat. Suhbat davomida shifokor nafaqat simptomlarni, balki bemorning yashash sharoitlarini, sevimli mashg‘ulotlarini va odatlarini ham bilishi muhimdir. Suhbatga parallel ravishda mutaxassis xatti-harakatlarga javoblarni, shuningdek, o‘smirning umumiy va hissiy holatini baholaydi;

O‘smirning qarindoshlari bilan muloqot qilish. Deviant xulq-atvori bo‘lgan o‘smirlar ko‘pincha ularning holatini tanqidiy baholay olmaydilar. Ularning ko‘pchiligi tibbiy yordamga muhtoj emas deb

hisoblashadi. Yaqin qarindoshlar o‘smirning ahvolini obyektiv baholash va shifokor xonasidan tashqaridagi xatti-harakatlar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi;

Psixologik testlar o‘tkazish. Shikoyatlar va kasallik tarixini to‘plaganidan so‘ng, psixiatr o‘smirni klinik psixolog bilan maslahatlashishga yuboradi. Ushbu mutaxassis vaziyatni baholash uchun maxsus anketalar va testlardan foydalanadi. Ularning yordami bilan o‘smirning shaxsiy aksentatsiyalari va xarakter-xususiyatlarini aniqlash mumkin;

Proyektiv metodikalar. Ushbu usullar klinik psixolog tomonidan ham qo‘llaniladi. Ularning yordami bilan bemorda yashirin, bostirilgan his-tuyg‘ularni (qo‘rquv, tashvish, tajovuz) aniqlash mumkin.

Deviant xulq-atvorni tashxislashda ko‘p sonli odamlar ishtirok etadilar. Shifokor maktab ma‘lumotnomasini, pediatrning ambulatoriya kartasidan ko‘chirmalarni, shuningdek, mahalliy ichki ishlar xodimidan (agar bolaning jinoiy faoliyatga aloqadorligi va qonunni buzganligi aniqlansa) malumotnomalar talab qilinadi. Faqat tashxisga kompleks yondashuv va bemorning ahvolini batafsil baholash kasallik haqida obyektiv ma‘lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, patologiya qanchalik erta aniqlansa, u bilan kurashish va hayot uchun patologik xatti-harakatlarning shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik imkoni

Agar o‘smir “ko‘cha” muhitiga tushib qolsa, unda u salbiy istaklarni va kattalar xulq-atvoriga xos bo‘lgan xohishni tez shakllanishini ko‘rishimiz mumkin. Bu “ko‘cha” hayoti erta jinsiy tajriba, giyohvandlik va spirtli ichimliklarni iste‘mol qilishni talab qiladi. Bunday hodisalarning asosiy sababi ota-onalarning e‘tiborsizligi, bolalar bilan ochiq suhbat qilmaslik, beparvolik, ularning xohish istaklari bilan hisoblashmaslikdir. Shuning uchun deviant xatti-harakatlarning dastlabki belgilarida o‘qituvchilar ota-onalari bilan muloqot qilishlari va oiladagi muhitni aniqlashlari kerak.

Deviant xulq-atvor muammosi zamonaviy dunyoda ayniqsa dolzarbdir. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, va uning jadal rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar ko‘pincha o‘smirlar muhitida salbiy reaksiyalarga yoki immitatsiyalarga olib keladi. Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning yaqinlari atrofdagilari bilan o‘zaro munosabatlaridagi qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar vujudga kelishining asosiy sababi sifatida yosh davrlari orasidagi nomutanosiblik deyish ham mumkin. Avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi zamonamiz yigit-qizlarining o‘smirlik davri asosan oila, mahalla, maktab, turli ta‘lim muassasalari, sport to‘garaklaridan tashqari ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda va ko‘ngil ochar jamoalarda o‘tmoqda. Bu mas‘uliyat zanjirining halqalaridan biri zaif bo‘lsa, o‘smirga ham xuddishundaye‘tibor, hurmat, g‘amxo‘rlikvamehryetmasa u kerakli e‘tiborni ko‘chadan izlay boshlaydi. Va yana agar u qo‘lga kiritilgan nazoratni his qilmasa, u boshqa narsalar haqida o‘ylay boshlaydi. U o‘zining dunyoqarashi, intilishlari, o‘zini idrok etishi jihatidan kattalarga taqlid qilishga harakat qiladi, ichishni, chekishni, boshqalardan kuchliroq bo‘lishni xohlaydi.

Bola tarbiyasida, ijtimoiy me‘yorlar talabi asosida tarbiyalashning eng muhim, eng birinchi ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson bo‘lib shakllanishida nikohli sog‘lom oila muhitining o‘rni benihoya katta va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson bo‘lib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga, bevosita bog‘liqdir. Insondagi xulq-atvor, axloq-odobning dastlabki normalari oilada shakllanib, maktab, mahallada, jamoatchilik o‘rtasida ta‘lim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, insoniy fazilatlarini shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha ko‘tarilib boradi, agar aksi namoyon bo‘lsa buzg‘unchi, tajaovuzkor shaxsga aylanib qoladi.

Ma‘lumki har bir oilada bolalarni muayyan tarbiyalash usullarining o‘ziga xosligi mavjud. Ushbu holatlarda ota-onalarning xulq-atvori alohida o‘rin tutadi va bu bolaning ijtimoiylashuviga ta‘sir etadi. Mazkur holatda oiladagi tartib-intizom, o‘zaro muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan deviant va tajovuzkor xulqli farzandlari bor oilalardagitarbiya usullari o‘rganilganda, ota-onaning kayfiyatiga ko‘ra, ko‘p hollarda qattiqqo‘llik, jazolash, ota-onalik mehrining "tanqis"ligini namoyon qilish kabilar qayd etilgan. Deviant xulqli va ijobiy xulqli o‘quvchilarning oila sharoiti o‘rganilganda, deviantlilarning nomaqbul oilada tarbiyalanganliklari tasdiqlangan. Xulq og‘ishini kelib chiqishiga aloqador oilaviy va ijtimoiy omillar muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning tahlili ko‘rsatishicha, ikki o‘zaro bog‘liq omil orasidagi;

- funksional yoki xulq-atvoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiluvchi shaxslararo jarayonlar;

- bevosita ta‘sir qiluvchi, o‘zida oila tarkibi hamda hajmini mujassamlashtirgan tizimli jarayonlarga ajratish mumkin.

L.S.Vigotskiy fikricha, “O‘g‘ishgan xulq” o‘smirning qiyin xayotiy munosabatlar xarakterining yig‘indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar.Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularda ma‘lum bir xususiyat intizomsiz, qo‘pol bo‘ladilar.Ularning faolligini maqsadga muvofiq o‘zgartirish, ularga ba‘zi bir huquqlarni berish bilan ularga tasir o‘tkazish mumkin.

Psixologiyadaxulqog‘ishgano‘quvchilarningbirqanchaklassifikatsiasimavjud;

1- guruh ijtimoiy salbiy mustaxkam qarashlari ega bolalar,
2-guruh qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar,
3-guruh ijobiy va salbiy xulq-atvor stereotiplari oʻrtasida ikkilanuvchi, oʻz holatlarini tushunuvchi bolalardir,

4-guruh irodali bolalarga boʻysinuvchilar,

5- guruh qonunbuzarlik yoʻliga tasodifan kirib qolganlar.

Ijtimoiy psixolog G.M. Andreyeva ijtimoiylashuvni quyidagicha taʼriflagan. Ijtimoiylashuv bolalarning ijtimoiy meʼyorlik va qadriyatlarini oʻzlashtirish jarayonini qamrab olgan, bu jarayonda ular shaxs sifatida shakllanadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni individ uchun bolalikda, ayniqsa, zarur boʻlsada, bu jarayon uning butun umri boʻyi davom etadi. Birorta ham inson oʻziga boshqa insonlarning oʻtkazadigan taʼsiriz mavjud boʻla olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda ifodalanadi.

Oʻsmirlarda deviant xulq-atvorning korreksiyasi.

Ijtimoiy ogʻishlarni davolash farmakologik, psixokorreksiya va psixoterapevtik yordamni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Oʻsmir psixiatri davolash rejasini tuzadi, unga quyidagilar kiradi:

Psixoterapiya. Mashgʻulotlar oʻsmirni xarakter xususiyatlaridan habardor qilishga va oʻzini oʻzi boshqarishning xulq-atvor usullarini oʻrgatishga qaratilgan. Konfliktli vaziyatlar, mumkin boʻlgan harakatlar va reaksiyalar tahlili oʻtkaziladi. Ota-onalarga toʻliq munosabatlarni tiklash uchun psixoterapevtik uchrashuvlar tavsiya etiladi.

Psixokorreksiya. Mashgʻulotlarning maqsadi - hissiy holatni barqarorlashtirish, diqqat va fikrlash funksiyalarini rivojlantirish. Natija psixoterapevtik ish samaradorligini, oʻziga ishonchni oshiradi, oʻrganishga qiziqish uygʻotadi (ijtimoiy rehabilitatsiya uchun zarur shart).

Farmakoterapiya. Dori-darmonlarni qoʻllash qoʻshimcha davolash usuli hisoblanadi va ogʻishlarga biologik moyilligi boʻlgan bemorlarga koʻllaniladi: psixotik kasalliklar, nevrologik patologiyalar. Antisotsial xatti-harakatlarni davolash uchun maxsus dori-darmonlar mavjud emas. Lityum, antipsikotik dorilar va antikonvulsanlardan foydalanish tajovuzning zoʻravonligini kamaytiradi.

Koʻpgina hollarda, kompleks davolash bilan, oʻsmirlarning deviant xulq-atvori qulay prognozga ega. Yoshlar moslashuvchan, mexanizmlarga ega rehabilitatsiya va psixoterapevtik choralar ijobiy natijalar beradi. Nevrologik yoki psixotik kasallik fonida ogʻish rivojlangan hollarda koʻproq harakat talab etiladi. Profilaktika oiladagi patologik munosabatlar va taʼlim muammolarini erta aniqlashga asoslangan.

Xulosa qilib, yoshlarda xulq ogʻishi va tarbiya buzilishini oldini olish vositalaridan asosiy oʻrinlarda turuvchi oilaviy tarbiya muhitiga eʼtibor berish lozim. Ota-onalar farzandlari bilan ularning yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda koʻproq muloqot qilishlari, ularni qiziqtirayotgan voqea-hodisalar haqida suhbatlashishlari tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevish va sevimli boʻlishga qobiliyatni rivojlantirish, oʻzini band qilish va mehnat qilish koʻnikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, sanʼat, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak. Yoshlar orasida, shuningdek, xulqi ogʻishgan shaxslar, tarbiyasi qiyin oʻsmirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik treninglarni koʻproq oʻtkazish, ularda xarakter xislatlari va jamoa bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirish orqali xulq ogʻishini oldini olish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining qonun hujjatlari toʻplami. — 2006-yil № 6. 99-M
2. Gʻoziyev E. Gʻ “Psixologiya”. T. 2008 yil.
3. Gʻoziev E.Gʻ. “Ontogenezpsixologiyasi”.”Noshir” tahriri ostida. 2020 yil.
4. Менделевич В.Д. “Психология девиантного поведения”. М.:2016 yil
5. Shoumarov Gʻ, Umarov B, Akramova F. “Yoshlarda xulq ogʻishi va tarbiya buzilining oldini olish boʻyicha psixologik maslahatlar”. Toshkent.:2015yil
6. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). Talabalarda empatiyani rivojlantirish. Sharqiy akademik va koʻp tarmoqli tadqiqotlar jurnali, 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>
7. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023).Oʻsmirlarda empatiyaning psixologik xususiyatlari. Amerika jamoat diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar jurnali (2993-2157), 1(9), 132-134.
8. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). Empatiyani tushunish, inson aloqasining asosiy komponenti. // American Journal Xalq diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar (2993-2157), 1(10), 378-382.
9. Narziyeva, S. (2023). Kasb tanlov haqida psixologik qarashlar. // Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 2(10), 333-336.

YOSHLARNI YOT G‘OYALARDAN HIMOYA QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

*Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Maqolada so‘nggi yillarda, taraqqiyotning yangi shaklida yoshlar ta‘lim-tarbiyasini yuqori bosqichga ko‘tarish, har bir yoshga o‘z iqtidori va salohiyatini namoyon qilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish mexanizmlarini optimallashtirishga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur huquqiy-me‘yoriy va psixologik asoslari yaratilayotgani bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik xususiyatlar, madaniy xususiyatlar, yoshlar tarbiyasi, salbiy ta‘sirlar, psixoemotsional mahrumlik, qaramlik, autoagressiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ МОЛОДЁЖИ ОТ ЧУЖДЫХ ИДЕЙ

В статье идёт речь о том, что в последние годы в новой форме развития уделяется внимание поднятию образования молодёжи на более высокий уровень, оптимизации механизмов создания условий, позволяющих каждому молодому человеку проявить свой талант и потенциал. Констатируется, что создаются необходимые нормативно-правовые и психологические основы.

Ключевые слова: психологические особенности, культурные особенности, воспитание молодёжи, негативные последствия, психоэмоциональная депривация, зависимость, аутоагрессия.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF YOUTH PROTECTION FROM ALIEN IDEAS

The article deals with the fact that in recent years in the new form of development attention has been paid to raising the education of young people to a higher level, optimising mechanisms for creating conditions that allow each young person to show his or her talent and potential. It is stated that the necessary normative-legal and psychological foundations are being created.

Keywords: psychological characteristics, cultural characteristics, youth education, negative consequences, psycho-emotional deprivation, dependence, auto-aggression.

Kirish. «Har kuni tarbiyachilar, pedagog mutaxassislar, psixologlar, tibbiyot xodimlari bilan muloqotda bo‘lib, bolasidagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rib, onalarning ham bilimi, hayotiy tajribasi, madaniy saviyasi oshadi. Bolalari bilan birga ular ham ijtimoiy-ma‘naviy tarbiya muhitiga, jamiyatga yaqinlashadi, faollashadi»[1]. Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyatni yuqori texnologiyalarsiz, xususan, Internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Har kuni tarmoqning insonning kundalik hayotiga ta‘siri ortib bormoqda, shaxsning psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarida o‘zgarishlar qayd etilmoqda, yangi ijtimoiy guruhlar shakllanmoqda va bularning barchasi zamonaviy dunyoda o‘z aksini topadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi insonning turli xil qaramliklarining ko‘payishiga olib keladi. Stressli vaziyatlarning salbiy ta‘siri, psixo-emotsional mahrumlik va boshqa omillar o‘z ongini o‘zgartirish orqali haqiqiy dunyo muammolaridan qochish istagini keltirib chiqaradi.

Internet muhiti ko‘p funktsiyali bo‘lib, o‘zining tabiati, maqsadi, motivlari bilan farq qiluvchi turli faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Yil sayin internetdan foydalanuvchilar soni hamda foydalaniladigan va yaratilgan internet resurslari soni ortib bormoqda. Aholining barcha ijtimoiy guruhlari va yosh guruhlari internetdagi faoliyatda ishtirok etadilar. Ularda “ego”ning kuchayishi natijasida yolg‘izlik hissi paydo bo‘la boshlaydi. Bu hol esa vertual olamga sho‘ng‘ishga moyillikni oshiradi.

Asosiy qism. Yoshlarimiz turli mutaassib guruhlar ta‘siriga tushib qolmasligi uchun ularning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish, kasb-hunar, foydali mehnatga o‘rgatish, turli to‘garaklar faoliyatini jonlantirish, sport klublarida qulay imkoniyatlar yaratib berish muhimdir. Ayni kunda ko‘plab yoshlar bo‘sh vaqtlarini internetda, xususan, turli ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishmoqta. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plar yangi-yangi do‘stlar orttirmoqda, kimlardir uzoqdagi o‘z yaqinlari bilan muloqotda bo‘lishmoqda. Buning nimasi yomon dersiz? To‘g‘ri, go‘yo buning yomon tomoni yo‘qday. Ammo internet tarmoqlarida tarqatilayotgan turli ma‘lumotlar, reklamalar borki, ular aldov va g‘arazli maqsadlarga yo‘naltirilgan. Jumladan, jinoiy to‘dalarning yuqoridagi kabi takliflari ham borki, ana shunday aldovlarga yoshlarimiz osongina ishonib

qolmoqda. Ular tomonidan taqdim etilayotgan turli so‘rovnoma va anketalarni to‘ldirayotgan yoshlarimiz ularni kimligini bilmay, so‘rab-surishtirmasdan takliflariga rozi bo‘lishayotganligi, o‘ta tashvishlidir.

Qora niyatdagi guruhlar mutasaddilari anketaga kiritilgan ma‘lumotlar orqali jismonan sog‘lom, baquvvat, qo‘lidan ish keladigan, eng muhimi, o‘zlariga ma‘qul, berilgan topshiriqni bajara oladigan ishonuvchan yoshlarni osongina aniqlab, o‘z ta‘siriga tushirishga urinmoqda. Dunyoning turli joylarida yashirin ravishda faoliyat olib borayotgan turli oqimlar, sektalar, jinoiy guruhlar mavjudki, ular tor, ma‘naviyati zaif yoshlarni, hattoki, yoshi kattalarni ham o‘z domiga tortmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun nimalar qilishimiz kerak? Avvalo, internet tarmoqlarida diniy aqidaparastlik, terrorizm g‘oyalarini yoyish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini yoshlar ongiga singdirish, ularning turmush tarziga aylantirishga bo‘layotgan urinishlarga aslo befarq qaramasligimiz kerak. Qolaversa, yoshlarimizni yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolmasliklari, yuqoridagi kabi aldovlarga ko‘r-ko‘rona ergashmasliklari uchun ularning bilim va tafakkurini boyitish, internet ma‘lumotlaridan o‘rinli foydalana bilish ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim. Yoshlarimizda yot g‘oyalar, illatlarga qarshi ma‘naviy immunitet, tushuncha shakllanmas ekan, axborot xurujlari xavfidan aslo qutila olmaymiz.

Sir emaski, ba‘zi bir yoshlar chetdagi turli diniy oqimlarning internet orqali tarqalayotgan yolg‘on, puch va dalariga ishonib, ularning ta‘siriga tushib qolmoqda. Bu kabi holatlar har birimizni jiddiy tashvishga soladi. Shu bois ham keng jamoatchilik yot g‘oyalarni tarqatayotgan kimsalarning asl basharasi qanday, yovuz maqsadlarining asl mohiyati nimadan iborat ekanligini yoshlarimizga tushuntirishimiz kerak. Texnika asri davrida yashayapmiz, kundan-kunga texnik vositalar taraqqiylashib, ularga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, qo‘l telefonlari, turli internet tizimini bunga misol qilishimiz mumkin. To‘g‘ri, yurtimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqta. Chunki millatimiz sha‘nini, milliy g‘ururimizni yuksaltiruvchi — bu yoshlardir. Shu bois turli millat va elatlarning yoshlari kabi o‘zbek yoshlari ham dunyo bilan muloqotda bo‘lishi kerak. Bunga hech qanday to‘siq yo‘q. Lekin ayrim yoshlar berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish o‘rniga, internetdagi ko‘ngilochar o‘yinlar, tanishuvlar, yoshlar ongini zaharlovchi saytlarga kirib, u yerdagi ma‘lumotlar bilan tanishmoqtsalar. Buning oqibatida ularning dunyoqarashi bir tomonlama bo‘lib qolmoqda.

Kompyuterlar bizning hayotimiz haqiqatiga aylandi. Ular odamdan tobora ko‘proq funksiyalarni olib, ufqlarini kengaytiradilar va qaramlikni shakllantirish uchun sharoit yaratadilar. Bir tomondan, kompyuter ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilishga, uni boshqarishga yordam beradi, boshqa tomondan u misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi, bu sizga virtual makonda hech qachon boshdan kechira olmaydigan narsalarni amalga oshirishga imkon beradi. Kompyuter o‘yinlarida odam o‘zini ishonchli va kuchli his qiladi, u dunyodagi har qanday odam bilan o‘zi ixtiro qilgan shaklda muloqot qilishi mumkin. Kundalik kurashni talab qiladigan kundalik haqiqatni virtual mavjudlik va virtual muloqotga o‘zgartirish vasvasasi paydo bo‘ladi. Haqiqiy kompyuter o‘yinlari muxlislari haftasiga 30-50 soat o‘ynashga tayyor, har kuni 14-18 soatgacha o‘ynashga bag‘ishlangan. Albatta, virtual haqiqatda bunday uzoq vaqt qolish insonning holatini o‘zgartiradi.

Normadan chetga chiqadigan xatti-harakatlar har doim psixologiya, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya sohasidagi mutaxassislar, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nazorati ostida bo‘lgan. Ushbu xatti – harakatlarning maxsus kichik guruhi-bu shaxsning o‘ziga xos ijtimoiy xatti-harakatlarining buzilishidan kelib chiqyapti.

Demokratik o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, joylarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitning barqarorligini mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda mahalla institutining roli va ahamiyatini kuchaytirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari oldida turgan, shu jumladan yoshlarni ma‘rifiy, ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini tashkil etish, tabiatni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash sohasidagi vazifalarni samarali bajarishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, ijtimoiy masalalarni hal etishda mahalla institutining ahamiyati to‘g‘risida aholini, ayniqsa yoshlarni keng xabardor qilish, shuningdek eng avvalo, kamol topayotgan avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, keksalarga va aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga manzilli yordam berish, ish bilan ta‘minlash, odamlarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash va hududlarni obodonlashtirishda mahallalarning faoliyatini har tomonlama yoritish bo‘yicha tizimli ishlarni ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda tashkil etadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirish va muassasalarda psixologlar faoliyatini rivojlantirish uchun davlat organlari tomonidan zarur sharoitlar yaratish, fuqarolar

yigʻinlariga qonunchilikda berilgan vakolatlarini roʻyobga chiqarishda koʻmaklashish ishlarini tashkil etadi. Jumladan:

-har tomonlama kamol topgan, qatʻiy eʼtiqodga va qarashlarga ega boʻlgan, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish;

- yosh avlodning huquqiy savodxonligini va ijtimoiy faolligini oshirishga, shuningdek yoshlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olishga yoʻnaltirilgan ishlarni tashkil etish;

-yoshlarning ish bilan bandligi, ularni kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, shuningdek yosh oilalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash masalalarini hal qilish;

- iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalar va yoshlarni sport bilan muntazam shugʻullanishga keng jalb etish, jismoniy sogʻlom yosh avlodni shakllantirish, sport inshootlarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash va ulardan samarali foydalanish, ularni jahon standartlariga javob beradigan jihozlar va uskunalar bilan taʼminlash;

-uzluksiz taʼlim va kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etish, taʼlim jarayoniga xalqaro normalar va talablarga javob beradigan ilgʻor pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, taʼlim standartlarini joriy etish ishlarini amalga oshirish, taʼlim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ularni zamonaviy oʻquv va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash hamda shu asosda taʼlim tizimini isloh qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, uning faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish;

-madaniyat va sanʼatni rivojlantirish, milliy madaniy va maʼnaviy merosni ehtiyotlab asrash va koʻpaytirish, aholining madaniy saviyasini oshirish va uning doimiy ravishda oʻsib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini taʼminlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish, shuningdek madaniyat, bolalar musiqa va sanʼat maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularning faoliyati samaradorligini oshirishni muvofiqlashtirish va takliflar ishlab chiqish.

Xulosa. Fuqarolarimizning hushyorligini oshirishimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bekor yurmasligi, nazoratsiz qolmasligi, ularni biror foydali faoliyat bilan shugʻullanishi masalalariga doimiy eʼtibor qaratishimiz muhimdir. Xususan, bu borada keng jamoatchilik, yaʼni oila, mahalla, taʼlim muassasasi hamkorligini mustahkamlash ijobiy natijalar beradi. Yoshlarimizning oilada, mahallada, oʻzlari oʻqiyotgan maktab, litsey va kollejdagi boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, albatta, yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldini oladi. Shu maqsadda oliygohlarda “Zakovat”, “Kitobsevarlar” konkursi, sport musobaqalari, fan olimpiadalari, toʻgaraklar faoliyati tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar yoshlar ishtirokidagi jinoyat va huquqbuzarliklarning aksariyati bekor qolgan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligini koʻrsatmoqta. Shu bois ularning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratishni taqozo etadi. Axborot xurujlari kuchayib borayotgan bugungi kunda ogoh va hushyorlikni unutmaylik. Bu borada eʼtiborsizlik yoki zarur choralarni koʻrmaslik yoshlarimiz tarbiyasining izdan chiqishiga, yillar davomida tuzatib boʻlmaydigan ogʻir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini unutmashimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ келажаги фаровон бўлади. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – Б.113.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. - Учебник для вузов. – М.: Аспект-Пресс, 2001-378с.
3. Агеев В.С. Социально-психологические проблемы.–М.: МГУ, 1990. -239 с.
3. Azarova, R. I. Zamonaviy yoshlarning boʻsh vaqtlari.- М.: maktabdan tashqari ishlar. М.: 2003 yil. - 128с.
4. Akopov, A. Oʻyinga qaramlikni davolash. Psixoterapevtik qarama-qarshi stimulyatsiya usuli. 2004.- 203с.
5. Xudoyqulova G.B., Toʻrayeva Z. Kompyuter oʻyinlariga tobe oʻsmirlarni oʻrganishning oʻziga xos xususiyatlari. // “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya”. Onlayn konferensiya, 10-son.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Kusharbayev Djonibek Uralbayevich,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bo'lim boshlig'i, p.f.f.d. (PhD)

Mazkur maqolada innovatsion faoliyatning yuzaga kelish mexanizmlari, ushbu mexanizm ishlaydigan va samara beradigan shart-sharoitlari, tashqi hamda ichki muhitdan kelib tushayotgan barcha ma'lumotlar, qadriyatlar tizimi yoritib berilgan. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish masalasining pedagogik-psixologik jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, psixologik to'siq, regulyatsiya, kognitiv to'siq, innovatsion salohiyat, stereotip, tarmoq texnologiyalari.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

В данной статье освещаются механизмы возникновения инновационной деятельности, условия, при которых этот механизм работает и дает эффект, вся информация, поступающая из внешней и внутренней среды, система ценностей. Также изложены педагогико-психологические аспекты вопроса развития инновационного потенциала педагогических кадров в процессе повышения квалификации.

Ключевые слова: *инновационная деятельность, инновационная среда, психологический барьер, регуляция, когнитивный барьер, инновационный потенциал, стереотип, сетевые технологии.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE POTENTIAL OF PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

This article highlights the mechanisms of occurrence of innovative activities, the conditions under which this mechanism works and works, all information and value systems arising from its external and internal environment. Also, in the process of professional development, the pedagogic-psychological aspects of the issue of developing the innovative potential of pedagogical personnel are described.

Keywords: *innovative activity, innovative environment, psychological barrier, regulation, cognitive barrier, innovative potential, stereotype, network technologies.*

Kirish. Ma'lumki, Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim tizimi sifatiga bo'lgan talabning ortib borishi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va pedagog kadrlar innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari tadqiq etishni taqozo etadi. Innovatsion muhitning mavjud bo'lmashligi pedagog kadrlarning metodik tayyorgarligining yaxshi emasligi, ularning pedagogik yangiliklardan xabardor bo'lmashligi bilan belgilanadi. Aksincha, innovatsion muhit mavjud bo'lsa, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning yangiliklarni qabul qilmaslik foizi kamayadi, bu esa, ularda kasbiy faoliyat stereotiplarini bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari innovatsion muhit pedagog kadrlarning pedagogik innovatsiyalarga munosabatida ham o'z aksini topadi.

Innovatsion faoliyatning yuzaga kelish mexanizmlari va ushbu mexanizm ishlaydigan, samara beradigan shart-sharoitlarini tushunishimiz va bu borada tasavvurlarimiz to'laqonli bo'la olishi uchun bizda innovatsion faoliyatni amalga oshirmoqchi bo'layotgan, rejalashtirayotgan shaxs "o'z qarashlar tizimi" chegarasidan, kasbiy vazifalarni amalga oshirishning an'anaviy usullaridan, faoliyatni bajarish haqidagi tasavvurlaridan chetga chiqishi, yangi vaziyatga "ko'chishi", hech bo'lmaganda qisqa muddatga boshqa bir maydonga, nuqtai nazarga o'tishida muqarrar duch keladigan psixologik to'siqlar haqida bilimlar bo'lishi

zarur. Boshqa bir madaniyatga, nuqtai nazarga “ko‘chish” ancha mushkul vazifa. Ammo shunday vaziyatlar va sharoitlar mavjudki, ular bu “ko‘chish”lar, “o‘tish”larni ancha soddalashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. R.M.Granovskaya va Yu.S.Krijanskayaning ta’kidlashicha, “Biz har doim va har yerda: fikrlashda, xulqda, ijtimoiy hayotda – streotiplarga duch kelamiz va ularni yenga olmaymiz. Agar biz sal ochiqroq va tizginsizroq, streotiplardan ozodroq, birozgina soddaroq bo‘la olganimizda edi – muammolar anchagina kam bo‘lgan bo‘lard! Bizga ijodni boshlay bilish, hayotga nisbatan ijodiy yondashish va umuman, ijod, yaratishning barcha shakllari yetishmaydi” [8].

V.S.Slastenin va L.S.Podmova to‘laqonli hayot hissi insonda, u o‘z-o‘zini ko‘rsata bilgan vaqtdagina, ya’ni o‘z ideallarini hayotga tatbiq eta olgan, topa olgan va shu jarayonda, uning uchun alohida subektiv mazmun, ma’noga ega e’tiqodlariga, qadriyatlar tizimiga qarshi chiqmagan, ularni buzishga majbur bo‘lmagan paytdagina yuzaga kelishini ta’kidlashadi. Olimlar fikricha: qadriyatlar tizimining ortiqcha barqarorligi, harakatsizligi mutaassiblik, ishonchning psixik to‘mtashgani, qotib qolganligi sifat ko‘rinishini beradi: inson juda ko‘p narsalarni o‘zi uchun imkonsiz deb biladi va shu orqali u o‘z-o‘zini o‘zgaruvchan voqelikdan muhofazalaydi. Boshqa bir tomondan esa, haddan ortiq harakatchan, o‘zgaruvchan va beqaror qadriyatlar tizimi umumqabul qilingan me’yorlarning qadrsizlanishi (ularga befarqlik), “hamma narsaga ijozat berish” ko‘rinishida aks etadi [6].

Insonning tashqi va ichki muhitidan kelib tushayotgan barcha ma’lumotlar, qadriyatlar tizimi va to‘siqlari tomonidan kuzatib boriladi. Psixologik to‘siqlar – “shaxsning unga faol pozitsiyani egallash va muayyan faoliyat yoki muloqot turini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi, imkoniyatlarni yo‘l bermaydigan maxsus psixologik holati” [10].

A.M.Xon pedagoglar yangilikka duch kelishida uchraydigan psixologik to‘siqlarni ikkiga bo‘ladi: bilishga doir (kognitiv) va boshqarishga doir (regulyativ). Ularning fikricha, yangiga nisbatan kognitiv psixologik to‘siqlar yangi haqidagi muayyan bilimlarning yo‘qligi, yangiliklardan ta’sirlanmaslik sabab paydo bo‘ladi va sust qarshilikka uchraydi. Boshqaruvga doir psixologik to‘siqlar tashabbuskorlarga, rahbariyatga va yangilikka nisbatan ishonchsizlikda namoyon bo‘ladi va yangilikka nisbatan faol qarshilikni paydo qiladi [11].

Psixologik to‘siqlar tahliliga doir adabiyotlarda ushbu to‘siqlarni baholashning V.I.Antonyuk tomonidan ishlab chiqilgan, mantiqan muvofiqlashtirilgan baho tizimi ajratib ko‘rsatiladi. Bu tahlilda psixologik to‘siqlar innovatsiyalar tadqiq etilishi sharoitida jamoa ijtimoiy-psixologik muhitining ko‘rinish shakli sifatida talqin qilinadi [9]. Bunda xodimlarning yangilik qo‘llanilishi sabab yuzaga keluvchi salbiy: harakatlari, mulohazalari, tushunchalari, xulosalari, kutishlari va hissiy kechinmalari yashirin yo ochiq, anglangan yo anglanmagan, atayin yoki bilmasdan yuzaga kelan salbiy psixik holatlar ta’siriga uchragan jamlanma, to‘plam sifatida aks etadi.

V.I.Antonyukning ushbu tadqiqotining ko‘rsatishicha, psixologik to‘siq rivojlanib boruvchi, o‘svuchi ijtimoiy-psixologik muhit natijasi hisoblanadi, uning ko‘rsatkichlari yangilik qo‘llashning joyi va vaqti, tashkilotida, xodimlarning turfa toifalarida jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi.

Yangilik qo‘llashning bunday transformatsiyasi har bir konkret holatni chuqur tadqiq qilishni, to‘siqning ob’ektiv va sub’ektiv determinantlarini o‘rganishni, uni turli xil usullar bilan muvofiqlashtirish va boshqarish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, psixologik to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengish uchun kundalik ongning yangilikning samarali tatbiqiga jiddiy tarzda xalal berayotgan ba’zi streotiplarini yetarlicha jiddiy tarzda o‘zgartirish talab etiladi.

R.M.Granovskaya va Yu.S.Krijanskayalarning ta’kidlashicha, muayyan bir yangini va kutilmaganni baholay bilish, inson ushbu yangini qanday idrok etayotganligi, ushbu ma’lumot uning oldingi tajribalaridan qanchalik ozodligi bilan belgilanadi [8]. Muayyan bir yangini nafaqat idrok etish, balki qabul qilishni istamaslik bilan chulg‘angan o‘z olami chegaralaridan chiqqa bilish oson emas. Buning uchun alohida kuch, yoki alohida undovchi, qo‘zg‘atuvchi vaziyat talab etiladi. Ammo ushbu kechirilgan kechinmalar deyarli har doim yangi ijodiy qarorlar, xulqning yangilanishi bilan rag‘batlanadi.

Muhokama va natijalar. Psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishning birinchi strategiyasi psixologik to‘siq mavjudligini anglash, vaziyatni qabul qilish, ammo harakatsizlik bilan tavsiflanadi. Psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishning ikkinchi strategiyasi psixologik to‘siq mavjudligini anglash, vaziyatning o‘ziga xosliklarini tushunish va qabul qilish, konstruktiv harakatlarni bajarishdan tarkib topadi. Psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishdagi uchinchi strategiya – vaziyatni inkor qilish, undan yuz o‘girish va harakatsizlik. Psixologik to‘siqlarni yengib o‘tishda to‘rtinchi strategiya – vaziyatni anglash, uni qabul qilish va tushunish, ammo samarasiz (destruktiv) harakatlarni amalga oshirish.

Psixologik to‘siqlarni muvaffaqiyatli yengib o‘ta olish uchun: o‘z shaxsiy kechinmalarini to‘g‘ri tushunish va anglash, innovatsion faoliyatdagi omadsizliklarga ortiqcha urg‘u bermaslik; o‘z Men – obrazini

innovatsion faoliyat sub’ekti, egasi, sohibi sifatida qabul qilish; innovatsion faoliyat murakkabliklari, qiyinchiliklarini bo’rttirmaslik va ularni adekvat baholash; o’z imkoniyatlarini yetarlicha to’g’ri baholay olish; ta’lim jarayoni va innovatsion faoliyat ishtirokchilari bilan faol o’zaro munosabatlarga kirisha olish; o’zini idora etish va o’zini nazorat qila bilish ko’nikmalarini egallash; o’z harakatlari sababini tashqi olam, taqdiridan emas, o’z fikri, dunyoqarashi va harakatidan izlash va bunga ishonish talab etiladi.

Demak, innovatsion muhitni ana shu tarzda yaratish muhim ahamiyatga ega ta’limiy natijalarni qo’lga kiritishga yo’naltirilgan innovatsion jarayonlarni samarali amalga oshirishga imkon beradi: innovatsion g’oyalari, texnologiyalar, metodikalar, ta’lim-tarbiya metodlari, usullari va h.k.

Ma’lum bo’ladiki, mazkur shart-sharoitning mohiyati innovatsion faoliyatning barcha sub’ektlariga innovatsion muhitning ijobiy ta’sir etishiga erishish; innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun maqbul sharoit yaratish; pedagog kadrlarning turli innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga bo’lgan ehtiyojini rag’batlashda o’z ifodasini topadi.

Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmi professor-o’qituvchilarning yuqori o’quv, ilmiy-tadqiqotchilik, amaliy faolligini ta’minlaydi hamda ta’limiy, ilmiy va amaliy faoliyatni integratsiyalash imkonini berib, kasbiy tayyorgarlik mazmunini o’z vaqtida yangilab borish, shaxsiy ehtiyojlarni muntazam monitoring qilib borish hisobiga resurslarni maqsadli yo’naltirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini uch o’zaro aloqadorlikka ega tarkibiy asosga tayanmasdan amalga oshirib bo’lmaydi: tarmoq texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish; pedagog kadrlarning innovatsion faolligini rag’batlash; malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy faoliyatini jadallashtirish.

Yangi innovatsion texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish – bu mehnat bozori talablariga muvofiq kasbiy faoliyat samaradorligiga erishish, foydalaniladigan resurslarni maqbullashtirish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish maqsadida malaka oshirish kurslari va oliy ta’lim muassasalari va sub’ektlarning tashqi muhit bilan o’zaro birgalikdagi harakatini tashkil etishning barqaror shakli.

Yangi innovatsion texnologiyalari orqali hamkorlikdagi faoliyatni samarali amalga oshirish mexanizmi pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan quyidagi muhim imkoniyatlarga ega:

- ta’lim xizmatlari bozoridagi o’zgaruvchan talablarga muvofiq, ta’limiy faoliyat tuzilmasiga dinamik o’zgartirishlar kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- malaka oshirishga doir ta’limiy dasturlar ro’yxatini kengaytirish;
- individual ta’lim traektoriyasini amalga oshirish hisobiga o’qitish jarayonlarini tashkil etishning moslashuvchanligini taminlash;
- stajirovka va amaliyot o’qitish tizimini rivojlantirish hisobiga malaka oshirish jarayonlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;
- resurslardan foydalanish va integrallashgan servis xizmatlarini maqbullashtirish.

Pedagog kadrlarning innovatsion faolligini oshirish hamda ilmiy-tadqiqotchilik va amaliy faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlari o’qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo’ladi. Mazkur faoliyat natijalarining baholash reyting tizimi shaklida amalga oshadi.

Innovatsion salohiyat bunday tizim bilan, eng avvalo:

- pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik faoliyatining uzluksizligini ta’minlash;
- o’qituvchilarning hamkorlikning tarmoq shaklidagi ishtirokining xilma-xil turlarini rag’batlantirish;
- pedagog kadrlarning akademik va xalqaro darajadagi faolligini rag’batlash bilan bog’liqdir.

Pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni yuqorida qayd etib o’tilgan mexanizmlari malaka oshirish jarayonida quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Individual ta’lim traektoriyasi.

Individual ta’lim traektoriyasi malaka oshirish jarayonining muqobil shakli, turi va real tanlangan modullarni talab etadi.

2. Malaka oshirish jarayonida qo’shimcha ta’lim kursini (masalan, boshqaruv, pedagogik-psixologik va kasbiy malaka oshirishni) o’zlashtirish maqsadga muvofiq.

Malaka oshirishning mazkur shaklini amalga oshirish:

- malaka oshirish jarayonida qo’shimcha ta’lim dasturlarini joriy etish;
- kredit-reyting tizimi asosida integrallashgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi.

3. Pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish.

Yangi talablar bilan bogʻliqlikda pedagog kadrlarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga doir malaka oshirish dasturlarini loyihalashtirish bir qancha nazariy kurslarni amaliy komponentga almashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelini amalga oshirishning maxsus pedagogik shart-sharoitlarining zarurati asoslanadi. Bunga tizimli tahlil qoidalariga amal qilish orqali erishiladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish modelining pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtiriladi va ularning mohiyati ochib beriladi. Natijada, malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning yaxlit mexanizmini takomillashtirishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2019 y., 09/19/797/3793-son.

3. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 305 b.

4. Kusharbayev J.U. Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2020. – 48 b.

5. Слостёнин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003. – 192 с.

6. Слостёнин В.А., Подимова Л.С. Педагогика: Инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 224 с. – С.85.

7. Xodjayev B., Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010. – B.14-15.

8. Грановская Р.М, Крижанская Е.С. Творчество и преодоление стереотипов. – СПб.: Издательство ОМС, 1994. – 192 с.

9. Антонюк В.И. Проблема социально-психологического климата. – Москва, 2016. – 98 с.

10. Кондратьев М. Ю., Илин В. А. Азбука социального психолога-практика. – М.: ПЕР СЕ, 2007. – 464 с.

11. Хон А.М. Психологические барьеры при внедрении нововведений в школьную практику и некоторые пути их преодоления: Методические рекомендации. – Алма-Ата: АГПИ, 1996. – 88 с.

O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINI O‘RGANISH PSIXOLOGIK MUAMMOSI SIFATIDA

*Miralimov Mirjamol Yuldashevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

Ushbu maqolada o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini psixologik muammosi sifatida o‘rganilishi hamda o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishiga tayanib barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy-psixologik hamda amaliy-tarbiyaviy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta‘sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me‘yorlar asosida baholash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq, ong, ongsizlik nazariyalari, shaxsiy xususiyatlar, yoshlar tarbiyasi, mas‘ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar.

ИЗУЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У ПОДРОСТКОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье разработаны научно-психологические и практико-педагогические рекомендации, направленные на изучение формирования преступных мотивов у подростков как психологической проблемы и воспитание зрелой молодёжи на основе формирования криминальных мотивов у подростков. Также освещено изучение важных факторов (природно-биологических, социально-экономических, духовно-психологических и учебно-педагогических), влияющих на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних, их сущности и особенностей на основе воспитательно-психологических норм.

Ключевые слова: девиантное поведение, сознание, теории бессознательного, черты личности, воспитание молодёжи, ответственные родители, педагоги, общественность, гармоничная молодёжь, приоритетные задачи.

THE STUDY OF THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN ADOLESCENTS AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

This article develops scientific and psychological and practical and educational recommendations aimed at studying the formation of criminal motives in adolescents as a psychological problem, as well as at educating harmonious young people, relying on the formation of criminal motives in adolescents. It was also tried to assess their essence and characteristics on the basis of Educational-Psychological norms with the study of important factors (natural-biological, socio-economic, spiritual-psychological and educational-pedagogical) that affect the formation of criminal motives in minors.

Keywords: deviant behavior, consciousness, theories of unconsciousness, personal characteristics, youth upbringing, responsible parents, teacher-educators, public, competent youth, priorities.

Kirish. Xalqaro miqyosidagi ilm-fan va texnologiyalarning jadal takomillashuvi va buning natijasida ijtimoiy taraqqiyotning ham tubdan o‘zgarib borayotganligi sababli insongagina xos bo‘lgan ong va tafakkur vositasida shaxsning voqelik va undagi qonuniyatlar haqida fikr yuritishi, yoshlar ongida tushunchalar, hukmlar va xulosalar vujudga kelishi, insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o‘qishi va mehnat faoliyatidagi turli-tuman muammolarga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bolalar bo‘yicha AQSH Milliy komissiyasi tarqatgan ma‘lumotlarga qaraganda, - “Ko‘p holatlarda bolalar arzimagan narsalar uchun va zarurat bo‘lmasa ham oilalardan tortib olinib, ularni jinoyatchi qilib tarbiyalanayotganligi, Germaniyada yuz berayotgan jinoyatlarning teng yarmi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotganligi aytiladi. Bolalarning giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar safiga kirib qolayotgani, yoki odam organlari bilan savdo qilayotganlar qo‘liga tushib qolayotgani ham ayanchlidir. Bir qator mamlakatlarda balog‘atga yetmagan bolalar jangarilar safida qo‘liga qurol olib jang qilayotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi”. O‘smirlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda zaruriy psixoprofilaktik chora-tadbirlar belgilash mexanizmlarini aniqlashga hamda xulq-atvor masalalarini tadqiq etishga mazkur tadqiqot nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Jinoyat motivlari shakllangan voyaga yetmaganlarda ijtimoiy psixologik moslashuvni baholash va deviant xulq-atvorni tarbiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida ham tadqiqotlar olib bordik. Tadqiqotlarimizda kuzatilganidek, deviant (og‘ish, qochish, buzilish) xulq-atvor me‘yoriy harakatlarga nisbatan o‘zgargan va og‘ishga xos barqaror harakatlar shakllanganligi bilan ifodalanadi. Bunday voyaga yetmaganlar har xil normalardan qochishi, ularda o‘ziga yoki jamiyatga haqiqiy zarar yetkazish istagining paydo bo‘lishi va boshqa odamlar bilan munosabatlarining o‘ziga xosligi (mos kelmasligi) bilan farqlanib turadi. Ular jamiyatga yoki o‘z munosabatlarida kechayotgan jarayonning buzilishiga nisbatan o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini idrok qilishda ham noadekvat harakatlarga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonlik psixolog tadqiqotchilar E.G.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, A.M.Jabborov, N.S.Safoyev, Sh.R.Barotov, R.Samarov, Z.T.Nishonova, A.Fayzullayev va N.G.Kamilovalar tomonidan o‘smirlarda motiv va motivatsiya muammolari doirasida olib borilgan qator izlanishlarni kiritishimiz mumkin.

Jahon psixologiyasi fanida motivlarning yuzaga kelishi, turlari va yo‘nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, sub‘yekt faoliyatida (o‘yin, o‘qish va mehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida shakllanishi Z.Freyd, G.Ollport, A.Maslou, E.Daffi, A.Bandura, D.Berlayn, K.Pribram, Nil Miller, L.Festinger, V.Kettell, Locke, Jon Steys Adams, Edvard Loulerlar ilmiy izlanishlarida keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda xulq motivlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy-psixologik mohiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan chetda qoladi.

Maslou “Psixologiyadan borliqqa” deb nomlangan asarida, bir vaqtning o‘zida, ma‘naviy ehtiyojlar (talablar) ro‘yxatini tuzib, ularni “o‘sish motivlari” (mavjud bo‘lgan qadriyatlar) deb atagan. Biroq, u ularni ta‘riflash qiyinligini ta‘kidlaydi va hammasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda namoyon bo‘lishi va yuksalib borishini izohlaydi. Ular tarkibiga: mukammallik, yaxlitlik, adolat, to‘liqlik, hayot mazmuni, go‘zallik, oddiylik, namoyishlar boyligi, yaxshilik, haqiqat, osonlik, halollik va boshqalar kirishini aytib o‘tadi. Maslouning aytishicha, insonning yuksalishiga bo‘lgan ehtiyoj inson faoliyatining eng kuchli motivi bo‘lib, shaxsiy rivojlanish tarkibiga kiradi.

Kanadalik psixolog Viktor Broomning orzu-umidlar (kutish) nazariyasiga binoan insonni biror narsaga erishishga undovchi omillar (motivlar) unga erishishning yagona sharti emas. Inson o‘zi tanlagan xatti-harakatlari, uning o‘z ehtiyojlarini qondirishga olib keladi deb o‘ylashi kerak. Bir kishining xatti-harakati har doim ikkita yoki undan ortiq variantni tanlash bilan bog‘liq. Va nima qilgani va qanday qilganligi u tanlagan narsasiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, “Broom” nazariyasiga ko‘ra, motivatsiya odamning qanchalik istashiga va uning qanchalik imkoni borligiga, u buning uchun qanchalik ko‘p harakat qilishga tayyorligiga bog‘liq.

Broomning orzu-umidlar (kutish) nazariyasi va uni ishlatish amalda juda yaxshi natijaga ega. U tashkilotlarda ishchilarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va turli darajadagi menejerlar faoliyati uchun juda foydalidir.

Amerikalik psixolog Jon Steys Adamsning tenglik (adolat) nazariyasida, inson motivatsiya samaradorligini ba‘zi bir omillar bilan emas, balki boshqa sharoitlarda bo‘lgan boshqa odamlar tomonidan olingan hisob-kitoblarni va natijalarni hisobga olgan holda baholaydi. Ya‘ni motivatsiya insonning ehtiyojlari nuqtayi nazaridan emas, balki uni boshqalar bilan taqqoslash asosida ko‘rib chiqiladi. Bunda sub‘yektiv baholardan bahramandlik ya‘ni, odamlar o‘zlarining sa‘y-harakatlari natijalari bilan atrofdagi kishilarning sa‘y-harakatlari va ularning natijalari bilan o‘zaro taqqoslashadi. Va bu yerda uchta variantda tenglik (adolat): yetarli baholanmaganlik, adolatli baho, ortiqcha baholashda namoyon bo‘ladi.

Maslouning olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko‘ra, har bir inson uchun eng muhim ehtiyojlar ro‘yxatini tuzish kerak. Shundan keyin, ehtiyojlar piramidasi bo‘yicha ehtiyojlarni guruhlariga bo‘lish va birinchi navbatda qanday ehtiyojlarni qondirish mumkinligini aniqlashga harakat qilish lozim. Natijada, o‘sha odam xulqini va boshqa o‘rganilayotgan odamlarning xulq-atvorida qanday ehtiyoj darajasining ustunligini aniqlash mumkin.

Qizig‘i shundaki, Abraxam Maslouning e‘tirof etishicha, “o‘zini-o‘zi ifodalash (namoyon qilish) bosqichi” barcha odamlarning atigi 2 foizini tashkil etadi. O‘z ehtiyojlaringizni hayotda erishgan natijalaringiz bilan uyg‘unlashtiring (solishtirsangiz) va siz ushbu toifadagi insonlardan biri ekanligingizni yoki emasligingizni bilib olasiz, degan xulosaga keladi.

Tahlil va natijalar. Shaxs psixologiyasi muammolarini, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi.

1. Motivlar o‘zini hosil qilgan ehtiyojlar bilan farqlanadi. Shuning uchun, ularni boshlang‘ich-organik va ma‘naviy-yuksak motivlarga ajratish mumkin. Maqsadlar esa, A.Maslouning “piramidasi”ga ko‘ra, ehtiyojlarning mavjud tasniflariga qarab ham turlarga bo‘linishi mumkin.

2. Motivlar ehtiyoj obyektini aks ettirish shakli bilan ham ajralib turadi.

3. Ehtiyojlarni qondirish muddatiga qarab ham motivlar farqlanadi. Amaldagi vaqtga ko‘ra - qisqa muddatli va uzoq muddatli motivlar, keng va tor doiraga xos motivlar bo‘lishi mumkin.

4. Maqsadning ongda ishtirok etish darajasiga qarab ham motivlar - ongli va ongsiz, tushunarli va chindan ham samarali bo‘lishi mumkin.

A.F.Lazurskiy psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlarini tadqiq etish bilan bog‘liq ilmiy faoliyatida motivlar masalasiga alohida e‘tibor bilan yondashadi. Buning uchun muallif o‘z izlanishlarida “mayllar va xohishlar kuchi hamda zaifligi”, “motivlar kurashiga moyillik”, “motivlar muhokamasiga tortilganligi”, “xohishning qadriyatga ega ekanligi, aniq xususiyatliliigi” singari kontekstlar orqali o‘rganishga va ularning psixologik talqiniga keng o‘rin ajratadi. Muallif o‘zining izlanish dasturida shaxsga ijtimoiy nuqtayi nazardan yondashishga asoslangan fikrga ega bo‘ladi.

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo‘zg‘atuvchilar (qo‘zg‘ovchilar)ni turli bosqichlarda o‘zaro murakkab bog‘liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta’kidlaydi.

Motiv va motivatsiya tuzilishini genetik bosqichda tarkib topish ehtimolini tahlil qilish natijasida ularning sodda bir bosqichli tizimlardan murakkab va ko‘p bosqichli yuksak darajaga o‘tib o‘tish jarayonini ishonchli omillar yordamida yaqqol ko‘rsatib beradi. Ularning dinamik va ma’naviy tomonlari uyg‘un rivojlanish prinsipiga asoslanishi e‘tirof etilgan. Motiv va motivatsiya tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e‘tiborni ularning mazmuniy jihatini alohida ko‘rsatishga, ma’naviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga qaratiladi.

N.A.Bernshteyn "Kelajak modeli" nazariyasini yaratadi. Ushbu konsepsiyaga qaraganda, "Kelajak modeli" mana bunday bosqichlardan tashkil topganligi ta’kidlab o‘tiladi:

- 1) holat va vaziyatni (situatsiyani) baholash;
- 2) vaziyat (situatsiya) qanday bo‘lishini aniqlash;
- 3) vaziyatni aniqlab nima qilmoq kerakligini bilish;
- 4) shundan so‘ng, qanday tarzda harakat qilmoq lozim.

N.A.Bernshteyn "Kelajak ekstrapolyasiyasi" degan muammo yechimini topishga ham harakat qiladi. Bu bilan muallif motivatsiyaning biologik mexanizmlariga tayanib insonning yuksak darajada rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini tushuntirib berishga muvaffaq bo‘lgan.

E.G‘.G‘oziyevning motiv va motivatsiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha alohida xizmatlari yana shundaki, jahon psixologiyasi fanining nazariy mushohadalariga va o‘zining shaxsiy ilmiy pozitsiyasiga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratish, shu nuqtayi nazardan muammolarni o‘rganish maqsadga muvofiqligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

I. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o‘lchanuvchi motivlar:

dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo‘lgan g‘oyaviy motivlar;

ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy motivlar;

jamiyatning axloqiy normalari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;

borliq go‘zalligiga nisbatan ehtiyojlarda in‘ikos etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo‘yicha umumiylikka ega bo‘lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatli motivlar:

keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylilik, alturistik);

guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;

faoliyat tuzilishi, mohiyati va tizimiga yo‘naltirilgan prosessual motivlar;

faoliyat mahsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo‘ljallangan rag‘bat, mukofot motivlari.

III. Faoliyat turlari mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi motivlar:

ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;

kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o‘zida namoyon etuvchi motivlar;

o‘qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

IV. Paydo bo‘lish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylikka ega bo‘lgan motivlar:

doimiy, uzluksiz, longityud xususiyatli motivlar;

qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;

uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti-harakatlarni talab etuvchi motivlar.

V. Vujudga kelishi, kechishi sur‘ati bioquvvat bilan o‘lchanuvchi motivlar:

kuchli, qudratli, ta’sir doirasiga ko‘ra shijoatli motivlar;

paydo bo‘lishi, kechishi o‘rta sur‘atli motivlar;
yuzaga kelishi, kechishi zaif, bo‘sh, kuchsiz, beqaror motivlar.

VI. Faoliyatda, muomalada va xatti-harakatda vujudga kelish xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

aniq, yaqqol, voqe bo‘luvchi real motivlar;
zarurat, yuksak talab va ehtiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;
imkoniyat (potensiya), zaxira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi motivlar.

VII. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtayi nazardan iyerarxiya vujudga keltiruvchi motivlar.

biologik motivlar;
psixologik motivlar;
yuksak psixologik motivlar.

Motiv va motivatsiya (motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar) keng ma‘noda xulq — atvor determinatsiyasi sifatida belgilanishiga qaramay, ko‘pgina tadqiqotchilar ularni juda tor ma‘noda tadqiq qilib, ilmiy jihatdan tekshirganlarini ham ko‘rish mumkin. Ular motiv va motivatsiyani energetik, manba sifatida yoki ma‘naviy tomonlarini o‘zaro solishtirib, ularni tub ma‘nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilganlar, moddiy va ma‘naviy jabhalarni hisobga olmay turib tushuntirishga intiladilar.

Nazariy va amaliy ma‘lumotlarga asoslanib, ilk bolalik davridagi individning xulq-atvori, birinchidan, impulsivlik bilan, ikkinchidan, vujudga kelgan vaziyat xususiyati bilan tavsiflanadi. Shaxsni boshlang‘ich genetik qobig‘ida shakllanish pallasidagi motivining dinamik asosi - xatti-harakati qo‘zg‘alishini muvaqqat, tor muhitidan tashkil topadi. Chunki bola hali motivlashgan ustanovkalarni uzoq vaqt ushlab tura olmasligi sababli u tez yo‘qoladi. Muhim ahamiyat kasb etuvchi qo‘zg‘alishlarda bola chalg‘isa, demak, ularni u tezda esdan chiqaradi. Ehtiyoj qondirilishida, affektiv reaksiyalarda, chalg‘ish jarayonida qo‘zg‘alish berilgan vaqt doirasidan chetlashadi.

Bolaning intellektual darajasi va bilimlarning yetarli emasligi oqibatida kichik bir amaliy tajriba yaqqol amaliy faoliyat muhitini siqib chiqarishi mumkin. Bola biron-bir ob‘yektga yo‘naltirilgan faoliyatni, uni boshqarishni yuksak funksional-energetik bosqichida motivlarni o‘z holicha uzoq vaqt saqlab yurish imkoniyatiga ega emas.

E.G‘.G‘oziyev va mamlakatimizdagi boshqa psixolog olimlarning motiv va motivatsiya haqidagi ilmiy qarashlari insonning psixik taraqqiyotini, intilishini, yo‘nalganligini va uning tabiatga, jamiyatga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini psixologik mohiyatini hamda zarur qonuniyatlarini yoritishda muayyan darajada metodologik osos sifatida xizmat qiladi.

Jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishida asosiy rolni motivga xos ehtiyojlar bajaradi. Inson ehtiyojlari biror-bir narsaga (moddiy yoki ma‘naviy) bo‘lgan ehtiyojni aks ettirishi bilan tashqi dunyoga qaramligini (tobeligini) namoyon qiladi.

Zamonaviy psixologiya fanining asoslashiga ko‘ra, hozirgi odamlarning ehtiyojlari xilma-xildir. Ana shu ehtiyojlarni tavsiflashda uchta asosiy guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Ijtimoiylashgan organik (fiziologik) ehtiyojlar (o‘zini saqlab qolish, takror ishlab chiqarish va h.k);
2. Moddiy ehtiyojlar;

3. Ijtimoiy ehtiyojlar - ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali bilim va tajriba egallash, ijtimoiy mavqega erishish, tan olinish, o‘zini-o‘zi tasdiqlash, ijodkorlik, hayotning mazmuni va boshqalar.

Ehtiyojlarni qondirish jarayoni davomiylikni yoki uzoq vaqtni talab qilmaydi. Agar uzoq vaqt talab etilsa, u yo‘q bo‘lib ketadi. Chunki psixofizologik qonuniyatlarga ko‘ra, to‘sib qo‘yilgan ehtiyoj insonda asta-sekin o‘jarlik va agressivlikni hosil qiladi, natijada, odamda tajovuzkorlik yoki agressivlik xulq-atvor shakllanadi. Agar ushbu ehtiyojni qondirishning tabiiy yoki qonuniy kafoloti biron-bir sababga ko‘ra imkonsiz (yetarli sharoit bo‘lmaganda) bo‘lsa, uni qondirish xayoliy (yomon, buzuq) yoki intasional shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Oqibatda, bunday odamlar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalar, o‘zaro munosabatlardagi me‘yorlar, umum e‘tirof etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarini bilmasligi, anglab yetmasligi yoki e‘tiborsizligi bilan buzishi oqibatida jinoyat hosil qiladilar.

Keyingi yillarda shu sohani o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, jinoiy xatti-harakatlarni hosil qiluvchi antisosial harakatlarning quyidagi motivlarini (sabablarini) farqlash mumkin:

1. O‘zini-o‘zi tasdiqlash yoki o‘zini-o‘zi namoyon qilish (ijtimoiy maqomga erishish) motivlari.
2. Mudofaa (o‘zini himoyalash) motivlari.
3. Almashinuvchi yoki o‘zgaruvchi motivlar.
4. O‘yin motivlari.

5. O‘zini-o‘zi oqlashga yo‘naltirilgan (ongli va ongsiz tarzda yuzaga keluvchi) motivlar

O‘zini-o‘zi tasdiqlash (ijtimoiy maqomga erishish) zarurati inson xatti-harakatlarining keng doirasini rag‘batlantiradigan eng muhim motivlardir. Odamlar ko‘pincha, o‘z shaxsining ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual darajalarda e‘tibor qozonish va o‘rin topish istagida o‘zini namoyon qiladilar.

Ijtimoiy darajada shaxsning o‘zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e‘tiboriga erishish) ijtimoiy mavqega ega bo‘lishga intilish ya‘ni professional yoki ijtimoiy faoliyat sohasida shaxsni tan olish bilan bog‘liq aniq ijtimoiy rolni bajarishga erishish demakdir. Ijtimoiy-psixologik darajadagi tan olinish (hurmat-e‘tibor qozonish), shaxsiy maqomga ega bo‘lish motivi (orzu), ya‘ni u a‘zo bo‘lgan guruhlar: oilada, bir xil ma‘lumotlilar o‘rtasida, kasbiy yoki faoliyat bilan bog‘liq guruh hamda jamoalarda (do‘stlar, hamkasblar va boshqalar) darajasida shaxsni muhim ichki doiradan tan olinishga erishish motivi (istagi) bilan bog‘liq. Ba‘zida, bu guruhga qo‘shilishni orzu qilgan biroq, ular bilan aloqa qila olmaydigan kishilar ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda jinoyat shu kabi guruhga kirish usulini e‘tirof etishga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu usuldan foydalanishga intilish yoshlar uchun eng xos xususiyatdir.

Insonning individual darajada o‘zini-o‘zi tan olishi (o‘zini-o‘zi himoya qilishi), yuksak e‘tirofga ega deb baholashi, o‘zini-o‘zi hurmat qilishi va o‘zini-o‘zi qadrlashni kuchaytirish (istagi) motivi bilan bog‘liq. Bunda har qanday psixik kamchiliklarni, zaifliklarni yengishga yordam beradigan va ayni paytda shaxsni kuchli tomonlarini namoyon qiladigan bunday harakatlarni amalga oshirish orqali erishiladi. Ko‘pincha, bunday o‘zini-o‘zi tasdiqlashga xos tasavvurlar shaxsda befarqlik bilan amalga oshirilganligi uchun ularda befarqlikni, o‘zini tobora mustaqil his qilishga olib keladi. Bunday shaxslarda go‘yoki o‘zini namoyon qilishni yo‘qotish ular uchun hayot fojiasini anglatadi.

Xulosa. Shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivatsiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik jihatdan uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

2. Зеер Э.Ф. Саморегулируемое учение как психолого-дидактическая технология формирования компетенции у обучаемых // Психологическая наука и образование. 2014. № 3. С. 5 – 40.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. - 6 (766)-son.

4. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma‘naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.

5. Rutter M. Stress, coping and development: Some issues and some questions // Journal of child Psychology and Psychiatry. - 1991.-V, 22.-N 4.-P. 323-356.

6. Петровская Л.А. Компетентность в общении. Социально психологический тренинг / Л.А. Петровская – М.: Изд.-во МГУ, 2016. – 216 с.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASH STRATEGIYALARI

*Dilova Nargiza Gaybullayevna,
Buxoro davlat universiteti professori, p.f.d. (DSc)*

Maqolada Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari, bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmasini tarkib toptirishning dolzarbligi, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash jarayonini belgilovchi qonuniyatlar, bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ulardagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarni rivojlanishiga erishish, ularni baholash mezonlari haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *bilim, ko‘nikma, malaka, davlat talablari, kompetensiyalar, sharq mutafakkirlari, shaxslararo munosabat, o‘qitish shakllari, innovatsion usullar, baholash mezonlari, muloqot qilish ko‘nikmalari, o‘zaro hamkorlik, ta’lim sifati, hayotiy ko‘nikmalar.*

СТРАТЕГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МЕЖЛИЧНОСТНЫМ ОТНОШЕНИЯМ ПОСРЕДСТВОМ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

В статье представлены стратегии подготовки будущих учителей к межличностным отношениям посредством наследия восточных мыслителей, актуальность формирования у будущих учителей умения вступать в межличностные отношения, педагогические возможности подготовки будущих учителей к межличностным отношениям посредством наследия восточных мыслителей, закономерности, определяющие процесс подготовки будущих учителей к межличностным отношениям знания, навыки в них при подготовке к отношениям, даны рекомендации по достижению развития навыков и компетенций, критериям их оценки.

Ключевые слова: *знания, умения, навыки, государственные требования, компетенции, восточные мыслители, межличностные отношения, формы обучения, инновационные методы, критерии оценки, коммуникативные навыки, взаимодействие, качество образования, жизненные навыки.*

STRATEGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR INTERPERSONAL RELATIONSHIPS THROUGH THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS

In the article, strategies for preparing future teachers for interpersonal relationships through the legacy of Eastern thinkers, the relevance of structuring the ability to engage in interpersonal relationships in future teachers, pedagogical opportunities for preparing future teachers for interpersonal relationships through the legacy of Eastern thinkers, laws that determine the process of preparing future teachers for interpersonal relationships, knowledge, skills in, recommendations are given on the criteria for achieving the development of qualifications and competencies, their assessment.

Keywords: *knowledge, skills, qualifications, state requirements, competencies, Eastern thinkers, interpersonal skills, forms of training, innovative methods, evaluation criteria, communication skills, interaction, quality of education, life skills.*

Mavzuning dolzarbligi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta’lim-tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylik odobi, madaniyati, muloqoti, muomalasi masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Zero, yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilab berishi, shu sabab ularni ijobiy sifatlar bilan qurollantirish muhimligi uchun ham mutafakkirlar asrlar davomida ushbu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqish o‘z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarda shaxsiy hamda kasbiy sifatlarini shakllantirish, ularda pedagogik kompetentlik, pedagogik muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatga innovatsion, kreativ tayyorlash masalalari Sh.Abdullayeva, A.R.Adizov, U.Aleuov, X.Aliqulov, A.Zunnunov, X.Ibragimov, G.Izbulloeva, N.Masharipova, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Pazilova, S.Rajabov, F.Rasulova, M.Salayeva, Z.T.Saliyeva,

R.G.Safarova, A.Sohibov, M.Xayrullayev, H.Hamidov, O.Hasanboyeva, J.Hasanboyev, S.Hasanov, I.Xusanxo‘jayev, K.Xoshimov, M.Quronovlar tomonidan amalga oshirilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida Yu.N.Alekserov, V.Bartold, Ye.E.Bertels, A.N.Boldirev, V.A.Gordlevskiy, D.A.Knish, V.N.Ternovskiy kabi sharqshunos olimlar mutafakkirlarning ilmiy merosini o‘rgangan. I.N.Andreyeva, Z.I.Vasileva, E.N.Gusinskiy, A.N.Djurinskiy, G.M.Kodjaspirova, A.I.Piskunova, V.G.Trosyanlar ta‘lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlar, o‘zaro hamkorlik, o‘qituvchi kasbiy mahoratining ahamiyatini asoslashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Xorijiy olimlar K.A.Dridger, I.G.Pestalotssi, M.A.Jo‘shon, Eyji Mano, Magida Mahluf, K.Yilmaz, Dj.S.Trimengem, J.Sarton, Frederik Starr, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Vilfrid de Graaf va Masataka Takeshita Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta‘limotlarini o‘rganish va ulardan ta‘lim tizimida foydalanishga oid tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Mazkur tadqiqotlarda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi turli kontekstda tahlil qilingan[1].

Asosiy qism. Bizning mazkur tadqiqotimizda esa, bugungi kun talablari nuqtai nazaridan mavzuga yondashib, konstruktivlik, hamkorlik, integratsiya, refleksiya, ehtiyojlarga asoslangan trening kabi pedagogik yondashuvlar asosida talabalar bilim olish va uni tushunish jarayonida faol bo‘lishlarini ta‘minlash, birgalikda o‘rganadigan va muammoni hal qilish, strategiyalar, g‘oyalarni ishlab chiqish, mahsulot yaratish, vazifani bajarish uchun ishlaydigan talabalar guruhlarini tarkib toptirish, barcha talabalar faoliyatini tahlil qilish, g‘oyalar o‘rganiladigan madaniyatni yaratish, bahsli, takomillashtirilgan va sayqallangan ta‘lim jarayonlarini tashkil etishga erishishni nazarda tutdik[2].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorgarlik strategiyalari o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradigan turli yondashuv va usullarni, bir qancha jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari o‘quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam berish uchun muhim hisoblanib, bunda o‘z-o‘zini anglash, empatiya, muloqot qilish, mentorlik va qo‘llab-quvvatlash kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar o‘z oquvchilari bilan ilmiy-ijodiy, sog‘lom, innovatsion ta‘lim muhitini yaratib, ularning sifatli bilim olishlarini ta‘minlaydilar. Tadqiqotimiz natijasida ta‘lim-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlarga quyidagi mualliflik ta‘rifini berishni lozim topdik.


Shaxslararo munosabatlar bu – insonning shaxsiy va akademik hayoti davomida uning ijtimoiy, hissiy va psixologik farovonligini ta‘minlash hamda yuksak martabalarga erishishida yordam beradigan, milliy qadriyatlar, o‘zaro ishonch, hurmat, bir-birini qo‘lab-quvvatlash, tushunishga asoslangan ijobiy va samarali muloqotni kafolatlovchi hayotiy ko‘nikmalarga egalikni anglatuvchi tushunchadir¹.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning o‘z-o‘zini anglash va ongga e‘tibor qaratish;

jamiyatda muvozanatli yashashimiz uchun kerak bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

empatiya va rahm-shafqatga e‘tibor qaratish: o‘zaro bog‘liqlikni tushunish; tana, ong va ruhning integratsiyasi;


axloqiy tamoyillarga e‘tibor qaratish kabi bir qancha pedagogik imkoniyatlari mavjud (1-rasmga qarang) bolib, ular faoliyat davomida bir-birini to‘ldirib turadi.[3]



1-rasm. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari

¹ Mualliflik yondashuvi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari ta‘lim jarayonini belgilovchi o‘ziga xos quyidagi qonuniyatlarga tayangan holda ta‘minlanadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash jarayonini belgilovchi qonuniyatlar

Demak, samarali muloqot, madaniy xabardorlik, nizolarni hal qilish, o‘z-o‘zini anglash, professionallik va doimiy takomillashtirish kabi qonuniyatlarga rioya qilish va ularni ta‘minlashni kafolatlash bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda muhim ko‘rsatgich sanaladi. Mazkur tavsiyalardan foydalanish orqali talabalarda tarkib toptiriladigan shaxslararo ko‘nikmalar nafaqat ularning akademik hayotida, balki kasbiy faoliyatlarining barcha bosqichlarida, hatto, ularning ma‘lum bir martabaga erishganlarida ham yordam beradi. Ta‘lim olish jarayonida talabalarda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishilsa, bu ularning hayotdagi xatti-harakatlarining bir qismiga aylanib qoladi[4].

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlik darajasini belgilovchi o‘ziga xos mezonlar mavjud bo‘lib, ushbu mezonlar ularning kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mezonlar: muloqot qilish va notiqlik san‘atiga egalik, empatiya va e‘tiborlilik, sohaga oid yangiliklardan ma‘naviy-madaniy xabardorlik; yuzaga kelgan muammo va mojarolarni o‘z vatida hal qilish; o‘z-o‘zini anglash, tarbiyalash; kuzatish va baholash; yuqori darajadagi professionallikni namoyish eta olish; tajribasi bilan bo‘lisha olish; suhbatdoshini tihglash va tushunish; egallagan bilimlarini namoyish eta olish; innovatsion g‘oyalar yaratish, jamoani boshqara olish va o‘z ortidan yetaklay olish; o‘quvchining ma‘naviy ehtiyojlarini ta‘minlay olish; bilimlarni shakllantirishda shaxsning faol ishtirokini ta‘minlay olish; qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yarata olish; bilimlarni amalda qo‘llashda hayot bilan bog‘lash; aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda mehnat tarbiyasiga e‘tibor qarata olish; shaxsiy namuna bo‘lish kabi qobiliyat va sifatlarga egalik darajasi bilan aniqlanadi.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun biz, har bir talabaning didaktik jarayonining maqsadi va vazifalarini chuqur anglashi va idrok etishiga harakat qildik.

Talabalarining didaktik loyihalashga oid bilim va tajribalarini rivojlantirish maqsadida didaktik o‘yinlar hamda o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlovchi “Guruhlarda ishlash”, “Loyiha metodi”, “Seminar”, “Evristik Play Way” kabi o‘qitish usullari mazmuniga singdirilgan “Idrok xaritasi”, “Ishonch”, “Buzuq telefon”, “Ajoyib matn”, “Insert”, “Sinkveyn”, “Organayzerlar”, “Taqqimot”, “Osmono‘par bino”, “Aktivator-3-2-1”, “Case-study” usullaridan foydalanib, shaxslararo munosabatlarga kirishishga yo‘naltirilgan vaziyatlarni vujudga keltirish orqali bir qator didaktik vazifalarni yechishga muvaffaq bo‘ldik.

Natijada, o‘quv xonasida yuzaga kelgan sog‘lom innovatsion muhit asosida talabalarda kasbiy bilimlarni o‘zaro hamkorlik asosida egallashga bo‘lgan intilish rivojlanib, ularda shaxslararo munosabatga kirishish ishtiyoqi kuchaydi hamda talabalarda akmeologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik mahoratga egalik;

o‘quvchilarni yuqori darajadagi fikrlashga undash va ular o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish;

sharq mutafakkirlari merosi va xorijiy tajribalardan integrativ foydalanish asosida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish kabi ko‘nikmalar bosqichma-bosqich tarkib toptirilishiga imkoniyat yaratilganligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz natijasida, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyasiga mualliflik yondashuviga asoslangan ta‘rif berishni lozim topdik[5].

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyasi bu – milliy qadriyatlarga asoslangan insonning shaxsiy va akademik kamolotini

ta'minlashda nostandart ta'lim yondashuvlarining mazmunini belgilovchi tamoyillar, qonuniyatlar, o'qitish usullari va mezonlarini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim-tarbiya berish boshqaruvini bosqichma-bosqich to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'atidir². Demak, bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarni tarkib topshirish strategiyasi pedagogik-psixologik omillar, tamoyillar, egallanishi kerak bo'lgan ko'nikma hamda shaxsiy va kasbiy sifat darajalarining baholanish ko'rsatgichlari mazmunining uyg'unlashuviga asoslanadi[7].

Tadqiqotimiz natijasida, “Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarini ta'minlovchi pedagogik jarayon modeli” maqsadli, metodologik, tashkiliy va baholash jarayonlari bloklarining tarkibiga kiritilgan sharqona ta'lim-tarbiya berish talablari asosida takomillashtirildi.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalariga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasini statistik tahlil asosida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Tadqiqot konsepsiyasining to'g'riligi va natijalarni ommalashtirish darajasi shuni ko'rsatmoqdaki, biz ilgari surgan hamkorlik, konstruktivlik, ta'lim integratsiyasi, refleksiv yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarga tayyorlash tizimining samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlarini matematik statistik tahlil qildik. Biz bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda ularda – samarali muloqotga kirishish, o'zaro tushunish, hamkorlik qila olish, empatiya, ma'naviy-madaniy xabardorlik, o'z-o'zini anglash, bilimlarini namoyish eta olish, innovatsion g'oyalar yaratish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini egallaganliklarini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.[7] Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda: bilimlarga asoslangan jamiyatda shaxsiy va kasbiy kompetentlikka, akmeologik yondashuvlarga asoslangan pedagogik mahoratga egalik, o'z o'quvchilarini sog'lom fikrlashga, do'stona munosabatlarga, o'z-o'zini baholashga, innovatsion ta'lim muhitida ijodiy faoliyat yuritishga, muammolarni hal etishda nostandart yechimlarni izlab topishga, faol shaxsiy ijtimoiy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga o'rgatish kabi shaxslararo munosabatlarga kirishish ko'nikmalari rivojlantirildi.

Xulosa. O'zbekiston qadimdan ilmu ma'rifat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lib kelgan. Shu bois, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo'shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e'tirof etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muhim ijtimoiy pedagogik zaruriyat hisoblanib, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish hamda natijadorlikni ta'minlash bilan birga ayrim hollarda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.[8] Bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash, asosan, ta'limning sifatiga yordam berishi bilan birga o'zaro insoniylik muhitining qaror topishiga yaxshi xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga ta'lim berishda, o'quv amaliyotida o'quvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchi o'z o'quvchilarining turmush tarzi, oilasi va ularning manfaatlarini qo'llash bo'yicha tashqi munosabatlarga umidvorlik bag'ishlaydi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalarining samaradorligini asoslash imkonini berib, tanlangan didaktik vositalarning tizimli tarzda taqdim etilishi va o'quv-tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilishi zarurligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan mezonlar va strategiyalar Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash natijasida o'quvchilar bilan o'qituvchi orasida o'zaro hamkorlik va hurmatga asoslangan do'stona munosabatlar, muloqot, ishchanlik ruhining ustuvor bo'lishiga erishish imkonini berishini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining pedagogik xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2018. – 3-son. – B. 63-68.
2. Dilova N.G. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zaro ijodiy o'quv faoliyatini shakllantirishda shaxslararo munosabat // Pedagogika. – Toshkent, 2018. – 4-son. – B. 54-60.
3. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta'lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning pedagogik xususiyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar: Xalqaro jurnal. – Buxoro, 2022. – 2-son. – B. 356-363.

² Mualliflik yondashuvi.

4. Dilova N.G. Uzluksiz ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shartlari // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2023. – 1-son. – B. 35-40.
5. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida // Pedagogik akmeologiya. – Buxoro, 2023. – 1-son. – B. 45-49.
6. Dilova N.G. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi va uning pedagogik mazmuni // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2023. – 1-son. – B. 130-134.
7. Dilova N.G. Uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatni shakllantirishning tarixiy taraqqiyoti // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – 6-son. – B. 41-44.
8. Дилова Н.Г. Психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям // Педагогик маҳорат. – Бухоро, 2022. – 3-сон. – Б. 75-77.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI ZAMONAVIY DASTURLAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI VA FUNKSIYALARI

Igilikov Aybek Jarilqasinovich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti assistent o'qituvchi

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga zamin yaratadi. O'qitishning didaktik ta'minotini kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi. Ushbu ilmiy-nazariy, tahliliy maqolada zamonaviy dasturlar yordamida, kreativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mazmuni va funksiyalari haqidagi fikrlar bayon etilgan. Maqolada zamonaviy metodik yondashuv sifatida kreativlik jihatiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: didaktik ta'minot, xususiy metodika, o'qitish usullari, o'quv materiallari, o'qitish tamoyillar, kreativlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, simulyator.

СОДЕРЖАНИЕ И ФУНКЦИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПРОГРАММ

Обладание творческими качествами педагога создаёт основу для качественной и эффективной организации его личных способностей и профессиональной деятельности. Организация дидактического обеспечения обучения на основе творческого подхода гарантирует эффективность учебного процесса. В данной научно-теоретической аналитической статье описаны содержание и функции создания дидактического обеспечения обучения на основе творческого подхода с помощью современных программ. В статье творчество рассматривается как современный методический подход.

Ключевые слова: дидактическое обеспечение, специальная методика, методы обучения, учебные материалы, принципы обучения, информационно-коммуникационные технологии, творчество, педагогические программные средства.

THE CONTENT AND FUNCTIONS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASE OF MODERN PROGRAMS

Possessing creative qualities of a teacher creates a basis for high-quality and effective organization of his personal abilities and professional activities. Organization of didactic support of teaching based on a creative approach guarantees the effectiveness of the teaching process. This scientific-theoretical, analytical article describes the content and functions of creating didactic support for teaching based on a creative approach with the help of modern programs. The article emphasizes creativity as a modern methodical approach.

Keywords: didactic support, special methodology, teaching methods, teaching materials, teaching principles, information and communication technologies, creativity, pedagogical software tools, simulator.

Kirish. Rasmiy ta'limning birlamchi asosi dars hisoblanadi. Dars, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan: ta'lim-tarbiya beruvchi; ta'lim-tarbiya oluvchi; dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar, o'qitishning texnik vositalari. O'qitish samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish talabalarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshiradi [1].

Adabiyotlar sharhi. Kreativ o'zi nima? Creato lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik ma'nolarini anglatadi. Bir qarashda ta'lim jarayonini kreativ g'oyalar asosida tashkil etish o'quv dasturida belgilangan talablardan chetga chiqishdek tasavvur qoldiradi. Biroq, kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud Davlat ta'lim standartlari (DTS) ga moslashtirish, qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan ta'lim mazmunini shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi [2]:

- umumiy nazariy bosqich;
- o‘quv bosqichi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. O‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichida ta‘lim mazmunining o‘quv modul (fan)lari bo‘yicha yaratilgan DTS, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi kabi me‘yoriy hujjatlar, shuningdek, o‘quv manbalari (darslik, o‘quv va metodik qo‘llanma, Ta‘lim mazmuni quyidagi davlat ta‘lim standarti, o‘quv rejalarini mazmunida namoyon bo‘ladi.

Davlat ta‘lim standartlari – umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan me‘yoriy hujjat. O‘quv rejasi me‘yoriy hujjat bo‘lib, unda har bir o‘quv predmetning mazmuni ochib beriladi va o‘quv yili davomida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ko‘rsatib beriladi. Ta‘lim mazmuni o‘quv dasturlarida yanada batafsil yoritiladi.

O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqt, muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me‘yoriy hujjat. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning talabalar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyati va samaradorligini belgilovchi mezonlar sanaladi.

Pedagoglarda ham kreativlik sifatlarining to‘laqonli namoyon bo‘lishi o‘quv dasturlari bilan ishlashda ham ko‘zga tashlanadi.

Mualliflik o‘quv dasturlari:

1) talabalarining ehtiyoji, qiziqishi, xohishistaklarini inobatga olgan holda o‘quv moduli (fani) doirasida muayyan mavzu (masala)ni chuqur o‘rganish yoki ma‘lum muammoning yechimini topishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturi;

2) o‘quv dasturlarining bir turi [5].

Bu turdagi dasturlar ham DTS talablarini hisobga olgan holda o‘quv fani qurilishining o‘zgacha shaklda bo‘lishi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan muallif nuqtayi nazarining aks etishi bilan boshqa o‘quv dasturlaridan farqlanadi. Bu turdagi dasturlar tegishli fan sohasi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi taqrizlariga ega bo‘lishi va ta‘lim muassasalarining pedagogik kengashlari tomonidan tasdiqlanishi zarur. Mualliflik o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda pedagog erkin, mustaqil ravisha o‘zining kreativlik layoqatini to‘la namoyon etish imkoniyatiga ega. Odatda mualliflik o‘quv dasturlari talabalarining erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy yoki maxsus) kurslar tashkil etishda, to‘garaklar, ilmiy jamiyatlar, «Fan klublari», texnik va badiiy ijodiyot markazlari faoliyatida samarali qo‘llaniladi. Qolaversa, o‘quv fanining mazmunini shakllantirishda har bir pedagog 15 foiz miqdorda ijodiy yondashgan holda unga o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega. Binobarin, o‘quv dasturlarining innovatsion, kreativ xarakter kasb etishi talabalarda ta‘lim olishga qiziqishni kuchaytiradi, ularning o‘quv-bilish faoliyatining faollashuvini ta‘minlaydi. Ta‘lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi. O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi.

Darslik – muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta‘lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy ma‘lumotlarni beruvchi manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi. G‘oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo‘lgan darslik ta‘lim mazmuniga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, talabalarining ehtiyojlarini qondira olishi, qiziqishini oshirishi, bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitishi zarur. Darslikda bayon etilayotgan o‘quv axborotlari lo‘nda, tushunarli va vizual bo‘lishi, talabalarining estetik ehtiyojlariga mos kelishi kerak. Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi lozim. Darsliklarga qo‘yiladigan talabalar turlicha bo‘lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talabalar ko‘p. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Buning boisi, pedagog va talabalarga ular orasidan o‘zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo‘lganlarini tanlab olishga imkoniyat yaratishdir. Respublikamizda muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo‘lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o‘quv, metodik va o‘quvmetodik qo‘llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko‘rsatishmoqda. Ta‘lim mazmuni o‘quv materialini darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli o‘quv qo‘llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, ma‘lumotnomalar, matematika, fizika, kimyo bo‘yicha masalalar to‘plamlari, geografiya, biologiya bo‘yicha atlaslar, til bo‘yicha mashqlar to‘plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O‘quv qo‘llanmalari darslikning ba‘zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo‘ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish) [6].

Kreativlik o‘quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba‘zi talabalar tanqidiy,

tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi, uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativligi yana bir holatda – elektron axborot- ta'lim resurslari (EATR)ni yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

EATR – o'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki internet axborot tarmog'ida maxsus (alohida) saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui. ta'lim jarayonida quyidagi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun talab etiladigan sharoitni yaratadi [7]:

- 1) ta'limiy vazifalarni shakllantirish;
- 2) o'quv materialini mazmunini bayon qilish;
- 3) bilimlarni qabul qilishni tashkil etish;
- 4) qaytar aloqa;
- 5) talabalarining bilish faoliyatini nazorat qilish;
- 6) talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko'rish (talabalarni mustaqil ta'lim olishga, qo'shimcha o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qib o'rganishga yo'naltirish).

Natijalar. Ta'lim jarayonidagi kreativlik talabalarda o'qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollar tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarga bayon etilayotgan o'quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan g'oyalarni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlilikni topish kabi vazifalarni berish, kichik kichik guruhlarda ishlashlarini ta'minlash kabi harakatlarda aks etadi. O'qituvchilar tomonidan talabalarining kreativ fikrlashlariga erishish, o'quv-bilish faoliyatlarida ijodiy mahsulotlarni yaratishlarini ta'minlashga undash, rag'batlantirish qanday natijalarga olib kelgan bo'lardi? Xuddi shu holat o'qituvchilar izlayotgan hodisa bo'lmamidi?

Ma'lumki, ta'lim mazmunini ochib berishga yo'naltirilgan o'quv materiallari bir nechta turga ajratiladi.

Ular [8]:

- matnli bosma o'quv axboroti;
- vizual bosma o'quv axboroti;
- matnli elektron o'quv axboroti;
- vizual elektron o'quv axboroti;
- ish qog'ozlarida ifodalanadigan bosma o'quv axboroti;
- ish qog'ozlarida ifodalanadigan elektron o'quv axborotlar.

O'quv materiallari talabalarining umumiy va kasbiy bilimlarini boyitish bilan birga ularda dunyoqarashni boyitish, tasavvurni kengaytirish, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobiy munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur. Shu sababli pedagoglar o'quv materiallarini tayyorlashga ijodiy yondashish bilan birga muayyan tamoyillarga rioya etishlari zarur [9]:

- g'oyaviylik;
- ilmiylik;
- vizuallik;
- tizimlilik;
- o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi;
- o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;
- talabalarining yosh xususiyatiga mosligi;
- amaliy ahamiyatga egalik;
- aniq maqsadga yo'naltirilganlik;
- estetik talablarga muvofiqlik

Ushbu tamoyillarga muvofiq tayyorlanadigan o'quv materiallari mutaxassislik yo'nalishi va ixtisoslik sohasidan qat'iy nazar barcha talabalarining ehtiyojlarini to'la qondira oladi. Shaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O'quv materiallarini talabalarga taqdim etishda savolning «Agarda ...?» deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham obyektiv, ham subyektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Kreativlik talabalarda «nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, zarur bo'lsa ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi. Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, ta'lim

jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta’lim olish, o’quv fanlari asoslarini o’zlashtirishga nisbatan qiziqishi susaygan talabalar bilan ishlash maqsadida emas, balki barcha talabalar bilan jonli, qiziqarli, jo’shqin muloqotga kirishish, ularni faollikka undash uchun qo’llaniladi. Qolaversa, kreativ xarakterga ega mashg’ulotlarni nafaqat san’at, madaniyat sohalari yo’nalishlarida, shu bilan birga barcha istalgan soha (biznes, iqtisodiyot, huquq, pedagogika, psixologiya, qurilish, qishloq xo’jaligi, muhandislik, sanoat va b. sohalar) bo’yicha ta’lim olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida ham birdek samarali tashkil etish mumkin. O’qituvchilar, shuningdek, ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o’quv fanlarini o’zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan talabalarga, balki ko’proq e’tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo’lmagan ta’lim oluvchilarga ham birdek e’tiborni qaratishlari zarur. Pedagoglarning o’quv mashg’ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko’rishlari kutilgan ta’limiy natijaning qo’lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi [10]:

- aniq maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi;
- talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o’quv axborotlarining asoslanganligi;
- talabalarning o’quv-bilish faoliyatini
- faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- talabalarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va – kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo’lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan xoli bo’lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo’llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud bilim, ko’nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi.

O’quv mashg’ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o’quv manbalari (darslik, o’quv, metodik va o’quv-metodik qo’llanma, yo’riqnoma, tavsiyanoma, lug’at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari mumkin. Bu o’rinda olingan ma’lumotlarning ishonchliligi muhim. Shu sababli pedagoglar didaktik materiallarni tayyorlashda o’quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlari zarur. Binobarin, ilmiy asosga ega dalillar bilan boyitilgan didaktik materiallar talabalarning umumiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Demak, pedagoglarning o’quv dasturlari va o’quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlari talabalarning umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati pedagog tomonidan taqdim etilayotgan o’quv materiallarining qay darajada sifatli tayyorlanishiga ham bog’liq. Shu sababli pedagoglar o’quv materiallarini tayyorlashga kreativ yondashishlari talab etiladi. Bunda ular o’quv materiallarini samarali shakllantirishda g’oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o’quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o’quv axborotlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik, talabalarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo’naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishi o’quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to’g’ri tashkil etilishini ta’minlaydi. O’quv mashg’ulotlar uchun (ya’ni dars uchun) didaktik ishlanmalar tayyorlashda ham pedagoglar quyidagi kerativlik mexanizmlarini inobatga olishi zarur.

Xulosa va munozara. Kreativ yondashuv asosida o’qitishning didaktik ta’minotni yaratish mexanizmlarini amalga oshirishda quyidagilarni xulosa qilamiz:

- o’quv mashg’ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda pedagoglar o’quv manbalari (darslik, o’quv, metodik va o’quv-metodik qo’llanma, yo’riqnoma, tavsiyanoma, lug’at, ensiklopediya, atlas, ish daftari, xrestomatiya kabi bosma nashrlar, shuningdek, Internet materiallari, EATR kabi elektron axborot manbalaridan olingan ma’lumotlardan maqsadli, samarali foydalanishlari; didaktik materiallarni tayyorlashda o’quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e’tiborni qaratishlarini;
- talabalarda kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor berishi va dars jarayonda «o’qituvchi sinfda kreativlik muhitini yaratilishini;
- o’quv dasturlari va o’quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlar talabalarning intellektual rivojlanishiga oid savol topshiriqlarni tuzishni.
- didaktik o’quv materiallarini samarali shakllantirishda g’oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik,

o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inobatga olishni; – talabalarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egalik, aniq maqsadga yo‘naltirilganlik hamda estetik talablarga muvofiqlik kabi tamoyillarni inobatga olishni o‘quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta‘minlash.

Adabiyotlar:

1. Ziyomhammadov B. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. - T.: «TuronIqbol». 2016.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: «Navro‘z» nashriyoti, 2016.
4. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: «Fan», 2018.
5. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010.
6. Usmonboeva M., To‘raev A. Kreativ pedagogika asoslari. o‘quv –uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016
7. Usmonboeva M., To‘raev A. Kreativ pedagogika asoslari. - O‘UM. TDPU, 2016.
8. Kamoldjonovna, A. K., & Pirmqulovna, P. G. (2022). Kasbiy kompetensiya. Web of Scientist: Xalqaro ilmiy tadqiqot jurnali, 3(02), 766-772.
9. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2019.
10. Drapeau Patti. Talabalar ijodini faollashtirish (innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilishning amaliy usullari). - Aleksandriya - Virjiniya, AQSh: ASCD, 2014.
11. Usmonboeva M., To‘raev A. Kreativ pedagogika asoslari. o‘quv – uslubiy majmua. - T.: TDPU, 2016. - 43-bet

PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

*Axadova Gulnoza Said qizi,
Jizzax Politexnika instituti tayanch doktoranti
axadovagulnoza7257@gmail.com*

Ushbu maqolada professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning bugungi holati va uni takomillashtirish haqida fikr yuritilgan. Professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlashda hamda o'qituvchilarning pedagogik faoliyat olib borish jarayonida ularning kasbiy kompetentligi naqadar katta ahamiyat kasb etishi va kasbiy kompetentlikning sifatleri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ekstremal kompetentlik.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

В данной статье рассматривается современное состояние подготовки учителей профессионального образования и её совершенствование. При подготовке и переподготовке педагогов профессионального образования и в процессе педагогической деятельности учителей раскрывается значение их профессиональной компетентности и качеств профессиональной компетентности.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность, психологическая компетентность, методологическая компетентность, информационная компетентность, творческая компетентность, инновационная компетентность, коммуникативная компетентность, личностная компетентность, технологическая компетентность, предельная компетентность.

CURRENT STATE OF PROFESSIONAL EDUCATION TEACHER TRAINING AND THE NEED FOR ITS IMPROVEMENT

This article discusses the current state of professional education teachers training and its improvement. In the training and retraining of teachers of professional education and in the process of pedagogical activity of teachers, the importance of their professional competence and the qualities of professional competence are revealed.

Keywords: competence, professional competence, social competence, special competence, psychological competence, methodological competence, informational competence, creative competence, innovative competence, communicative competence, personal competence, technological competence, extreme competence.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Professional ta'lim tizimida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarini tayyorlash, ularni raqobatbardosh, yetuk bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shug'ullanadigan har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, rahbar xodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangandek, davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun, avvalambor, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning o'zlari yetuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, rahbar uslubiy ishlar bilan shug'ullanishi va ularda qatnashishi zarur.

O‘quv muassasalaridagi muhandis-pedagoglarning faoliyati faqatgina nazariy va amaliy bilimlar berish, ya’ni darslar o‘tish bilan cheklanib qolmaslik, ular faoliyatida har bir o‘quvchi bilan shaxsiy ishlash, o‘z ustida mustaqil ishlash, o‘quvchilar guruhi bilan ishlash, o‘z fani bo‘yicha tashkiliy ishlarni olib borish, kabinet, laboratoriya, o‘quv ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishlash, fanlar bo‘yicha uslubiy komissiyalar ishida qatnashish va hokazolar bilan bog‘liq.[1]

Muhandis-pedagoglar o‘quvchilar guruhi bilan ishlash, ularning ishlarini tashkil qilish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimni oshirib va takomillashtirib borish zarur. Chunki oliy bilim dargohida olgan bilimlari yetarli bo‘lmay qoladi. Bu o‘z ustida ishlashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlar yotadi. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglardan o‘z mustaqil ishlarini tashkillashtirishda, ularni ilmiy asosida tashkil etish lozim.

Ma’lumki, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud u yoki bu ish yoki xizmat o‘rnini egallab turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan o‘lchanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o‘rni bilan shu ish yoki xizmat o‘rniga talabgor shaxs o‘rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo‘lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo‘llashga oid bir qancha konsepsiyalar vujudga keldi.

Adabiyotlar tahlili. “Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nomlarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nomlarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetentlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi. [2]

Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik faoliyatidan kelib chiqib, professional ta’lim o‘qituvchilari kasbiy kompetentligi komponentlarining tuzilmasi sifatida quyidagilar ajratiladi:

- dars beradigan fani sohasidagi bilim va ko‘nikmalari;
- psixologik-pedagogik kompetentligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- boshqaruv (tashkilotchilik) kompetentligi;
- kreativ kompetentlik.

Kompetent o‘qituvchi dars o‘tadigan fan sohasida ilmiy bilimlarni egallagan bo‘lishi kerak, ammo bu pedagogik ta’limga ega bo‘lmagan o‘qituvchi g‘oyalari zid ravishda yetarli emas. Kompetent o‘qituvchi - kasbiy usullar va metodikaga (ta’lim texnologiyalari) ega yaxshi uslubchi, u o‘quv materialni kognitiv vazifalar tizimi turida taqdim etishga qodir bo‘lib, o‘rganilayotgan fan mazmuni talabalarning o‘zlashtirishiga qaratilgan. O‘qitilayotgan fan va uni o‘qitish metodikasi sohasidagi bilimlardan tashqari, qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, o‘quv-tarbiya va shaxs psixologiyasida, hamda pedagogikada kompetent bo‘lishi kerak. Professional ta’lim o‘qituvchisining psixologik kompetentligi yuqorida aytilganlarga qo‘shimcha tarzda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalikning psixologik xususiyatlari;
- talabalarning o‘quv-kognitiv faoliyat psixologiyasi;
- o‘qituvchining pedagogik faoliyat psixologiyasi;
- pedagogik muloqat psixologiyasi;
- psixodiagnostika asoslari.[3]

O‘qituvchining pedagogik kompetentligini bilim, ko‘nikma, malakalar va pedagogik hamda talabalarni o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini bajarish uchun zarur ilmiy-tadqiqot qobiliyatlari majmui tashkil qiladi. U professional ta’lim davlat ta’lim standartlarini; professional ta’lim maqsadi va mazmuni; professional ta’lim mazmuni tuzilishining tamoyillarini; ta’lim va tarbiya jarayonlari qonuniyatlari va mohiyatini; talabalarni o‘qitish va tarbiyalash usullari hamda tashkil qilish shakllarini; zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi shart. Bundan tashqari professional ta’lim o‘qituvchi va muhandis-pedagoglari quyidagilarga qobiliyatli bo‘lishi kerak: mustaqil tarzda o‘quv materialini tanlash va uning sezilarli hajmini talabalarga qisqa muddatda yetkazib berish, talabalarning o‘zlashtirishini ta’minlash maqsadida maqbul texnologiyalarni tanlash; ta’limning faol va interfaol metodlaridan foydalanib, mashg‘ulotni to‘g‘ri rejalashtirish hamda tashkil qilish, ijodiy bilim va o‘z bilimlarini o‘zlashtirish, talabalarda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonlarini ta’minlash; talabalarda mustaqil o‘quv-kognitiv faoliyatga

motivatsiyani shakllantirish; o‘z bilimlari bilan tajriba almashish, o‘z ustida tinmay ishlash va yangi bilimlarni izlash va boshqalar.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash va bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

✦ **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

✦ **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

✦ **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

✦ **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

✦ **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

✦ **kommunikativ kompetentlik** – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

3. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. **Ekstremal kompetentlik** – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.[4]

Muhokama va natijalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda o‘qituvchilarning faoliyati samaradorligi, asosan, ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlari, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslangan holda aytish mumkin, professional ta‘lim muassasasi pedagog-o‘qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qila olish, shuningdek, professional ta‘lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e‘tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me‘yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo‘lib, bular pedagog-o‘qituvchining kasbiy kompetentligini ifodalaydi. Kompetensiyani 4 turga bo‘lish mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus.

Shaxsiy kompetensiya:

- ✓ insonparvarlik;
- ✓ bolalarni sevishi va mehribonlik;
- ✓ adolatli bo‘lish;
- ✓ talabchanlik;
- ✓ bag‘rikenglik;
- ✓ mas‘uliyatlilik va hokazo.

Kasbiy kompetensiya:

- ✓ ta‘lim berish va o‘rganish uchun sharoit yaratish;

- ✓ tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- ✓ axborot texnologiyalarini qo‘llay olish;
- ✓ ta‘lim jarayonini boshqarish;
- ✓ o‘quvchilar bilimi va yutuqlarini obyektiv baholash;
- ✓ o‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otish va ularni qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ o‘quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;
- ✓ pedagogika va psixologiyani bilish;
- ✓ o‘z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.


Umummadaniy kompetensiya:

- ✓ kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- ✓ madaniyatli bo‘lish;
- ✓ umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ✓ boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

Maxsus kompetensiya: Pedagog-o‘qituvchilar quyidagi umumiy qobiliyatlarni o‘z ichiga qamrab olgan umumiy **malaka kompetensiyalarga** ega bo‘lishlari kerak, jumladan:

- ✓ kelajakdagi kasbining mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga qiziqish ko‘rsatish;
- ✓ o‘z faoliyatini tashkil etish, kasbiy vazifalarni yechish usullarini aniqlash, ularning samaradorligini va sifatini baholash;
- ✓ noan‘anaviy holatlarda tavakkalchilik (xavf-xatar)ni baholash va qarorlar qabul qilish;
- ✓ kasbiy va shaxsiy rivojlanish hamda kasbga oid vazifalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni izlash, tahlil qilish va baholashni amalga oshirish;
- ✓ kasbga oid faoliyatni takomillashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;
- ✓ hamkasblar va ijtimoiy sheriklar bilan hamkorlik qilish, kollektivda va jamoada ishlash;
- ✓ o‘quvchilar faoliyatini qo‘llab, shaxsiy va kasbiy malakasini rivojlantirish vazifalarini mustaqil ravishda belgilash, mustaqil ta‘lim olish bilan shug‘ullanish, ongli ravishda malaka oshirishini rejalashtirish.

AUTOPSIXOLOGIK KOMPETENSIYA



1-rasm. Autopsixologik kompetensiya mezonlari

Pedagogning kompetentligi pedagogik qobiliyatning shakllanganiga bog‘liq bo‘ladi va qobiliyat, malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste‘dod, layoqat va zehn, ya‘ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik asos bo‘lishi ham zarur.

Demak, kompetentlik o‘qituvchilarining ma‘naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya‘ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta‘lim

muassasalari pedagogik faoliyati jarayonini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo‘ladi.

O‘qituvchilar pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlariga ega bo‘lish ixtiyoriy vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qila olish, shuningdek, ta‘lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e‘tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me‘yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo‘lib, bular pedagoglarning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Pedagog-o‘qituvchilar kasbiy kompetentlikka quyidagi *bosqichlarda* erishishi mumkin:

- ✓ pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o‘rganish;
- ✓ maxsus fanlar, ularni o‘qitish metodikasini chuqur bilish;
- ✓ o‘z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ✓ o‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish;
- ✓ o‘z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam oshirib borish;
- ✓ o‘z-o‘ziga talabchanlik, mas‘uliyatni teran his etish;
- ✓ pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, o‘quvchilar jamoasini faolligini oshirish, jamoani birlashtirish, o‘quvchilar orasida shaxslararo munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olish;
- ✓ murakkab va muammoli vaziyatlarda talabalarni ruhlantirib borishi;
- ✓ pedagog-o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi qaytar aloqani to‘g‘ri ta‘minlay olish;
- ✓ ta‘limning sermahsul, interfaol va innovatsion metod va usullarini bilishi, mashg‘ulot jarayonida qo‘llay olishi.

Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya‘ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e‘tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalar, ijobiy kasbiy “men” – siyмосi, ba‘zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag‘rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi maqsadga muvofiqdir.[5]

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini-o‘zi tahlil qilish va o‘zini-o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;[6]

Pedagog-o‘qituvchi o‘zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin, degan xulosaga keldik. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo‘ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma‘naviyati va madaniyati, ma‘rifatligi o‘quvchilari, bo‘lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Demak, kompetentli pedagog-o‘qituvchilar ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo‘lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan, boy va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan, ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta oladigan, tegishli ma‘lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo‘lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

Bugungi globallashtirish davrida zamonaviy o‘qituvchilar kompetentligi quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- ✦ insonparvarlik;
- ✦ kommunikativlik;
- ✦ kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o‘z ishigaijodiy yondashish;
- ✦ pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish;
- ✦ nutq texnikasi, o‘z tovush, mimika va gavdasini boshqarish, jamoa va shaxsga ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- ✦ zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo‘lish hamda ulardan zarurlarini ta‘lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Pedagogik mahorat va kompetentlik - pedagog shaxsining tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror

sohadagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarining nazariy darajasidir. Bunday sifatlar yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg‘otish jarayonidagi kasbiy g‘ururni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchi-tarbiyachining mahorat egasi bo‘lishi muhimdir.

Pedagogik mahorat va kompetentlik kasbga nisbatan tavsifnoma berish, ta‘lim jarayonidagi o‘zlashtirish saviyasini egallash, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi kasbiy xislatlarni ta‘riflashda qo‘llaniladi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan izlanish, mahorat, pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish, o‘z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi.

Demak, pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, pedagog mutaxassislarining kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e‘tibor berish kerak:

✦ shaxs ma‘naviy-axloqiy sifatlarining faol shakllanishi, pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan bog‘liklikda keyingi amaliy faoliyatda ta‘lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;

✦ ta‘limga texnologik yondashuv asosida mashg‘ulotlarning o‘quv maqsadini qo‘ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;

✦ amaliy mashg‘ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;

✦ ta‘lim oluvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi, ta‘lim jarayonining “jonli”, ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta‘limning zamonaviy integrativ, bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;

✦ ta‘lim standartlarining yangi talablari va o‘zining ehtiyojlar bilan bog‘liqlikda o‘qitish va ta‘lim sifatini tashxis etishning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo‘llarni mustaqil yaratish va nazorat qilish ko‘nikmalarini egallash;

✦ pedagogika va psixologiyaga oid yangi adabiyotlarni muntazammutolaa qilib borish;

✦ ilg‘or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanib, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish.[7]

Pedagogik faoliyat o‘quvchilarga uch xil pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni nazarda tutadi: ***nimani o‘qitish, kimni o‘qitish va qanday o‘qitish?*** Demak, mohir o‘qituvchi o‘quv predmetidan material tanlash va uni guruhlariga ajratish uquvini oshirishi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta‘limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo‘llashi lozim.

Tabiiyki, mohir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil qilib boradi. Faoliyati davomida o‘quvchilar va o‘zining shaxsiy mehnati hamda sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kamchiliklar mavjud joylarni ko‘ra bilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini tanlash, o‘z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o‘ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning barcha sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo‘lsa, u holda uni psixologik jihatdan to‘la va yetuk, deb hisoblash mumkin. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun faoliyat davomida pedagogik vazifa va maqsadlarni qo‘yish, uni o‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o‘zini-o‘zi tuzatish, pedagogik refleksiya va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog‘lik holda kechadi. Turli pedagogik o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lganbola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi.

Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan odatdan tashqari kuch-g‘ayrat, qat‘iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyat, yangi jamoaga moslashuvchanlik, samimiyat, to‘g‘rilik va halollik, o‘tkir aql-idrok, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi.

Kelajagi buyuk bo‘lgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma‘naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo‘lida bo‘ladi. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasiga e‘tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma‘naviy sohada quyidagilarga e‘tibor qaratilishi lozimligi ta‘kidlanadi:

✓ insonparvarlik g‘oyalarga sodiqlik;

- ✓ milliy-istiqlol g‘oyasiga sodiqlik;
- ✓ ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- ✓ qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklar, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish;
- ✓ hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- ✓ ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish;
- ✓ xalqimizning milliy, tarixiy va madaniy an‘analari, ma’naviy tajribasini ta’lim va tarbiya tizimiga uzviy ravishda kiritish;
- ✓ ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilganligidir. Bu jarayonda “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatini o‘zgartirish talab etiladi. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi lozim.

Demak, o‘qituvchiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib yetish va bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Professional ta’lim o‘qituvchilarning innovatsion ta’lim muhiti talablari asosida pedagogik kompetentligini takomillashtirish uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. O‘qituvchilarning barcha toifalari kesimida mutaxassislik fanlari bo‘yicha malaka talablarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondoshuvning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratish;

2. Kompetensiyaviy yondashuv asosida vujudga keltiriladigan innovatsion ta’lim muhiti talablari e’tiborga olingan holda o‘qituvchilarning barcha toifalari kesimida mutaxassislik fanlari bo‘yicha elektron qo‘llanmalar yaratish;

3. O‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslarini ehtiyojga asoslangan holda tashkil etish, bunda fan o‘qituvchisining ehtiyoji nazarda tutilmoqda;

4. Malaka oshirish kurslarida o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish, aniqlangan bo‘shliqlarni o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda individual korreksion ish olib borish zarur.

Xulosa. Professional ta’lim o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining har bir bosqichida, ya’ni barcha pedagogik vazifalarni hal qilish undan kasbiy kompetentlikni shaxsiy darajasini amalga oshirishni talab qiladi. Pedagog har jabhada o‘quvchi qalbiga yo‘l topa olishi, uni hayotga qiziqishini kuchaytirishi, vatan oldidagi burchini to‘liq his qilishga tayyorlashi kerak. Pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o‘qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Xodjaboyev A.R., Husanov I.A. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. T., «Fan va texnologiya», 2007, 192 bet.

2. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo‘llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

3. Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali journal of integrated education and research oliy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi: asosiy komponentlari Rahmatova Zulxumor Mamitxonovna november 2023/2(11) ISSN: 2181-3558

4. Назирова Ф. (2023). Kasbiy kompetentlik sifatleri. // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 363–367. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp363-367>

5. Abdullayeva Uljalg‘as Tulegen qizi “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi” // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali/ 18-SON/ 20.04.2023/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.7840169>

6. Amanlikova Nafisa Raxmatullayevna Zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodlari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz Jan., 2023

7. Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 228 b.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF COACHING COMPETENCIES IN STUDENTS

Bazarov Sardor Kenjaboy ugli,

Lecturer of Gulistan State Pedagogical Institute

Bazarova Gulnoza Ziyodullo kizi,

Lecturer of Gulistan State Pedagogical Institute

The cultivation of coaching competencies in students is a multifaceted endeavor that necessitates a profound understanding of the psychological underpinnings that shape human behavior and learning. This article delves into the psychological foundations that undergird the development of coaching competencies, drawing insights from various theoretical frameworks and empirical studies. By exploring the interplay between cognitive, motivational, and social-emotional factors, the article illuminates the intricate pathways through which coaching competencies can be nurtured and honed. The aim is to provide a comprehensive analysis that informs educational practices, empowering educators and institutions to foster environments conducive to the holistic growth of students as future coaches. Ultimately, this article serves as a catalyst for further discourse, encouraging the integration of psychological principles into coaching education and the cultivation of a generation of skilled and emotionally intelligent coaches.

Keywords: coaching competencies, student development, psychology of learning, cognitive processes, motivation, social-emotional intelligence, coaching education.

TALABALARDA KOUCHING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Talabalarda murabbiylik kompetensiyalarini tarbiyalash ko‘p qirrali ish bo‘lib, insonning xulq-atvori va bilimni shakllantiradigan psixologik asoslarni chuqur tushunishni taqozo etadi. Ushbu maqola turli nazariy asoslar va empirik tadqiqotlardan xulosalar olib, murabbiylik kompetensiyalarini rivojlantirishni ta‘minlovchi psixologik asoslarni o‘rganadi. Maqola kognitiv, motivatsion va ijtimoiy-emotsional omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganib, murabbiylik kompetensiyalarini tarbiyalash va oshirish mumkin bo‘lgan murakkab yo‘llarni yoritadi. Maqsad: ta‘lim amaliyotini xabardor qiluvchi, o‘qituvchilar va muassasalarga talabalarning kelajakdagi kouchinglar sifatida har tomonlama o‘shiga yordam beradigan muhitni rivojlantirishga imkon beruvchi keng qamrovli tahlilni taqdim etishdir. Oxir oqibat, ushbu maqola keyingi nutqlar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi, psixologik tamoyillarni murabbiylik ta‘limiga integratsiyalashuvini va malakali va hissiy aqlli murabbiylar avlodini etishtirishni rag‘batlantiradi.

Kalit so‘zlar: murabbiylik (kouching) kompetensiyalari, talabalarni rivojlantirish, o‘rganish psixologiyasi, kognitiv jarayonlar, motivatsiya, ijtimoiy-emotsional intellekt, murabbiylik ta‘limi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОУЧИНГОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Развитие коучинговых компетенций у студентов - многогранная задача, требующая глубокого понимания психологических основ, формирующих поведение человека и процесс обучения. В этой статье рассматриваются психологические основы, лежащие в основе развития коучинговых компетенций, на основе различных теоретических основ и эмпирических исследований. Исследуя взаимодействие между когнитивными, мотивационными и социально-эмоциональными факторами, статья освещает сложные пути, с помощью которых можно развивать и оттачивать навыки коучинга. Цель состоит в том, чтобы предоставить всесторонний анализ, который информирует об образовательной практике, расширяя возможности преподавателей и учреждений по созданию условий, способствующих целостному росту студентов как будущих коучей. В конечном счёте, эта статья служит катализатором для дальнейшего обсуждения, расширяя интеграцию психологических принципов в обучение коучингу и воспитание поколения квалифицированных и эмоционально интеллигентных тренеров.

Ключевые слова: коучинговые компетенции, развитие студентов, психология обучения, когнитивные процессы, мотивация, социально-эмоциональный интеллект, коучинговое образование.

Introduction. *Relevance.* In the rapidly evolving landscape of education and personal development, the significance of cultivating coaching competencies among students has garnered increasing recognition. Coaching, a discipline that transcends traditional mentoring paradigms, empowers individuals to unlock their potential, navigate challenges, and achieve sustainable growth. As the demand for skilled coaches continues to surge across various domains, educational institutions bear the responsibility of equipping students with the requisite knowledge, skills, and mindsets to excel in this dynamic field.

Novelty. While the acquisition of coaching-specific knowledge and techniques is undoubtedly crucial, a holistic approach to developing coaching competencies necessitates a deep exploration of the psychological foundations that underpin human behavior, learning, and personal transformation. By integrating insights from psychology, educators can create learning environments that nurture the cognitive, motivational, and social-emotional competencies essential for effective coaching.

Methods and literature review. *Cognitive Foundations.* The cognitive processes that facilitate learning, problem-solving, and decision-making are central to the development of coaching competencies. Piaget’s theory of cognitive development [1] highlights the importance of scaffolding learning experiences that align with students’ developmental stages, enabling them to construct knowledge through active engagement and experiential learning. Vygotsky’s sociocultural theory [2] further emphasizes the role of social interactions and cultural contexts in shaping cognitive development, underscoring the value of collaborative learning and mentorship in coaching education.

Motivational Foundations. Motivation is a driving force that propels students toward personal growth and the acquisition of coaching competencies. Self-determination theory [3] posits that intrinsic motivation, stemming from autonomy, competence, and relatedness, fosters sustained engagement and mastery. Dweck’s mindset theory [4] suggests that cultivating a growth mindset, wherein students embrace challenges and view setbacks as opportunities for learning, can enhance their resilience and adaptability as future coaches.

Social-Emotional Foundations. Effective coaching demands emotional intelligence, empathy, and interpersonal skills that facilitate meaningful connections and foster personal transformation. Goleman’s emotional intelligence framework [5] underscores the importance of self-awareness, self-regulation, motivation, empathy, and social skills in coaching practice. Bandura’s social cognitive theory [6] further illuminates the interplay between personal factors, environmental influences, and behavioral patterns, emphasizing the significance of modeling, vicarious learning, and self-efficacy in developing coaching competencies.

Results. To nurture cognitive competencies essential for coaching, educational institutions can employ strategies such as case-based learning, problem-solving simulations, and reflective journaling. These approaches encourage students to actively construct knowledge, engage in critical thinking, and develop metacognitive skills necessary for effective coaching [7]. Collaborative learning environments that foster peer-to-peer coaching and feedback can further reinforce cognitive development and knowledge transfer [8]. Incorporating technology-enhanced learning tools, such as virtual simulations and interactive multimedia resources, can further augment cognitive engagement and skill acquisition.

Fostering intrinsic motivation and a growth mindset is pivotal in developing coaching competencies. Instructors can design learning experiences that promote autonomy by offering choices and personalized learning pathways [9]. Providing constructive feedback that emphasizes effort and progress, rather than innate abilities, can cultivate a growth mindset and resilience [10]. Celebrating successes and highlighting the real-world impact of coaching can further enhance students’ motivation and commitment to their personal and professional development [11]. Incorporating elements of gamification, such as leaderboards, badges, and progress tracking, can leverage the power of competition and achievement to sustain motivation and engagement.

Integrating social-emotional learning (SEL) into coaching education is crucial for developing empathy, emotional regulation, and interpersonal skills. Experiential activities, such as role-playing, simulations, and group discussions, can provide opportunities for students to practice active listening, perspective-taking, and effective communication [12]. Incorporating mindfulness practices and self-reflection exercises can enhance self-awareness and emotional regulation, enabling students to model these competencies as future coaches [13]. Inviting guest speakers, such as experienced coaches or industry professionals, can offer real-world insights and serve as inspiring role models, fostering social-emotional growth through vicarious learning.

Analysis. The development of coaching competencies in students necessitates a multifaceted approach that addresses cognitive, motivational, and social-emotional factors. By integrating cognitive principles, such as constructivist learning theories and metacognitive strategies, students can actively construct knowledge, develop critical thinking skills, and cultivate self-regulatory abilities essential for effective coaching.

Fostering intrinsic motivation and a growth mindset is pivotal in nurturing coaching competencies. When students perceive autonomy, competence, and relatedness in their learning experiences, they are more likely to engage wholeheartedly and persist in the face of challenges. Instructors play a vital role in creating environments that promote choice, provide constructive feedback, and highlight the meaningful impact of coaching, thus fueling students' motivation and commitment.

Moreover, coaching is an inherently social and emotional endeavor, requiring a deep understanding of human behavior, interpersonal dynamics, and emotional intelligence. By incorporating social-emotional learning (SEL) principles into coaching education, students can develop empathy, emotional regulation, and effective communication skills. Experiential activities, such as role-playing and simulations, provide opportunities for students to practice and refine these competencies in authentic contexts.

Addressing these three domains in an integrated manner is crucial for nurturing well-rounded coaching competencies. Cognitive strategies foster analytical thinking and problem-solving abilities, motivational factors cultivate drive and resilience, while social-emotional skills enable coaches to connect with clients and navigate interpersonal complexities. By synergizing these elements, educational programs can equip students with a comprehensive toolkit to thrive as effective coaches, capable of guiding individuals through transformative journeys of personal and professional growth.

Discussion. The integration of psychological principles into coaching education has far-reaching implications for the development of well-rounded and effective coaches. By addressing cognitive, motivational, and social-emotional domains, educational institutions can create learning environments that foster the holistic growth and preparedness of students for the coaching profession.

On the cognitive front, constructivist approaches, such as case-based learning, problem-solving simulations, and reflective journaling, cultivate analytical thinking, decision-making abilities, and metacognitive skills essential for effective coaching. Collaborative learning environments further facilitate knowledge transfer and the development of coaching-specific cognitive competencies through peer-to-peer interactions and feedback.

Nurturing motivation through autonomy-supportive learning experiences, constructive feedback focused on effort and progress, and highlighting the real-world impact of coaching can ignite students' intrinsic drive and foster a growth mindset. Integrating elements of gamification can further leverage the power of competition and achievement to sustain engagement and commitment throughout the learning journey.

Additionally, the incorporation of social-emotional learning (SEL) principles, such as experiential activities, mindfulness practices, and guest speaker interactions, equips students with essential skills like empathy, emotional regulation, and interpersonal communication. These competencies are vital for establishing meaningful connections with clients, navigating the complexities of human behavior, and facilitating transformative coaching experiences.

By synergizing these diverse psychological elements, coaching education programs can provide a comprehensive and immersive learning experience that prepares students to navigate the multifaceted challenges and responsibilities of the coaching profession. This holistic approach not only nurtures the development of specific coaching competencies but also cultivates the broader personal and professional growth of students, enabling them to thrive as agents of positive change.

Conclusions. The development of coaching competencies in students is a multifaceted endeavor that demands a deep understanding of the psychological foundations underpinning human behavior, learning, and personal growth. By integrating cognitive, motivational, and social-emotional principles into coaching education, educational institutions can create learning environments that nurture the multidimensional skills and mindsets essential for effective coaching practice.

Cognitive strategies, such as constructivist learning and metacognitive approaches, empower students to actively construct knowledge, develop critical thinking skills, and cultivate self-regulatory abilities. Fostering intrinsic motivation and a growth mindset through autonomy-supportive environments, constructive feedback, and meaningful learning experiences fuels students' engagement and resilience.

Moreover, the cultivation of social-emotional competencies, including empathy, emotional regulation, and interpersonal skills, is crucial for establishing meaningful connections with clients and facilitating lasting personal transformation.

By embracing a holistic approach that integrates these psychological foundations, educational institutions can pave the way for the development of well-rounded and effective coaches, equipped to navigate the complexities of human behavior and guide individuals toward sustained growth and fulfillment.

References:

1. Piaget J. (1964). Part I: Cognitive development in children: Piaget development and learning. *Journal of Research in Science Teaching*, 2(3), 176-186. doi:10.1002/tea.3660020306
2. Vygotsky L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Ryan R. M., & Deci E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. *American Psychologist*, 55(1), 68-78. doi:10.1037/0003-066X.55.1.68
4. Dweck C. S. (2006). *Mindset: The new psychology of success*. New York: Random House.
5. Goleman D. (1995). *Emotional intelligence*. New York: Bantam Books.
6. Bandura A. (1986). *Social foundations of thought and action: A social cognitive theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
7. Ertmer P. A., & Newby T. J. (2013). Behaviorism, cognitivism, constructivism: Comparing critical features from an instructional design perspective. *Performance Improvement Quarterly*, 26(2), 43-71. doi:10.1002/piq.21143
8. Topping K. J. (2005). Trends in peer learning. *Educational Psychology*, 25(6), 631-645. doi:10.1080/01443410500345172
9. Reeve J., & Jang H. (2006). What teachers say and do to support students' autonomy during a learning activity. *Journal of Educational Psychology*, 98(1), 209-218. doi:10.1037/0022-0663.98.1.209
10. Dweck C. S. (2007). The secret to raising smart kids. *Scientific American Mind*, 18(6), 36-43. doi:10.1038/scientificamericanmind1207-36
11. Deci E. L., & Ryan R. M. (2008). Facilitating optimal motivation and psychological well-being across life's domains. *Canadian Psychology*, 49(1), 14-23. doi:10.1037/0708-5591.49.1.14
12. Zins J. E., Bloodworth M. R., Weissberg R. P., & Walberg H. J. (2007). The scientific base linking social and emotional learning to school success. *Journal of Educational and Psychological Consultation*, 17(2-3), 191-210. doi:10.1080/10474410701413145
13. Jennings P. A., & Greenberg M. T. (2009). The prosocial classroom: Teacher social and emotional competence in relation to student and classroom outcomes. *Review of Educational Research*, 79(1), 491-525. doi:10.3102/0034654308325693/

KREATIV QOBILIYATLARNI O‘STIRISH ORQALI BOLALARDAGI TORTINCHOQLIKNI BARTARAF ETISH

*Bobokeldiyeva Aziza Abdusamatovna,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi
bobokeldiyevaaziza@mail.ru*

Ushbu maqolada maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar duch keladigan va ota-onalar tomonidan ko‘plab savollarga sabab bo‘layotgan bolalardagi tortinchoqlik va uyatchanlik hamda uning natijasida bola o‘zini to‘liq namoyish eta olmasligi, ijodkorlik va kreativ qobiliyatlarni yuzaga chiqara olmasliklari, qolaversa, buning natijasida ulardagi iste‘dodni erta so‘nishi va bu muammoni bartaraf etish mas‘uliyati ota-onalar zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligi to‘g‘risida yoritib berilgan. Qolaversa, boladagi tortinchoqlik va uyatchanlikni turli mashqlar va o‘yinlar orqali bartaraf etish yo‘llari haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** qobiliyat, iste‘dod, layoqat, muhit, ijodkorlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, harakat, munosabat, hissiyot, adegvat, ishonch, tanbeh, e‘tibor, muloqot, suhbat, yosh, bolalik, rivojlanish, shakllanish, kreativlik, temperament, pozitsiya, daraja, mas‘uliyat, tasavvur.*

УСТРАНЕНИЕ ДЕТСКОЙ ЗАСТЕНЧИВОСТИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

В данной статье рассмотрена застенчивость и стыдливость у детей, с которыми сталкиваются дети дошкольного и младшего школьного возраста и которые вызывают множество вопросов у родителей, в результате чего ребёнок не может в полной мере проявить себя, не может раскрыть творческие и созидательные способности, в результате чего их талант рано угасает и ответственность за устранение этой проблемы выделяется как одна из главных задач родителей. Кроме того, речь идёт о способах преодоления стыдливости и застенчивости у детей с помощью различных упражнений и игр.

***Ключевые слова:** способности, талант, пригодность, окружение, творчество, застенчивость, стыдливость, действие, отношение, темперамент, адекватность, уверенность, упрёк, внимание, общение, беседа, возраст, детство, развитие, формирование, креативность, темперамент, позиция, уровень, ответственность, воображение.*

ELIMINATING CHILDREN’S SHYNESS THROUGH DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS

This article deals with shyness and bashfulness in children, which are faced by children of preschool and primary school age and cause many questions for parents, as a result of which the child can not fully express themselves, can not reveal creative and creative abilities, as a result of which their talent fades early and the responsibility to eliminate this problem is highlighted as one of the main tasks of parents. In addition, it is about ways to overcome shyness and bashfulness in children with the help of various exercises and games.

***Keywords:** ability, talent, environment, creativity, shyness, action, attitude, temperament, adequacy, confidence, rebuke, attention, communication, conversation, age, childhood, development, formation, temperament, position, level, responsibility, imagination.*

Kirish. “Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta‘lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir”, dedi Prezidentimiz. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta‘lim tizimi uzluksiz ta‘limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma‘lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.[1].

Har bir oilada dunyoga kelgan farzand ota-onasi va uning yaqinlari uchun olloh tomonidan berilgan buyuk bir ne'matdir. O'sha buyuk ne'matni ulug' qiladigan narsa-bu yaxshi ta'lim-tarbiya sanaladi. Farzandlarimizni kelajagini porloq bo'lishi, ularning qalbida ota-onaga, oilaga, vatanga, yurtga, kasbiga, farzandlariga mehribon, g'amxo'r, adolatli bo'lish hissini shakllanishida biz tomonimizdan beriladigan to'g'ri va oqilona ta'lim-tarbiyaga bog'liqdir, buni aslo yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Asosiy qism. Bolalarimizni kimlargadir qiyoslab tanqid qilamiz, yaxshi inson bo'lishiga harakat qilamiz. Farzandlarimizga yaxshi, go'zal ishlar qilgan buyuk kishilarning hayoti haqida yozilgan kitoblarni o'qib beramiz.[6.116b]. Ammo har doim ham bola bilan munosabat qilayotganimizda biz ota-onalar tomonidan qilinadigan qo'pol xatolarimizni anglab yetmaymiz. Oila va bola tarbiyasi muammosi hamma vaqt dolzarb masala bo'lib kelgan. Oila muhiti qanchalik axloq - odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo'lsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo'lib yetishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga juda qattiqqo'llik, juda mehribonlik qilish ham yaramaydi. Juda talabchanlik bolani shaxslararo munosabatida chegara hosil qilsa, haddan ziyod muloyimlik esa bola qobiliyatlarini so'ndiradi. Bolalarda tortinchoqlik, o'z fikrini bayon eta olmaslik, tengqurlari bilan muloqot o'rnatolmaslik bu uni tortinchoq qilib qo'yadi va natijada bola qobiliyatini ham o'z imkoniyatlarini ham yopib qo'yadi. Ayniqsa maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalarda o'z fikrini to'liq aytolmasligi, shaxslaro munosabatda kirishimlilik xususiyatlarining pasayib ketishi, bola layoqati va ijodiy qobiliyatlarini namoyon eta olmasligi natijasida kreativlikning so'nishiga olib keladi. Buni bolani erkin gapira olmasligida, kattalar davrasida, begonalar orasida o'zini noqulay his qilishi, uyalishi, tortinishi bolani intiluvchanligini, shijoatiligini pasaytiradi. Xo'sh, tortinchoqlik o'zi nima?, bolada tortinchoqlik qachon va qanday paydo bo'ladi?

Tortinchoqlik - bu o'z qobig'iga to'la o'rab olingan, o'zini namoyon qilishga uyaladigan, xatti-harakatlarining ongi orqali qat'iy boshqariladigan xususiyatdir. Amerikalik psixolog va psixoterapevt L.Key ko'pgina kitoblarda, ota-ona farzandga qanday munosabatda bo'lsa, bola ham o'ziga nisbatan shunday munosabatda bo'lishini yozib borgan. Bolada xuddi ota-onasi kabi o'zini urishishi va o'zini xurmat qilmaslik holatlari mavjud bo'ladi. O'zini xurmat qilmaslik, yaxshi ko'rmaslikdan insonda ko'pgina psixologik, hattoki fiziologik muammolar keltirib chiqaradi. Uning tavsiyasiga ko'ra, "har qanday vaziyatlarda ham, inson hech qachon, o'zini qattiq tanqid qilish kerak emas, o'zini xurmat qilishi va adekvat baho berish kerak" [2.31 b].

Oilada bolani tortinchoq bo'lib qolishida ota-onalarning farzandiga munosabat qilish pozitsiyasiga ham bog'liq. Bolaga to'g'ri munosabatda yondashish oiladagi, bola tarbiyasidagi bir qancha muammolarini yechimini bartaraf etadi. Shu nuqtayi nazardan oilada ota-onaning asosiy vazifalari mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- bolalarda o'z-o'zini ijobiy qabul qilishini rivojlantirish;
- o'ziga nisbatan ishonchni va adekvat baho berishni shakllantirish;

-bolada o'zining kuchli, muhim, sifat xususiyatlarini tarbiyalash kerak. Bularning barchasi odamlar bilan muloqot o'rnatishga yordam beradi.

Psixoterapevt va psixolog V.Levi, o'zini xurmat qilishning bir necha qoidalari ko'rsatib o'tgan:

- o'zingizni o'zgalar bilan solishtirmang, chunki har bir inson-individualdir;
- o'zingizni baholashga harakat qilmang;
- o'zini borligicha qabul qilish.

Ota-onalar bolalardagi "Men" - obrazini rag'batlantirishdan boshlashi kerak ya'ni bolani to'g'ri maqtash qoidalari, bolani kattalar tomonidan rag'batlantirilib turilishi, bolaning qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshi tomondan ko'ra bilishga asoslanadi. Bolaning arzimagan xoh katta, xoh kichik bajargan ishlari, yutuqlari uchun uni maqtang. Muhimi, kattalar bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishini o'rganmog'i, uning yutuq va kamchiliklarini imo-ishoralarini, tovush ohangini hisobga olishi kerak. Tanbeh berish va qo'llab-quvvatlash: e'tiborli jihatlaridan biri shuki, bolalar ko'pincha kattalar ta'qiq va tanbehlarining mazmunini e'tiborsiz nazar, tanqid qilinish holatining o'zini kattalarning salbiy munosabati sifatida qabul qiladilar.[2.30b].

Psixoterapevt A.Buss o'zining ishida shuni ta'kidlaganki, qachonki bola o'zini o'zgalar oldida noqulay va tajanglikni his qilar ekan u shunchalik, har bir inson hayotda erishish mumkin bo'lgan yutuqlardan va hayotning unga berilayotgan imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi. Tortinchoqlik muammosi turli xil yoshda hal etilishi mumkin, lekin asosiy e'tiborni kichik bolalik davriga qaratilishi kerak. Chunki muammoning asosiy negizi bolalik davri hisoblanadi. Bolaning muloqotga kirisha olishi, insonlarni yoqtirishi, notanish insonlar orasida o'zini erkin tutishi, tengdoshlari jamoasiga kira olishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari tufayli biron-bir faoliyatda o'zini ko'rsata olishi hamda hayotida uchraydigan omadsizliklarni yengil qabul qila olish xususiyatlari bolaning normal shaxs sifatida shakllanishida juda muhimdir.

Tortinchoqlikni bartaraf etishda, avval uni yuzaga keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavotirlikni va ularga nisbatan ta’sirlanish ko‘rinishlarini aniqlash kerak” [2.31b].

Muloqotchanlikni rivojlantirish tortinchoklikni yengishda yordam beradi. Buning asosiy sababi bola bilan ko‘proq suhbatlashish bolada qobiliyatlarni rivojlantirishga hamda o‘zini to‘liq namoyon etishga imkoniyat yaratiladi, shu bilan bir qatorda bolani tortinchoq bo‘lishini keltirib chiqaradigan omillar ham aniqlanadi va bartaraf etish uchun zamin yaratadi. Shundagina, kutilmagan uchrashuvlarda bola o‘zini noqulay his etmay, jimlikni saqlab turmay, muloqotga kirisha oladi. Agar bola jim turib, nimadir aytishni bilmasa, unda u bu paytda, o‘zini juda noqulay his qilib, xayolida xunuk ko‘rinayotgan ko‘pgina vaziyatlarni o‘ylayotgan bo‘ladi. Qachonki, tortinchoq odam o‘zining suhbatdoshiga qiziqish uyg‘otib, uning gaplarini diqqat bilan eshitishni boshlasagina, uning xayolidagi salbiy fikrlari o‘z-o‘zidan tarqalib ketadi. Shuning uchun muloqot jarayonida, tabassum, bosh bilan ma’qullash harakati, diqqat bilan eshitish, gapni boshlash va suhbatni tugatish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni mashq qildirish, o‘zaro suhbatning ijobiy yakunlanishiga olib keladi.

Tortinchoq bolalar ichidagi “men”ini chiqara olmaydilar. Vaholanki, tortinchoqlik uni vazifalar va topshiriqlarni to‘liq mohiyatini ochib berishga to‘sqinlik qiladi, natijada ilk kichik sinflarda tahsil olishni boshlagan bolalarda so‘z boyligining kamayishi, she’r, og‘zaki matnlarni bayon etishda duduqlanish, ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlarini so‘ndiradi. Chunki bola qancha o‘zini namoyon etar ekan undagi ham yozma, ham og‘zaki qobiliyatlar rivojlanib, bir-birini to‘ldirib boradi. Ayniqsa, birinchi sinfga chiqadigan bolalar uchun bu muhimdir. Tengdoshlari bilan erkin o‘ynashga, ularga o‘z fikrlarini erkin bildirishga, qolaversa, bolaning ham so‘zlarini erinmay tinglashga harakat qilish zarur. Bolani muloqot doirasidan o‘zini tortishi, atrofdegilardan o‘zini holi tutishi va nima sababdan bunday qilishini u bilan ota-ona sifatida emas uning eng yaxshi ko‘rgan ertak qahramonlari ya’ni do‘sti timsolidagi ko‘rinish orqali amalga oshirish yaxshi natija beradi.

A.Dobrovichning fikricha, ko‘pgina insonlar, shuningdek tortinchoqlar ham niqob qiyib yurishadi. “Niqob - bu muloqot qilmasdan, muloqot qilish usulidir. Inson muloqot jarayonida himoyalaniishi uchun, gapirayotganda yoki nimanidir bajarayotganda imo-ishora, intonatsiya, xatti-harakat va mimikalardan foydalanadi. A.Dobrovich guruh ishtirokchilariga niqobdan voz kechib, rol o‘ynashni taklif qiladi [3.22b].

Tortinchoqlikni bartaraf etishda ijtimoiy bilimlarni rivojlantirish mashqlariga alohida e’tibor qaratilishi, kerakli natijalarni bermaydi, zarur muloqotchanlik ko‘nikmalarini egallagan bilan inson baribir tortinchoq bo‘lib qolaveradi. Demak, avvalgidek shaxslararo munosabatlarda tajanglikni his qilib, muloqotdan qochishga harakat qiladi. Agar inson to‘liq emaslik hissini boshdan kechirayotgan ekan, unda, hech qanday yutuq va muvaffaqiyatlar uni qoniqtirmaydi.

“Hayotda ajoyib bir qoida bor. Agar sen faqat eng yaxshisini tanlasang, aynan shu narsaga ega bo‘lishing ehtimoli kattta” degan edi Somerset Moyem.[5.3b]. Darhaqiqat, bolalarda umuman olganda insonlar o‘zlaridagi tortinchoqlikni yengishlari uchun, o‘zlarini, qolaversa qobiliyat va iste’dodlarini to‘la namoyon eta olishlari uchun turli xil psixokorreksion yo‘nalishlardagi treninglar va mashqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu treninglar insonlarga ijobiy fikrlashni, katta-katta jamoalarda o‘zini noqulay his qilishlikni pasaytirishga, ichki imkoniyatlarini to‘la aks ettirishga, qobiliyat va layoqatlarini ko‘rsata olishga, ijtimoiy jamaoda to‘g‘ri muomala qilish qoidalariga, tenqurlari davrasida erkin suhbatlashishiga ko‘mak beradi. Bunday trening va mashqlarga “ijobiy fikrlaymiz”, relaksatsion mashqlar, tana harakati terapiyasi, art-terapiya, rolli o‘yinlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu nomlari keltirilgan treninglar bolani vujudidagi xavotirlikni pasaytirib o‘ziga nisbatan ishonchlikni, qat’iyatni oshirishda yordam beradi.

Bundan tashqari bolaning asosiy faoliyati o‘yin orqali ham bolalardagi tortinchoqlikni bartaraf etib ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin. Mashhur Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘yin - bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni maslahat bergan edi [4.314b].

Ayniqsa, bugun zamonaviy psixoterapiya usullaridan biri art-terapiya mashg‘ulotlari va treninglari tortinchoq, uyatchan, o‘ziga ishonchi past bolalar bilan olib boriladigan tuzatish ishlarida yaxshi foyda beradi. Ya’ni psixoterapevtlar tomonidan avvalo, boladagi bu holatda olib kelingan sabablar aniqlanadi hamda bolada uning yaqinlariga nisbatan ota-onasi, o‘rtoqlari bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va motivatsiya uyg‘otiladi, natijada bolani oila, maktab va o‘rtoqlari bilan muloqotda, suhbatda va ular bilan ko‘proq vaqtini o‘tkazishiga zamin yaratadi. Boladagi tortinchoqlikni oldini olishning eng asosiy yo‘li – bu bolani muloqotchanlikka o‘rgatishdir.

Kattalar bilan muloqotga kirisha boshlagan bolaning dunyoqarashi, hayotga nazar tashlashi, nutqi, fikrlash doirasi, boladagi yashirin qobiliyatlar asta-sekin kurtak yoza boshlaydi va biz bolani qaytadan kashf qilamiz. Maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar o'zlaridagi tortinchoqlikni yengib o'tishi ularni o'z tengdoshlaridan ajratib turuvchi to'siqdan o'tishi unchalik oson kechmaydi ammo bunday vaziyatda bolaning ota-onasi juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak bo'ladi. Farzandlarimiz nega tortinchoq, o'z fikrini erkin aytishga qiynaladi, bog'chada, o'rtoqlari bilan o'ynashda do'st topishga qiynaladi yoki ular bilan kirishib ketavermay uyaladi? Mutaxassislarning fikriga ko'ra tortinchoqlik va uyatchanlikni ijtimoiy vaziyatlardagi noqulaylik hissi sifatida ta'riflaydi. U bolaga ijtimoiy rivojlanishga xalaqit beradi. Shuning uchun bolaning shaxs sifatida shakllanishining dastlabki bosqichlarida uning kattalar bilan muloqoti katta ahamiyatga egadir.

U o'ziga baho berishda to'lig'icha uni tarbiya qilayotgan kishilarning fikridan mo'ljal oladi. Ota-onalardagi qo'pollik, keskinlik, bechidamlik kichkina odamchada ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda tortinish kabi javob reaksiyasini yuzaga keltiradi. Boladagi tortinchoqlikni yengish uchun ota-ona bu muammoni o'z vaqtida ko'ra olishi kerak. Bolaga mutaxassislarning yordami va yangi ko'nikmalarni ishlab chiqish uchun guruh ko'rinishidagi mashg'ulotlar kerak bo'ladi. Bu guruh bo'lib o'ynaladigan turli o'yinlar bo'lishi mumkin.

Shuningdek, bola uchun yangi va kutilmagan vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi turli mashg'ulotlar ham foydalidir. Tasavvur qilib o'ynaladigan o'yinlar ham yaxshi: masalan, bola o'rmonga kelib qoladi va boshqa bolalarga bu yer qo'rqinchli emasligi va o'rmondada ham suv va yegulik topish mumkinligini isbotlashi kerak. Tortinchoq bola yetakchi rolini bajarishi va boshqalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Bundan tashqari, bolalarning kattalar bilan o'rnini almashtirib o'ynaladigan o'yinlar ham tortinchoqlikni yengishga yordam beradi [2.33b].

Psixolog va psixoterapevtlar tortinchoq bolaning ota-onasiga bir qancha vazifalarni belgilaydi. Jumladan,

- bolani boshqa bolalar bilan muloqot qilishga majburlamaslik;
- hech qachon bolani oldida "meni bolam tortinchoq" deb aytmaslik;
- "tortinchoq bo'lsang, hech kim seni yaxshi ko'rmaydi, bolalar sen bilan o'ynamay qo'yadi" demaslik;
- mas'uliyatli ishlarning bir qismini bolaga yuklash va u bilan birga bajarish;
- kattalar va bolalar bilan salomlashganda jilmaying va farzandingizni ham shunga o'rgatish;
- bola shaxsiyati rivojlanishi mumkin bo'lgan qulay shart-sharoitni yaratish;
- uydagi qo'ng'iroqlarga javob qaytarishi, do'kondagi kerakli mahsulotlarni topib, uni o'zi olishi, bolalar maydonchasida kimgadir yangi o'yinni o'rgatishi mumkin;
- bolaga munosabat qilayotganda unga doim ishonishini bildirib turish;
- bolani tez-tez maqtab turish va rag'batlantirish.

Bolalarni tortinchoqligi tufayli kelajakda o'zini yolg'iz his qilmasligi uchun undagi bu odatni o'z vaqtida bartaraf qilish va bu muammoga jiddiy yondashish undan keyin kelib chiqadigan katta-katta msalalarni oldini olishga yordam beradi.

Xulosa. Har bir farzand bitta san'at asaridir. Bu asarni qiymati va qadri qanchalik ulug'lanishi o'sha asarning o'tkir syujeti va yozuvchining mahorati belgilaydi. Shunday ekan biz yozuvchilar har bitta san'at asarlarimizni tarbiyalayotganimizda ularni asrlarga yetgudek ma'naviyat – ma'rifat bilan, iymon-e'toqod bilan, mehr-muhabbat bilan, oqillik va adolat bilan to'g'ri so'zlik diyonat bilan boyitaylik. Zero, kelajak avlod bizdan qoladigan boy merosdan bahramand bo'lishsin.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqi // 16.08.2017-y.
2. Nishanova Z.T., Raximova I.Ye., Do'stmuxamedova Sh.A., Ergashev P.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tortinchoqlikning profilaktikasi va psixorreksiyasi// uslubiy qo'llanma: Toshkent. TDPU. -2013. 30-35b.
3. Галигузова Л.Н. Застенчивый ребёнок// Дошкольное образование. -2000. - №4. 116-120с.
4. Qodirova F.R., Toshpo'latova SH.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika // darslik: Toshkent. Tafakkur. -2019. 314b.
5. Pravdina N. O'zimga omadni jalb etaman// adabiyot: Toshkent. Yurist media markazi. -2016. 62b.
6. Sheniz Y. Go'daklikdan yigitlikka qadar// adabiyot: Toshkent. Yangi asr avlodi. -2016. 116b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Djabbarov Botirjon Begimovich,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
botirjondjabbarov@gmail.com*

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning uslubiy tomonlari yoritilgan. Bunda kompyuter imitatsion model yondoshuvi asosida o‘qitish tavsiya etilgan bo‘lib, unda mutaxassislik fanlarining mazmunidan kelib chiqqan holda ularga mos jarayonlarni kompyuter imitatsion modellar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi muhokama qilingan. Unda keltirilgan ma‘lumotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va kompyuter imitatsion modellardan foydalanish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi.

***Kalit so‘zlar:** oliy ta‘lim, kasbiy kompetensiya, kompyuter imitatsion model, axborot texnologiyalari, dasturiy vositalar, motivatsiya, pedagog, bo‘lajak o‘qituvchi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье освещены методологические аспекты формирования профессиональной компетентности будущих учителей. Было рекомендовано преподавание на основе компьютерно-имитационного модельного подхода, в котором обсуждался вопрос формирования профессиональной компетентности студентов на основе компьютерно-имитационных моделей, исходя из содержания профильных предметов. Представленная в нём информация служит повышению профессиональной компетентности будущих учителей и формированию навыков использования компьютерных имитационных моделей.

***Ключевые слова:** высшее образование, профессиональная компетентность, компьютерная имитационная модель, информационные технологии, программные средства, мотивация, педагог, будущий учитель.*

IMPROVING THE METHODOLOGY OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Methodological aspects of formation of professional competence of future teachers are covered in the article. It was recommended to teach on the basis of the computer simulation model approach, in which the issue of forming the professional competence of students on the basis of computer simulation models, based on the content of specialized subjects, was discussed. The information presented in it serves to increase the professional competence of future teachers and to form the skills of using computer simulation models.

***Keywords:** higher education, professional competence, computer simulation model, information technologies, software tools, motivation, teacher, future teacher.*

Kirish. Mamlakatimiz ta‘lim tizimida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga joriy etish sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari, multimediali ta‘lim resurslari hamda kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitishni tashkil etish, ularning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun kompyuter imitatsion modelga (KIM) asoslangan uslubiy o‘qitish tizimini ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan o‘qitish metodikasini takomillashtirishni mutaxassislik fanlari nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Tadqiqotning dolzarbligi bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun kompyuter imitatsion modelga asoslangan uslubiy o‘qitish tizimini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani takomillashtirishga xizmat qiladigan o‘qitish metodikasini takomillashtirishni har bir mutaxassislik fani nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. N.A.Muslimovning (2004) tadqiqotida kompetensiyani inglizcha “competence” tushunchasining lugʻaviy maʼnosi “qobiliyat” degani boʻlib, kompetensiya qobiliyat, bilim, mahorat, va koʻnikmani ifoda etishga xizmat qiladi, deb taʼriflanadi. [1]

F.M.Zakirova va boshqalarning (2021) tadqiqot ishida raqamli kompetensiya axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi asosiy koʻnikmalarga asoslanadi (kompyuterlardan maʼlumot izlash, baholash, taqdim etish, saqlash va almashish, elektron vositalar va Internet orqali muloqot qilish uchun) deb taʼrif berilgan [2].

B.T.Kerimbaevaga (2012) koʻra, talabalarning boʻlajak oʻqituvchi sifatidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogik taʼlimning asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylanib borayotganini koʻrsatadi. Talabalarning kasbiy kompetensiyasi uning shaxsiy fazilatlar bilan belgilanadi. Bu taʼlimning turli sohalarida samarali va yetarli kasbiy faoliyatni amalga oshirishga, qobiliyatli tashkilotchi boʻlishga, pedagogik faoliyat natijalarini pedagogik tahlil qilish va prognozlash koʻnikmalariga ega boʻlish va uning eng samarali usullarini bilishga imkon beradi. Talabalarning kasbiy kompetensiyasi ularning kasbiy faoliyatining asosini tashkil etuvchi kasbiy vazifalarni hal etish orqali namoyon boʻladi [3].

Bundan tashqari, kasbiy kompetensiya kasbiy faoliyatning asosiy turlarini bajarish qobiliyati ekanligini unutmashimiz kerak. Binobarin, kasbiy kompetensiyalar roʻyxati quyidagi guruhlarini oʻz ichiga olishi mumkin: umumiy kasbiy kompetensiyalar, maxsus kompetensiyalar, ixtisoslashtirilgan kompetensiyalar.

Talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning metodologik asoslari quyidagilardan iborat:

- nazariy va amaliy mashgʻulotlar jarayonida pedagogik faoliyat uchun zarur boʻlgan nazariy-uslubiy bilim va amaliy koʻnikmalarni egallash;

- oʻquv fanlari boʻyicha va amaliy kasbiy tayyorgarlik jarayonida, kompleks pedagogik jarayonda kasbiy faoliyatning barcha asosiy shakllari, innovatsion pedagogik texnologiyalar boʻyicha oʻqitish mantigʻiga muvofiq kasbiy tayyorgarlikning nazariy, uslubiy va amaliy yoʻnalishlaridan maksimal darajada foydalanishni qoʻllab-quvvatlash;

- talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida oʻqitishning faol innovatsion texnologiyalarini mazmunli bogʻlash;

- kelajak kasbining metodikasini oʻzlashtirishga aksiologik eʼtiborni shakllantirish.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalari quyidagi darajalardan iborat:

- intuitiv daraja (pedagogik faoliyatning oʻziga xos xususiyatlari, pedagogik vazifalarni hal qilish usullari haqida maxsus nazariy bilimlarning yoʻqligi, nostandart pedagogik vaziyatlarda harakat qila olmaslik, naqsh boʻyicha fikrlash, rolni tushunmaslik oʻqituvchining oʻz muvaffaqiyatli faoliyati va kasbiy rivojlanishidagi kasbiy kompetensiyasi;

- pedagogik faoliyat yoʻnalishini aniqlab beradigan, turli pedagogik vaziyatlarda oʻz xulq-atvor strategiyasiga ega boʻlish, pedagogik vazifalarni samarali hal etish imkonini beradigan bilimlarni koʻrsatadigan stereotip va takror ishlab chiqarish darajasi;

- kuchli bilimga ega boʻlgan izlanish va ijodiy daraja, pedagogik vazifalarni hal qilish va oʻz-oʻzidan paydo boʻladigan yoki taklif qilinadigan pedagogik vaziyatlarga kirish istagi, oʻqituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga uning kasbiy mahoratining mazmunli belgisi sifatida eʼtibor qaratish. [5]

Talabalarning kasbiy kompetensiyasining mezonlari va koʻrsatkichlari bilan quyidagi jadvalda tanishishimiz mumkin (1-jadval):


1-jadval.

Talabalarning kasbiy kompetensiyasining mezonlari va koʻrsatkichlari

№	Talabalarning kasbiy kompetensiyasining mezonlari	Talabalarning kasbiy kompetensiyasining koʻrsatkichlari
1.	Kognitiv	oʻzlashtirilgan bilimlar
		kasbiy mahorat darajasi
		tushunchalar
		kategoriyalar va qonuniyatlar majmuasini oʻzlashtirish
2.	Motivatsion	shaxsning fazilatlar va xususiyatlari
		bagʻrikenglik va pedagogik tayyorgarlik
3.	Amaliy	kasbiy xarakterdagi harakatlarni oʻzlashtirish
		oʻz ishini samarali tashkil eta olish
		nostandart vaziyatlarda bilimlardan foydalanish
		pedagogik ishlarni rejalashtirish
		tashkil etish va bajarish koʻnikmalari

Zamonaviy ta’lim tizimida ta’limga asoslangan yondashuvlarning kiritilishi ta’lim maqsadlarini “kompetensiyaviy yondoshuv” va “kompetensiya” tushunchalarini paydo bo’lishiga olib keldi. Kompetensiyaga berilgan ta’riflar turlicha bo’lib, ular mazmun va mohiyati bo’yicha umumiy xulosalarni keltirib chiqishiga e’tibor qaratamiz. Jumladan, B.Xodjaevning fikriga ko’ra, kompetensiya (lotincha so’z bo’lib, erishaman, to’g’ri kelaman ma’nolarini bildiradi) – subyektning maqsadni oldiga qo’yishi va maqsadga erishishi uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali tashkil qila olishga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarini echa olishga shaxsiy qobiliyatidir. [4]

Natijalar. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini tashkil etishda zarur shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aks ettira oladigan, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modelini ishlab chiqish talab etiladi. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modeli - bu yaxlit jarayon bo’lib, uning barcha bloklari va boshqa tarkibiy qismlari yakuniy maqsadga yo’naltirilgan bo’ladi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarning bo’lajak o’qituvchi sifatida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning uslubiy modeli

Bunda, I - tashkiliy-uslubiy blok; II - motivatsion blok; III - faoliyat va metodologiya bloki; IV - talabalarning kasbiy kompetensiyalarining mezonlari va ko’rsatkichlari; V - talabalarning kasbiy kompetensiyalari darajalari; VI - kasbiy talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning uslubiy asoslari; VII - texnologik va dinamik bloklar.

Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik modelida belgilangan va ishlab chiqilgan uslubiy asoslar bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga va uning samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. [5]

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo’llash” fani mashg’ulotlarida bo’lajak biologiya o’qituvchilari uchun davlat talim standartlari, malaka talablari va fan dasturlari asosida o’rganildi hamda kasbga yo’naltirilgan jarayonlarning kompyuter imitatsion modelini tayyorlashda ishlatiladigan dasturiy vositalarni tanlash va shakllantirish ishlari olib borildi.

Tadqiqot natijalari bo’yicha bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bunda, axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari orqali kompyuter imitatsion modellar tayyorlashni puxta o’rganish hamda ular asosida mutaxassislik mavzularining mazmunini jonli tushuntirishni tashkil etish va talabalarda davlat ta’lim standartining talablariga mos bilim, ko’nikma va malakalarni egallash, kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellar yaratishni o’rgatishga asosiy e’tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari O’zbekiston-Finlyandiya pedagogika institutida olib borildi va unga 148 nafar talaba jalb etildi (2-jadval).

2-jadval.

Tajriba-sinov uchun tanlangan guruhdagi talabalar soni va o’zlashtirish ko’rsatkichlari

T/r	Talabalarning umumiy soni	Tajriba-sinov guruhi					Nazorat guruhi				
		Talaba soni	Yuqori	O’rta	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Talaba soni	Yuqori	O’rta	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1	148	72	28	30	14	0	76	18	22	33	3

Tajriba-sinov natijalari bo’yicha tajriba-sinov va nazorat guruhlarining o’zlashtirish ko’rsatkichi matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko’ra tajriba-sinov guruhidagi o’rtacha o’zlashtirish

79,75% ni, nazorat guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi esa 68,75% ni ko‘rsatdi. Shunga ko‘ra, tajriba-sinov guruhining ko‘rsatkichi 11% ga yuqori ekanligi, bu esa o‘z navbatida 1,16 barobar ortiqligi aniqlandi.

Munozara. Talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari barcha turdagi darslarda hamda darsning istalgan vaqtida qo‘llaniladi, yangi materialni tushuntirishda, mavzuni talabalarga samarali taqdim etishda, muammoni aniqlashda, talabalarning mustaqil ishlarini hamda individual va jamoaviy ishlarni tashkil etish imkonini beradi. Dars uchun tayyorlangan namunali multimedia taqdimoti o‘qituvchining nutqiga hamroh bo‘lishi mumkin, dars mazmunini video va audio materiallar, rasmlar, diagrammalar va imitatsion modellar bilan tasvirlaydi. [6]

Darsda talabalar ma‘lumotlarni qidirish va tanlash, ijodiy topshiriqlarni tayyorlash va multimedia mahsulotlarini yaratishlari mumkin. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar nazorat va mustaqil ishlarni zamonaviy shaklda (interaktiv onlayn testlar, viktorinalar) amalga oshirish, shuningdek, natijalarni tezkor tekshirish va ma‘lumotlar bazalariga kiritish imkonini beradi. [7]

Oliy ta‘limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining dasturiy vositalari bilan ta‘minlash vizualizatsiya tamoyilini amalga oshirishni elektron o‘quv materiallari orqali amalga oshirishga imkoniyat yaratdi. Zamonaviy dasturiy ta‘minot, multimedia obyektlari va interfaol boshqaruv vositalarini o‘z ichiga olgan yuqori sifatli ko‘rgazmali qurollarni mustaqil ravishda yaratishga zamin hozirlaydi. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida kompyuter ko‘rgazmali o‘quv materiallarini yaratish va ulardan foydalanishga yetarli darajada tayyor emasligi bilan bog‘liq. Bu esa oliy o‘quv yurtlarida dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha treninglarni o‘tkazish muhimligini ko‘rsatadi. [8]

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarni axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari yordamida imitatsion modellar yaratish va ulardan ko‘rgazmali o‘quv materiallar sifatida foydalanish ularning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N. A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. – T.: Fan, 2004. – 23 b.
2. Zakirova F.M., Hamraeva G.R. Kasb ta‘lim yo‘nalishi talabalarini raqamli kompetentligini multimediali loyiha asosida rivojlantirish. // Zamonaviy ta‘lim jurnali, 2021, 3 (100), 32-38 betlar.
3. Kerimbaeva, B.T., (2012). To the question of forming of informational-communicative competence of future specialists of electroenergetics. // Bulletin of Peoples’ Friendship University of Russia Series Informatization of education, 4: 81-88.
4. Xodjayev B.X. Umumta‘lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta‘minot vositasida rivojlantirish. Ped.fan.dok.diss. –T., 2016. –314 b.
5. Omarova Y.B., Toktarbayeva G.S., Rybina I.V., Saliyeva A.Z., Zhumabekova F.N., Hamzinab Sh., Baitlessovac N., Sakenov J., // International journal of environmental & science education 2016, VOL. 11, NO. 14, 6651-6662
6. Voloshyn, M., Babkina, M., & Yaremko, H. (2022). Pedagogical technologies for the development of students’ professional competence. // Revista Tempos e Espaços em Educação, 15(34), e16984.
7. Mihaela S., Alrumaih H. and Impagliazzo J., “A Competency-Based Approach toward Curricular Guidelines for Information Technology Education.” // In 2018 IEEE Global Engineering Education Conference. Santa Cruz de Tenerife, Spain: IEEE Xplore. 2018. pp.1-9.
8. Lutfillayev M.H., Djabbarov B.B., Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini kompyuter imitatsion modellar yordamida oshirish, // “Ta‘limda innovatsion texnologiyalar” xalqaro jurnali, 2023, 4-son, 18-30 betlar.

**TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR
“MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI”NI AMALGA OSHIRISH METODIKASI**

*Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi*

Mazkur maqola oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish yo‘llarini o‘rganadi, xususan, “Muammoli ta’lim texnologiyalari” ning turli turlari va ularni qo‘llash usullarini batafsil tahlil qiladi. Maqola talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishlari va muammoli vaziyatlarni samarali hal etishga qodir bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, ta’lim jarayonida duch keladigan turli xil muammoli vaziyatlar va ularni yechishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tavsifi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, "Muammoli ta’lim texnologiyalari", kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, talqin qilish, akademik harakatchanlik, izlanish, mustaqil o‘rganish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, konstruktiv munosabatlar.

**МЕТОДИКА РЕАЛИЗАЦИИ «ПРОБЛЕМНЫХ» ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
ПО РАЗВИТИЮ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ**

В данной статье рассматриваются пути совершенствования навыков логического мышления студентов в высших учебных заведениях, в частности, подробно анализируются различные виды «проблемных образовательных технологий» и способы их применения. В статье подчёркивается важность развития навыков критического мышления, которые необходимы студентам для применения полученных знаний на практике и умения эффективно решать проблемные ситуации. Также дано описание различных проблемных ситуаций, встречающихся в образовательном процессе, и педагогических технологий, используемых при их решении.

Ключевые слова: критическое мышление, «Проблемные образовательные технологии», наблюдение, сравнение, анализ, интерпретация, академическая мобильность, исследование, самостоятельное обучение, саморазвитие, конструктивные отношения.

**METHODOLOGY OF IMPLEMENTING "PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES"
TO DEVELOP STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS**

This article discusses ways to improve students' logical thinking skills in higher education institutions, in particular, it analyses in detail different types of “problem-based learning technologies” and ways of their application. The article emphasises the importance of developing critical thinking skills, which are necessary for students to apply their knowledge in practice and to be able to solve problem situations effectively. It also describes various problem situations encountered in the educational process and the pedagogical technologies used to solve them.

Keywords: critical thinking, Problem Based Learning Technologies, observation, comparison, analysis, interpretation, academic mobility, research, independent learning, self-development, constructive relationships.

Kirish. Inson doimiy ravishda paydo bo‘ladigan "muammoli vaziyatlar"da kuzatishi, taqqoslashi, tahlil va talqin qilishi, mulohaza yuritishi va munosabat bildirishi, dalillashi va baholashi lozim, bu ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi; inson doimiy ravishda paydo bo‘ladigan "muammolarni" ko‘rish va hal qilishi lozim, bu ta’lim jarayonida muammoli ta’lim texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Shunga muvofiq, muammoli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarkib va jarayon sifatida muammoli ta’lim va muammoli ta’lim texnologiyalari, natija sifatida tanqidiy fikr va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini protsessual o‘zaro bog‘liqligini qayd etdik.

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalariga asoslanish va mazkur texnologiyaning imkoniyatlarini umumlashtirish qonuniyatlariga muvofiq tanqidiy fikrlash va muammoli ta’lim texnologiyalarining korrelyatsiyasi (lot. correlatio — nisbat, munosabat: tushunchalar, narsalar, funksiyalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, o‘zaro moslikni, munosabatni bildiruvchi tushuncha) jarayoni sifatida konseptual, kategorik, konstruktiv jihatlar

talqin qilinadi. Konseptual jihatdan – ushbu ikki jarayon (tanqidiy fikrlash va muammoli ta’lim)ning asosiy tushunchalarini va ularning o’zaro bog’liqligini aniqlash. Kategorik jihatdan – bu ikki jarayonning asosiy umumiy pedagogik kategoriyalar bilan aloqasini aniqlash. Konstruktiv jihatdan – bu ikki jarayonni integratsiyalashgan yondashuvlarini (tuzish, ishlab chiqish, yaratish) aks ettiruvchi modelni (namunaviy mexanizm) yaratish.

Tanqidiy fikrlash ko’nikmasi kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va talqin qilishdan iborat tizimli jarayon natijasida mustaqil fikrning hosil bo’lishi nuqtayi nazaridan mazkur ko’nikmani rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalarini qo’llashning imkoniyatlari kengligini ko’rsatadi. Mutaxassislar ta’kidicha, ta’lim texnologiyasi (inglizcha “an educational technology”) – bu muayyan faoliyatning tavsifi: mazmun, mavzu, maqsad, maqsadga erishish jarayoni, faoliyat natijalari, maqsadga erishish vositalari va usullari, amaliyotga joriy etish loyihasi, shu sohadagi maqsadga erishish yo’li hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish hisoblanadi [2; 170-b.].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bizningcha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo’ljallangan muammoli ta’lim texnologiyalari quyidagi imkoniyatlarni beradi: raqamli va axborotlashgan jamiyatda axborotlar bilan ishlash; ta’lim oluvchilarga o’z fikrini aniq, ishonchli, ravon ifoda etish va dalillash; akademik harakatchanlik, izlanish, mustaqil o’rganish, o’zini o’zi rivojlantirish; konstruktiv munosabatlarni o’rnatish va boshqalar.

Yuqoridagilardan ko’rinadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo’ljallangan muammoli ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va qo’llashda o’qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi: talabalarning harakatlarini ma’lum bir yo’nalishga yo’naltiradi; mustaqil qaror qabul qilishga undaydigan shart-sharoitlarni yaratadi; talabalarga o’zlari xulosa chiqarish imkoniyatini beradi; kognitiv vaziyatlarni tayyorlaydi.

Ilmiy muammoning qo’yilishi. Tanqidiy fikrlash kognitiv metodlar yoki strategiyalardan foydalanish orqali istalgan yakuniy natijaga erishish ehtimolini oshiradi [1]. Talabalar (bo’lajak o’qituvchilar)ning tafakkuri katta imkoniyatlarga ega va to’liq foydalanilmagan zaxiralarga ega. Psixologiya va pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ana shu zahiralarni to’la ochib berish va ular asosida o’quv jarayonini yanada samarali va ijodiy tashkil qilishdan iborat. Mazkur jarayon oliy talim tashkilotlarida mashg’ulotlar jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo’naltirilgan muammoli ta’lim texnologiyalarini qo’llash orqali samarali va intensiv amalga oshiriladi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari (Problem-based educational technology) – o’qitish tizimi bo’lib, unda o’qituvchi mashg’ulot jarayonida muammoli vaziyatni taqdim etadi, talabalar esa uni mustaqil hal qiladi. Mazkur texnika bilimlarni ijodiy egallashga va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo’ljallangan muammoli ta’lim texnologiyalari quyidagilarni o’z ichiga oladi: bilimlarni izlash va mustaqil o’zlashtirishga urg’u berish; talabalarning oldingi tajribasi va bilimlaridan faol foydalanish; o’zaro munosabatlarning barcha darajalarida o’z nuqtayi nazarini, o’z pozitsiyasini ifodalashni, fikr almashishni rag’batlantirish; xulosalar, hukmlar, pozitsiyalarni asoslash uchun sharoit yaratish; yangi bilim va tajribani sinab ko’rish va qo’llashga urinishlarni rag’batlantirish. Muammoli ta’lim texnologiyalarining maqsadi – o’qituvchi rahbarligida talabaning o’quv muammolari yechimiga qaratilgan mustaqil ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Muammoli ta’lim texnologiyalari tadbig’i talabada yangi bilimlar, uquv va malaka, rivojlanuvchi bilish qobiliyati, eruditsiya (bilim, aql-zakovat), bilishni sevish, ijodiy fikrlash kabi muhim ahamiyatga ega boshqa shaxsiy fazilatlar hamda qobiliyatlarining shakllanishiga olib keladi. Ushbu texnologiya qo’llanilganda pedagog tomonidan bilimlarni tayyor holda yetkazilmaydi, balki mavzu bo’yicha muammoli vaziyat hosil qilinadi, muammo yechimi bo’yicha talabada fikr va g’oya uyg’onishiga sharoit yaratiladi.

Texnologiyaning maqsadli yo’nalishlari: talabaning shaxsiy fazilatlarini ochib berish orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish; talabaning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish; kengaytirilgan va chuqur bilim hamda ko’nikmalarga ega bo’lish uchun pedagogik va texnologik sharoit yaratish; o’z-o’zini tarbiyalash va rivojlantirish.

Muammoli ta’limni tashkil etishga doir mavjud tajribalar tahlili va kuzatishlarimiz mazkur jarayonda quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligini ko’rsatdi:

1. Muammoli vaziyatni yaratish uchun talabaga amaliy yoki nazariy topshiriq berilishi, bu vazifani bajarish jarayonida talaba yangi bilim yoki o’zlashtirishi lozim bo’lgan harakatni kashf qilishi kerak.
2. Talabaga taklif etilayotgan muammoli topshiriq uning intellektual imkoniyatlariga mos kelishi kerak.
3. Muammoli vazifa o’rganiladigan o’quv materialini tushuntirishdan oldin berilishi lozim.
4. Muammoli topshiriqlar quyidagilar bo’lishi mumkin: a) o’zlashtirish; b) savolni shakllantirish; v) amaliy vazifalar. Biroq, muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarni aralashtirib yubormaslik kerak.

Muammoli vazifa faqat yuqoridagi qoidalar hisobga olingan taqdiridagina muammoli vaziyatga olib kelishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat har xil turdagi vazifalar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

6. O‘qituvchi talabaga berilgan amaliy topshiriqni bajarmaslik sabablarini yoki unga ayrim faktlarni tushuntirishning iloji yo‘qligini ko‘rsatib, murakkab muammoli vaziyatni boshqaradi.

Asosiy natijalar. Muammoli ta‘lim texnologiyalarining asosiy tushunchalaridan biri – muammoli vaziyatdir. Muammoli vaziyat muammolarni shakllantirish va hal qilish jarayonida fikrlashning boshlanishini belgilaydi. Muammoli vaziyatlar va shunga mos ravishda muammoli ta‘limning butun texnologiyasi muammoni hal qilish uchun qarama-qarshi ma‘lumotlarni taqdim etish tamoyiliga asoslanadi.

Muammoli vaziyatlar quyidagi qarama-qarshiliklarni faollashtirish natijasida yuzaga keltiriladi: mavzu bo‘yicha ma‘lum va ma‘lum bo‘lmagan masalalar (ma‘lum usullar va uslublar yordamida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish imkoniyati yo‘qligi); egallangan bilimlar va yangi dalillar (juda past yoki yuqori darajadagi bilimlar, hayotiy va ilmiy bilimlar, mavjud bilimlar bilan yangi talablarni mos kelmasligi); mavjud bilimlar bilan uni qo‘llashdagi o‘zgaruvchan amaliy sharoitlar; masalani mumkin bo‘lgan nazariy yechish yo‘llari va tanlangan usul (yo‘l)ni amaliyotga mos kelmasligi (qo‘llab bo‘lmasligi); o‘quv topshirig‘ini amaliy bajarish bo‘yicha erishilgan natijalar va talabada uni nazariy jihatdan asoslashga oid bilimlarning yo‘qligi (yetarli emasligi).

Muammoli vaziyat qachonki, muammoli topshiriq (o‘quv topshirig‘i, savollar, amaliy topshiriq va b.) talabning intellektual imkoniyatlariga mos kelsa, yuzaga kelgan muammoli qarama-qarshiliklarni hal qilish va muammoli vaziyatdan chiqishga undasagina didaktik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Muammoli ta‘lim texnologiyalari ko‘pincha qo‘shimcha ta‘lim usullari nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘xshashligi yondashuvning individual ekanligi va talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan bilimlarning o‘rganilishidir. Demak, "Muammoli ta‘lim texnologiyalari"ga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning analitik qobiliyatini va kundalik hayotda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabil qilish, uning yechimini topish usulini qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, "Muammoli ta‘lim texnologiyalari" o‘ziga xos fikrlash usulini, bilimning mustahkamligini, bilimlarni qo‘llashga ijodiy yondashishni ta‘minlaydi, empirik tadqiqotlarga qiziqish uyg‘otadi, talabalarga o‘zgaruvchan ijtimoiy va kasbiy sharoitlarga moslashish imkonini beradi.

Pedagogik tajribalar va empirik kuzatishlarimiz asosida "Muammoli ta‘lim texnologiyalari"ga asoslangan muammoli dars mashg‘ulotini tashkil qilish bosqichlarini aniqlashtirdik:

1) Asosiy bilimlarni yangilash. Amalga oshirish usuli: jamoaviy so‘rov, kirish bayoni, muammoni hal qilish, keyingi zarur tushuntirishlar va qo‘shimchalar bilan individual og‘zaki javob.

2) Muammoli vazifani tahlil qilish. Amalga oshirish usuli: jamoaviy muhokama, o‘qituvchi tomonidan taqdimot, muammoli tajribani shakllantirish.

3) Muammoni ajratib olish. Amalga oshirish usuli: guruhlarda ishlash (aqliy hujum), individual mulohazalar-bayonlar, jamoaviy muhokama, o‘qituvchi tomonidan taqdimot (muammo og‘zaki shaklda tuziladi).

4) Barcha turdagi taxminlarni ilgari surish. Amalga oshirish usuli: jamoaviy ish, aqliy hujum, individual mulohazalar, o‘qituvchi tomonidan ilgari surilgan taxminlar (bir qator farazlarning paydo bo‘lishi).

5) Istiqbolsiz takliflarni bartaraf etish uchun ilgari surilgan har bir taklifni ishlab chiqish. Amalga oshirish usuli: jamoaviy muhokama, guruhda ishlash, individual mulohazalar, o‘qituvchining taqdimoti va mulohazalari, faraz.

6) Farazlarni isbotlash. Amalga oshirish usuli: guruh ishi, bir necha talabalar yoki guruh vakili tomonidan ketma ket isbotlash, o‘qituvchining o‘zi tomonidan faraz isboti (mini-ma‘ruza, tushuntirish), o‘qituvchi rahbarligida jamoaviy isbotlash (jamoaviy suhbat), isbotlashning izchil tizimining paydo bo‘lishi va uning mohiyatini tushunish.

7) Yechimning to‘g‘riligini tekshirish. Amalga oshirish yo‘li: bajarilgan harakatlarning to‘g‘riligini bosqichma-bosqich tekshirish bo‘yicha vazifalar, dastlabki shartlarning, qarorning xususiyati va mazmuni bilan bog‘liqligi va boshqalar; dastlabki holatga o‘xshash xulosaning to‘g‘riligini boshqalarga isbotlash orqali tekshirish mashqlari.

Tadqiqotda muammoga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonlarini tashkil etuvchi o‘qitish usullarini tizimlashtirishda turli yondashuvlarga – o‘qituvchining o‘quv materialiga kirishi va talabalarning tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil qilishi, talabalarning muammoli vazifalarda va mustaqil ta‘lim faoliyatida ishtirok etishi sifatida namoyon bo‘lgan asosiy yondashuvlarga tayanilgan, ular o‘qituvchining o‘quv materialiga kirishining to‘rtta turi (muammoli bayon qilish, monologik taqdimot, dialogik taqdimot, mantiqiy taqdimot), talabalarning tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil qilishining to‘rtta turi (munozara, integratsiyalash, evristik

vazifalar, guruhlar ishini tashkil qilish) hamda talabalarning muammoli vazifalarda ishtirok etishining to‘rtta turi (axborotlar bilan ishlash, kreativ, tahlil qilish, kognitiv) va mustaqil ta‘lim faoliyatining uch turini (evristik, tadqiqot, dasturlashtirilgan vazifalar) ifodalaydi.

Tadqiqotda talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini o‘rganish natijalaridan kelib chiqib, "Muammoli ta‘lim texnologiyalari"ning asosiy shakllari quyidagicha belgilandi: mustaqil tadqiqot faoliyati, talabalar tajribasi, ekskursiya va dalillarni to‘plash, loyihalash va modellashtirish, suhbat, hikoya, muammoli vaziyat, evristik o‘yin, aqliy hujum (fikriy hujum), hikoya, kichik ma‘ruza, evristik suhbat, muammoli vaziyat, qisman qidiruv, evristik suhbatni muammoli masalalar va vazifalarni hal qilish bilan uyg‘unlashtirish, guruh bilan ishlash, hamkorlikda ishlash.

Xulosalar. Yuqoridagi fikr-mulohazalar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi: axborot va bilimlar jamiyati kontekstida tanqidiy fikrlash – axborot manbalarining ishonchliligini baholash; zarur ma‘lumotlarni topish va qayta ishlash; taxminlar, xulosalar, dalillar, farazlar, e‘tiqodlarni yaratish; muammoni tan olish va uni hal qilish yo‘llarini topish; kerakli ma‘lumotlarni to‘plash va tartibga solish; tasdiqlanmagan taxminlar va baholarni tan olish; idrok etishda aniqlik va selektivlik; faktlar va ma‘lumotlarni talqin qilish; dalillarni baholash; mantiqiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish; o‘z e‘tiqod tizimini qurish; muammoni hal qilishning turli invariant usullarini topish; fikrlash ijodkorligi; fikrlarning o‘ziga xosligi; nostandart, g‘ayrioddiy yechimlar topish qobiliyati; bilimlar generatsiyasi; muayyan kognitiv doiradan tashqariga chiqish; bilishning irratsional elementlarini ishlab chiqish kabilarni ta‘minlaydigan refleksiv-baholovchi faoliyat sifatida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Halpern, Diane F. (2006), „The Nature and Nurture of Critical Thinking“, in Sternberg, Robert J; Roediger Iii, Henry L; Halpern, Diane F (muh.), Critical Thinking in Psychology, Cambridge University Press, 1–14-bet, doi:10.1017/cbo9780511804632.002, ISBN 9780511804632.
2. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.
3. Белов М.В., Новиков Д.А. Модели технологий. – М.: Ле-нанд, 2019. – с. 160.
4. Дмитренко Т.А. Профессионально-ориентированные технологии обучения в системе высшего педагогического образования: дисс. ... док. пед. наук. 2004. – с. 442.

TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENLIK VA UNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YONDASHUVLAR HAMDA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna,
Buxoro davlat pedagogika insituti o'qituvchisi
nargizajurayeva4790@gmail.com,
<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil qilish asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllanishi bayon etilgan va bu jarayonda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarning roli tahlil qilingan. Talabalarning kasbiy faoliyatini olib borishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar keltirib o'tilgan. Kompetensiyani shakllantirishda hamda talabaning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim bo'lgan xususiyatlar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, kasbiy faoliyat, kompetensiya, kompetentlik, mustaqil ta'lim, axborot texnologiyalari.

ПОДХОДЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЁ РАЗВИТИЮ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ

В данной статье описывается формирование профессиональных компетенций на основе эффективной организации самостоятельного обучения студентов и анализируется роль информационных технологий, используемых в этом процессе. Отмечены аспекты, на которые следует обратить внимание при осуществлении профессиональной деятельности студентов. Широко освещены особенности, имеющие значение в формировании компетентности и повышении профессиональной компетентности студента.

Ключевые слова: студент, профессиональная деятельность, компетенция, компетентность, самостоятельное образование, информационные технологии.

APPROACHES TO PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS DEVELOPMENT IN THE EDUCATIONAL SYSTEM AND THEIR DEVELOPMENT STAGES

This article describes the formation of professional competencies based on the effective organization of independent education of students and analyzes the role of information technologies used in this process. Aspects that should be paid attention to in carrying out the professional activities of students have been mentioned. The features that are important in the formation of competence and in improving the professional competence of the student are widely covered.

Keywords: student, professional activity, competence, independent education, information technologies.

Kirish. Ta'lim va tarbiya masalasi bir necha ming yillik asosga ega bo'lsa-da, zamonaviy axborot almashish vositalari hamda elektron qo'llanmalar ta'lim tizimida keng qo'llanilishi kengayib borishi natijasida, doimiy tarzda zamoviy talablariga moslashib, fan-texnika yutuqlariga hamohang ravishda takomillashib boradigan jarayon hisoblanadi. Hozirgi vaqtda in n ovatsion ta'lim tizimin in g barpo etilishi, o'quv jarayon iga pedagogik va axborot-kommun ikatsiya texn ologiyalari yutuqlaridan o'z o'rn ida va samarali foydalan ish bilan chambarchas bog'liq. Bu ayn iqsa o'qitish jarayon ida pedagogik texn ologiyalar, o'qitishn i in n ovatsion metodlar bilan bir qatorda axborot-telekommun ikatsiya texn ologiyalarga asoslan gan o'qitishn in g yan gi shakl, vositalaridan foydalan ishga asoslan gan . Bugun gi kun bo'lajak mutaxassislariga faqatgin a tayyor bilimlarn i berib qolmay, ularga elektron -axborot hamda raqamli texn ologiya man balaridan foydalan ishn i o'rgatish, zamon aviy texn ologiyalarn i ixtiro qilish usullari hamda vositalarin i yaratish bugun gi kun n in g muhim masalalardan hisoblan adi. Jumladan, XX asr oxiri, XXI asr boshidan boshlab dunyo ilm-fani va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv yuzaga keldi. Bunga sabab, mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim, ko'nikmalari va malakalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishidir. So'ngi o'n yillikda ta'lim samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat qilingan ishlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilan bog'liq. Mazkur tushunchalar XX asrning 70-yillarida muomalaga kirib keldi. Bunda, ishbilarmonlik munosabatlarida Amerika Qo'shma Shtatlarida qo'llanilgan

kompetensiya soʻzining mazmuni kasbiy bilim va koʻnikmalarga qarama-qarshi qoʻyilib, “istalgan kasbiy faoliyatning mustaqil universal tashkil etuvchisi sifatida” qaralgan. Shunday qilib, kompetensiya muammosi taʼlim sohasiga kirib keldi hamda vaqt oʻtishi bilan unda yetakchi oʻrinni egalladi. Taʼlimda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixiga oid materiallarining tahlili asosida quyidagi maʼlumotlarni keltirish mumkin [1].

Asosiy qism. “Kompetentsiya” va “kompetentlik” soʻzlari 1960-1970 yillardan boshlab ilk bor ilmiy adabiyotlarga kirib keldi. Angliyalik olim D.Xayms tomonidan “kommunikativ kompetentlik” tushunchasi kiritilishi, tilshunoslik nazariyasiga nisbatan kompetensiya atamasining amerikalik lingvist N.Xomskiy tomonidan “Sintaksis nazariyasi aspektlari” nomli asarida “biz kompetensiya (oʻz tilini biladigan, gapiradigan, eshitadigan) bilan isteʼmol qiladigan (konkret hollarda tildan real foydalanadigan) orasida fundamental farqni ajratamiz” yoki “insonning qandaydir faoliyatni bajarish qobiliyatidir” kabi fikrlarini keltirib oʻtish mumkin. Bunda shaxsning oʻquv, kasbiy va h.k. faoliyati nazarda tutiladi. Bunday qarashlar XX asrning 60-yillarida kompetentlik va kompetensiya tushunchalari orasidagi farqni anglashga sabab boʻldi.

XX asrning 70-yillarida kompetensiya tushunchasi ishbilarmonlar muomalasiga kirib kelgan boʻlsa, bunda kompetensiya - kasbiy bilim va koʻnikmalarga qarshi qoʻyilgan. Yaʼni, kompetensiya va uning turli talqinlari bevosita ularga ilmiy-uslubiy tadqiqot zaruratini vujudga keltirdi. Shunday qilib, kompetensiya muammosi taʼlim sohasiga ham kirib keldi. 1970-1990 yillarga kelib, muloqot qilishni oʻrganishda kompetensiya va kompetentlik kategoriyalari ishlatila boshlandi va bu tushunchalarning mazmuni ishlab chiqila boshlandi. Bunda kompetentlikning “tayyor boʻlmoq”, “layoqat” degan kategoriyalari taqdim etildi va “javobgarlik”, “ishonch bilan” kabi psixologik sifatleri qayd qilindi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari yuzasidan koʻplab olimlar, mutaxassislar fikr bildirishdi. Masalan, J.Ravanning 1984-yilda chop etilgan “Zamonaviy jamiyatda kompetentlik” nomli asarida: “u juda koʻp miqdordagi komponentlardan tashkil topgan boʻlib, ulardan koʻpchiligi bir- biriga nisbatan mustaqildir...., ayrim komponentlar koʻproq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari - emotsional sohaga tegishli... Bu komponentlar oʻz-oʻzini samarali boshqarishda bir-birini toʻldirishi mumkin” degan fikrni ilgani suradi. XXI asrda taʼlim boʻyicha xalqaro Yevropa kengashida Jak Delor “Taʼlim: yashirin xazina” nomli nutqida “taʼlim tayanadigan toʻrtta ustunni” taʼriflab beradi, bular: bilishni oʻrganish; bajarishni oʻrganish; birgalikda yashashni oʻrganish; yashashni oʻrganish.

Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. Jak Delor fikricha, bajarishni oʻrganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega boʻlish, balki keng maʼnoda kompetent boʻlish yaʼni, guruhlarda ishlay olish va ish vaqtida yuzaga keladigan juda koʻp murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olish nazarda tutiladi. Shuni taʼkidlash joizki, “kompetentlik” tushunchasi bilan birgalikda. uning sinonimi sifatida “malakalar bazasi” atamasi ishlatilgan hollar ham mavjud. B.Oskarson fikriga koʻra, ular keng qamrovli boʻlib, mutaxassis-kadrlarning maxsus kasbiy xislatlariga qoʻshimcha ravishda rivojlanadi. Bunday tayanch kompetensiyalar: jamoada samarali ishlash, rejalashtirish, muammolarni yechish, ijod qilish, peshqadam boʻlish, tadbirkorlik, tashkilotchilik hamda kommunikativ koʻnikmalarni oʻz ichiga oladi.

1990-yillardan boshlab kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida taʼlimga nisbatan qoʻllash boʻyicha tadqiqot ishlari olib borildi. Xususan, A.K.Markovanning (1993-1996 y.) ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik maxsus predmet sifatida qaralgan boʻlsa, oʻqituvchi kompetentligiga tegishli boʻlgan ishlar L.M.Mitin, L.A.Petrovskaya, N.V.Kuzmin, L.P.Alekseev va boshqalar tomonidan keng oʻrganildi. Mazkur yondashuv rivojlanishining ushbu bosqichining yana bir jihati shundaki, YUNESKO materiallari va hujjatlarida taʼlimdan kutiladigan natija sifatida bir qancha kompetensiyalar ajratib olina boshladi. Xususan, 1996-yilning martida Bern shahrida Yevropa Kengashi dasturi boʻyicha oʻtkazilgan simpoziumda, taʼlimni isloh qilishda tayanch kompetensiyalarni belgilash orqali taʼlim olish hamda muvaffaqiyatli ishlashga keng yoʻl ochilishi xususidagi masala koʻriladi. V.Xutmaxerning umumlashtiruvchi maʼruzasida kompetensiya tushunchasi koʻnikma, kompetentlik, qobiliyat, mahorat kabi tushunchalar bilan bir qatorda ishlatilsada uning mazmuni hali toʻla ochib berilmaganligiga toʻxtalib oʻtiladi. Maʼruzachining taʼkidlashicha, “kompetensiya” tushunchasi, tushunchalar maydonida “bilamanki, nima...”, dan koʻra “bilamanki, qanday....” tushunchasiga yaqinroqdir.

Yevropalik mutaxassis V.Xutmaxer, Yevropa kengashi tomonidan qabul qilingan “Yevropa yoshlari ega boʻlishi kerak boʻlgan” beshta tayanch kompetensiyalarning taʼriflarini keltiradi [2]:

-ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar: jamoada qaror qabul qilishda qatnashish va u haqida javobgarlikni his etish. Zoʻravonlik ishlatmasdan mojarolarni hal etish; demokratik institutlar ishini yaxshilash va qoʻllab- quvvatlash;

-koʻp madaniyatli jamiyat hayoti bilan boglangan kompetensiyalar. Rasizm va ksenofobiya koʻrinishlarini nazorat qilish, notolerantlik muhitining rivojlanmasligi uchun taʼlim orqali yoshlarga

madaniyatlararo kompetensiyalarni ya’ni, o’zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyatga, tilga va dinga ega bo’lgan insonlar bilan birgalikda yashay olish kabi zaruriy xislatlarni singdirish;

-og’zaki va yozma aloqaga kirishish bilan bog’liq kompetensiyalar: Bunday kompetensiyalarga ega bo’lmagan insonlar ijtimoiy jihatdan izolyatsiyalanib qolish xavfiga duchor bo’ladilar. Bu kontekstda kommunikatsiyaga kirishish uchun o’z ona tilidan tashqari yana boshqa tilni bilishi muhim ahamiyatga egaligi;

-jamiyatni axborotlashtirishi bilan bog’liq kompetensiyala: Ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo’lish uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajrata bilish uchun bunday texnologiyalarni bilish;

kasbiy va ijtimoiy hayot kontekstiga ko’ra butun hayoti davomida uzluksiz ravishda o’qib o’rganib borishni nazarda tutadi.

B.Oskarson fikriga asoslanib 1998-yilda S.Shoyana quyidagi: “asosiy malakalar” masalan, savodxonlik, hisob-kitob olib bora olish; “hayotiy ko’nikmalar”, masalan, o’z-o’zini boshqarish, boshqa insonlar bilan munosabat; “tayanch malakalar”, masalan, kommunikativlik, muammolarni yechish; “ijtimoiy va fuqarolik malakalari”, masalan, ijtimoiy faollik, qadriyatlar; “band bo’lish uchun malakalar”, masalan, axborotni ishlovdan o’tkazish; “tadbirkorlik malakalari”, masalan, ishbilarmonlik imkoniyatlari; “boshqarish malakalari”, masalan, maslahat berish, analitik mushohada qilish; “keng malakalar”, masalan, tahlil qilish, rejalashtirish, nazorat kabi mazmundagi kompetensiya tushunchalarini kiritdi.

Ma’lumki axborotlashgan jamiyatda axborot hajmi ta’lim oluvchilar tomonidan ularni o’zlashtirish imkoniyatlaridan ancha yuqori, shu munosabat bilan, unda yashaydigan inson uchun muayyan muammoni hal qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotning hajmini mustaqil izlash va topish ko’nikmasi va undan foydalanish bo’yicha o’z faoliyatini to’g’ri tashkil etish, shuningdek natijalarning nazorat va tuzatishlarni amalga oshirishga asos bo’ladi.

Shu munosabat bilan o’qitish jarayonida o’quvchilarga maqsad va vazifalarni o’zlari shakllan tirishi, maqsadga erishish usullarini rejalashtirish, belgilangan reja bo’yicha harakat qilish, nazorat va tuzatishni amalga oshirish, shuningdek predmetli xarakterdagi universal o’quv harakatlarini egallash asosida maqsadga erishganlikning muvafaqiyatlilik darajasini baholash zarur.

O’qituvchi o’quv jarayonini qo’llab-quvvatlovchi va muvofiqlashtiruvchi, shuningdek, o’z vaqtining ma’lum qismini ta’lim oluvchi shaxsi bilan o’zaro ta’sir sharoitida eng mahsuldor bo’lgan tarbiyaviy ishga ajratuvchi shaxsga aylana di.

Keltirilgan ta’riflar esa oliy ta’lim muassasi raqamli-ta’lim texnologiyalari muhiti tushunchasini quyidagicha aniqlashtirishga imkon berdi: “Oliy ta’lim muassasi raqamli-ta’lim texnologiyalari muhiti bu zaruriy axborotga tezkor kirishni ta’minlovchi va ta’lim jarayonini ishtirokchilari o’rtasida subyektaaloqasini tashkil etuvchi oliy ta’lim tizimi dasturiy, texnik, o’quv-metodik, tashkiliy-boshqaruv kompetensiyalari majmuasi. Bunda dasturiy komponent o’quv jarayonini qo’llab-quvvatlash uchun mo’ljallangan turli platformalardan tashkil topgan bo’lib, unga oliy ta’lim muassasining rasmiy sayti, Moodle, Hemi o’qitishni boshqarish tizimi, bilvosita o’zora ta’sirlashuv uchun zarur bo’lgan vositalar (elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) kiradi. Raqamli-ta’lim texnologiyalari muhitining tashkil etuvchisi sifatida texnik komponentga oliy ta’lim muassasasini jihozlashga tegishli bo’lgan texnik vositalar (oliy ta’lim muassasasining lokal tarmoqlari, serverlar va kompyuterlar va boshqalar) kiradi. O’quv-metodik komponent esa ta’lim jarayonini tashkil etish bo’yicha ishlab chiqilgan metodik materiallarni o’z ichiga oladi. Tashkiliy-boshqaruv komponenti esa amaldagi o’quv-metodiy hujjatlarni (malaka talablari hamda davlat ta’lim standartlari va boshqalar) o’zida aks ettiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ta’limni raqamli ta’lim vositalaridan foydalanib loyihalash uchun quyidagi nazariya va metodikalarni amalga oshirishingiz muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Maqsadlarni belgilash: talaba o’zining o’rganish maqsadlarini to’laqonli ongli ravishda anglashi hamda buning uchun zaruriy o’quv adabiyotlarni osondan murakkabga qarab to’g’ri tanlashi lozim. Bu, o’z navbatida talabani maqsadlariga qarab, qaysi mavzularni o’rganishni hamda vaqtni to’g’ri taqsimlashni aniqlashga yordam beradi.

2. Boshqaruv va tartiblash: O’rganish jadvalini tuzish hamda boshqarish uchun raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishni tashkil etish. Jadvalni haftalik yoki kunlik reja shaklida tuzing orqali uni amalga oshirish.

3. Materiallarni tanlash: O’rganish jarayonida kerak bo’lgan ma’lumotlarni, darsliklarni, onlayn kurslarni hamda qo’shimcha materiallarni tanlash. Bu orqali o’zining o’rganish maqsadlariga qarab, qanday materiallardan foydalanish lozimligini aniqlashga yordam beradi.

4. Amaliyotlar va sinovlar: O‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash va uni natijasini sinovlar o‘tkazish orqali tekshirib borish. Bu, o‘zning o‘rganish darajasini sinash hamda bo‘shliqlarni o‘z vaqtida bartaraf etish orqali rivojlanishini bardavom bo‘lishga yordam beradi.

5. O‘zgarishlarni qabul qilish: O‘rganish jarayonida o‘zgarishlarni qabul qilish va uni amaliyotda joriy etish uchun zarur ko‘nikmalarni o‘zlashtirish. Bu o‘zgarishlar sizning o‘rganish jarayoningizda rivojlanishga yordam beradi.

6. Baholash va rivojlanish: O‘rganish jarayonida o‘zning rivojlanishini baholashini va uni mustaqil o‘rganishning keyingi bosqichlarini belgilash uchun qo‘llanishini bilish.

7. Ko‘proq hamda samarali foydalanish: Raqamli ta‘lim vositalaridan mustaqil o‘rganishni qulay va samarali tashkil etish uchun bir nechta funksiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, interaktiv darsliklar, o‘qituvchilar va mentorlar bilan onlayn muloqotlar, elektron testlar, sinovlar va h.k. kabi.

Matematika va informatika mutaxassisligida “Matematika va informatika o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda talabalarning kompetentligini oshirishda qaratilishi lozim bo‘lgan omillar quyidagilar bo‘lib hisoblanadai:

- talabalarlarni amaliy ishlarini yoritib borish - talabalarni matematika va informatika amaliyotiga o‘qish uchun amaliy masalalar yoki dasturlarni ishlash imkoniyatini amaliy dasturni ishlatib ko‘rish orqali ularda ko‘nikmalarni oshirish muhim.

- ishbilarmonlik qobilayati o‘tirish - talabalarni guruhlarda ishlashini doimiy tashkil etish orqali bu jarayonda turli xil dasturlar, mobil ilovalar yordamida kasbiy amaliyotda duch kelish mumkin bo‘lgan vaziyatlarni to‘g‘ri yechish usullarini va bu jarayonda qanday yechim topishni ularni shaxsiy yechimlarini tinglash orqali talabalarda ishbilarmonlikni o‘stirish.

- nazariy bilimlarni amaliyotda joriylantira olish - talabalarga nazariy bilimlarni tushunarli va sodda (ta‘rif va teorema) qilib tushuntirish va talabalar bilan birgalikda amaliyotda duch kelayotgan muammolarni birgalikda hal qilishga yordam berish.

- tahliliy ta‘lim - masalalarni yakka tartibda yechish, yechish usullarini guruh bilan muhokama qilish orqali tahliliy ta‘lim olish, yordam berish hamda yordam almashish orqali talabalarlar bilan individual raqobatni shakllantirish.

-interaktiv o‘quv - talabalarni o‘quv jarayonida faol qatnashishga, kasbiy rivojlanishga bo‘lgan munosabatni yanada oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish.

-qo‘llab-quvvatlash - talabalarni darsda kasbiy faolligini e‘tirof etgan holda, ularni qo‘llab-quvvatlash, aniq maqsadlarni belgilash hamda ko‘rsatilgan masalalarni hal qilish uchun yordam berish.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarning egallanishi va ularni o‘z faoliyati davomida va dars jarayonida davomiy qo‘llay olishidir. O‘qituvchi albatta, alohida bilim ko‘nikmalarni egallashi bilan birga, ma‘lum bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha bilimlar harakatlarni o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogdan mutaxassislik bilimlarini boyitib borish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo‘llay bilish, izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlab o‘z faoliyatiga qo‘llay olish mahoratini ham talab etadi.

Kasbiy kompetentlikni oshirishda pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayonini loyihalashtiriladi va buning natijasida talabalarning kasbiy faoliyatda yutuqqa erishish ko‘rsatkichi oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi. Maqsadga yo‘naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta‘limni alohida o‘qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo‘lgan ta‘lim texnologiyasi g‘oyasida mujassamlangan.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda ta‘lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishni, olgan bilimlarini yaqin kelajakda emas, bugunning o‘zida amaliyotga, hayotga qo‘llay olishni taqozo etadi. Shu o‘rinda, komillik - bu ta‘limot, insondagi har tomonlama insoniy, ilmiy, e‘tiqodiy va boshqa sohalarida eng yuksak kamolatga yetgan xislatlarni nazarda tutishi hamda o‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma‘naviyatida komil insonlarning voyaga yetishiga katta e‘tibor qilganligini aytib o‘tish joiz. Xususan, mustaqillik davrlarida ta‘limga qo‘yilgan “Barkamol avlod”ni tarbiyalash masalasining bosh g‘oyasi aynan kompetent kadrlarni tayyorlashga monand ekanligi, “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mazmuni va mohiyati jihatidan Sharqda ming yillar oldin paydo bo‘lgan hamda bu talablar bugungi kunda zamonga moslashgan holda yangicha talqinda o‘z ifodasini topmoqda deyish mumkin.

Har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlar bilan tarbiyalangan, milliy hamda ma‘naviy qadriyatlarga sadoqat bilan xizmat qila oladigan, yangicha fikrlaydigan, o‘z shaxsiy hamda fuqarolik qarashlariga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o‘zida mujassamlashtira olgan doimiy

shaxsiy rivojlanishni o‘z oldiga vazifa sifatida qaraydigan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Нестеров В.В. Педагогическая компетентность: учеб. пособие / В.В.Нестеров, А.С.Белкин. - Екатеринбург, 2003 -154 с.
2. Хеннер Е.К. Формирование ИКТ-компетентности учащихся и преподавателей в системе непрерывного образования. –М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, -2008. –188 с.
3. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: 2019. 219-b.
4. Ubaydulloyev A.N. Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. B.: 2023. 147-b.
5. Jo‘rayeva N.O. Ta’lim jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ayrim ko‘rsatmalar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. №3. 2021. -170-176-b

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Jumanova Fotima Uralovna,

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri
zumanovafatima@gmail.com*

Maqolada yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash va jahondagi o‘z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etish, ta’lim-tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni o‘qituvchilar o‘rtasida rivojlantirishning muhimligi bayon qilinmoqda. O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni o‘rganish, o‘quvchilarning kreativligini oshirish, muammolarni yechish va ishlab chiqish, so‘nggi ma’lumotlarni doimo kuzatish kabi harakatlar qo‘llashni tavsiya qiladi.

Kalit so‘lar: kasbiy kompetentlik, innovatsiya, o‘qituvchi, kasbiy, zamonaviy, kreativlik, salohiyat, adaptasiya, kompetent, konseptual, bilim, malaka, ko‘nikma.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

В статье излагается важность обеспечения подрастающего поколения современными знаниями и создания сильного носителя знаний, способного конкурировать со своими сверстниками по всему миру, развития инноваций в сфере образования среди педагогов. Он рекомендует применять такие действия, как изучение новых технологий, повышение креативности учащихся, решение проблем и разработка, постоянное отслеживание последней информации для развития инновационной компетенции учителей.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, инновации, учитель, профессионализм, современность, креативность, потенциал, адаптация, компетентность, концептуальность, знания, компетентность, навыки.

CONCEPTUAL BASIS FOR DEVELOPING INNOVATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN NEW UZBEKISTAN

The article describes the importance of providing the younger generation with modern knowledge and gaining strong knowledge that can compete with their peers in the world, developing innovations in education among teachers. It recommends the use of actions such as studying new technologies, increasing student creativeness, solving and developing problems, constantly monitoring the latest information to promote innovative competence of teachers.

Keywords: professional competence, innovation, teacher, professional, modern, creativity, capacity, adaptation, competency, concept, knowledge, competence, skills.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o‘z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangandir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta’lim-tarbiya olishida o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta’lim yoshida o‘ziga xos e’tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan darak beradi.

Asosiy qism. «Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir» - deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev (Yangi O‘zbekiston Strategiyasi) asaridan. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash” to‘g‘risidagi farmoni joriy etildi. Mazkur Konsepsiyani amalga oshirishdagi asosiy prinsiplardan biri - bu ta’lim tizimi tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o‘qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ta’lim

muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon.

Millatimizga xos bo'lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo'shqinlik, qat'iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta'minlovchi sifatlar hisoblanadi. Chunki barkamol yoshlar yurtning ertangi kunini belgilaydi. Yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o'rgatish sirlari haqida so'z borar ekan, bu yerda o'qituvchi murabbiylar, pedagoqlarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini bilimli, jonkuyar, tajribali murabbiylar qo'lga topshirishni farz deb bilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va texnologiyalar davrida ham pedagogning jamiyatdagi o'rni va mavqei mustahkamlanib, uning mahoratiga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda. Shu bois, bugungi zamonaviy o'qituvchi tom ma'noda o'z fikri, bilimi, salohiyati bilan talabalarni ishontira oladigan boshqaruvchi, axbort texnologiyalari va chet tillarni mukammal o'zlashtirgan tajribali mutaxassis bo'lmog'i lozim. Buning uchun pedagog intiluvchan, darslarni maroqli o'ta oladigan, kreativ va yuqori malakaga ega bo'lishi kerak. Fikrimizni davom qilishdan oldin avvalambor, innovatsion kompetensiya nima? va bu jamiyat va insoniyat hayotida qanchalik muhim ro'l o'ynaydi degan savollarga javob topaylik.

Innovatsion kompetensiya - bu insonning yangi va foydali ideyalarni yaratish, ularni amalga oshirish va jamiyatda yangiliklar kiritishga murojaat qilishga qodir bo'lishi mumkin bo'lgan tayyorlik va malakalardir. Bu o'rganish, muhokama qilish, ishlab chiqish va tatbiq etish, tahlil qilish, tajriba olish va muammolariga samarali yechim topish, hamda muassasalar orasida innovatsiyalar o'rnatishga bo'lgan qodirliklarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion kompetensiyalar, mavzularning orasidagi bog'liqlikni tushunish, muammolarni kreativlik bilan hal qilish, risqni olg'a bermaslik va yangi yondashuvlarga bo'lgan ochiqlikni o'z ichiga oladi. Bu tayyorliklar, boshqa so'z bilan, insonni o'z faoliyati, kasbiy rivojlanishi va jamiyat bilan hamkorlikda yangi vaqtli yondashuvlarni topish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalardir. Xo'sh bugungi axborotlashgan va globallashgan davrda o'qituvchilar kompetensiyasini rivojlantirish qay darajda muhim. O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi harakatlar muhim bo'ladi:

Yangi texnologiyalarni o'rganish: So'nggi yangiliklar va texnologiyalarni kuzatib borish, ularni o'rganish va o'quvchilarga o'rgatish. O'quvchilarning kreativligini oshirish: O'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilish va yangiliklar tashqi ta'sirchanliklarga ochiq bo'lish uchun maqbul qilish.

Muammolarni yechish va ishlab chiqish: O'quvchilarga muammolarini hal qilish uchun fikr va xalqaro hamkorlikda ishlab chiqish va tahlil qilishni o'rganish. So'nggi ma'lumotlarni doimo kuzatish: So'nggi rivojlanishlar va innovatsiyalarni chuqur tushunish uchun ilmiy maqolalar, kitoblar va onlayn resurslardan foydalanish.

Tadbirlarga qatnashish va tanlovlar: O'qituvchilar uchun innovatsion tadbirlarga va tanlovlarqa qatnashib, o'zlarini yaxshi ko'rsatish orqali rivojlantirish. O'qituvchi jamiyatiga integratsiya: Yangi fikrlar va innovatsiyalar o'qituvchi jamiyatiga tashrif buyurish va ularda ishtirok etish, o'quvchilarni yanada ilg'or qiladi.

O'quv dasturini rivojlantirish: O'qituvchilar o'quv dasturlarini yangilash, boshqa o'qituvchilar bilan tajribalar almashish va yangi dasturlarni sinash orqali innovatsion kompetensiyani oshirishadi. Bu tadbirlar o'qituvchilar uchun innovatsion kompetensiyani rivojlantirishda muhim bo'ladi va ularni yangiliklarni qabul qilish, rivojlanish va amaliyotga o'tkazishga ilhomlantiradi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: “Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bulsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi”. Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogic faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi.

O'qituvchilar kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi usullar foydali bo'lishi mumkin:

• Ilmiy-metodik tayyorgarlik: So'nggi ma'lumotlarni kuzatib borish va yangi o'qitish texnikalarini o'rganish.

• Ko'nikma va tadqiqotlar: O'z sohaga oid ko'nikma va tadqiqotlarni o'rganish orqali professional tayyorgarlikni oshirish.

- Pedagogik texnologiyalar: So‘nggi pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va o‘quv jarayonlarini qulaylashtirish.
- Tatbiqiy malaka: O‘z malakangizni amaliy ravishda mustahkamlash uchun o‘qitishning ichkiy va tashqi kurslarda qatnashish.
- O‘quv jarayonlarini diversifikatsiya qilish: Murabbiylik va boshqa o‘qitish usullarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilarni yanada qiziqitirish.
- O‘quvchilar bilan axborot almashish: O‘quvchilar bilan ishlash orqali ularning talablarini tushuntirish va o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlikni oshirish.

Bu qadamlar o‘qituvchilar uchun kompetensiyani rivojlantirishda yordam berishi mumkin.

O‘qituvchining mahorati shundan iboratki, u: og‘zaki bo‘lmagan va og‘zaki muloqot vositalaridan foydalangan holda muhokama yoki suhbat o‘tkazish; tinglovchilar oldida gapirish; nizolarni oldindan bilish va oldini olish; sherikda birgalikdagi faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otish va uni muloqot orqali obyektiv idrok etish; konstruktiv idrok etish, tanqid qilish va tanqidni hisobga olish. N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiv qobiliyatlar universitet o‘qituvchisining kommunikativ qobiliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘zining muloqot sherigi tomonidan qanday qabul qilinishini obyektiv tushunishga imkon beradi. Ta’limni modernizatsiya qilish va optimallashtirish jarayonida o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasiga bir qator talablar qo‘yiladi. Oliy maktab o‘qituvchisining kasbiy faoliyati doimiy muloqot bilan bog‘liq: hamkasblar, talabalar va muassasa ma’muriyati bilan. Shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablar ortib bormoqda. Ta’limning hozirgi bosqichida ishning sifati, maqsadi va eng yaxshi natijalarini oshirish uchun o‘qituvchi kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga e’tibor qaratishi kerak. Pedagogik malakasini oshirishdan tashqari, pedagogik mahoratini tegishli darajada saqlash va rivojlantirishda samarali pedagogik o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, zamonaviy pedagogik tajribani o‘rganish bo‘yicha mustaqil uslubiy ishlar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina mutaxassislar kompetensiya turlari bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi mezonlarini qayd etadilar: umumiy madaniy, kommunikativ, shaxsiy, umumiy kasbiy va o‘z-o‘zini tarbiyalash. Men e’tiborimni o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga batafsilroq qaratmoqchiman. O‘qituvchining kasbiy mahoratini bir marta va abadiy shakllantirib bo‘lmaydi. Amaliy faoliyatda tajriba orttirish jarayonida o‘qituvchining malakasini oshirish o‘qituvchining o‘z ishiga va o‘ziga nisbatan talabchan va tanqidiy munosabati asosida amalga oshirilishi kerak. Ideal holda, doimiy kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini o‘qituvchining kasbiy mahoratining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Psixologik-pedagogik amaliyot va nazariya sohasidagi zamonaviy ijtimoiy tajriba o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarning taraqqiy etishiga e’tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalar, ijobiy kasbiy "Men"- siymosi, ba’zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag‘rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullinishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik-psixologik trening-seminar, ish o‘yini, mahorat darsi va turli amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilish, malakaviy amaliyotning rolini oshirish, har bir talabaga o‘zining pedagogik faoliyatga xos imkoniyatlari va mahoratini namoyon etishi mumkin bo‘lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o‘rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko‘rib borish lozim.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagog mutaxassislardagi kasbiy moslashish darajasining tezlashuvi nafaqat o‘zlashtirilgan kasbiy bilimlar, balkim mavjud tajriba, faoliyat sohasidan xabardorlik kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu esa oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayoniga bo‘lajak mutaxassillardagi kasbiy bilimlarning faol va samarali o‘zlashtirilishi hamda sohaga yo‘nalgan ish tajribalarining qaror topishiga xizmat qiluvchi innovasion g‘oyalarni kiritish zaruratini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Jumanova N., & Abirqulova S. (2022). O‘smirlik davrida agressiv holatlar rivojlanishining psixologik jihatlari. // Журнал педагогики и психологии в современном образовании, 2(4).

2. Jumanova F. U., & Sayupova A. M. (2022). Why creativity is the most important quality you have. // *Scientific progress*, 3(3), 474-476.
3. Жуманова Ф. У. (2022). Компетенции, необходимые преподавателю высшего образования в новый период примирения: <https://doi.org/10.53885/edinres>. // *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (10), 115-122.
4. Uralovna J. F., & Mirzabekovna S. A. (2022). How to develop critical thinking in children. // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 4-6.
5. Uralovna J. F., Mannopovna J. O., & Zoirovna, T. F. (2022). Pedagogik ta’lim klasteri asosida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy ko’nikmasini amaliy shakllantirishning nazariy xususiyatlari. // *Research and education*, 1(1), 206-211.
6. Жуманова, Ф. У. (2022). Янги ўзбекистонда умумтаълим мактабларида тарбиявий ишларни ташкил этиш ва бошқариш. // *Архив научных исследований*, 2(1).
7. Sayupova A. M., & Jumanova F. U. (2022). Early diagnostic analysis of creativeness ability of school-aged children. // *International conference on learning and teaching*, 1(4), 296-299.
8. Uralovna J. F. (2023). Social and pedagogical characteristics of the development of creativity of children in preschool educational organizations. // *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 20-23.
9. Uralovna J. F. (2023). Yangi o’zbekiston sharoitida bo’lajak o’qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish. // *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 392-398.
10. Uralovna J. F. (2024, March). Pedagogika metodologiyasi va asosiy metodologik yondashuvlar. // *In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 3, No. 3, pp. 86-95)*.
11. Uralovna J. F. (2024). Innovatsion ta’lim shakllarini amaliyotga joriy etish. // *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(1), 123-127.
12. Uralovna J. F. (2024, March). Ta’limning rivojlanish yo’nalishlari (taraqqiyot tendensiyalari). // *In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 3, No. 3, pp. 177-184)*.
13. Uralovna J. F. (2024). Principles of development of innovative competence of future teachers in the conditions of new. // *Academia Repository*, 5(2), 355-365.
14. Uralovna J. F. (2024). Pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarni qo’llash. // *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 39(1), 30-38.
15. Uralovna J. F. (2024). Bo’lajak o’qituvchilarda innovatsion kompetentlikni oshirishning pedagogik ta’limiy muhitini yaratish. // *Science and innovation*, 3(Special Issue 18), 847-850.
16. Uralovna J. F. (2024). Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishning innovatsion modelini yaratish. // *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 39(1), 23-29.
12. Гулбоев Акбар Тухтаевич Формирование профессиональных компетенций экономистов // *Вестник науки и образования*. 2020. №5-2 (83).
13. Гулбоев А. Т. Аспекты и особенности целостного педагогического процесса // *Вопросы науки и образования*. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.

O‘QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA NAZARIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Jumanova Xafiza Xoliqulovna,

*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
jumanovaxafiza5@gmail.com*

Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’limning bir qator jihatlari ko‘rib o‘tilgan. Xususan kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladigan huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Kompetensiya tushunchasi xorij tajribasi asosida tahlil qilindi. O‘quvchilarda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga kasbiy pedagogik jihatdan yondashuvlar yoritildi.

***Kalit so‘zlar:** kompetentlik, baholash, huquqiy kompetentlik, ma’lumot, o‘qituvchi, o‘quvchilar, munosabat, shaxsiy, amaliy, ijtimoiy, tashabbuskor.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

В данной статье рассматривается ряд аспектов образования на основе компетентностных подходов. В частности, обсуждались виды профессионально-практических компетенций и этапы их развития. Освещены педагогические подходы к развитию правовых компетенций, формируемых у учащихся в процессе преподавания педагогической науки. Понятие компетентности было проанализировано на основе зарубежного опыта. Освещены профессионально-педагогические подходы к процессу формирования правовых компетенций у учащихся.

***Ключевые слова:** компетентность, оценка, правовая компетентность, информация, преподаватель, учащиеся, отношение, личностная, практическая, социальная, инициатива.*

THEORETICAL PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF LEGAL COMPETENCES IN STUDENTS

This article examines a number of aspects of education based on competency-based approaches. In particular, the types of professional and practical competences and their development stages were discussed. Pedagogical approaches to the development of legal competences formed in students in the process of teaching the science of education are highlighted. The concept of competence was analyzed based on foreign experience. Professional pedagogical approaches to the process of formation of legal competencies in students were highlighted.

***Keywords:** competence, assessment, legal competence, information, teacher, students, attitude, personal, practical, social, initiative.*

Kirish. Jahonda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o‘quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o‘rganishga e’tiborni qaratish, davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan[1]. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta’lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta’minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi[2]. Maktab ta’limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta’lim resurslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta’minlash, mustaqil ta’limni amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma’lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan

muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan ta’lim sifati ko’rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko’nikmalar yig’indisi bo’libgina qolmay, o’quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo’llay olishi bilan tavsiflanadi.

Asosiy qism. Shaxsning kompetentligi qanday aniqlanadi? A.V.Xutorskiyning ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta’riflari, xususan «...ma’lum bir sohada faoliyat ko’rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan shaxs -kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi [3]. V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikka «o’qimishli, bilimli, ko’nikmali bo’lish usuli shaxsiy o’zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izoh beriladi [4].

Kompetensiya so’ziga turlicha ta’riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so’zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo - erishyapman, munosibman, loyiqman) - muayyan davlat organi (mahalliy o’zini o’zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.

"Kompetensiya" atamasi keng ma’nodan umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo’llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"-muvofiq bo’lmoq so’zidan kelib chiqqan.

"Tashabbuskorlik" kompetensiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta’sir ko’rsata olish. Doimo izlanishda bo’lish, yangi vazifalarni, qo’shimcha ishlarni o’z zimmasiga olish. Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetensiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatda o’qituvchi tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo’ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma’lum kompetensiyaga moslashtiriladi. Test o’quvchining ushbu kompetensiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko’rsatadi. Uning natijalariga ko’ra, o’quvchining kompetensiyani egallash darajalari aniqlanadi.

Keng ma’nodan kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvaffaqiyatli hal etishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko’nikmalarni qo’llay olish qobiliyatidir. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv o’quvchilarni turli ko’nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo’naltiradi.

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo’lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo’llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarilmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo’lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezon bo’lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo’llash natijasida namoyon bo’ladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar professional kompetensiyaning quyidagi turlarini aniqlaydilar:

1) maxsus kompetensiya - muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun o’z bilim va ko’nikmalarini qo’llash qobiliyati, odatiy kasbiy muammolarni hal qilish va o’z faoliyati natijalarini baholash qobiliyati, mutaxassislik bo’yicha mustaqil ravishda yangi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish ko’nikmalari. Bu kompetensiya nafaqat bajariladigan individual ishlarning xilma-xilligi, balki ishlash intizomi va faoliyatning belgilangan talablarga muvofiqligi bilan ham tavsiflanadi.

2) shaxsiy (shaxsiy, individual) kompetensiya - kasb doirasida shaxsiy o’zini namoyon qilish va o’zini o’zi rivojlantirish usullarini egallash, o’ziga ishonch, qaror qabul qilish qobiliyati, kasbiy faoliyatda o’zini namoyon qilishga tayyorlik, kasbiy o’sish va malaka oshirish; individual o’zini o’zi saqlab qolish va shaxsiy shaxsiy deformatsiyalarga qarshilik ko’rsatish qobiliyati, kasbiy qarishga moyil bo’lmaslik, ortiqcha vaqt va kuch sarflamasdan o’z ishini oqilona tashkil etish qobiliyati. Ushbu turdagi kompetensiya nafaqat aql va qobiliyatlarni, balki ichki motivatsiyani ham o’z ichiga oladi.

3) ijtimoiy va huquqiy kompetensiya - bu davlat muassasalari va odamlar bilan o’zaro munosabatlar sohasidagi bilim va ko’nikmalarni, shuningdek, ushbu kasbda qabul qilingan professional muloqot va munosib xulq-atvor usullarini o’z ichiga oladi; kasbiy ish natijalari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olish qobiliyati.

Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo’lib, amaliyotda qo’llay bilish qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo’lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko’nikmalarni amaliy tajribada samarali qo’llay olish qobiliyatidir.

Hozirgi zamon maktab o’qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro’ orttira olish, to’g’ri muomala qila olish, kelajakni ko’ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

O‘qituvchi o‘zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostgo‘ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma‘naviyati va madaniyati, ma‘rifatliligi o‘quvchilari, bo‘lajak kasb egalari hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim[5].

O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi:

- tayanch kompetensiyalar;
- umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
- xususiy kompetensiyalar.

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Ma‘lumki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari zimmasiga ta‘lim-tarbiya jarayoni orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan[6]. Zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta‘lim, umumta‘lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlarga ta‘siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta‘lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy va ma‘lum bir sohada faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘quvchilarning kompetentligini oshirishning o‘quv-metodik ta‘minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog‘liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘qitish ta‘limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda[7].

V.A. Bolotov va V.V. Serikov kompetensiya - bu mavjud bilim, ko‘nikma, ta‘lim, shaxsiy o‘zini o‘zi anglash va talabalarning dunyoda o‘z o‘rnini topishiga hissa qo‘shish usuli deb hisoblaydi.

Kompetensiya deganda biz natijalarga erishishga qaratilgan aniq ijtimoiy muammolarni hal qilishda ma‘lum faoliyatni amalga oshirish uchun bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni tushunamiz va kompetensiya - bu o‘rganish natijasi, ma‘lum bir sohada uning xabardorlik doirasini aks ettiruvchi shaxsning o‘ziga xos xususiyati.

Muhokamalar va natijalar. O‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasini samarali rivojlantirish ta‘lim va tarbiya usullari, shakllari va vositalarining maxsus tanlangan tizimi asosida amalga oshirish mumkin.

O‘qitish usullarining bir nechta tasnifi mavjud

1. Axborotni uzatish manbalari va idrok qilish xarakteriga ko‘ra - an‘anaviy usullar tizimi (E.Ya.Golant, I.T.Ogorodnikov, S.I.Perovskiy): og‘zaki usullar, vizual, amaliy.

2. O‘quvchilarning o‘quv-idrok faoliyati xarakteriga ko‘ra o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faoliyati - innovatsion metodlar tizimi. Dodov treningi I.Ya. Lerner - M.N. Skatkina: tushuntirish va illyustrativ usul, reproduktiv usul, muammoni taqdim etish usuli, qisman qidiruv, evristik usul, tadqiqot usuli.

3. Yu.K. Babanskiy o‘qitish usullarining xilma-xilligini uchta asosiy guruhga ajratdi: a) o‘quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish usullari; b) o‘quv va kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish va rag‘batlantirish usullari; v) o‘quv va kognitiv faoliyat samaradorligini monitoring qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari.

Ushbu tasniflarning har biri o‘ziga xos asosga ega va tarbiya fani darslarida talabalarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini turli tomonlardan amalga oshirish imkonini beradi.

O‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘quv va sinfdan tashqari ishlar jarayonida biz quyidagi usullardan foydalanamiz: og‘zaki (suhbat, muhokama, bahs); vizual (plakatlar,

chizmalar, kuzatishlar); amaliy (ijtimoiy va huquqiy muammolarni hal qilish, hujjatlarni tahlil qilish, sud amaliyoti variantlarini ko‘rib chiqish);

O‘quvchilarning huquqiy bilimlarda ma‘lum tajriba to‘plashlari uchun o‘qitishda tushuntirish va ko‘rgazmali usullar qo‘llaniladi: hikoya, ko‘rsatish, tushuntirish. Ushbu usul o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan materialni ko‘rsatish, mashqlar, maxsus topshiriqlar va boshqalar orqali keyinchalik takrorlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar o‘quv fanida ma‘lum materiallarni to‘plaganlarida, yetakchi tushunchalarni o‘zlashtirganlarida va muammoni taqdim etish usullaridan foydalanganlarida (muammoli vaziyatlarni hal qilish, ishbilarmonlik o‘yinlari va boshqalar); talabalarning samarali faoliyati uchun mo‘ljallangan (bahs, mustaqil ish, ijtimoiy seminar), shuningdek tadqiqot usulidan foydalanadigan ("Huquqshunos" ilmiy to‘garagida ishlash, maktab va talabalarning ilmiy-amaliy konferentsiyalariga ma‘ruzalar tayyorlash, tahlil qilish) muammoli vaziyat, talabalarning ijodiy ishlari); muayyan huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, o‘yin usullari ("Detektiv shou" rolli o‘yinlar, intellektual o‘yinlar).

O‘quvchilarning huquqiy kompetensiyasi-bu shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, ularning huquq sohasidagi xabardorligi, ijtimoiy-huquqiy tajribani ongli ravishda idrok etishi va o‘zini qonuniy tutish qobiliyatini aks ettiradi.

Huquqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- kognitiv (huquqiy bilim),
- motivatsion
- faoliyat

Xulosa. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda huquqiy bilimlar predmeti kompetensiyasining tarkibini quyidagi kasbiy malakalarni belgilash yo‘li bilan aniqlash mumkin.

1. Kognitiv kompetensiya - kognitiv faoliyat ko‘nikmalari va qobiliyatlari yig‘indisidir. Bu tahliliy ko‘nikmalar majmuasi, qidiruv faoliyati bilan birlashtirilgan oqilona va mavhum fikrlash qobiliyati. Kognitiv noaniqlikka yuqori qarshilik. Huquqiy bilishning obyektiv jarayonining mazmunini aniq gnoseologik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: vazifalar to‘plamini aniqlash, ularni spetsifikatsiya qilish va ustun vazifani aniqlash. Maqsad yo‘lidagi to‘siqlarni oldindan bilish va ularni bartaraf etish uchun harakat qilish qobiliyati. Maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o‘z faoliyatining muvaffaqiyatini o‘z-o‘zini baholash mexanizmlariga ega bo‘lish: o‘z-o‘zini tahlil qilish va huquqiy jarayon va o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish; dominant va tegishli vazifalarning yangi majmuasini aniqlash. Fikrlash, harakat va fikr-mulohazalarni birlashtirish qobiliyati. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish usullariga, muammolarni hal qilishning evristik usullariga ega bo‘lish. Qiymat ziddiyatlarini aniqlash va hal qilish qobiliyati. Potensial xavfli faoliyatdan qo‘rqmaslik va ularning muvaffaqiyatini ta‘minlash qobiliyati.

2. Instrumental kompetensiya huquqiy operativ sohaning ko‘nikmalaridan iborat bo‘lib, natijaga muvaffaqiyatli erishish uchun qo‘llaniladigan asosiy harakatlar, texnikalar, texnologiyalar, texnikalar kiradi. Huquqiy amaliyotda hal qilinadigan maqsad va vazifalarning o‘ziga xosligi protsessual harakatlarni amalga oshirishning texnikasi, taktikasi, strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, ularning ketma-ketligi, tabiati, turlari, usullari asosan normativ jihatdan sezilarli darajada o‘zgaruvchanlik bilan belgilanadi, qo‘llaniladigan usullar, vositalar va qoidalar.

3. Axborot kompetensiyasi - bu zarur axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va uzatish qobiliyatidir. Mantiqiy jihatdan tugallangan dalil (axborot) tizimini qurish va harakatga keltirish, shuningdek, dalil faktlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o‘rnatish hamda ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalari .

4. Individual-shaxsiy kompetensiya “shaxs-jamiyat” tizimida advokatning ruhiy tashkiloti xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Unda uning shaxsiyati va individualligining ichki resurslari va tashqi ko‘rinishlarini belgilovchi omillar mavjud. Ushbu omillarning eng muhimlari: ijtimoiy qadriyatlar, ijobiy shaxsiy maqsadlar, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati, o‘zini tuta bilish va tashkilotchilik, hissiy barqarorlik, mustaqillik va o‘zini o‘zi ta‘minlash, mustaqillik va o‘ziga ishonch, qaror qabul qilish qobiliyati va boshqaruvni hal qilishda ko‘nikmalar. muammolar, mas‘uliyat va halollik, samaradorlik, innovatsiyalarni qabul qilish, tadbirkorlik, ijodiy faoliyat va faol o‘z-o‘zini rivojlantirish salohiyati.

5. Kommunikativ kompetensiya - bu og‘zaki va yozma muloqot qilish qobiliyati, boshqa odamlar bilan muloqot qilish, ichki va tashqi aloqalar tarmog‘ini rivojlantirish, guruhda ishlash qobiliyati. Ta‘sir qilish qobiliyati (o‘zini to‘g‘ri ekanligiga ishonirish, hamfikrlarni topish va boshqalarga kuchli his qilish imkoniyatini berish), faoliyat natijalarini kuzatish, fikr-mulohazalardan foydalanish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish (kuchli tomonlarini tahlil qilish).

Ijtimoiy va huquqiy me‘yorlar o‘quvchilarida ijtimoiy xulq-atvor, muomala, munosabat va faoliyat asoslari to‘g‘risidagi tushunchalarni hosil bo‘lishini tahminlaydi. Ularning mazmunini o‘zlashtirish natijasida

o‘quvchilar jamiyatda qanday yashash kerakligi, atrofdegilar bilan munosabatni qanday tashkil etish lozimligi hamda tabiatga, ijtimoiy subyektlarga, voqea-hodisalarga nisbatan ijobiy yondashish zarurligini tushunib boradilar. Shu sababli o‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me‘yorlar mohiyati bilan izchil, tizimli va uzluksiz tanishtirib borishga alohida e‘tibor qaratish talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni//lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni//lex.uz
3. Qorayev S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
4. Кораев С. Б. (2020). Профессионал таълимда укув амалиётларини ташкил этишнинг узига хос хусусиятлари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1281-1286.
5. Борытко Н. М. Пространство воспитания: образ бытия / Н. М. Борытко. - Волгоград: Перемена, 2000.- 255с.
6. Бракина С.В. Формирование правовых представлений младших школь-ников во внеурочной деятельности:, дис. ...канд. пед. наук [Электронный ресурс] /С.В:Брыкина.- RLhttp://www.lawlibrarv.ru/author.ihgf.
7. Вербицкий Н. П. Правовое воспитание молодежи / Н. П. Вербицкий. Минск: Нар/ асвета, 1991. - 87 с.
8. Вопленко Н. Н. Правосознание и правовая культура / Н. Н. Вопленко. - Волгоград: Изд-во ВолГУ, 2000.
9. Tadjixanov U., Caidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. –Toshkent: T.2. O‘zR IIV Akademiyasi. 1998. –B.181-182.
10. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish davr talabi /Uclubiy qo‘llanma. Farg‘ona. 2007. 64 b.
11. Sharipov A. Yoshlarning huquqiy madaniyati //Huquq -Pravo. 1998. №4. B-B. 16-19.
12. Дружилов С. А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход / С. А. Дружилов // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: СО РАО, ИПК, Новокузнецк. - 2005. - № 8. - С. 26-28.

PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY KASALLIKLARNI OLDINI OLISH

Kamolova Azimaxon Odiljon qizi,

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi (mustaqil izlanuvchisi) azimjonodilovich5656@gmail.com

Mamlakatimizda ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda asosiy kuch bu pedagog kadrlar ularning qobiliyati, layoqati, bilim darajasi va eng muhimi salomatliklari hisoblanadi. Pedagog kadrlarni kasbiy salomatliklarini va kelajakda kasbiy faoliyat jarayonlarida yuzaga keladigan kasbiy stresslarini oldini olishga, salomatliklarini saqlash ko‘nikmasini, malakasini shakllantirishda mavjud qobiliyatlarini o‘quv jarayonlari orqali rivojlantirish bu orqali qobiliyatli mutaxassislariga erishish. O‘qituvchi pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida shaxsiy salomatligini saqlash kasbiy pedagogik yo‘nalishlariga ham o‘z e‘tiborini qaratadi.

***Kalit so‘zlar:** pedagog, sog‘lom turmush tarzi, barkamol shaxs, kasbiy stress, faoliyat, ko‘nikma, pedagogik madaniyat, kasbiy qobiliyat, layoqat, depressiya, tushkunlik, ta’lim-tarbiya.*

ПРОФИЛАКТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПУТЁМ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Главной силой в осуществлении реформ в системе образования в нашей стране являются педагогические кадры, их способности, знания, а главное, их здоровье. Необходимо развивать профессиональное здоровье педагогов и предотвращать профессиональные стрессы, которые возникнут в процессе профессиональной деятельности в дальнейшем, развивать через образовательный процесс свои оздоровительные навыки и умения, становясь тем самым дееспособными специалистами. В процессе организации педагогического процесса педагог также уделяет внимание профессионально-педагогическим направлениям заботы о личном здоровье.

***Ключевые слова:** педагог, здоровый образ жизни, всесторонняя личность, профессиональный стресс, активность, навыки, педагогическая культура, профессиональные способности, способности, депрессия, уныние, образование.*

PREVENTION OF OCCUPATIONAL DISEASES THROUGH DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS

The main force in the implementation of reforms in the education system in our country is the pedagogical personnel, their abilities, knowledge, and most importantly, their health. To develop the professional health of pedagogues and to prevent professional stress that will arise in the process of professional activity in the future, to develop their health care skills and skills through educational processes, thereby becoming capable specialists. In the process of organizing the pedagogical process, the teacher also pays attention to the professional pedagogical directions of personal health care.

***Keywords:** Teacher, healthy lifestyle, well-rounded person, professional stress, activity, skills, pedagogical culture, professional ability, ability, depression, education.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilayotgan ta’lim siyosati va uning muhim omillaridan biri bu o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol, sog‘lom fikrlaydigan, o‘zini mustaqil fikriga ega qilib tarbiyalashdan iboratdir. Mutaxassislar fikrlari va olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra Inson va uning shaxsi haqida gap ketganda, albatta, ko‘z o‘ngimizda komillikka intilayotgan ma’naviy-marifiy jihatdan yetuk, jamiyatning rivojlanishi va taraqqiy etishiga munosib hissa qo‘sha oladigan, yurt ravnaqi uning buguni va ertasini o‘ylaydigan shaxsni tassavur etamiz. Yuqorida aytgan, olib borilayotgan siyosiy jarayonlarni pezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida : “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Ham ko‘rishimiz mumkin. Yoshlarni har tomonlama rivojlantirish va ularni jamiyatning, rivojlanish bosqichlarining turli

jabxalarida ham faoliyat o‘rsata olishga qodir mutaxassisi va yetuk kadrlar qilib tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Kadrlar salohiyati va ularning o‘lari tanlagan soha bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lishlarida pedagog mutaxassislarning faoliyatlari va ta’sir jarayonlari asosiy o‘rinni egallaydi. Shu o‘rinda pedagogik ayrim kasbiy xususiyatlarini tahlil qilib chiqamiz. Pedagogik faoliyatning asosiy jihatlaridan biri bu pedagogik madaniyatdir. Pedagog, ya’ni mutaxassisi o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalar majmui bo‘lib, u pedagogning ma’naviy dunyoqarashlarga asoslangan odobining namoyon bo‘lishidir. Ma’lumki bugungi kunda ham pedagoglarda ma’naviy –axloqiy xususiyatlarni turlicha muhitlarda namoyon qilish jarayonlari ham bir muncha murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lmoqda. Bu jarayonlarni amalga oshirishdagi aniqlangan va mavjud kamchiliklarni tahlil qilish uchun pedagogik madaniyat muammolari o‘rgangan va o‘z fikr mulohazalarini bilan tahlil qilshgan pedagog mutaxassislrimizdan F.N.Gonobolin, N.V.Ko‘zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin, E.A.Grishin va boshqalar pedagog mutaxassislarni tadqiqot ishlarini tahlil qilamiz. Bu kabi tadqiqotlarda pedagogik faoliyat jarayonlarining turli xil sifatleri, ko‘rsatkichlari, o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan, bu orqali pedagogning pedagogik faoliyat, pedagogik madaniyati darajasi, uning mazmuni va mohiyatini o‘rganishga va tahlil qilishga asoslangan. Pedagoglarning pedagogik madaniyatni ifoda etishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib chiqamiz. Olim pedagogik tadqiqotlarni olib borish jarayonida pedagogik madaniyatni shakllantirishda pedagogning quyudagi kasbiy sifatlarini e’tirof etadi. Biz tadqiqot jarayonlarini tashkil etishda mavjud manbalarni tahlil qilish orqali E.A.Grishin va V.I.Pisarenkolarning pedagogda pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayonida asos vazifasini bajaruvchi kasbiy sifatlarini o‘zaro tahlil qilib chiqmoqdamiz. (1 jadval)

1-jadval.

	E.A.Grishinning fikri bo‘yicha pedagogik madaniyatni shakllantirishdagi sifatlar		V.I.Pisarenko fikri bo‘yicha pedagogik madaniyatni shakllantirishdagi sifatlar
1	o‘z fanini bilish	1	intelegentlilik
2	pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib boorish	2	bilimlar doirasining kengligi
3	pedagogik kasbini sevish	3	ilmiy va ijtimoiy ma’lumotlar oqimida yo‘l topa olish mahorati
4	odamiylik, haqiqatgo‘ylik va talabchanlik	4	pedagogik faoliyatda bilm va mahoratlardan foydalana bilishi
5	ko‘zatuvcchanlik, e’tiborlilik va odoblilik		

Yuqorida 1-jadval keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki biz bo‘lajak pedagoglarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarida ulardagi mavjud kasbiy qobiliyat, layoqatlarini rivojlantirish va takomillastirish va mavjud layoqatlarni mahorat darajasiga va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida pedagogik madaniyat darajasiga yetkiza olishimiz lozim. Bu orqali biz bo‘lajak mutaxassis pedagoglarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishimiz mumkin. Bundan tashqari pedagogik faoliyat jarayonlarini tahlil qilish jarayonlarida biz yana V.A.Kan-Kapinning pedagogik faoliyat madaniyati shakllantirish jarayonlarida ishlab amalyotga tadbiiq etgan quyudagi tizimlarni ham kiritishimiz mumkin. Bu ijodiy individuallik tushunchasidir uning tarkibini esa sezgi, farosat, odob, intuistiya tashkil etadi. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat jarayonlarini ijodiy jarayon sifatida ifodalaydi. U pedagogik mahorat tarkibini asosini pedagogik mahoratlilik tashkil etishini takidlab, pedagogik madaniyatning bir qismi ekanligini ifodalagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar natijalari va uning asosini o‘rganish jarayonlarida biz Pedagogik madaniyat muamolarini o‘rganilganlik darajasini ham tadqiqot jarayonida tahlil qilamiz. Bu esa bizga tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratish va o‘rganishga imkoniyat beradi. O‘qituvchining faoliyat jarayonlarida shaxsiy kasbiy pedagogik yo‘nalishlariga e’tibor qartamiz. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g‘oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to‘plamidan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi pedagogik jarayonni tashkil etish jarayonida shaxsiy salomatligini saqlash kasbiy pedagogik yo‘nalishlariga ham o‘z e’tiborini qaratadi.

Tahlillar va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlarning umumiy natijalariga asosan, o‘qituvchining kasbiy pedagogik yo‘nalganligini asosiy muhim omili bu -o‘qituvchining insonparvarligi, uning faoliyat jarayonlarida o‘quvchilar shaxsini hurmat qilishi va oliy qadriyat sifatida qarashi, o‘zaro munosabati, o‘quvchining, qadr-qimmatini hurmat qilishi, o‘zining mehribonligini do‘stona talabchanligini, bundan tashqari o‘quvchiga befarqlik, kamsitish va shavqatsizlik kabi salbiy xususiyat va xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun harakat qilish kerak. Bu kabi pedagogik faoliyatga erishish uchun o‘z iste’dodi, xatti-

harakati, aniq maqsad asosida harakat qilishlari yotadi. Kuzatishlar va tadqiqotlar natijalarini pedagogning pedagogik faoliyatni anglab yetgan holda intilishi bilan ifodalanadigan jarayonlarda faol ishtirok etishida ko‘rish mumkin. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonlarida aniq ko‘zlangan maqsad bu - o‘qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga ongli xatti-harakatlari va faoliyatidir.

Demak yoshlar kasb tanlash, kasbiy o‘zlikni anglash va kasbiy shakllanishi jarayonlarida o‘zlarining sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni to‘g‘ri va aniq yechimlar asosida hal etishlari va mavjud yuzaga keladigan muammolarga yechimini topishlari kerak. Aks holda kasbiy faoliyat jarayonlarida turli kasbiy depressiya, tushkunlik, kasb kasalliklari va rivojlanish bosqichlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni yo‘qolishi va mutaxassis talablarini bajarishdagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘rganish jarayonlarida ularda yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi aniqlash, belgilash bu orqali undagi kasbiy faoliyat jarayonlarini qanday amalga oshirilayotganligini o‘rganish, aniqlangan xususiyatlar orqali bo‘lajak mutaxassislarni doimo tinib-tinchimaydigan ilg‘or pedagog, o‘z kasbini fidoyisi, tashabuskor va krativlik xususiyatlarini rivojlantiradigan mutaxassis qilib rivojlantiramiz. Dars-mashg‘ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida e‘tibor qaratishi zarur.

Kasbiy kasalliklar va shikastlanishlar monitoringi kasbiy xavf-xatarlar va ular bilan bog‘liq kasalliklar va jarohatlarning oldini olish va nazorat qilish uchun mehnatga layoqatli aholining sog‘lig‘i bilan bog‘liq hodisalarni tizimli monitoringini o‘z ichiga oladi. Kasbiy kasalliklar va jarohatlar monitoringi to‘rtta muhim komponentga ega (1-jadval) Kuzatuv odatda kasbiy salomatlik sohasidagi ikkita keng faoliyat to‘plamini anglatadi. Jamoat salomatligini nazorat qilish federal, shtat yoki mahalliy hukumatlar tomonidan o‘z yurisdiksiyalari doirasida kasbiy kasalliklar va shikastlanishlarni kuzatish va kuzatish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarni nazarda tutadi. Kuzatuvning bu turi aholi, ya‘ni mehnatkash jamoatchilik asosida amalga oshiriladi. Ro‘yxatga olingan hodisalar shubhali yoki aniqlangan kasbiy kasallik va shikastlanish tashxisidir.(15)

Kasbiy kasalliklar va jarohatlar holatlari haqida ma'lumot to'plash.

Ma'lumotlarni distillash va tahlil qilish.

Uyushtirilgan ma'lumotlarni kerakli tomonlarga, shu jumladan ishchilar, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar, davlat idoralari va jamoatchilikka tarqating

Ushbu sog'liq hodisalarini keltirib chiqaradigan omillarni o'zgartirish uchun ma'lumotlar asosida aralashish.

Xulosalar. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Tarbiyachilarning o‘ziga zam onaviy bilim berish, ularning ta ‘lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta‘lim - tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O‘qituvchi o‘quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo ‘lishi kerak”¹ - deb ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy - nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash uchun ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish albatta oson ish emas. O‘qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma‘lumotlarni egallashga layoqatli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga etkazish - muhim vazifadir. Bu vazifalarni belgilashda va

amalgga oshirishda biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni qobiliyat qiziqish va layoqatlarni aniqlashimiz va natijalar asosida keyingi istiqbol rejalarni ishlab chiqib amalga oshirishimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotning poydevori. - Toshkent, 1997,7 – bet
2. Ахтаријева Р. Ф. Здоровый образ жизни как элемент профессиональной культуры педагога-предметника // Вестник Челябинского ГПУ №8. 2013 г. с.9-16
3. Багнетова Е.А. Профессиональные риски педагогической среды // Фундаментальные исследования. – 2013. – № 1 (часть 1) – С. 27-31
4. Жуков, О.Ф. Профессиональное здоровье учителя. // Научно-теоретический журнал «Ученые записки», № 3(73) – 2011.
5. Соченко Ю.А. Представления учителей о проблемах здоровья здоровьесберегающей деятельности // Педагогика, психология и медико-биологические проблемы физического воспитания и спорта №3. 2012 г – с. 115-118
6. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. // Science and Education, 3(12), 590-592.
7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. // Science and Education, 4(2), 969-972.
8. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O‘smirlarga huquqiy bilim berishda keys stadi texnologiyasidan foydalanish. // Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
9. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). Using case stade technology in legal education for teenagers. // Экономика и социум, (8), 42-45.
10. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. // Science and Education, 4(5), 988-992.
11. Камолова, А. О. (2024). Ислом дини таълимотида таълим-тарбия масалаларининг педагогик фаолиятдаги амали ахамияти. // Results of National Scientific Research International Journal, 3(1), 201-207.
12. Ориббоева, Д. Д. (2019). The influence of social competens on professional choice. // Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.
13. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasining o‘ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. // Science and Education, 5(1), 287-291
14. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. // Science and Education, 5(2), 513-519.
15. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-iv-66769/record-systems-and-surveillance-2359/item/693-occupational-disease-surveillance-and-reporting-systems>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INDIVIDUAL-KASBIY RIVOJLANISHI UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o‘g‘li,

Namangan davlat universiteti Jahon tillari fakulteti

Aniq va tabiiy yo‘nalishlarda chet tillari kafedrasida o‘qituvchisi

Ushbu maqolada individual kasbiy rivojlanish tushunchasi, uning tuzilishi va mazmuni, shuningdek, hozirgi davrda talabalarda individual kasbiy rivojlanish jarayonini diagnostika qilish amalga oshirish lozim bo‘lgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *shaxs, individual kasbiy rivojlanish, bo‘ljak o‘qituvchi, faoliyat, kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetentlik, kasbiy kreativ qobiliyat, dinamika, xususiy-metodik bilim.*

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ КАК НЕПРЕРЫВНЫЙ ПРОЦЕСС

В данной статье рассматривается понятие индивидуального профессионального развития, его структура и содержание, а также то, что диагностика процесса индивидуального профессионального развития студентов является одной из приоритетных задач, которые необходимо решать.

Ключевые слова: *личность, индивидуальное профессиональное развитие, будущий педагог, деятельность, профессиональная мотивация, профессиональная компетентность, профессиональные творческие способности, динамика, специально-методические знания.*

INDIVIDUAL-PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS AS A CONTINUOUS PROCESS

This article discusses the concept of individual professional development, its structure and content, as well as the fact that diagnosing the process of individual professional development among students is one of the priority tasks that should be carried out.

Keywords: *person, individual professional development, future teacher, activity, professional motivation, professional competence, professional creative ability, dynamics, special-methodical knowledge.*

Kirish. Bugungi globallashuv asrida inson uchun kundalik va kasbiy faoliyati davomida yangilik yaratish, yangi innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish, turli kutilmagan vaziyatlarda samarali yo‘nalishni tanlash va oqilona qaror qabul qilish muhim sanaladi. Dunyoda barcha sohalardagi rivojlanish tendensiyasini olib qaraganda yangi ixtirolar, optimallashtirilgan jarayonlar, yangiliklarning tez inkor qilinishi va bu yo‘nalishdagi raqobat salmog‘ining tez ortib borishini kuzatishimiz mumkin. Uning natijasida turli yangi fan sohalari tashkil etildi. Bularning negizida inson omili, uning individual kasbiy rivojlanishi mazmuni yotadi. Shu nuqtayi nazaridan ta‘lim tizimi, uning maqsadi va vazifalarini tadqiq qilib borish dolzarblashib bormoqda.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasasi pedagog va talabalarining individual kasbiy rivojlanishiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog‘i yildan yilga ortib bormoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar faqatgina pedagogik tadqiqotlar negizida emas, balki bir qator fanlar negizida integrativ tadqiqotlar sifatida o‘tkazilmoqda. Turli fan, iqtisodiyot sohalari, shuningdek globallashuv jarayonining xalqaro miqyosida innovatsiyalarning tezkor harakati ta‘lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish kabi asosiy vazifalar bilan bir qatorda, talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlik va tashkilotchilik sifatlarini qaror toptirish hamda rivojlantirishdan iborat etib belgilanmoqda.

Adabiyotlar sharhi. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [1] gi Farmonida keltirilganidek, “Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” – oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning individual kasbiy rivojlanishini baholash va uning diagnostik ta‘minotini takomillashtirish, talabalarining kasbiy identitetligini rivojlantirish va mazkur vazifalarni amalga oshirishda

oliy ta’lim tizimining funksional vazifalarini xalqaro va milliy talablardan kelib chiqqan holda tadqiq qilib borish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan ilg’or xorijiy tajribalar asosida ta’lim jarayonini internatsionalizatsiyalash, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish asosida talabalarda individual kasbiy rivojlanishini baholash muhim o’rin tutadi.

Individual kasbiy rivojlanish deganda shaxsning o’z kasbiy karyerasini muvaffaqiyatli amalga oshirish va kasbiy maqsadlarga erishish uchun o’z ko’nikmalari, bilimlari va tajribasini doimiy ravishda kengaytiradigan va takomillashtiradigan jarayoniga aytiladi. Individual kasbiy rivojlanish bu doimiy amalga oshiriluvchi jarayon bo’lib, unda inson o’z kasbiy mahoratini mustahkamlaydi, yangi ko’nikmalarga ega bo’ladi, kasbiy rivojlanishini davom ettiradi va o’z karyera maqsadlariga intiladi.

Individual kasbiy rivojlanish umumiy ma’noda quyidagi tuzilish va mazmuni qamrab oladi:

- o’zini o’zi baholash (kuchli va kuchsiz tomonlari, kasbiy pespektiv rejalarining aniqligi);
- karyeraga doir rejalarining shakllanganligi (kasbiy maqsadlarini qat’iy belgilash);
- kompetentsiyalarni identifikatsiya qilish (zaruriy kompetentsiyalarni aniqlash);
- malaka oshirishni rejalashtirish (malaka oshirish rejasini shakllantirish);
- tarmoqlardagi faoliyat (kasbiy rivojlanishga doir tarmoqlardagi faoliyatini tashkil etish (Linkedin,...));
- mentorlar bilan hamkorlik (tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik);
- kasbiy tajriba (turli kasbiy mahorat va tajribani egallash);
- o’zini-o’zi marketing qilish (shaxsiy kasbiy faoliyatga doir imij yaratish);
- vaqt menejmenti (mavjud vaqtdan unumli foydalanishga doir strategiyalarni egallash);
- ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish (insonlararo munosabatlar bo’yicha ijtimoiy tajribalar to’plash);
- texnikaviy kompetentsiyalar (tegishli texnik ko’nikmalarni egallash);
- tizimli fikr-mulohaza (feedback)lar bilan ishlash (o’zini-o’zi kasbiy rivojlanish bo’yicha bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish);
- kasbiy karyeraga doir rejalarini yangilab borish (ehtijoyga qarab kasbiy karyera rejalarini o’zgartirib borish);
- kasbiy faoliyatga doir murakkabliklar bo’yicha tajriba va bilimlar to’plash (kasbiy-pedagogik faoliyatga doir ziddiyatlar bilan chiqishish);
- kasbiy faoliyat-shaxsiy hayot-balansi (Work-life-Balance)(kasbiy faoliyat va shaxsiy hayot o’rtasidagi mutanosiblikni topish).

Individual kasbiy rivojlanish individual ijodiylik orqali yuqori darajalar, ya’ni professionallik darajasiga erishiladi. Inson o’zining ongi, irodasi, his-tuyg’usi, bilish imkoniyatlari orqali qadriyatlarini o’zlashtiradi va natijada individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallik namoyon bo’lishining o’ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyli, iste’mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo’naltirilgan ta’lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o’zini-o’zini rivojlantirishi, o’ziga-o’ziga ta’lim berish va o’zini-o’zi loyihalashning namoyon bo’lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg’unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Muhokama va natija. Hozirgi davrda talabalarda individual kasbiy rivojlanish jarayonini diagnostika qilish – amalga oshirish lozim bo’lgan ustuvor vazifalardan biri bo’lib, kasbiy bilimlarni shakllantirish, kasb faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirish muammolarini kengroq o’rganish, kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabning imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadlari, o’quv mazmunini tanlash va tuzishga ijodiy yondashuvni talab etadi. Mazkur vazifani talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligi diagnostikasi mexanizmlarini takomillashtirish asosida kasbiy shakllanish faoliyatini rivojlantirish orqali bajarish mumkin. Kasbiy rivojlanish kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetentlikni, kasbiy kreativ qobiliyatni shakllantirish va kasbiy identitetlikni rivojlantirishni o’z ichiga oladi.

Kasbiy motivatsiya – inson ehtiyojlarining ortishi, uning faoliyati murakkablashishi va ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli imkoniyatlar va motivlarning kengayishi, ta’lim jarayonida kasbni egallash motivatsiyasini shakllantirishni tavsif etadi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish – kasb-hunarni egallash bilan bog’liq bo’lgan ehtiyojini rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas’uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, mehnat motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda mutaxassislikka qaratilgan yo’nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o’zaro integratsiyasida kasbiy shakllanishga erishish lozim bo’lgan jarayonni tavsif etadi.

Kasbiy kreativ qobiliyatni shakllantirish – talabning kasbiy tayyorgarligi, maxsus nazariy bilim, amaliy ko’nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy kasbiy sifatlarni o’zlashtirish asosida

shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni mustaqil o‘z bilim va zakovatiga ishongan holda muvaffaqiyatli olib borishga, ijodiy kasbiy fikrlashga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish mazmunini qamrab oladi. [2; 346-351]

Shaxs intellektida kasbiy tayyorgarlik muhim o‘rin egallaydi. Oliy ta‘lim tizimi talabasi hayotda o‘z o‘rnini topishi, o‘zi xohlagan kasb-hunarni egallashi hozirgi globallashuv davrida asosiy ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi diagnostikasi talabaning yangi qirralarini, imkoniyatlarini ochib beradi.

Talabalarda ijtimoiy va kasbiy zarur fazilatlarni rivojlantirishning ahamiyati kattadir (ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligi). Talabalarda ijtimoiy-kasbiy fazilatlarni rivojlantirish ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo‘lib, bunda shaxsning o‘zgarishi – shakllanish va rivojlanishi jadal sur‘atlar bilan boradi, tarbiyaviy jarayon subyektining faol ta‘sirini tarbiyaviy ta‘sir obyekti o‘zida jamlashtirishga intiladi.

Mutaxassislarni muvafaqqiyati ko‘proq kasbiy sifat va fazilatlarni rivojlanganligiga bog‘liq bo‘lib, bu fazilatlarning rivojlanish jarayonini o‘ziga xos bir usullar yordamida “o‘lchab” borish pedagogikada muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonini tizimli amalga oshirish uchun talabada sodir bo‘ladigan barcha o‘zgarishlar pedagog tomonidan diagnostika qilib borilishi undagi ma‘naviy-axloqiy fazilatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoniga maqsadli pedagogik ta‘sir qilish orqali rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta‘minlaydi. [3; 3-8]

Individual kasbiy rivojlanish kompleks jarayonni tavsif etadi. Quyidagi jadvalda mazkur tushunchaning tavsifi keltirilgan (1-jadval):

1-jadval.

“INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISH” TUSHUNCHASINING TAVSIFI

Jihatlar	Tavsifi
<i>Atama</i>	Shaxsning hayoti davomida bilim olishi, rivojlanishi, o‘zgarishlar qilishi, karyera qilishi, tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha yetuklikni tavsiflovchi jarayon hisoblanib, o‘z mutaxassisligining kognitiv, emotsional, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini o‘z ichiga oladi
<i>Xususiyatlari</i>	O‘ziga xoslik, uzluksizlik, ko‘p qirralilik, moslashuvchanlik
<i>Sohalari</i>	Kognitiv, hissiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy, ma‘naviy rivojlanish
<i>Ta‘sir qiluvchi omillar</i>	Genetik, atrof-muhit, ijtimoiy-madaniy muhit, ta‘lim, tajriba, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar, shaxsiy tanlovlar va motivatsiya
<i>Mazmuni</i>	Shaxsiy rivojlanish insonga o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘z shaxsiyatini shakllantirishga, o‘zgarishlarga dosh berishga va to‘liq hayot kechirishga imkon beradi
<i>Diagnostika qilish</i>	O‘z-o‘zini baholash, kuzatish, baholash varaqalari, rivojlanish testlari va psixologik baholash orqali o‘lchash mumkin

Individual kasbiy rivojlanish pedagogika oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu borada oliy ta‘lim muassasalarida tizimli ishlar amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. Jumladan, tizimli ravishda ulardagi kasbiy kompetentsiya va identitetlikni rivojlanish holatini o‘rganish va uning natijalariga asosan chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim bo‘ladi. Pedagog olim B.Egar [4;43-56] kuzatish hamda suhbatlar natijasida pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida uchrab turadigan muammolarni tizimli o‘rgangan. Mazkur muammolar quyidagi jadvalda ifodalangan (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida uchrab turadigan muammolar, ularning sabab va oqibatlari

MUAMMO	SABABI	OQIBATI
Ta‘lim mazmunining hajmi	O‘quv-me‘yoriy hujjatlardagi talabalarining ko‘pligi, zerikarli darslar, eski metodlar, ayrim mantiqsiz topshiriqlar, imtihon uchungina o‘qishga yo‘naltirilgan strategiyalar	Diqqatchilik, ortiqcha o‘quv yuklama, shaxsiy rivojlanish uchun vaqtning kamligi

Amaliy bilimlarning yetishmasligi	Oliy ta’lim muassasasida cheklangan amaliy bilim olish imkoniyati	Bo’lajak kasbiy faoliyatga yetarli tayyorgarlikning mavjud emasligi, oliy ta’limdan mehnat faoliyatga o’tishdagi muammolar
Byurokratik to’siqlar va tadbirbozlik	Oliy ta’lim muassasasidagi buyokratiya, qog’ozbozlik va tadbirlarning noratsional taqsimoti. Tadbirlarning asosiy o’quv jarayoni vaqtida tashkil etilishi. Tadbirlarning o’qishdan ustuvorligi	Ko’ngilsizlik, asosiy maqsaddan og’ishlar, kelgusi pedagogik faoliyatdan yiroqlashish
E’tirofning yetishmasligi	Jamiyatda pedagogning maqomi, pedagoglar bilan sodir bo’layotgan salbiy holatlar o’z egallamoqchi bo’lgan kasbiga bo’lgan e’tirofning kamligi	Motivatsiyaning yo’qolishi, o’zini past quyi pahalash, pedagogik faoliyatning jozibadorligini his qilmalik
Yetarli qo’llab-quvvatlashning mavjud emasligi	Mentor dasturlarining kamligi, professor-o’qituvchilar va talabalar sonidagi nomutanosibliklar yetarli qo’llab-quvvatlashni ta’minlamasligi	O’zini izolyatsiyalangan holda his qilish, pedagogik karyera qilishga ikkilanish, o’ziga ishonchsizlik

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida muammolarni muntazam ravishda o’rganish, ularni identifikatsiya qilish orqali bartaraf etish – talabalarni individual kasbiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo’lajak o’qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi ta’lim sohasidagi tendensiyalar bilan uzviylikni taqozo etadi. Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar, yondashuvlar, qarashlar, ustuvorliklar individual-kasbiy rivojlanish bilan ta’sirli aloqaga ega. Misol tariqasida quyidagi holatni keltirib o’tish mumkin: pedagogik hamda xususiy-metodik fanlarning texnologik jihatdan o’zaro yaqinlashuv jarayoni yangi mazmun kasb etib, mazkur holat ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning tatbiq etish bilan izohlanadi, shuningdek ta’lim shakllari, metodlari, vositalarini, yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni shakllanishiga asos bo’ladi.

Pedagogik va xususiy-metodik bilimlar o’rtasidagi o’zaro integratsiyalashuv quyidagilarda ko’zga tashlanadi:

1. Pedagogik turkum fanlari hamda xususiy-metodik fanlar integratsiyasining didaktik sintezi va fanlararo aloqadorligi bo’lajak o’qituvchining kasbiy fazilatlarini shakllantirishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi.

2. Pedagogik va xususiy-metodik bilimlarning integratsiyasi bo’lajak o’qituvchilar tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida texnik vositalar, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

3. Xususiy-metodik bilimlardan ta’lim berish jarayonining tarkibiy qismlari sifatida foydalanish natijasida pedagogik, xususiy-metodik va texnologik bilimlarning o’zaro integratsiyasi “vosita-mazmun” (pedagogik bilim – vosita, xususiy-metodik bilim esa –mazmun sifatida) mohiyatiga ega bo’lgan munosabatni qaror toptiradi.

Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashning yakuniy maqsadi pedagogik faoliyati sohasida kasbiy mahorat, mutaxassislik va psixologik-pedagogik bilimlar tizimi hamda bo’lajak o’qituvchi shaxsini shakllantirishdir. Shuningdek, ularda kasbiy identitetning shakllanishi va rivojlanishiga erishishdir. Ko’zlangan maqsad bo’lajak o’qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyat doirasidagi mavjud muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi, balki jamiyatning ziyoli qatlami sifatida jamiyat taraqqiyoti hamda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning istiqbolli muammolarini hal etishga yo’naltirishni anglatadi.

Bo’lajak o’qituvchining kasbiy-pedagogik fazilat va xislatlarini rivojlantirishning yakuniy maqsadi sifatida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

– bo’lajak o’qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e’tibor o’quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va o’quvchining shaxsiy imkoniyatlari, yosh va rivojlanish xususiyatlari asosida shakllantirishga qaratiladi;

– kasbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, vazifalari, ushbu jarayonda hal etiluvchi muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo’lgan nizolar, qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo’lgan holda shaxsiy faollikka erisha olishiga asoslanadi;

– bo‘lajak o‘qituvchini psixopedagogik nuqtayi nazardan tayyorlash aniq maqsad, ya’ni pedagogik va psixologik bilimlarning ta’lim muassasasida tashkil etiluvchi kasbiy-pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo‘naltirilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchining individual-kasbiy rivojlanishi kasbiy-pedagogik faoliyatdan kutilayotgan va erishish lozim bo‘lgan natijalar bilan chambarchas bog‘liq.

3-jadval.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatidan kutiladigan va erishish mumkin bo‘lgan natijalarning o‘quvchi shaxsi bilan bog‘liqligi

Yo‘nalganligi	Talablari, qiziqishi, qadriyatli yo‘nalishi, ishi, ongi, sabablari
Ma’lumot darajasi	bilim, malaka, ko‘nikmalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati
Tarbiyalanganlik holati	ma’naviy, estetik, jismoniy, mehnat va h. jihatdan
Ijtimoiylashuvi	faol kasbiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirishi, ijtimoiy va qadriyatli qoidalarni qabul qilishi
Madaniyatligi	ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni qabul qila olishi, intellektual, iqtisodiy, ekologik, madaniy, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati, munosabatlari mazmuni va xulq

Xulosa. Kutilayotgan natijalarning yuqori darajasi o‘qituvchining kasbiy malakasi hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi mazmunini loyihalashtirish jarayoni asosida, yakuniy maqsadni aniqlashdan uning yakuniy natijasini loyihalashtirishgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oluvchi o‘zaro mantiqiy bosqichlar o‘z ifodasini topadi. [5;7;12] Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarning individual-kasbiy rivojlanishi uzkuksiz, dinamik jarayon hisoblanib, ko‘plab komponentlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu jarayon butun kasbiy-pedagogik faoliyat davrini qamrab oladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. Золотых Н.В. Основные принципы педагогической диагностики в оценке учебных достижений обучающихся // Вестник учебно-методического объединения по профессионально-педагогическому образованию. – 2015. – № 2 (49). – С. 346-351.
3. Калдыбаев С.К. Основные принципы педагогической диагностики в оценке учебных достижений обучающихся // Известия Кыргызской академии наук. – 2015. – № 1 (33). – С. 3-8.
4. Egan, Bridget A. Learning conversations and listening pedagogy: the relationship in student teachers’ developing professional identities. European Early Childhood Education Research Journal 17.1 (2009): 43-56.
5. Ibragimov X. Integratsion yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish muammolari// “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. T. :2019. –B. 7-12
6. Бекоева М.И. Принципы и этапы реализации педагогической диагностики // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. – С. 1055.
7. Калдыбаев С.К. Основные принципы педагогической диагностики в оценке учебных достижений обучающихся // Известия Кыргызской академии наук. – 2015. – № 1 (33). – С. 3-8.

TA'LIMDA AXBOROT BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

*Mingyasharova Sevara Abdulla qizi,
Termiz muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi
sevara3433@gmail.com*

Hozirgi zamon ta'lim jarayonida har bir o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot almashishi, uni uzatishi va tahlil qilishi qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish madaniyati va usullari haqida qisqacha fikr va mulohazalar yuritilgan. Ularni inson hayoti uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborot, ta'lim, ko'nikma, bilim, shaxs, madaniyat, texnologiya, kompyuter, metod.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Все мы знаем, насколько важно каждому подрастающему молодому поколению обмениваться, передавать и анализировать информацию в современном образовательном процессе. С этой точки зрения данная статья содержит краткие мысли и комментарии о культуре и методах формирования информационных навыков в образовательном процессе. Анализируется, насколько они важны для жизни человека.

Ключевые слова: информация, образование, умение, знание, человек, культура, технология, компьютер, метод.

METHODS OF DEVELOPING THE SKILLS OF WORKING WITH INFORMATION IN EDUCATION

We all know how important it is for each growing young generation to exchange, transmit and analyze information in the current educational process. From this point of view, this article contains brief thoughts and comments about the culture and methods of formation of information skills in the educational process. How important they are for human life is analyzed.


Keywords: information, education, skill, knowledge, person, culture, technology, computer, method.

Kirish. Yurtimizda ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, keng ko'lamda amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, milliy va xalqaro mehnat bozori talablari darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi”gi Farmoniga asosan mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish orqali ta'lim sohasini yanada takomillashtirish borasida tizimli tadbirlar belgilab berildi. Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi tabiiydir. O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart [1.34]

Asosiy qism. Hozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri matbuot va axborot vositalarining mislsiz rivojlanib, insonlar hayotida katta o'rin egallaganidir. Hozirda matbuot va axborot vositalari, televideniya turli-tuman va xilma-xil bo'lib ketdi. Radio, televizor, kundalik, haftalik, oylik va mavsumiy

gazeta-jurnallar, kompyuter va qo‘l telefonlari, internet va uning turlari hammasi matbuot va axborot vositalaridir. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, matbuot va axborot vositalari bugungi kunda xohlagan tarafi bilan xohlagan narsasini kesadigan ikki tig‘li xanjarga o‘xshab qoldi. Kim bo‘lishidan qat‘iy nazar axborot vositalari sohasida xizmat qiladigan shaxslar jamiyat va uning a‘zolariga ta‘sir o‘tkazuvchilardir. Shuning uchun ularning barchasi yaxshilik tarafdorlari va yomonlik dushmani bo‘lishlari lozim. Ular odamlarga yaxshilikni ravo ko‘rib, yomonlikni ravo ko‘rmasliklari kerak. Inson qancha ko‘p kitob o‘qisa, uning fikr doirasi tiniqlashib, silliqdashib boradi. O‘qish madaniyatini shakllantirish asosida “kitobxonlik madaniyati” tarkib topadi. Ana shu sababli kitobxonlik madaniyati fan darajasiga ko‘tarilishi, nafaqat kitob mutolaasini targ‘ib etish, balki muntazam kitob o‘qishga odatlanish, o‘qish uchun kitobni to‘g‘ri tanlay olish, voqelik bilan dialogga kirishi asosida o‘z-o‘zini anglashga erishish nihoyatda muhimdir. O‘qish madaniyati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda “kitobxonlik madaniyati”, “mutolaa madaniyati”, “axborot madaniyati”, “axborot iste‘moli madaniyati” kabi atamalar keng qo‘llanmoqda.[2.245]

Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma‘naviy me‘roslarini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o‘ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o‘quvchilar juda ko‘p miqdorda ma‘lumotlarni olish, izlash qayta ishlash va o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quv mashg‘ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya‘ni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o‘tkazish, jumladan, dars mashg‘ulotlarida multimediani qo‘llash, internet tarmog‘idan foydalanish va interfaol metodlardan foydalanish shubhasiz o‘z samarasini beradi. Yurtimizda quyidagi ta‘lim turlari mavjud:



Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo‘yicha mutaxassislardir. Mana shu yo‘nalishlar ko‘proq ochilsa yurtimizdagi ta‘lim turlari, xususan oliy ta‘lim muassasalarida va shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lib, innovatsion texnologiyalar asosida ta‘lim berishadi. Mana shu kabi sohalarda yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta‘minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tiladigan oliy ta‘lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb aytsak albatta mubolag‘a bo‘lmaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o‘qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo‘lishi kerak. Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Obyekti va metodologiyasi. Axborot madaniyati - bu yangi aloqa turi bo‘lib, bu individual ma‘lumotlarga ega bo‘lgan ma‘lumotni bo‘shatish imkoniyatini beradi. Global mahalliy darajadagi, barcha darajadagi ma‘lumotlardan foydalanish erkinligi milliy ilmlar kabi barbod bo‘lishi mumkin. Odamni muntazam ma‘lumot va intellektual ishlardan ozod qilish natijasida hosil bo‘lgan yangi tafakkur turi, uni aniqlash va o‘zini o‘zi o‘rganish masalasi aniqlangan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu turli xil qurilmalar, mexanizmlar, usullar va ma‘lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini tavsiflovchi umumiy tushuncha.[3.174]

Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko’rsatmoqda. «Pedagogik texnologiya» so’z birikmasi asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo’yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani anglab yetishning asosiy yo’li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta’lim oluvchi bilan muntazam o’zaro aloqani o’rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o’qitishdir. O’zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o’quv jarayonini to’liq qamrab olishi kerak. Yoshlar, xususan talabalar va o’quvchilarni ma’naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg’usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo’lish shakllari to’g’risidagi bilimlarning majmuasi bo’lgan zamonaviy aksiologiya, ya’ni qadriyatshunoslikning asoslarini o’rganish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me’yorlari borasida to’plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir. Psixologik-pedagogik o’ziga xosliklar bilan birga ta’limiy-pedagogik jarayon ham o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, unda o’quvchilarning bilim-ko’nikmasini shakllantirish bilan birga, o’zida ma’naviy-axloqiy xislatlarni ifodalagan aqliy va jismoniy yetuk, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalaydi. Pedagogik jarayonning asosini odob, ezgulik, rostgo’ylik, ishonch, hurmat ko’rsatish ma’naviy-axloqiy tarbiya tashkil etadi. O’quv jarayonini tashkil etishda o’quvchilarni majbur qilish tarzida emas, balki har bir o’quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga ijodiy yondashish, ijtimoiysiyosiy, tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish, ularga har bir ishda namuna bo’lish, talab va ehtiyojlarni tushunish, maktab ichki intizomga qat’iy rioya etishiga, darsda nazariy bilimlarini to’liq egallashga, kerak bo’lgan paytda g’amxo’rlik qilish, tajriba va an’analar, qadriyatlarni o’rganish hamda ulardan ijodiy foydalangan holda amalga oshirish muhimdir. Dastlab o’quvchilarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda avvalo o’quv predmetlari doirasidagi bilimlar bilan obyektiv dunyoqarashni shakllantirishga nisbatan munosabatni tarbiyalash lozim. Ta’limda talabchanlik o’quvchilarning saviyasini hisobga olgan holda pedagogik odobga mos holda olib borilishi kerak. Bu esa o’z navbatida o’qitishning pedagogik - psixologik tamoyillari, o’qituvchilarning pedagogik mahoratiga ko’p jihatdan bog’liq bo’ladi.[4.48]

Adabiyotlar tahlili. Yurtimiz rivojlangani sari fan va texnika sohalari ham jadal rivojlanmoqda. Olimlarimizning ilmiy izlanishlari natijasida ko’plab yangiliklar yurtimizga kirib kelmoqda. Chet el olimlari va yurtimizdagi olimlarining ilmiy ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning nechog’li fanning ichiga kirib chuqur yondashganliklarining guvohi bo’lamiz.

N.N. Azizxo’jayevaning ilmiy-tadqiqot ishida texnika oliy ta’lim muassasalarida oliy matematika ta’limi jarayonini axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriluvchi algoritmik uslub yordamida tashkil etish tizimi yaratilganligi; oliy matematika ta’limi jarayonini algoritmlashtirishda Skinner metodida dasturlashtirishni boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari aniqlanganligi hamda limitlar nazariyasi va oddiy differentsial tenglamalar nazariyasini o’qitishda algoritmik uslubni qo’llashga asoslangan boshqarish tizimi yaratilganligi o’z aksini topgan.[3]

S.S.G’ulomovning ilmiy-tadqiqot ishida axborot ta’lim muhitida talabalarning individual o’quv faoliyatiga yo’naltirilgan o’quv jarayonlari tuzilmasi mashg’ulot bosqichlariga mos mantiqiy (predikat) funksiya kiritish asosida takomillashtirilgan; talabalarning o’quv sifatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan dasturiy-didaktik majmualar tarkibi amaliy dasturiy mahsulotlarning (MathCad, Maple, Mathematica kabi muhitlar) o’quv jarayonini loyihalashdagi imkoniyatlari (vizuallashtirish, analitik hisoblash, vizual dasturlash muhitining mavjudligi) asosida takomillashtirilgan.[5]

Tahlil va olingan natijalar. Hozirgi globallashtirish jarayonida vujudga kelgan muammolar ijtimoiy voqea va hodisalarga aksiologik yondashuv asosida baholashni talab etmoqda. Bu borada ajdodlar qadri, insoniyat uchun ijtimoiy ahamiyati, ularning qadr-qimmatini jihatidan ajralib turishi, o’ziga xosligiga e’tibor zarur hisoblanadi. Fan asoslarini o’rganishda har bir davrning asosiy yutuqlari, jamiyat taraqqiyoti, madaniyatining rivojlanishi, ma’naviy merosda qay darajada ahamiyatligiga e’tibor beriladi. Shuning uchun ham harbiy ta’limda qadriyatlar urushlar, harbiy xizmat inson umriga zavol toptirish uchun emas, balki ekologik halokat, qirg’in qurollarining oldini olishga xizmat qilish lozimligi har bir o’quvchi ongiga yetkaziladi.[5.162]

Talaba zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

-Darslarda multimedia texnologiyalarini qo’llash orqali talabalarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

-Ta’limning bunday usuli talabalarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o’quv materialini o’zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;

-Namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rish imkoniyatini beradi;

-O‘quv materiallarini o‘zlashtirilishi faqat darajasiga ko‘ra emas, balki talabalar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko‘ra ham samarali hisoblanadi;

-Talabalarga mustaqil izlanish yo‘li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma‘lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

-Talabalarining yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma‘lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.[6.143]

Ta‘limni axborotlashtirishning birinchi bosqichi (elektronlashtirish) talabalarni tayyorlash jarayoniga dastlab texnik, so‘ngra gumanitar fanlar va talabalarni tayyorlash jarayoniga elektron vositalar va kompyuterlarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Algoritmash va dasturlash asoslarini, mantiq algebrasi elementlarini, matematik modellashtirishni kompyuterda o‘qitishni taklif qildi. O‘sha davrdagi kompyuterlarning nisbatan past mahsuldorligi, ishda qulay, oddiy foydalanuvchi uchun qulay dasturiy interfeysga ega bo‘lmaganligi gumanitar ta‘lim sohasida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga imkon bermadi

Ta‘limni axborotlashtirishning ikkinchi bosqichi yanada kuchli kompyuterlar, do‘stona interfeysga ega bo‘lgan dasturiy ta‘minotning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, birinchi navbatda, inson va kompyuter o‘zaro muloqotidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Kompyuter ta‘lim texnologiyalari modellashtirish asosida turli jarayon va hodisalarni o‘rganish imkonini berdi. Kompyuter texnologiyalari har xil darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlarning bir qismi sifatida kuchli o‘qitish vositasi sifatida harakat qila boshladi. Ta‘lim sohasida ta‘limning avtomatlashtirilgan tizimlari, bilimlarni nazorat qilish va o‘quv jarayonini boshqarish tobora ko‘proq qo‘llanila boshlandi.

Ta‘limni axborotlashtirishning uchinchi, zamonaviy bosqichi kuchli shaxsiy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi yuqori sig‘imli saqlash qurilmalari, yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, multimedia texnologiyalari va virtual haqiqatdan foydalanish, shuningdek, davom etayotgan jarayonni falsafiy tushunish bilan tavsiflanadi.

Ta‘limni axborotlashtirish - ta‘lim tizimini ta‘lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti bilan ta‘minlash jarayonidir.[7.367]

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta‘lim jarayonini axborotlashtirish, uni ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirish va talabalarga turli noan‘anaviy metodlar asosida darsni tashkil etish o‘ziga kelayotgan yosh avlodning ham ma‘nan, ham jismonan rivojlanishiga muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim sohasiga kirib kelishi o‘qituvchilarga ta‘lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi. Ta‘limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida talabalarining intellektual imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, individuallashtirish, intensivlashtirish va ta‘lim sifatini oshirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Mingyasharova S.A. “Bo‘lajak muhandislar uchun o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘rni va ahamiyati” Ta‘lim, fan va innovatsiya jurnal 1-son 2024y.-245b.
3. Azizxo‘jayeva N.N. // Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2023y.– 174 b.
4. Mingyasharova S.A., Mamanov J.H. “Oliy ta‘lim jarayonida informatika va axborot texnologiyalari talabalarining mutaxassislik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari” Termiz konf. 2023y.- 48b.
5. G‘ulomov S.S. Ta‘lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yo‘nalishlari.-T.:2020y. -145-173b.
6. Mingyasharova S.A. System of development of professional competences of future engineers in an informed educational environment // Eurasian journal of mathematical theory and computer sciences. – 2023y.- 143b.
7. Mingyasharova S.A., Mamanov J.H. “Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish” T.: 2023y.-367b.

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FANLAR INTEGRATSIYASI

*Musaeva Amina Karomatovna,
Osiyo xalqaro universiteti talabasi*

Ushbu maqolada talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda turli fanlarni integratsiyalash muammosi ko‘rib chiqiladi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan mavjud usul va yondashuvlar tahlili o‘tkazildi. Tadqiqot asosida talabalarda muloqot ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga qaratilgan fanlarni integratsiyalashning kompleks modeli taklif qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu modeldan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasi darajasini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Maqolada taklif etilayotgan modelning afzalliklari va cheklovlari, shuningdek uni yanada rivojlantirish va o‘quv jarayoniga joriy etish istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, fan integratsiyasi, ta’lim, o‘qitish usullari, samaradorlik.

ИНТЕГРАЦИЯ ДИСЦИПЛИН ПРИ РАЗВИТИИ У СТУДЕНТОВ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

В данной статье рассматривается проблема интеграции различных дисциплин при развитии коммуникативной компетентности у студентов. Проведён анализ существующих методов и подходов, представленных в научной литературе. На основе проведённого исследования предложена комплексная модель интеграции дисциплин, направленная на эффективное формирование коммуникативных навыков у студентов. Результаты исследования показывают, что применение данной модели способствует значительному повышению уровня коммуникативной компетентности у студентов. В статье обсуждаются преимущества и ограничения предложенной модели, а также перспективы её дальнейшего развития и внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, интеграция дисциплин, образование, методы обучения, эффективность.

INTEGRATION OF SCIENCES IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

This article examines the problem of integrating various disciplines into the development of students' communicative competence. The analysis of existing methods and approaches presented in the scientific literature is carried out. Based on the conducted research, a comprehensive model of discipline integration is proposed, aimed at the effective formation of students' communication skills. The results of the study show that the use of this model contributes to a significant increase in the level of students' communicative competence. The article discusses the advantages and limitations of the proposed model, as well as the prospects for its further development and implementation in the educational process.

Keywords: communicative competence, integration of disciplines, education, teaching methods, efficiency.

Kirish. Kommunikativ kompetensiya zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli o‘zini o‘zi anglash va ijtimoiy moslashish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir [1]. Ushbu kompetensiyaning rivojlanishi turli fanlar va yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladigan murakkab jarayondir [2]. Ushbu sohada juda ko‘p tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda fanlarning samarali integratsiyasi muammosi hali ham yaxshi tushunilmagan [3].

Ushbu maqolaning maqsadi talabalarda muloqot ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga qaratilgan fanlarni birlashtirish modelini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilindi:

- Ilmiy adabiyotlarda taqdim etilgan talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning mavjud usullari va yondashuvlari tahlil qilindi.

- Talabalarda muloqot ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga qaratilgan fanlarni integratsiyalashning kompleks modeli ishlab chiqish masalasi ko‘riladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta’lim jarayonlari paradigmasining ehtiyojlarga asoslangan tarzda tezkorlik bilan o‘zgarib borishi, oliy ta’limning ko‘p bosqichli tuzilishi, yangi ta’lim standartlari, samarali

o‘qitish usullari va texnologiyalari mazmunini sifat jihatdan xalqaro tajribalarga asoslangan holda takomillashtirish talabalarning kommunikativ kompetentlik darajasini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Kommunikativ kompetentlik barcha soha mutaxassislarining professionallik ko‘rsatgichini baholovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

D.I.Izarenkov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ kompetentsiyaga izoh berib, uni “insonning nutq faoliyatining bir nechta yoki barcha turlarida muloqot qilish qobiliyati, bu tabiiy muloqot yoki boshlang‘ich maktabda maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida olingan ta‘limning o‘ziga xos sifati”, deya ta‘riflaydi. Kommunikativ kompetentsiya samarali muloqotning yetakchi omili bo‘lib, bu muloqot subyektlarining o‘zaro tushunishga erishishga asoslangan o‘zaro ta‘siri natijasini anglatadi, ularning shaxsiy va ijodiy rivojlanishini ta‘minlaydi, muayyan vaziyatga mos keladigan aloqa texnikasi va usullaridan yetarli darajada foydalanishni hisobga oladi.

N.L.Gimpelning tadqiqotlarida esa, “...pedagogik faoliyat doirasida kommunikativ kompetentsiya bu o‘qituvchining muloqot jarayonida yo‘naltirilganlik darajasini aks ettiradi, kasbiy kommunikativ bilim, ko‘nikma, qobiliyat va munosabatlarga asoslanadi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining maxsus tashkil etilgan ijtimoiy pedagogik o‘zaro ta‘siri sharoitida shakllanadi”, degan xulosaga kelingan.

X.A.Yulbarsovaning ta‘kidlashicha, o‘qituvchining kommunikativ kompetentsiyasi kelajakdagi mutaxassisning kasbiy muloqot, mulohaza va empatiyaga tayyorligiga asoslangan shaxsiy fazilatlar tizimini nazarda tutadi.

Respublikamizda bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy va kommunikativ kompetentsiya, ta‘limga kompetentli yondashuv masalalari B.S.Abdullaeva, S.A.Abdullaeva, V.I.Andrianova, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, V.H.Xasanovlarning ilmiy ishlarida, o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammolari U.V.Ziyatdinov, Nishonaliev, A.I.Vorobevning tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi.

Maqsadni aniq belgilash va ushbu maqsadga erishish yo‘lida har qanday obyektiv-subyektiv omillar yuzaga kelmasin, “o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir” [1]

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси / <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2. Божович Е.Д. Развитие языковой компетенции школьников: проблемы и подходы // Вопр. психол. –М.: 1998. № 4. –С.70-71.

3. Педагогический словарь. // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337 с.
4. Mead M. Cooperation and Competition Among Primitive People / M. Mead. – McGrawHill, 1997.
5. Safarova R., Jo‘rayev R. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015. – B. 184.
6. Бульгина Л.Н. Критериально-уровневый подход к оцениванию сформированности коммуникативных компетенций. / Учебно-методическое пособие для педагогических работников. – Н. Тагил: НТФ ИРРО, 2008 г.
7. Назаренко Е.Б. Коммуникативная компетенция: подходы к классификации, структура // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Вып. № 22. 2013. – С. 81-86.
8. Муслимов Н. А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.
9. Марина О.А. Структурные компоненты иноязычной профессиональной компетенции как профессионального стратегического ресурса // Педагогическое образование и наука. — № 5. — Москва, 2014. — 113 с.
10. Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс: https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения: 29.09.2019.
11. Закинов Э.Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогическое образование и наука. — № 6. — Москва, 2014. — С. 82.
12. Бульгина Л.Н. Критериально-уровневый подход к оцениванию сформированности коммуникативных компетенций. / Учебно-методическое пособие для педагогических работников. – Н. Тагил: НТФ ИРРО, 2008 г.
13. Жемченкова С.А. Основные подходы к трактовке понятия «Компетенция», «Компетентность» зарубежом и их содержательное наполнение. Вестник ТГПУ. 2011. 13(115). – С.243. Электрон ресурс. <https://cyberleninka.ru/article/v/>.

TALABALAR ONGIDA MANIPULYATSION TA’SIRLARGA QARSHI IMMUNITETNI HOSIL QILISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.p.f.f.d.(PhD)

Ushbu maqolada axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-falsafiy, texnik jarayonlar, informatsion jarayonlar, axborot-ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a‘zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o‘rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o‘z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma‘lumotlar va xabarlar majmui, axborot iste‘moli madaniyati, axborot dunyosidagi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi, ma‘lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malaka, axborotlashgan jamiyatning inson psixologiyasiga, tafakkuriga, his-tuyg‘ulariga ta’siri haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** mafkuraviy immunitet, tafakkur, milliy psixologiya, axborot iste‘moli madaniyati, axborotlashgan jamiyat.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ В СОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ ИММУНИТЕТА К МАНИПУЛЯТИВНЫМ ВОЗДЕЙСТВИЯМ

В данной статье рассматриваются члены общества, социальные группы с точки зрения социально-экономических и научно-философских, технических процессов, информационных процессов, информационно-политической жизни, которые организуются для удовлетворения потребностей граждан, органов государственной власти и самоуправления, организаций и общественных объединений в области информации, создающая оптимальные условия для реализации своих прав, рассматривается как предмет обмена между политическими организациями и говорит о влиянии информационного общества на психологию, мышление, эмоции человека, знания, умения и навыки в области сортировки данных, служащие общественному прогрессу в культуре потребления информации, информационном мире, совокупность знаний, информации и сообщений, которые они используют в своей деятельности.

***Ключевые слова:** идеологический иммунитет, мышление, национальная психология, культура потребления информации, информированное общество.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF GENERATING IMMUNITY AGAINST MANIPULATIVE INFLUENCES IN THE MINDS OF STUDENTS

In this article, members of society, social groups in terms of socio-economic and scientific-philosophical, technical processes, informational processes, information and political life, which are organized to meet the needs of citizens, state authorities and self-government bodies, organizations and public associations in the field of information, to create optimal conditions in order to realize their rights, the subject of exchange between political organizations is considered and speaks of the influence of the Information Society on human psychology, thinking, emotions, knowledge, abilities and skills in the field of data sorting, serving the social progress in the information consumption culture, Information world, a set of knowledge, information and messages that they use in their activities.

***Keywords:** ideological immunity, thinking, national psychology, culture of information consumption, informed society.*

Kirish. Milliy psixologiya va mafkuraviy immunitet bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Inson boshqa tirik jonzoatlardan o‘zining aql-zakovati, tili va tafakkuri bilan farqlanadi. U ongli mavjudot sifatida voqelikni anglash jarayonida, qalbida turli xil his-tuyg‘ular, tafakkurida xilma-xil fikrlar, g‘oyalar yaratadi. Inson tafakkurida paydo bo‘lgan har qanday fikr, har qanday qarash ham milliy ruhiyat bo‘la olmaydi. Milliy psixologiya falsafiy talqinga ega bo‘lgan chuqur tushunchadir. Milliy psixologiya - jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan turli xil fikrlar, qarashlar natijasida vujudga keladi. Oxir oqibatda shaxs psixologiyasi ijtimoiy kuch vositasiga aylanadi. Inson tafakkurining mahsuli sifatida milliy psixologiya,

inson va jamiyat ruhiyatiga singib boradi. Milliy psixologiya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki ruhiy olamiga kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi. Shuning uchun ham milliy psixologiya va mafkuraviy immunitetning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari ko‘ra yanada takomillashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, globallashtirish jarayonlari, axborotlashgan jamiyat, OAV, keng jamoatchilik ommasi, shaxs, talabalar, axborot oqim ta’siri ostida yashayotgan keng jamoatchilik ommasi uchun har doimgidan ham zarurdir.

O‘zbek xalqining milliy etnik ong xususiyatlariga ta’rif berganimizda uning sifat va fazilatlarini tarannum etuvchi, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan insoniy munosabatlari, do‘st-birodarliklari, ahil-ittifoqliklari, bir-birlariga sadoqatliklarini anglashlikni e’tirof etishimiz kerak. Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va butun atrofda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga munosabati hamda qarashlari uning ongida yuz beradi. Shu bois ham «ong» so‘zi tilimizda aql so‘ziga yaqinroq ko‘rinishda qo‘llanib kelinadi. Insonning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamaları bildirgan ma’nolar bir-biriga xos bo‘lib, ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. Ijtimoiy hayotga tadbiquan axborot-kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma’lumot (ma’lumotlar majmui)ni anglatadi. Sharq mutafakkiri Abu Mansur as-Solibiyning «Yatimat ad-daxr fi-maholisi axli asr» (Zamonamiz axlining fozil kishilari) nomli asaridagi «Tafsilotni quloq ila tinglamoq odamiylikdir, tafsilotni idrok ila anglamoq insoniylikdir» jumlası bilan boshlanuvchi qarashlari milliy psixologik xususiyatlarimizda qadimdan o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborotlashtirish - axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-falsafiy, texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

Axborot resurslari-muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma’lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot-ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a’zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o‘rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o‘z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma’lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-psixologik axborotlar insonlar o‘rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ‘ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

To‘lali, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol o‘ynaydi.

Axborot madaniyati texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va yetkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlarimizni anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy ma’noda «axborot madaniyati» insonning muayyan ma’naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarini o‘zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko‘rsatishini anglatadi.

Axborot iste’moli madaniyati (U.Qo‘shayev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi, ma’lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o‘zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat - kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborotdan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini tavsiflovchi tushuncha.

Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni «bosqichlar almashinuvi» nuqtayi nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo‘lgan iqtisodiyotning to‘rtinchi - «axborot sektori» yuzaga kelishi bilan bog‘laydilar.

Ularning fikriga ko‘ra, industrial jamiyatning asosi bo‘lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini axborot va bilimga bo‘shatib beradi.

Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. G‘arb faylasuflari fikriga ko‘ra, axborotlashgan jamiyat texnika sohasida - ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta’lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, iqtisodiy hayotda - axborotning tovarga aylanishi, ijtimoiy hayotda - axborot turmush, hayot darajasi o‘zgarishining asosiy

omiliga aylanishi, siyosiy sohada - keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo‘l ochilishi, madaniyat sohasida - axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot obyekti. Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

- uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan «yuk»ning keskin qisqarishiga olib keladi;

- ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko‘proq bo‘lishiga va oilaviy muhitning barqaror bo‘lishiga zamin yaratadi;

- keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar - yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro‘li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo‘layotgan madaniyat yutuqlarini ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida nisbatan osuda va tinch bo‘lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u yerda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

- masofaviy ta‘lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanishi barobarida, aholining keng qatlamlari uchun hatto eng nufuzli oliy o‘quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma‘lumotlilik ko‘p darajada insonning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. «Yumshoq erotika» dan tortib «ochiq pornografiya»gacha bo‘lgan hodisalar bilan bog‘liq muammolar ana shular jumlasidandir, achinarlisi, bunday holatlarning oldini to‘la-to‘kis olib bo‘lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishsiz ishlashi uning muhim sifatiy belgisi hisoblanadi, bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridagi kabi «muammolar» yo‘liga qanchalik to‘siq qo‘yilmasin, doimo ularni «aylanib» o‘tish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Yana bir muammo mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog‘liq. Shunday ekan, axborot tarmog‘ida ko‘pchilik ko‘ra olmaydigan hududlar yuzaga kelishi tabiiy. Bugungi kunda kompaniyalar o‘z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag‘lar sarflayotgani ham shundan. Shu bilan birga muayyan axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e‘lon qilishgacha bo‘lgan ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan suv iste‘molchilar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillariga har xil ta‘sir qilishi barobarida uni iste‘mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o‘rtasidagi farqda namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televideniya, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo‘lishi mumkin.

Qo‘llanilgan metodlar. Bugungi kunda madaniyat, ma‘naviyat sohasidagi tahdidlar soni oshib borishi bilan birga, ularning xarakteri murakkablashib bormoqda. Inson ongiga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida havola etilayotgan ma‘lumotlar shaklan ko‘payib, hattoki, badiiy ijod namunalari buniyodkor va vayronkor g‘oyalar aks ettirilgan bo‘lib, ularning har biri qator vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgandir. Ularni vazifadorligi asosida quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

a) individga ta‘sir ko‘rsatib, uning tanlagan yo‘li, belgilagan maqsadi xato ekanligini;

b) nomaqbul xulq namunasi «zamonaviy talabalarning iftixori» ekanligini;

v) maishiy va ijtimoiy hayot tarzida mavjud an‘anaviy munosabatlar majmuini «eskirgan»ligini;

g) destrukti «Men»ni namoyon etishni maqbul ekanligi kabilarni singdirish.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo‘l topish sohasida keskin bo‘linish, tabaqalashuv sodir bo‘lmoqda.

Talabalar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo‘sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta‘sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta‘siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta‘sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi va takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi, deyish mumkin.

O‘z davrida og‘zaki nutqning paydo bo‘lishi bilan axborot uzatish imkoniyatlari kengaygan bo‘lsa, yozma nutq rivoji bu borada o‘ziga xos yangi bosqichni boshlab bergan edi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti, integratsiya va globallashuv sharoitida esa axborot makonida tub sifatiy holat kechmoqda. Endilikda axborot uzatish nafaqat xilma-xil (radio, televideniya, matbuot, telefon, faks, pochta, internet va b.) shakllari, balki,

o‘ta tezkorligi bilan ham jamiyat taraqqiyotining oldingi davrlaridan keskin farq qiladi. Bunday sharoitda axborot iste‘moli jarayonida ham yangi tendensiyalar kuzatilmoqda.

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u dunyoga egalik qiladi» degan fikrning paydo bo‘lishiga ham axborotning yuqoridagi xususiyatlari sabab bo‘lgan. Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtda, axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta‘minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma‘lumotlarga turli siyosiy ta‘qiqlar, davlat chegaralari to‘siq bo‘la olmaydi [1].

Olingan natijalar va ularning tahlili. G‘arbda «hedhantung» degan atama mavjud. Uni bevosita o‘zbekchaga tarjima qilsak, «aqlni ovlash» ma‘nosini angalatadi. Yanada tushunarli bo‘lishi uchun, quyidagilarni ham qo‘shish lozim: Kadrlar va aqliy salohiyat «savdosi» uchun bugungi kunda bozorning o‘ziga yarasha me‘yorlari mavjud. Ulardan eng sarasi bu – professional layoqat va kuchli malakaga ega bo‘lish hamda ishlayotgan kompaniyasi uchun yuqori samara keltirishdir. Aynan shu jihatlarni o‘zida jamlagan ishchi yoki kadrlarga bugun talab kuchlidir. Ularni qo‘lga kiritish uchun maxsus dallollik tashkilotlari mavjud va ular rekrutlik, ya‘ni quyi ishchi o‘rinlari va xedxantinglik (oliy ma‘lumotli, malakali va yuqori mansablar) xizmati deb ataladi. Ishchi kuchi hamda intellekt bozorida bu borada ham raqobat juda qat‘iy. Shuning uchun kompaniyalar muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda, manipulyatsiyadan hamda virtual tarmoqlar orqali tadbiiq qilishga intiladilar. Ularning asosida original g‘oyalar bilan oziqlantirilgan axborot yotadi. Ko‘proq mijozga ega bo‘lish uchun yuridik shaxs birinchi navbatda, o‘z obro‘-e‘tiborini oshirishga harakat qiladi va bu yo‘lda omadi yurishganlar raqobatning qudratli chig‘irig‘iga bardosh bera oladilar. Demak, o‘ziga yarasha moddiy va ma‘naviy asos hamda kelajak uchun to‘ldirib boriladigan zahira jamg‘armasi ularning «aqlni ovlash»ini yanada qulaylashtiribgina qolmay, balki yanada mustahkam poydevorini yaratib beradi. Bunday nomga ega bo‘lish uchun, albatta, axborotdek kuchli targ‘ibot-tashviqot vositasi qo‘l keladi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, o‘zaro sog‘lom qarama-qarshilikda yutuqqa erishish garovi bu – axborot kurashida g‘alaba qozonish bilan belgilanadi. Kichik maydondagi raqobat ko‘pincha davlatlararo manfaatlar kurashining kichik bir modelida ko‘zga tashlanadi. Albatta, bu o‘rinda ayrim farqlarni ham hisobga olish lozim

Axborot iste‘moli ijtimoiy, aniqrog‘i, ma‘naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste‘moli xizmatlar iste‘molining o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Ma‘lumki, har qanday xizmatni iste‘mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga e‘tibor beriladi. Bu jarayonda iste‘mol qilinayotgan xizmatning talab-taklif xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste‘mol darajasi yuqori bo‘lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste‘moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma‘naviy ne‘mat bo‘lgan axborotni iste‘mol qilish o‘ziga xos tamoyillari bilan ham ajralib turishini ta‘kidlash joiz. Xususan, axborot - konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste‘mol qilinadi, mazkur darajalarda iste‘mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biror shaxs uchun qiziqarli bo‘lgan ma‘lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, g‘arbda o‘ta ommabop bo‘lgan axborotlar, sharq xalqlari tomonidan kam iste‘mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma‘lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma‘lumotlar, vaqt o‘tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in‘ikos etmasligi mumkin.

Axborot iste‘moli kim tomonidan iste‘mol qilinishidan qat‘iy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Bugungi kunda axborot iste‘moli jarayoni ham o‘ziga xos madaniyatni taqozo etmoqdaki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qasimga aylanishi zarur. Axborot iste‘moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo‘lgan, internet tarmog‘i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi davr kishisi oldida axborot tanlash imkoniyati shu qadar yuqoriki, uning talabini qondira olmaydigan ma‘lumotlar bir zumda qiymatini yo‘qotishi aniq. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi davrda axborot iste‘moli avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Buning uchun kishilarda axborot iste‘moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirishga erishish zarur. Shundagina ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashish, ularni noto‘g‘ri talqin etishning oldi olinadi. Eng muhimi esa axborot iste‘moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat g‘arazli manfaatlar doirasidagi geoaxborotlar ta‘siriga tushib qolmaydi. Albatta, axborot iste‘moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa‘y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi.

Axborot iste‘moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Axborotni kommunikativ, reguliyativ tartibga solish, axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar

shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste'moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulq odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, shaxs ayniqsa, talabalar g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish orqali bunday ta'sirlarning oldi olinadi.

Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovora bo'lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, internet virtual, ammo, obyektiv hodisadir, uning hayotimizga kirib kelishini nazorat qilib bo'lmaydi. Odamlarimizni internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o'rgatish, axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilish to'g'ri bo'ladi. Zero, kishilarda axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarni baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o'z qarashlarida qadriyatlar tizimi sofligi muhim rol o'ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o'zga madaniyatga tegishli bo'lsa, o'zimiz mansub bo'lgan madaniyat ruhan singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo'ladi va butun bo'y-basti bilan o'zligini namoyon qiladi. **Madaniyatning** baholash funksiyasi tufayli tanlash sodir bo'ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi o'ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta'minlanadi [2].

Xulosa. Fikrimiz yakunida shuni aytishimiz mumkin, hozirgi davrda aholi, ayniqsa, talabalar axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologiyasini mukammal darajada o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, jamiyatimiz hayotining turli sohalari to'g'risida axborot beruvchi obyektiv, jozibador ma'lumotlarning internet sahifalaridan keng o'rin egallashi, O'zbekistonning global axborot makonidagi o'rning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv jarayonlarida axborot olamida qandaydir devor o'rnatib bo'lmasligi, biroq, farzandlarimizni chalg'itishga, to'g'ri yo'ldan toydirishga qaratilgan informatsion tahdidlardan, g'arazli manipulyatsion ta'sirlardan himoyalash choralarini ko'rish dolzarb vazifadir.

Adabiyotlar:

1. Воловик В.М., Вид В.Д. “Психологическая защита” как механизм компенсации и её значение в психотерапии больных шизофренией //Психологические проблемы психогигиены, психопрофилактики и медицинской деонтологии / Ред. М.М. Кабанов. – Л., 1976.
2. Голод, С. И. Семья и брак: историко-социологический анализ / С. И. Голод. — СПб.: Петрополис, 1998.
3. Лебон, Г. Психология народов и масс / Г. Лебон. М. : Терра, 2008.272 с.
4. Митрохина Е.Ю. Некоторые проблемы социальной информации и её влияния на общество // Информационный сборник «Безопасность». №3-4, март-апрель, 1997.-С.129-133.

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

*Shernafasova Husniyo Ravshanbekovna,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Safayeva Diyora Hamid qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Axborot jamiyatining texnologik negizini global axborot infratuzilmasi tashkil etadi, uning asosini telekommunikatsiya tarmoqlari va texnologiyalari shakllantiradi, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. Ushbu maqolada axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, bilim, axborot, multimedia, videokonferensiya, texnologiya, ta'lim vositalari.

ВОЗМОЖНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Технологической основой информационного общества является глобальная информационная инфраструктура, которую формируют телекоммуникационные сети и технологии, занимают важную роль в развитии экономики страны. В данной статье говорится о возможностях использования информационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: образование, знания, информация, мультимедиа, видеоконференция, технологии, образовательные инструменты.

POSSIBILITIES OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION

The technological basis of the information society is the global information infrastructure, which is formed by telecommunication networks and technologies, which play an important role in the development of the country's economy. This article talks about the possibilities of using information technologies in the educational process.

Keywords: education, knowledge, information, multimedia, video conference, technology, educational tools.


Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim sifatini oshirishdagi o'rini inobatga olgan holda, ta'limda internet texnologiyalari moduli zamonaviy internet texnologiyalari doirasida tinglovchilarda kerakli nazariy, amaliy va malakaviy ko'nikmalarga ega bo'lish, kasbiy mahoratlarini mehnat faoliyati davrida oshirish imkonini beradi va bilimlarni sohaning ishlab chiqarish korxonalarida, amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, ko'nikmalar va bilim berishga asos bo'lib, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va loyihalash ishlarini yuqori saviyada bajarilishini ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim vositalari – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchilar axborot tashuvchi vositalardir. Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

- ❖ ta'lim beruvchi uchun;
- ❖ ta'lim oluvchi uchun;
- ❖ dars o'tkazish uchun.

Ta'lim vositalarining turlari

- ❖ Ta'lim vositalari olti turga bo'linadi:
- ❖ matnli vositalar;
- ❖ tasvirli vositalar;
- ❖ audiovizual vositalar;
- ❖ yordamchi (jihaz) vositalar;
- ❖ modelli vositalar;
- ❖ haqiqiy vositalar.



Kompyuterli o'qitish texnologiyalari

Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi.

Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta'minlaydi:

- ❖ interfaollik
- ❖ multimedia
- ❖ kommunikativlik
- ❖ unumdorlik

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta'lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, o'quvchining o'qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talabalarga o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi.

Pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchining texnologik vositalari, kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Modulli o'qitish texnologiyasi. O'qituvchi tomonidan fanning qator mavzularini birlashtiruvchi bo'limlarga (o'quv elementlarga) ajratilishi bo'lib, odatda fan bir necha bo'laklardan iborat bo'ladi va eng oddiy hollarda darslikning boblariga mos tushishi mumkin. Har bir ta'lim oluvchi har qaysi o'quv elementi moduli yuzasidan izchil yo'l-yo'riq oladi. Unda modulning maqsadlari ko'rsatiladi. O'quv ishlarining ma'lum turlari tavsiya qilinadi. Modul bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari keltiriladi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi. Modulli o'qitish ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Videokonferensiya va uni o'quv jarayonida qo'llash -shunday kompyuter texnologiyasiki, undan foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda eshitadi, ko'radi va ma'lumotlar bilan almashishadi. Videokonferensiya o'tkazishda ikkita shartni bajarish muhim: videokonferensiyadan foydalanish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari; videokonferensiyani o'tkazish talablariga javob beruvchi aloqa amallaridan foydalangan tartibda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish. Masofadan turib

videokonferensiya tizimidan foydalangan holda interaktiv o‘quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya’ni interfaol usulda ma’ruzalarni o‘qish, seminar darslarni tashkil etish, savollarga javoblar olish va boshqalar.

Masofaviy o‘qitish – o‘zaro ma’lum bir masofada internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o‘quv jarayonlari komponentlari maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o‘qitish usullariga asoslangan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat. Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng ko‘lamda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlatning iqtisodiy tizimini yuritishning asosiy kuchi bo‘lib: telekommunikatsiya, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish kabi sohalarda yangi ish joylarni tashkil qiladi, hamda yangi axborot-kommunikatsiya atrofida paydo bo‘layotgan ta’lim va o‘qitish kabi xizmatlar sohasiga yangi dasturiy ta’minotni yaratmoqda. Ta’lim jarayoniga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalar va o‘qituvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim vazifasidir. Shu bois ta’lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kirib kelishi yangi o‘zgarishlardan foydalanishni taqazo etadi. Ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish zarurdir. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butun jahon axborot tarmog‘idan faol foydalanishi bilan harakatlanadi.

Multimedia — bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o‘quv materiallarini tinglovchilarga to‘liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Multimedia va internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarni muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida ishlatish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida, dars mashg‘ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ishlatilishi o‘qishga bo‘lgan talabalarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. O‘qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o‘qitish sifati va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-video muloqot o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini va bilim olishga bo‘lgan havasini oshiradi. Multimedia vositalariga, jumladan, audiokolonka, mikrofon, videoprojektor, Web kamera, TV tuner, CD-ROM va boshqalar kiradi. Multimedia vositalari o‘quvchiga yakka tartibda shug‘ullanish imkonini beradi. O‘quvchi o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ham materialni mustaqil o‘zlashtirishi mumkin bo‘ladi. Hozir multimedia so‘zi kundalik faoliyatimizda juda ko‘p ishlatilmoqda. Multimedia hozir juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo‘lib, u quyidagi an’anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda original axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko‘rinishidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi; Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessorning harakatchanligini, ma’lumotlarni uzatish shinasining o‘tkazish qobiliyatini, tezkor va video-xotira hajmini, katta sig‘imli tashqi xotirani, kompyuter kirish-chiqish kanallari bo‘yicha almashuv tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi; Ta’lim sohasida multimedia vositalari yordamida tinglovchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

— ta’lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

— ta’limning turli shakllaridan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkoniyatining paydo bo‘lishi;

— boshqa fan sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyogining yanada oshishi;

— dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘linishi;

— olingan bilimlarni kishi xotirasida uzoq muddat saqlab qolish va uni amaliyotda qo‘llash imkoniyati.

Xulosa. Shu bilan birga, bilimlarga asoslangan jamiyatning negizini tashkil etuvchi zamonaviy texnologiyalarga tayangan ta’lim tizimi shakllantirilishi bugungi kun sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davr talabasi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi voqelikka to‘g‘ri baho beruvchi, o‘tkir zehni, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda yuksak intellektual kuchga ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun esa ta’lim tizimiga yangi innovatsiyalarni ta’sis etish zarur va shartdir. O‘quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayonini o‘quvchi bilimni boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш.А., Сайитов С.С., Халикова Г.И. История педагогики: Учебник для студентов высших учебных заведений. – Ташкент: Фан, 2008. - 252 с.

2. Asqarova O‘. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. –T.: Istiqlol, 2005.

3. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб: Питер, 2001. – 304 с.
4. Беспалько В.П. Педагогические технологии и средства обучения. – М.: Знание, 1989. – 164 с.
5. Asqarova O'. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. –T.: Istiqlol, 2005.
6. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent. “Sano - Standart” MCHJ bosmaxonasi, 2010. - 87 b.
7. Ismoilova. Tarbiyaviy ish metodikasi. T., “Istiqlol”, 2003.
8. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.X., Sayfurov D.M., Turaev A.B. - T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. - 81-b.

IJTIMOY PSIXOLOGIK BILIMDONLIK SAMARALI MUOMALANING MUHIM OMILI

Sobirov Axror Burxonovich,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Maqolada ijtimoiy psixologik bilimdonlik samarali muomalaning muhim omili yoritilgan. Ijtimoiy psixologiya ham bilimdonlik tushunchasining mohiyatiga o‘ziga xos tarzda yondashadi va uning serqirraligini e‘tirof etadi. Psixologik nuqtayi nazardan olib qaraganda shunday muhim jihat mavjudki u ham bo‘lsa aniq ilmlar sohasida bilimlar hamda shaxsning jamiyatda insoniy mafkuraviy huquqiy siyosiy, demokratik munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlarining o‘zaro uyg‘unligi masalasidir. Psixologik savodxonlik tushunchasining asl mohiyati-bu shaxsning o‘zi uning hissiy kechinmalari munosabatlari majmun bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi qadriyatlar ma‘naviyat to‘g‘risidagi to‘la tasavvurlardir.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy psixologiya, bilimdonlik, psixologik nuqtayi nazar, shaxs, jamiyat, insoniy mafkuraviy, huquqiy, siyosiy, demokratik munosabatlar, savodxonlik, hissiy kechinmalar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ

В статье выделены социально-психологические знания как важный фактор эффективной коммуникации. Социальная психология также по-своему подходит к сущности понятия познания и признаёт его многообразие. С психологической точки зрения есть такой важный аспект, что речь идёт о взаимной гармонии знаний в области конкретных наук и знаний человека о человеческих, идеологических, правовых, политических и демократических отношениях в обществе. Настоящая сущность понятия психологической грамотности — это сам человек, его эмоциональные переживания, его взаимоотношения с обществом и система межличностных отношений в нем, полные представлений о ценностях и духовности.

Ключевые слова: *социальная психология, знание, психологическая перспектива, личность, общество, идейно-правовые, политические, демократические отношения человека, грамотность, эмоциональные переживания.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IS AN IMPORTANT FACTOR OF EFFECTIVE INTERACTION

The article describes socio-psychological knowledge as an important factor in effective treatment. Social psychology also has its own approach to the essence of the concept of cognition and recognizes its versatility. From a psychological point of view, there is such an important aspect that we are talking about the mutual harmony of knowledge in the field of specific sciences and human knowledge about human, ideological, legal, political and democratic relations in society. The true essence of the concept of psychological literacy is the person himself, his emotional forgiveness, his relationship with society and the system of interpersonal relationships in it, full of ideas about values and spirituality.

Keywords: *social psychology, knowledge, psychological perspective, personality, society, human ideological, political, democratic relations, literacy, emotional experiences.*

Kirish. Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan tub islohatlarning mohiyati haqida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy qadriyatlarni yosh avlod ruhiga va ma‘naviy dunyoqarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yo‘lida foydalanishning yagona yo‘llaridan biri-bu ularda bilimdonlikni yetarli darajada shakllantirishdir. Bu o‘rnida e‘tiborni biz “bilimdonlik” tushunchasining ijtimoiy-psixologiya mohiyatiga qaratmoqchimiz.

Ma‘lumki ilmiy abadiyotlarda “bilimdonlik tushunchasi ko‘pincha “aql” “aqllilik” ilmgacha chanqoqlik tushunchalari bilan bir xil ma‘noda ishlatiladi. Aslida psixologik nuqtayi nazardan ushbu tushunchalar o‘rtasida mohiyatan biroz bo‘lsa-da farq bor. Buyuk bobimiz Alisher Navoiy “aql” tushunchasini bilimdonlikdan kengroq ta‘riflab aql so‘zining 27 darajasi va 27 sifatini ajratadi.

Ushbu sifatlardan eng muhim va ijobiyarlari bevosita bilimdonlikka aloqadordir. Masalan aql muxandislar-donishmandlar, olimlar bilimdonlarni “aql-teri”-tafakkur ustozlari, farosatli kishilarni “Aql-o‘ti” zehn o‘tkirliги xushyorlikni aql quli-eng yetuk aql kabi qator sifatlargina insonni atrof-muhitda ro‘y beradigan voqea-hodisalarning mohiyatiga yetish, ularni tahlil qilish va umumanlashtirish yangilik ochish

ijodiy izlanish xislatlarini aks ettiradi. Ibn Sino esa inson faoliyatdagi haqiqatni bilishga olib keluvchi nazariy hamla yaxshi ishlarni bajarishga yo‘naltiruvchi amaliy bilimlarni farqlaydi. Demak shaxsning bilimdonligi uning atrof-muhit tarbiyat va jamiyatlarni kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash baholash o‘zi haqida to‘g‘ri tasovvurga ega bo‘lish negizida hayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatida namunali ishlarni bajarish, inosniy fazilatlariga amal qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi oldida turgan eng muhim vazifa ham-kelajagimiz bunyodkorlarida ayana shunday sifatlar majmuani shakllantirishdir.

Abduxamid G‘azzoliy fikricha barcha insonlarga xos bo‘lgan sifatlar borki ularning mazmuni quyidagi omillar orqali tushuntiriladi.

- 1) Inson o‘zini o‘z kamoloti va hayotiga asos bo‘ladigan narsalarni sevadi.
- 2) o‘ziga yaxshilik qilgan yordam berganlarni sevadi.
- 3) umuman hammaga yaxshilik qiladigan sahovatli odamlarni sevadi jumladan adolatli shohlar ham sevimli.
- 4) shuningdek barcha go‘zal narsalar, nafosat olami xushbo‘y xushsurat narsalarni ham sevadi.
- 5) maslak va mazhab yuzasidan ham odamlar bir-birlarini yaxshi ko‘radilar bularning barchasi oxir-oqibat insonlarning ruxiy-ma‘naviy qarindoshligiga asos bo‘ladi.

Ko‘rib turganimizdek tasavvuf ilmida ham jamiyatdagi mo‘tadil insoniy munosabatlar bilan individualik o‘rtasida tafovut yo‘q. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda yoshlar tarbiyasida ularni yangicha ijtimoiy munosabatlarga o‘rgatishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritimiz.

Asosiy qism. Ijtimoiy psixologiya ham bilimdonlik tushunchasining mohiyatiga o‘ziga xos tarzda yondashadi va uning serqirraligini e‘tirof etadi. Psixologik nuqtayi nazardan olib qaraganda shunday muhim jihat mavjudki u ham bo‘lsa aniq ilmlar sohasida bilimlar hamda shaxsning jamiyatda insoniy mafkuraviy huquqiy siyosiy, demokratik munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlarining o‘zaro uyg‘unligi masalasidir. Psixologik savodxonlik tushunchasining asl mohiyati-bu shaxsning o‘zi uning hissiy kechirmalari munosabatlari majmun bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi qadriyatlar ma‘naviyat to‘g‘risidagi to‘la tasavvurlardir. Psixologik nuqtayi nazardan bilimdan odam tasavvurlarida obyektivlik va xolislik sifatleri mavjud kim shu tufayli u o‘z “Meni”ni mukammallashtirish va o‘zgalar bilan to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatish qobiliyatiga ega.

"Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro‘yobga chiqariladi. Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni yoshlar, ayniqsa, bo‘lajak rahbarlarga yetkazish ularning psixologik savodxonligini oshiradi, ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga, bo‘lg‘usi b oshqaruv faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Psixologik savodxonlik yana shuning uchun ham zarurki, ko‘pincha inson o‘z iqtidori va imkoniyati darajasida aniq tasavvur qilmaydi, bilim goh yoki kasb tanlashda o‘zgalar ta‘siriga nafaqat o‘sha shaxs aziyat chekadi, balki jamiyatga zarar keltiradi. Har bir shaxs o‘zini o‘zi tarbiyalashning malakalariga ega bo‘lishi autotrening elementlaridan baxobar bo‘lish o‘zgalar bilan muloqotga tayyorligi-treninglarda ko‘nikmalar hosil qilishi o‘zgacha bo‘la olish san‘ati uning ruhiy barkamolligiga zaminligi tufayli jamiyat sog‘lom insoniy munosabatlar ustun turadi. Demak ijtimoiy psixologiya bilimdonlikdan ko‘zlangan asosiy maqsad-yoshlarni bo‘lg‘usi ijtimoiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash ularda insoniy fazilatlar shakllantirish kommunikativ bilimdonlik va shaxslararo muloqotning murakkab shakllariga muvofiq. Zero, yuksak teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el yurtga naf yetkazadigan insonlargina kamolotga erishishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy psixologiya o‘zining faol metodlari va qonuniyatlari bilan o‘z hissasini qo‘shadi.

Ma‘lumki muloqotning maqsadi va uning qay darajada amalga oshirilishiga ko‘ra samaradorligi haqida fikr bildirish mumkin. Ya‘ni muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib uning qondirilishi, muammo yechilib chiqib uning qondirilishi, muammo yechimi bilan bog‘liq vazifalarning bajarishiga asoslanib muloqotning samarali yoki samarasizligi to‘g‘risida xulosa chiqarsa bo‘ladi. Shaxslararo munosabat muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro bir-birlarini tushunishga olib kelsa, bunday o‘zaro munosabatlar samarali va foydali hisoblanadi.

Metodlar. Muloqotning psixologik tizimidan shu narsa ma‘lumki, uning uch asosiy qismi, ya‘ni muomala subyektlarning o‘zaro bir-birlari bilan axborot, hissiy kechinmalar va fikr almashinuvni ta‘minlovchi kommunikativ, o‘zaro bir-birlarining xulq atvorlariga ta‘sirilarini belgilovchi interaktiv va bir-birlarini to‘g‘riroq, aniqroq idrok qilish va baholashlarini ta‘minlovchi perseptiv tomoni mavjud.

Muloqot yoki muomala – shaxslararo munosabatlar jarayonida o‘zaro axborot almashish, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish va bir-birini idrok etish, tushunishdan iborat faollikning alohida shaklidir. U 3 xil ko‘rinishda bo‘ladi:

- 1) o‘zaro fikr almashish (kommunikativ ko‘rinish).
- 2) o‘zaro ta’sir ko‘rsatish (interaktiv ko‘rinish).
- 3) o‘zaro bir-birini tushunish (perseptiv ko‘rinish).

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi:

1. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2. Do‘stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3. Masofadan turib muloqotga kirishish.
4. Qo‘rqitish (qo‘rquv) asosidagi muloqot.
5. Soxta obro‘-e‘tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot.

Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi (axloqi) tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O. Knebel, I.P. Volkov, V.F. Shatalovlar o‘z fikrlarini bildirganlar.

Ulaming fikricha, bolalar bilan bo‘ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi.

Ikkinchi uslub asosan do‘stona munosabatlar, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do‘stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta‘minlaydi. Maroqlilik bilan do‘stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o‘rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo‘lishi lozim.

Uchinchi uslub, ya‘ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasida muayyan masofa bo‘lishi kerak. Masofa juda uzoq bo‘lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro‘-e‘tibori ortadi.

To‘rtinchi uslub — qo‘rqitish asosidagi muloqot bo‘lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba‘zi pedagoglar o‘quvchilarni qo‘rqitish orqali muloqotda bo‘ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Ayniqsa, katta auditoriyada ma‘ruza o‘qiydigan ma‘nizachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo‘rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman, deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o‘zaro tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Beshinchi uslub — soxta obro‘-e‘tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo‘lib, yosh o‘qituvchilar malakasi yetarli bo‘lmagani uchun yolg‘on ishlatadilar. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchi bilan tezroq muloqotda bo‘lib olishga harakat qiladi.

Ushbu tizim har bir tomoni muomalaning zaruriy va muhim tarkiblari hisoblanib, uning uchinchi bo‘lagi shaxslararo ta’sir o‘tkazish uchun juda muhimdir. Chunki muomalaga kirishuvchi shaxslar bir-birlarini yaxshi tushunishlari uchun avvalo suhbatdoshning yuzi hissiy kechinmalarini idrok qilgan holda fikran uning mavqeida tura bilishi, o‘zini uning o‘rnida his-tuyg‘ular doirasida uning holatiga kirishga intilish (identifikatsiya) qolaversa, bu jarayonda individual va ijtimoiy ongda mavjud bo‘lgan mutlaq stereotip, ongda o‘rnashib qolgan tasavvurlardan foydalanishi (stereotipizatsiya) ushbu jarayon to‘g‘ri kechishini ta‘minlab turadi. Lekin bu jarayonlar shunchalik tez va qisqa fursatda kechadiki shaxs ba‘zan o‘zidagi ana shunday qiyoslashlarni ongisiz ravishda, hayotiy tajriba orqali o‘rnashib qolgan shablonlar-qoliqlar asosida amalga oshiradi, shuning uchun ayrim hollarda muloqot samarasiz yoki xato kechishi mumkin. Ana shunday xatoliklarga olib keluvchi jarayon ijtimoiy psixologiyada kauzal atributsiya deb atalib, uning mohiyatini shaxsning ko‘pincha o‘z xissiy kechinmalari va tasavvurlarida o‘rganib qolgan qoliqlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasi tashkil qiladi. Masalan, tashki qiyofasi ko‘rimsiz talabaning imtihon savollariga javob berayotganligini idrok qilgan professor negadir, uning qoniqarsiz javob berishi, bilim, yetarli emasligi haqidagi noto‘g‘ri tasovvurga ega ekanligi kauzal atributsiyaning aynan o‘zidir. Muomala jarayonining samaradorligini ta‘minlovchi ijtimoiy psixologik omillar ichida shaxsning muloqot maromini egallash ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi.

Bu sifat muloqot xislat quyidagi omillarga bog‘liq.

1) o‘zgaralar mavqeida tura olmaslik, ularning hissiy kechinmalari tuyg‘ulari va munosabatlariga befarqlik.

2) o‘z his tuyg‘ulari va munosabatlarini boshqara olmasligi, o‘z-o‘ziga ma‘suliyatning yo‘qligi o‘z-o‘ziga tahlil qilish imkonining zaifligi;

3) suhbatda har bir inson uchun bir qarashda tabiiy hisoblangan nutq qobiliyatinnig yo‘qligi ya‘ni fikr-mulohazalardagi mantiq va uzviylikning mavjud emasligi.

4) eshitish qobiliyatining kuchsizligi ya‘ni birovga murojaat ma‘nosida gapirish qanchalik buyuk fazilat va mas‘uliyatli faoliyat bo‘lsa, o‘zgaralarni suhbatdoshni tinglash ham shaxsdan qator sifatlarni talab qiladiki, tinglay olish o‘quvi ham suhabatni o‘ziga og‘dirishning muhim omilidir.

Yuqoridagi omillarning kuchiga e'tiborsizlik o'zgaralar mavqeida tura olmasilik muomalada subyektiv xodisani keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham to'g'ri yo'lga kuyilgan samarali muloqot va uni ta'minlovchi yo'l va vositalar ikkinta asosiy kamchilikni bartaraf etishiga xizmat qiladi.

- har bir shaxs tafakkurini muqobil bo'lishi mumkinligini anglashi ya'ni suhbatdosh boshdan o'zgalarda ham o'zining fikriga qarama-qarshi fikr bo'lishi mumkinligini tushunishi va bu narsa bilan xisoblashish zarurligi.

- o'z fikrlari va harakatlarining motivlari ularning asl sabablarini anglash imkoniyati ya'ni xar bir shaxsda o'z shaxsiy tajribasi hayotga subyektiv munosabatlari oqibatida “Ego”-ehtiyotlar majmun shakllanib boradiki u boshqalardagi ayni shunday ehtiyojlarga tubdan qarama-qarshi yoki kisman ziddiyatli bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi ikki xolatning mavjudligini anglash ijtimoiy vaziyatlarga sodir bo'lishi ehtimoli mavjud. Hatoliklar va atributsiyalarining oldini oladi.

Gap muomalalarning samaradorligi va uning omillari to'g'risida borar ekan shu o'rinda uning strategiyasi va taktikasi tushunchalariga biroz izoh berish joyiz muomala strategiyasi deganda uning qanday shaklda o'tishi tushuniladi. Shu nuqtayi nazarda olib qaralganda uning quyidagi shakllari farqlanadi: dialog yoki monolog ochiq yoki imtim (sirli yashirin): rolli yoki shaxsiy norasmiy kabilar.

Muomala texnikasi deganda uning samarasini ta'minlovchi psixologik omillar vositalar, usullar tushuniladi. Bu shaxs va yoki guruhning kommunikativ malakalari va ko'nikmalari yig'indisidan iborat bo'lib eng avvalo nutq qobiliyati yoki eshitish o'quvi ularning jozibali va ta'sirchan chiqishida qo'llaniladigan barcha xissiy emotsional va psixologik xarakteralogik uslublar kiradi. Bundan tashqari mumilaning texnikasi deganda, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etayotgan yoki aniqroq qilib aytganda qo'llaniladigan nutqiy-verbal yoki triqsiz-noverbal vositalar nazarda tutiladi. Ma'lumki odamlar uzaro muloqotga kirishganida eng samarali va tabiiy so'zlashish vositasi bo'lmish nutqdan foydalaniladilar, uning ta'sirchanli kuchi tabiiy usha so'zlovchilarning malakalariga tajribasiga va hayotiy ko'pikmalariga, til boyliklaridan qay darajada omilkorona foydalana olishlari bog'lik.

Lekin ana shu nutqiy muloqot uz navbatida uni hissiy jihattan tuldiruvchi nutqsiz-noverbal vositalar bilan ham boyitiladiki, unga o'sha suhbatlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishlaridan tortib, to'rovushlar intinatsiyalar, to'htalishlar oxanglar va motsional qullab- quvatlash mehanizmlari kiradi. Nutqda ishlatiladigan pauza-tuxtalishlar yoki yuz ifodalari-mimikalarning o'rinli ishlatilishi suhbatdoshni ruhan muloqotdosh sherigiga yakinlashtiradi yoki noo'rin ishlatilgan muqomlar ortiqcha harakatlar hissiy kechinishlar uni koniqtirmasligi suhbatdoshini esa zeriktirishi tabiiy holdir. Ko'p mutaxassislar suzlash san'ati (mahorati) ta'sirchanligini hisobga oladilar-da lekin eshitish ukuvi va uning texnikasiga yuzaki qaraydilar.

Zero eshitish yoki tinglashning ham o'ziga xos nozik tomonlari mavjud. Avvalo, eishtish yoki tinglash gapirish uchun mavjut yoki esa-tushunish uchun darkor. Bu ikki holatda tinglovchining yuz ifodasidan tortib to o'zini his qilishlari barchasidan farq qiladi. Tinglovchi suhbatdoshini fikr almashish uchun tinglaganda, uning diqqati shu darajada tarang bo'ladiki natijada u to biror luqma yoki oshiq bir fikr to'plamaguncha uni tinglayveradi. Ikkinchi holat-axborotni tushunish uchun tinglaganda esa imoutsional kechirmalar yoki luqmalar har bir fikrga aniqlik kiritish, uning mohiyatiga to'liq yetib borish uchun ishlatiladi, bunda tinglovchining suhbatdoshga nisbatan movqei oldingizsidan ancha sust kechadi.

Bundan tashqari tinglash texnikasi xaqida gap ketganda, uning ikki bosqichi farqlanadi, ko'plab – quvvatlash bosqichi va sharxlash bosqichi.

Birinchi bosqichning mohiyati asosan suhbatdoshga tashabbusni berish va uning fikrlari oxirigacha bayon etishiga imkoniyat berish bo'lib bunda quyidagi vositalar qo'llaniladi.

- “aks sado” – har bir jumla yoki fikr oxirida uning oxirgi so'zlarini qaytarib turish.

- ma'qullovchi yoki e'tiroz bildiruvchi luqmalar, qaytariluvchi so'zlar bilan suhbatdosh fikrini xissiy ma'qullash. Masalan “Qarang-a”, “Qoyil”, yo'g'- e kabilar.

- chorlash va quvvatlash vositasi ham ayrim luqmalardan iborat bo'lib. Masalan, “Keyin nima bo'ldi?!”, Yana-chi, “Yashang”, singlarlar.

- aniqlik kirituvchi savollar – masalan Nima demoqchisiz? yoki “Aniq maqsadingiz nima ekan o'zi?” va xokazo.

- “qo'shimcha luqmalar”- bunda gapning mazmunidan kelib chiqib ayrim aniqliklar kiritiladi. Masalan “Men ham eshitganim bor, bu haqda”. Qani qolganini ham eshitaylik-chi.

Xulosa. Bu vositalardan farqli o'laroq sharhlash bosqichida tinglovchi o'z mavqeyi va munosabatini to'laroq bayon etishga harakat qiladi. Bunda tinglovchi tanqidiy mulohaza ham kiritishi mumkin (yo'g'-e unchalik emasdir?) yoki aniq fikrni ma'qullaydi e'tiroz bildiradi (“Sizni tushundim,... demoqchisiz-da? yoki Albatta shunday...”) Bundan tashqari u tinglash jarayonida suhbatdoshning fikrlarini tahlil qilish (Ha endi

sizni tushundim, chunki ...) maslahatlarni bildirish (Sizni o‘zingizda men ham...) suhbatdosh fikrlarni o‘z so‘zlari bilan ko‘tarish yoki aytilganlarining yo‘nalishini o‘zgartirish maqsadida boshqa predmetga ko‘chirish, yoki hazilga aylantirishi mumkin. Yuqoridagi holatlar suhbatning jonli mazmunli va samarali kechishini tabiiy ravishda ta‘minlaydi. Ijtimoiy psixologik trening orqali odamlarni muomala tayyorlaganda, albatta, yuqoridagi omillarning barchasi inobatga olinishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. — М.: «Наука », 1980.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: «Rahbar», 1992.
3. A‘zamxo‘jaeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fanl. nomz .dis... –T.: «SHarq», 2002.
4. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человека знания.- М.: «Наука», 1977. 5. Антология педагогической мысли Узбекской ССР. (Под.Ред. С.Р.Раджапова, О.С. Аббасовой и др). – М.: «Педагогика», 1986.
5. A‘zamxo‘jaeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fanl. nomz .dis... –T.: «SHarq», 2002.

TEKNOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARGA POLITEXNIK TA’LIM BERISHNING DIDAKTIK YONDASHUVLARI VA TAMOYILLAR

Matyakubov Xamidjan Razzoqovich,

Urganch davlat pedagogika instituti

“Fizika-matematika va texnologik ta’lim” kafedrasida dots

Sotimova Farog‘at Safarboy qizi,

Urganch davlat pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Maqolada umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni politexnik ta’lim berish orqali mustaqil kasb tanlashga yo‘llash, shuningdek, ularni mehnatga tayorlashga didaktik yondashuvlarni mazmun-mohiyati yoritilgan. Politexnik bilimlarni shakllantirishda ishlab chiqarish bilan o‘zaro integratsiyasi asosiy tamoyillar yoritilgan. O‘quvchilarga mehnatsevarlikni singdirish tizimiga qo‘yilgan maqsad tizimni amalga oshirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar keltirilgan. Politexnik ta’lim berishda fanlararo yondashuv uning ahamiyati mazmun va mohiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *politexnik ta’lim, mehnatsevarlik, politexnika tayyorlash, mehnat tayyorgarligi, bilimlar birligi, harakat tajribalari, amalda faraz qilish tamoyili, shaxsiy idrok etish prinsipi, mansublik prinsipi, global idrok tamoyili, konsensusga yo‘naltirilganlik prinsipi, shaxsiy javobgarlik prinsipi, sinergiya.*

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ПОЛИТЕХНИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

В статье выделены дидактические подходы к подготовке учащихся к труду путём ориентации учащихся на выбор самостоятельной профессии посредством политехнического образования в общеобразовательной школе, выделены основные принципы взаимной интеграции с производством в формировании политехнических знаний. Приведены методические указания по внедрению системы, с целью привить студентам трудолюбие. Широко освещён междисциплинарный подход в политехническом образовании, его значение, содержание и сущность.

Ключевые слова: *политехническое образование, трудолюбие, политехническая подготовка, трудовая подготовка, единство знаний, опыт действия, принцип допущения на практике, принцип допущения на практике, принцип личного восприятия, принцип принадлежности, принцип глобального восприятия, принцип консенсусной ориентации, принцип личной ответственности, синергия.*

DIDACTIC APPROACHES AND PRINCIPLES OF IMPLEMENTING LABOR TRAINING BY PROVIDING POLYTECHNIC EDUCATION TO STUDENTS IN TECHNOLOGY CLASSES

In the article, the didactic approaches to preparing students for work by guiding students to choose an independent profession through polytechnic education in general education schools are highlighted. The main principles of mutual integration with production in the formation of polytechnic knowledge are highlighted. Methodical guidelines for the implementation of the system are provided, with the goal of instilling hard work in students. The interdisciplinary approach in polytechnic education, its importance, content and essence are widely covered.

Keywords: *polytechnic education, diligence, polytechnic training, labor training, unity of knowledge, action experiences, principle of assumption in practice, principle of assumption in practice, principle of personal perception, principle of affiliation, principle of global perception, consensus orientation principle, principle of personal responsibility, synergy.*

Kirish. Maktabda o‘qish davrida olingan politexnika bilimi yoshlarning kasblarni o‘zlari tanlashi, mehnat faoliyatini rivojlantirishi, ularda mehnatsevarlik tuyg‘usini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ular bilan bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlaridagi o‘zgarishlar o‘quvchilarni mehnat politexnika tayyorlashning kontseptual qoidalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning mehnat va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, ularga mehnatsevarlikni singdirishning obyektiv zarurati bilan bog‘liq.

Politexnik ta’lim - bu mehnatsevarlikni singdirishning obyektiv asosi, zamonaviy maktab o’quvchilari ta’limining ajralmas qismi va ularning kattalar hayoti uchun zarur bo’lgan ta’lim minimumi.

Insonning barcha asosiy hayotiy muammolarini uning mehnatsevarligi va chuqur politexnik bilimlarni yuksak axloq va ma’naviyat bilan uyg’unlashtirgan politexnik ta’limi bilan ta’minlashdir. Keng politexnik asosda olingan ta’lim o’quvchilarga moddiy ishlab chiqarish asoslari, texnik obyektlar va texnologik jarayonlarda ishlaydigan ilmiy qonunlar majmui to’g’risida bilimlarni egallashga, zamonaviy sanoatning asosiy tarmoqlari va ularning o’zaro bog’liqligini o’rganishga imkon beradi. Shu bilan birga, ta’limni politexniklashtirish yondashuvi o’quvchilarning umumiy ta’lim va maxsus (kasbiy) bilimlari o’rtasidagi farqni sezilarli darajada kamaytiradi, maktab bitiruvchilarining kasbiy va mehnat "moslashuvchanligi" va "barqarorligi" ga, ularning ko’p tomonlama politexnika asosida yangi mutaxassisliklarni egallashiga yordam beradi, shuningdek mehnat faoliyatini intellektual mazmun bilan boyitadi.

Muhokama va natijalar. Politexnikaning kelib chiqishi, paydo bo’lishi va rivojlanishiga murojaat qilish shuni ko’rsatadiki, u paydo bo’lgan davrdan to hozirgi kungacha odamlarning samarali mehnati va kasbiy faoliyatidan ajralmas bo’lib kelgan va bugungi kunda ham shunday bo’lmoqda. Insonning mehnatsevarligi uning ish faoliyatida ushbu faoliyat orqali shakllanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, politexnik ta’lim yoshlarni mehnatga singdirishning asoslaridan biri hisoblanadi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalash tizimida eng muhim o’rinni politexnik bilim va ko’nikmalar egallaydi. Mehnatsevarlik ana shunday bilim va ko’nikmalarga yetarli darajada ega bo’lgan kishiga xosdir. Umumta’lim maktablaridagi ilm-fan asoslari bilan chambarchas bog’liq bo’lgan texnologiya ta’limi va unumli mehnat maktab o’quvchilarida politexnik bilim va ko’nikmalarni shakllantiradi. Biroq bugunki kunda maktablardagi pedagogik tajribalar shuni ko’rsatadiki, o’quvchilarni mehnatga tayyorlash fan asoslarini o’rganish orqali olingan ilmiy-nazariy bilimlarga asoslanmagan va mehnatsevarlikni singdirish tizimiga qo’yilgan maqsad tizimli amalga oshirilmayapdi. Texnologiya ta’limi mazmuni zamonaviy ishlab chiqarishni to’liq aks ettirmaydi, o’quvchilarning politexnik bilimlarni ko’pincha maktab o’quvchilari amaliyotda qo’llashni bilmaydigan, bir-biriga bog’liq bo’lmagan, ma’lumotlar yig’indisini ifodalaydi.

Mavjud vaziyat politexnika ta’limini tashkil etish amaliyotiga prinsipial jihatdan yangicha yondashish, uni yanada takomillashtirish yo’nalishlarini belgilash zarurligini ko’rsatmoqda.

Bugungi kunda maktab o’quvchilarini politexnika ta’limiga bir nechta yondashuvlar mavjud.

-u yoki bu bilim sohasiga yaqinroq bo’lgan turli maktab fanlaridagi individual politexnik muammolarni ko’rib chiqadigan intizomiy yoki ko’p mavzuli yondashuv.

-politexnik masalalarni ko’rib chiqishda o’zaro bog’liq fanlar o’rtasidagi tor fanlararo aloqani ta’minlaydigan fanlararo yondashuv.

-har bir o’quv predmeti bo’yicha politexnika muammolarini aspekt bo’yicha va turli sohalardagi maxsus fan bo’yicha yaxlit o’rganishni o’z ichiga olgan tabiiy- ilmiy yondashuv

Fanlararo yondashuv politexnik ta’limning yetakchi tamoyillaridan biridir. Biroq, ushbu sohadagi maktab va maktabdan tashqari ta’lim bir-biridan ajratilgan alohida fanlar doirasida olib boriladi, buning natijasida o’quvchilarda politexnik bilimlarning o’zaro ta’siri va o’zaro ta’sirining murakkab tizimi haqida buzilgan va to’liq bo’lmagan tasavvur paydo bo’ladi.

Fanlararo yondashuvning obyektiv sharti ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvidir. Ijtimoiy, tabiiy va texnika fanlari o’rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash umumiy va xususan, politexnika ta’limida zamonaviy ilmiy bilimlarni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biridir. O’quvchilarning zamonaviy ishlab chiqarishning umumiy ilmiy tamoyillarini o’zlashtirishi hamda asboblari, mashinalar va mexanizmlar bilan ishlash bo’yicha amaliy ko’nikmalarni egallashga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni yo’lga qo’yish qobiliyatini shakllantirishga asoslangan politexnika ta’limi bu sohada faqat bitta fan orqali amalga oshirilmaydi.

Politexnik ta’lim o’z mazmunining yaxlitligi tufayli o’quv fanlarining tarqoqligini bartaraf etishga yordam beradi.

Politexnik ta’lim muammolarini hal etishda har bir subyekti ishtirokining o’ziga xosligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Biroq ularning har birining o’rni va ahamiyati hali to’liq ochib berilgani yo’q. Ayrim o’qituvchilar politexnika ta’limining yetakchi g’oyasi va turli jihatlarini shakllantirishdagi ishtiroki orqali ularning teng ahamiyatini inobatga olgan holda, politexnika ta’limida biron bir yetakchi fanni ajratib ko’rsatilmaydilar. Ya’na ayrim o’qituvchilar va ularning ko’pchiligi, o’zaro fanlar sharti bilan, tabiiy-matematik tsikldagi o’quv fanlarining etakchi rolini ta’kidlaydilar.

Maktab ta’limida bu yondashuv didaktikada o’quvchilarni dunyoqarashini shakllantirish uchun ta’limning eng qimmatli umumlashtirilgan tarkibiy qismlarini ajratib olishga imkon beradigan prinsiplardan biri va sharti sifatida qaraladigan fanlararo aloqalar tizimida o’z aksini topadi. Politexnika ta’limida

fanlararo aloqalarning dolzarbligi uning vazifalari, fanlarni integratsiyalashuv tendentsiyalari, bilishning tizimli usulini ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Politeknika ta'limda turli bilim sohalarining o'zaro ta'siri fanlararo xarakterdagi tashkiliy shakllar tizimi bilan ta'minlanishi mumkin. Politeknika masalalariga bag'ishlangan yangi pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etilgan fanlararo darslar, keng qamrovli ekskursiyalar, ma'ruzalar, seminarlar politeknika fanining falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, axloqiy, estetik va boshqa jihatlarini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Politeknika ta'limga nisbatan fanlararobog'liqlik keng ma'noda qo'llaniladi. Bu nafaqat o'rganish, balki ta'lim jarayonini ham qamrab oladi. Bularning barchasi politeknika ta'limining asosiy mazmunini (kognitiv, qimmatli, me'yoriy va faoliyat jihatlarini) aniqlashga, uni alohida o'quv fanlari bo'yicha taqsimlashga yordam beradi.

Biroq, bu dastur talablarini o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishning sinf-dars shaklida etarli darajada amalga oshirish mumkin emas. O'quvchilarni haqiqiy mehnatsevar qilib tarbiyalash uchun maktab umum ta'lim fanlari bilan real ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani mustahkamlash zarur. Umumta'lim va kasb-hunar maktablari islohotini amalga oshirish nafaqat politeknika ta'limini rivojlantirish va ta'lim fanlari tarkibida amaliy bilimlar ulushini oshirish, balki real ta'lim va mehnat sharoitlarida maktab o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish bilan ham bog'liq. Bu politeknika bilimlardan foydalanishda o'quvchilarning shaxsiy ishtiroki bilan hayot tajribasini boyitadi. Tabiiy sharoitda o'quvchining nafaqat ko'nikma va qobiliyatlari, balki axloqiy fazilatlar ham rivojlanadigan o'quv jarayonlarini yaratish imkoniyati vujudga keladi. Demak, tabiiy muhitda nazariy bilim va amaliy faoliyatning o'zaro bog'liq holda to'ldirilishi o'quvchilarga politeknika ta'lim berishda nazariy va amaliy yondashuvlarning birligini va o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Bu umumiy ta'lim maqsadlari va vazifalari bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shunday qilib, o'quvchilarga politeknika ta'limga fanlararo yondashuv asosida mehnatsevarlikni singdirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- politeknika ta'limning maqsad, vazifalari va tamoyillarining birligi;
- o'quvchilarga nisbatan salbiy munosabatni bartaraf etish va ularga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy vazifalar tizimida politeknika ta'limining maqsadlarini belgilash, ta'limning didaktik tamoyillarining politeknika mazmunini ochib berish, politeknika ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;
- bilimlar, motivlar, qarashlar, e'tiqodlar, qadriyat yo'nalishlari va mehnatga tayyorlik tizimi sifatida mehnatga mas'uliyatli munosabatning murakkab tuzilmasini ochib berish.
- shaxs dunyoqarashining ajralmas elementi sifatida mehnatga munosabat xarakteristikalarini.

Pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot olib borayotgan ko'pchilik olimlarning (N.A. Muslimov, SH. SHaripov, va boshqalar) fikricha, shaxsning har tomonlama rivojlanishi uning jamiyatdagi munosabatlar olamiga kirib borishi, bu munosabatlarga vositachilik qiluvchi madaniyatni egallash jarayonidir.(7)

Mehnatga munosabat - bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro bog'liqlikning universal shakli. Mehnatga mas'uliyatli munosabat, mehnatning inson hayotidagi o'rni va uning qadr-qimmatini oqilona va chuqur tushunishga asoslangan barqaror shaxsiy xususiyat sifatida shakllanishidir. Mehnatni qadriyat sifatida qabul qilgan odam uchun u ehtiyojga aylanadi. Ehtiyojlar tizimi shaxsning o'zagini tashkil qiladi.

Mehnatga bo'lgan ehtiyoj insonga uzviy xosdir, chunki mehnat insonni yaratgan. Mehnatdagi faollik faollikning barcha ko'rinishlarini va temperamentning sof biologik faolligini va ijtimoiy faollikni o'z ichiga oladi. Mehnatga bo'lgan ehtiyoj mehnatda va mehnat orqali qondiriladigan ham biologik, ham unga bog'liq bo'lgan moddiy ehtiyojlar va dunyoni, hayotning mazmunini, mavjudlik maqsadini bilish uchun ideal (ma'naviy, madaniy) ehtiyojlar tarkibiga kiradi. Bunday ijtimoiy sharoitda politeknika ta'limi mazmuni bilan ta'limning asosiy yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, o'quvchilarning rang-barang mehnat faoliyatini faollashtirish, insonda mehnatga mas'uliyatli munosabat va mehnatsevarlikni shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Politeknika ta'limi muammolarini hal qilish uchun butun professor-o'qituvchilar tarkibi o'quvchilarga mehnatsevarlikni singdirish maqsadida politeknikaviy ta'limga bunday yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilar bo'lishi mumkin.

Bilimlar birligi. Harakat tajribalari-bu tamoyil shaxsning mehnatga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida aql-zakovat, faollik tuyg'ularining chuqur o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Maqsadli pedagogik jarayon sharoitida mehnatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish inson, jamiyat va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri haqidagi ilmiy bilimlarni mehnat natijalarini hissiy idrok etish bilan o'zlashtirishning organik birligini nazarda tutadi. Mehnatni shaxsning ijtimoiy qimmatli sifati, sifatida tarbiyalash uchun nafaqat o'quvchilarning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir qilish, balki ularda

muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan harakat va xatti-harakatlar tajribasini to‘plashni tashkil etish kerak. Ko‘rinib turibdiki, bu modulli ish sharoitida ishlashga ma‘lum munosabatni shakllantiradigan pedagogik jihatdan tashkil etilgan o‘quvchi faoliyatini talab qiladi.

Amalda faraz qilish tamoyili- birinchi navbatda, yosh avlod ongida odamlarning ijtimoiy faoliyatida yangi tendentsiyani shakllantirishni o‘z ichiga oladi - o‘zingiz haqingizda o‘ylang, vatan haqida eslang va hakazo.

Bashoratlilik tamoyili- o‘quvchilarni o‘zlari yashaydigan sharoitdagi mehnat bozorining kelajakdagi holatining variantlari, bu bozorni o‘z ishi bilan to‘ldiradigan odamlarning qarashlari bilan tanishishga yordam beradi. Maktab o‘quvchilari uchun mavjud bo‘lgan usullarda muayyan yashash joyidagi yaqin va kelajakda mehnat bozoridagi ma‘lum o‘zgarishlar bashoratlarining haqiqatligini isbotlash uchun o‘quvchilarni nafaqat fanning yakuniy xulosalari bilan nazariy jihatdan tanishtirish, ular bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot usullariga ham jalb qilish kerak.

Politehnika muammolarining global, milliy va mahalliy darajalarining o‘zaro bog‘liqligi, ushbu tamoyilni amalga oshirish maktab faoliyati va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, o‘quvchilarda ijtimoiy muhit va mehnat bilan o‘zaro munosabatlar muammolariga keng, har tomonlama qarashni rivojlantirishga yordam beradi.

Politehnik bilimlarni o‘zlashtirish inson va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta‘sirida inqirozli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan politehnika muammolarini tushunish jarayonidan ajralmasdir. Bunday uyg‘unlik o‘quv materialini tanlash mahalliy sharoitda yuzaga keladigan, umummilliy miqyosda o‘sib boruvchi va pirovardida universal bo‘lishi mumkin bo‘lgan politehnika muammolarining dialektikasini ochishga qaratilmog‘i lozim.

O‘quvchilarni ko‘plab mehnat muammolarining paydo bo‘lishi shaxsning amaliy xatti-harakatiga bog‘liq degan xulosaga kelishdir. Ushbu muammolarni bilish shaxsiy xatti-harakatlarda ma‘lum qoidalarga rioya qilish uchun o‘ziga xos turtki bo‘lib xizmat qiladi. Bularning barchasi kundalik hayotda politehnik jihatdan savodli xatti-harakatlarga bo‘lgan ehtiyojning rivojlanishiga yordam beradi.

Integrativ-gumanitar yondashuv tabiat va inson hamkorligi orqali mehnatning rolini anglashni nazarda tutadi. Yangi bayon qilinadigan ta‘limning asosiy maqsadi o‘quvchiga ma‘lum bilimlar to‘plamini berish va turli ko‘nikmalar majmuasini shakllantirishdir. O‘quvchini turli xil hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishga o‘rgatish, bu shaxsning rivojlanishini ta‘minlashi kerak va bu faqat rivojlantiruvchi ta‘lim, politehnikalashtirish, integratsiya, demokratlashtirish, ta‘limni insonparvarlashtirish, mazmunan yangi g‘oyalarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ta‘lim mazmunidagi yangi g‘oyalar, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi ochiq tizimlarning sinenergetika ya‘ni ehtimollik qonuniyatlari g‘oyasini, shuningdek, ta‘limni kompyuterlashtirish g‘oyasini nazarda tutadi.. Yunon tilidan tarjima qilingan "sinenergiya" so‘zi birgalikda harakat qilish, yordam berish, hamkorlik qilish ma‘nosini anglatadi.(6)

Uni fanga nemis olimi G.Xaken kiritgan. U yangi intizomni sinenergetika deb atadi, chunki u tizimlarning ko‘plab elementlarining birgalikdagi harakatini o‘rganadi, balki o‘z-o‘zini tashkil qilishni tartibga soluvchi umumiy tamoyillarni topish uchun ko‘plab turli fanlarning hamkorligi zarur. "Sinenergiya" to‘grisida G.Xaken ta‘kidlaganidek, nafaqat ko‘plab elementlarning hamkorlikdagi harakatini o‘rganish, balki ilmiy bilimlarning turli sohalarida ishlaydigan olimlar bilan hamkorlik qilish ham muhimdir.(6)

Sinenergiya yangi ilmiy yo‘nalish sifatida falsafiy nuqtayi nazardan qiziqish uyg‘otadi. Bu, birinchi navbatda, sinenergetika xususiy fanlar tomonidan ishlab chiqilayotgan rivojlanish falsafasining zamonaviy ilmiy bilimlariga adekvat tavsif va izoh berishga imkon berishi bilan izohlanadi. Bu umumiy muammoni - maxsus fanlar tomonidan o‘rganiladigan o‘z-o‘zini tashkil qilish muammosini aniqlash tufayli sodir bo‘ladi. Shunday qilib, bu holda faqat aniq fanlarning g‘oyalari va usullarining integratsiyasi yoki birlashuvi emas, balki o‘z-o‘zini tashkil etish shakllarining asosidagi umumiy tushunchani aniqlash ham tushiniladi. Pedagogikada sinergiya g‘oyalari ta‘lim mazmunini, o‘qitish shakllari va usullarini, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar usullarini uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Politehnik ta‘limdagi integrativ-gumanitar yondashuv o‘quv jarayonini ham integratsiya, ham insonparvarlashtirishni nazarda tutadi. O‘qitishga bunday yondashuv ta‘lim mazmuni va usullarini quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilishni nazarda tutadi:

Shaxsiy idrok etish prinsipi - bu menga shaxsan ta‘sir qiladi, u yoki bu tarzda men orqali o‘tadi, shuning uchun men bunga befarq qola olmayman. Bu yerda men endi tashqi kuzatuvchi emas, balki qiziqqan ishtirokchiman. Ikkita variant bor - bu menga haqiqatan ham ta‘sir qiladi. Bu mening tasavvurimga ta‘sir qiladi. Men o‘zimni qandaydir xayoliy vaziyatda tasavvur qilaman.

Mansublik prinsipi - odamlar bunga erishdilar, demak u men uchun ham mavjud. Men insonman, shuning uchun men boshqa odamlarning yutuqlariga befarq bo‘lolmayman. Axir, bu mening yutuqlarim,

men ham xuddi shunday bo‘lishim va bir xil yutuqlarga erishishim mumkin. Aslida, men ham bunga erisha olaman. Shuning uchun boshqalar bunga qanday erishganiga qiziqaman.

Global idrok tamoyili - buni hamma bilishi kerak, shuning uchun men ham. Bu odatiy g‘oyalardan tashqariga chiqadi va xulosalarning kutilmaganligi va ahamiyati umumlashmalarning kengligi bilan hayratda qoldiradi. Shubhasiz, har bir inson hayotda nima qilishidan qat’i nazar, buni bilishi kerak. Men boshqalardan yomon emasman, buni men ham bilishim kerak.

Konsensusga yo‘naltirilganlik prinsipi - men boshqalarning boshqa nuqtayi nazariga ega bo‘lish huquqini tan olaman, men har xil nuqtayi nazarlar birga yashashi mumkinligiga ishonaman, chunki ular haqiqatning turli tomonlarini aks ettirishi, turli modellarga mos kelishi mumkin. Demak, meni ichki kayfiyatim qarama-qarshilikka yoki qarama-qarshi turishga emas, balki kelishuv yo‘llarini qidirishga, ya’ni konsensusga intilishi lozim.

Shaxsiy javobgarlik prinsipi - men o‘z faoliyatimning oqibatlari uchun javobgarman. Mening foydam, mening ishim boshqalarga zarar keltirmasligi kerak. Men dunyoda yolg‘iz emasligimni doimo yodda tutishim kerak. Qolaversa, men nafaqat bugun, balki kelajak haqida ham o‘ylashim kerak. Bugungi foyda, agar kelajakka zarar etkazish bilan tahdid qilsa, shubxalidir.

Xulosa qilib shuni autish kerakki texnologiya mashgulotlarida o‘quvchilarni politexnik ta’lim asosida mehnatsevarlikga o‘rgatish va tarbiyalashda yuqorida bayon etilgan umumiy yondashuvlar va tamoyillar asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko‘rib chiqilgan yondashuvlarni maktab o‘quvchilari tarbiyasining iqtisodiy, huquqiy va boshqa har qanday yo‘nalishlarida qo‘llash mumkin. Biz maktab o‘quvchilariga politexnikaviy ta’lim berishning ana shu yondashuvlari va prinsiplari ularda mehnatsevarlikni singdirishning asosi bo‘lib, bunday yondashuvlar va prinsiplari ushbu muammoni hal etish samaradorligini belgilaydi, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева К.,М. Тикувчилик буюмларини лойиҳалаш ва моделлаштириш асослари. Ўқув қўлланма. Т.: “Адабиёт”. - 2006 йил.
2. Абдукодиров. Р Касб таълими практикуми .Т.: 2012.-260 б.
3. Каримова Г., Комилова Х. “Реклама ва дизайн”-Т.”Ўзбекистон”. - 2006 йил.
4. Каримова Г., Комилова Х.”Реклама ва дизайн”-Т.”Ўзбекистон” 2006 йил.
5. Гаипова Н.С.ва бошқалар. Тикувчилик технологияси асослари. - Ўқув қўлланма. Т.: “Адабиёт”. - 2006 йил.
6. Князева Е.Н. Синергетике 30 лет. Интервью с профессором Г. Хакеном // Вопросы философии. — 2000. — №. 3. — С. 53-61.
7. Шарипов Ш., Муслимов Н. “Техник ижодкорлик ва дизайн”. - Т.: 2011 йил.
8. Жураев Х.,О., .Кулиева Ш.Х., Турабеков Ф.С., Каримова М.Н. “Техник ижодкорлик ва дизайн”. - Т.,Турон замин зиё”. - 2015 йил.

O‘QUVCHILARDA KOGNITIV QOBILIYATNING RIVOJLANISHIDA DIDAKTIK O‘YINLAR O‘RNI

To‘xtayeva Munira Omonovna,

Buxoro davlat universiteti I kurs tayanch doktoranti

muniraomonovna@gmail.com

Maqolada kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning roli bo‘yicha turli tadqiqotlar mavjud. Ushbu o‘yinlar alohida mavzularni o‘rganish va tushuntirishdan tashqari, o‘quvchilarga o‘zlarini sinab ko‘rish, muammolarni hal qilish, o‘quv jarayonida faol ishtirok etish va ayniqsa ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

***Kalit so‘zlar:** kognitiv qobiliyat, didaktik o‘yinlar, kreativlik, motivatsiya, identifikatsiya, animatsion o‘yinlar, tanqidiy fikrlash, deduksiya, integratsiyalash, simulyatsiyalar, improvizatsiya.*

РОЛЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ

В статью включены различные исследования о роли дидактических игр в развитии познавательных способностей. Эти игры, помимо изучения и объяснения отдельных тем, дают учащимся возможность проверить себя, решить задачи, активно участвовать в учебном процессе и, особенно, развивать творческие способности.

***Ключевые слова:** познавательные способности, дидактические игры, творчество, мотивация, идентификация, анимационные игры, критическое мышление, дедукция, интеграция, моделирование, импровизация.*

THE ROLE OF DIDACTIC GAMES IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ABILITY IN STUDENTS

The article includes various studies on the role of didactic games in the development of cognitive abilities. These games, in addition to learning and explaining certain topics, give students the opportunity to test themselves, solve problems, actively participate in the educational process, and especially develop creativity.

***Keywords:** cognitive ability, didactic games, creativity, motivation, identification, animated games, critical thinking, deduction, integration, simulations, improvisation.*

Kirish. Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina “*cogitation*”, ya'ni “*aql, tafakkur*” hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki *cogitatorium* – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi.

Asosiy qism. Kognitiv qobiliyatning rivojlanishida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarga quyidagi foydalarini ta'minlaydi:

1. Aniq va tushunarli ma'lumot olish: O‘yinlar o‘quvchilarga ko‘nikmalar beradi va ma'lumotlarni tushunishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Muammolarni yechish: O‘yinlar o‘quvchilarga muammolarni his qilish va ularni yechish uchun yengil yollarni ko‘rsatadi. Bu esa ularning muammolarni tahlil qilish va yechishga qaratilgan tushunchalarini rivojlantiradi.

3. Ishonchli bilan ish yuritish: O‘yinlar o‘quvchilarga o‘zlarini sinovdan o‘tkazish va yangi topshiriqlarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu ularning muammolar yechimida o‘ziga bo‘lgan ishonch va ishbilarmonlik qobiliyatini o‘stiradi.

4. Ko‘nikmalarni rivojlantirish: O‘yinlar o‘quvchilarga yangi ko‘nikmalar olish, yangi yondashuvlar topish va muammolarni yechishda kreativlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning kognitiv qobiliyatini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarni ruhlantirgan holda ta'lim jarayonlarini qiziqarli bo'lishini ta'minlab, mashg'ulot amaliy qismining samaradorligini oshiradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali

kognitiv qobiliyatning rivojlanishida didaktik o‘yinlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning tushunish va o‘rganish jarayonlarini yanada oson va samarali qilishda ko‘mak beradi.

Kognitiv qobiliyatning rivojlanishi muhim mavzudir va muammolarni yechish uchun bir nechta foydali usullar mavjud:

Tanqidiy fikrlash, boshqa fazilatlar qatorida, muammolarni hal qilish amaliyotidir. Muammolarni hal qilish, jumboqlarni hal qilish va shunga o‘xshash harakatlar bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash ham shubhalanish elementini o‘z ichiga oladi. Bu XXI asrda juda muhim, chunki hozirda aniq ma‘lumotni tekshirish har qachongidan ham qiyinroq (asosan Internet tufayli). Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga gaplardagi haqiqatni aniqlash imkoniyatini beradi, ayniqsa faktlarni fikrlardan ajratishda. Tanqidiy fikrlash orqali talabalar bir qator faktlar yoki raqamlarni tushunishdan ko‘ra ko‘proq narsani qiladilar. Buning o‘rniga ular o‘zlari fakt va raqamlarni topishni o‘rganadilar.

Savollar berish orqali o‘quvchilar atrofdagi dunyoga aralashadilar. Keyin ular o‘z bilimlarini tengdoshlari orasida tarqatishda yordam berishlari va boshqalarga ham tanqidiy fikr yuritishga yordam berishlari mumkin. O‘quvchilarning o‘rganganlarini boshqalar bilan baham ko‘rishlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim jihati bo‘lishi mumkin.

Ular onlayn vaqt o‘tkazish orqali yoki oddiygina "Nima uchun?" Degan savolni berish orqali tanqidiy fikrlashni o‘rganadilarmi? kundalik hayotda bu ko‘nikma o‘quvchilarni mustaqil va maqsadli hayotga tayyorlaydi.

O‘quvchilar mustaqil ravishda foydalansa, bu juda yaxshi ishlaydi. Ammo o‘quvchilar buni keyingi mahorat bilan birlashtirganda, ular erishishlari mumkin bo‘lgan narsaning chegarasi yo‘q.

Ijodkorlik - bu nostandart fikrlash amaliyotidir.

Garchi ijodkorlik ko‘pincha "bor yoki yo‘q" sifatida qaralsa-da, o‘quvchilar muammolarni hal qilish, tizimlarni yaratish yoki shunchaki ilgari sinab ko‘rmagan narsalarni sinab ko‘rish orqali ijodiy bo‘lishni o‘rganishlari mumkin.

Bu har bir o‘quvchi rassom yoki yozuvchi bo‘ladi, degani emas. Buning o‘rniga, ular muammoga turli nuqtayi nazardan, shu jumladan boshqalar ko‘rmaydigan nuqtayi nazardan qarashlari mumkinligini anglatadi.

Ijodkorlik keng qamrovli rejalashtirish, mukammal tashkil etish, o‘quvchilarga o‘zlarining ichki kuchli tomonlarini kashf qilish imkonini beradi. O‘quvchilar o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini o‘rganish bilan birga, uni sog‘lom va samarali tarzda namoyon etishni ham o‘rganadilar. Eng muhimi, ular o‘z ijodlarini boshqalar bilan baham ko‘rishga undaydilar. Tanqidiy fikrlash kabi ijodkorlik ham yuqumli. O‘quvchi muammoning qiziqarli yoki innovatsion yechimini taklif qilganda, keyingi o‘quvchi shunga o‘xshash narsani sinab ko‘rish uchun ilhomlanishi mumkin.

Hamkorlik - bu umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash amaliyotidir. Hamkorlik juda muhim, chunki o‘quvchilar buni tushunishadimi yoki yo‘qmi, ular butun umri davomida boshqa odamlar bilan ishlashadi.

Deyarli har bir ish, kechki ovqat tayyorlash kabi oddiy narsa bo‘lsa ham, kimdir boshqa odam bilan ishlashni talab qiladi. Hamkorlik va jamoada ishlashni mashq qilish o‘quvchilarga muammoni qanday hal qilishni, yechimlarni taklif qilishni va eng yaxshi harakat yo‘nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi.

Boshqa odamlar har doim ham ular kabi bir xil g‘oyalarga ega emasligini bilish ular uchun foydalidir. Darhaqiqat, o‘quvchilar hamkorlikni ko‘proq mashq qilishlari sari, ular boshqalarning g‘oyalari deyarli yo‘qligini bilib olishadi.

Bu o‘quvchilarga ikkita usuldan biriga ta’sir qilishi mumkin. Birinchidan, bu ular uchun tushkunlikka tushishi mumkin, chunki hech kim ular bilan tez-tez rozi bo‘lmaydi. Ikkinchidan, bu ularni ruhlantirishi mumkin, chunki ular har bir suhbatga o‘ziga xos narsalarni olib kelishlarini tushunishadi.

O‘qituvchi sifatida o‘quvchilarni o‘zlariga ikkinchi obyektiv orqali qarashga undash muhimdir. Shunday qilib, o‘quvchilar g‘oyalari mavjud bo‘lganda gapirish kerakligini o‘rganadilar. Ularning g‘oyalari muammoning eng yaxshi yechimi bo‘lmasa ham, gapirish va o‘z yechimlarini baham ko‘rish ularga boshqalar bilan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Muloqot - bu fikrlarni tez va aniq yetkazish amaliyotidir.

Zamonaviy jamiyatda muloqot ko‘pincha odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Axir, agar biror narsa desangiz, bu sizning fikringizni bildirganingizni anglatadi, to‘g‘rimi?

Ammo matnga asoslangan aloqalar, jumladan, matnli xabarlar, elektron pochta va ijtimoiy media asrida talabalar uchun o‘z fikrlarini boshqalar tushunadigan tarzda yetkazishni o‘rganish har qachongidan ham muhimroqdir.

Buning sababi, matnli xabarlarda ohang yo‘q, bu kimningdir so‘zlari kontekstini tushunish uchun juda muhimdir. Biroq, hatto vokal ohang mavjud bo‘lgan holatlarda ham, o‘quvchilar samarali muloqot qilishni

o‘rganishlari kerak. Bu chalkashlikni minimallashtirish, g‘oyaga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish va boshqa ishtirokchilar bilan qiziqishlarini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Tinglovchilarga o‘qish, hatto guruhda faqat ikki kishi bo‘lsa ham, o‘quvchilarga g‘oyani davom ettirish yoki xulosa chiqarish kerakligini aniqlashga imkon beradi. Ularning tomoshabinlari hatto shukrona kuni kechki ovqatida ularning oilasi bo‘lishi mumkin.

Gap shundaki, o‘quvchilar muloqot qilishni mashq qilar ekan, ular o‘z nuqtayi nazarini yoki auditoriyasini yo‘qotmasdan, g‘oyani samaraliroq yetkazishni yaxshilaydilar. Samarali muloqot san‘atini o‘zlashtirgan holda o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini mantiqiy asoslash va boshqalarda ijobiy taassurot qoldirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilar XXI asr ko‘nikmalarini egallashga yordam berish uchun faqat muloqotning o‘zi etarli emas. Haqiqiy muvaffaqiyatga erishish uchun o‘quvchilar to‘rtta ko‘nikmani birgalikda qo‘llashlari kerak.

Kognitiv qobiliyatning rivojlanishi va muammolarni yechish muhimligi haqida ma’lumot berish mumkin. Kognitiv qobiliyat, shaxsning o‘z ma’lumotlari, tushunchalari va tushunmovchilikga tayanadigan umumiy fikr-mantiqiy qobiliyatlari hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish, kishilarning tushunchalarini, xotiralarini, muhakamasini, chet elda olgan bilimlarini va boshqa o‘rganilgan bilimlarini, shuningdek, muammolarni hal qilishga murojaat qiladi.

Kognitiv qobiliyatni rivojlanishida didaktik o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Bu o‘yinlar ma’lum bir maqsad yoki ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni o‘rganishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarga matematika amaliyotlarini o‘rganish uchun tasarrufiy ma’lumotlar va animatsion o‘yinlar foydalanilishi mumkin. Bunday o‘yinlar orqali bilimlarni oson va samarali bir usulda o‘rganish va tushuntirish mumkin bo‘ladi. Ma’lumot misollaridan biri shunchaki "*Balonlar*" o‘yini bo‘lishi mumkin, bu o‘yinda sonlar va matematika masalalarini hal qilish uchun harakat qilish talab etiladi. Bunday o‘yinlar kognitiv va o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Kognitiv qobiliyat, shaxsiy fikrni, tushunchalarni tushunish va ulashish, maslahatlarni hal qilish va muammolarni yechishga yordam bera oladigan umumiy qobiliyatlarining batafsilidir. Bu o‘z ichiga uni psixologiya, neyropsixologiya, tarbiya va boshqa sohalar birlashtiradi.

Kognitiv rivojlanish uchun, ko‘pincha harakat bevosita yoki takroriy ta’lim ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan kog‘zamoqli va fikrlash yoki yaxshi ko‘nikma talab etiladi. Boshqa muhim ko‘nikma turlari, masalan, muammolarni echish, ijodiy yechim topish, nazariy va boshqalar kabilarni shakllantirishni talab qiladi.

Kognitiv qobiliyatning rivojlanishi davomida, insonlar o‘zlarini yangilikka odatlangan vaziyatlar bilan tanishtirish, muammolarni yechish va takroriy ta’limning jiddiy ahamiyatiga ega bo‘lishlari tavsiya etiladi. Bu jarayonning natijasida, insonlar o‘zlarini tushunish, fikrlash va muammolarni hal qilishda osonlik ko‘rsatishadi.

Ingliz tilini o‘rganish jarayonida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga didaktik o‘yinlar katta yordam beradi. Bu o‘yinlar shunchaki o‘yin-kulgi emas; ular intizomli, rag‘batlantiruvchi muhitni taklif etadilar, unda o‘quvchilar faol ishtirok etadilar, tanqidiy fikr yuritadilar va o‘zlarining til bilimlarini yaxshilaydilar. Keling, ularning ta’sirini batafsil ko‘rib chiqaylik.

Ingliz tilini o‘rganish uchun didaktik o‘yinlarning afzalliklari:

* Xotira va eslab qolish yaxshilandi: O‘quvchiga so‘zlarni o‘z ta’riflari bilan bog‘lashda yordam berish orqali xotirani saqlash grafik kartalar yoki inglizcha so‘zlardan foydalanadigan “Xotira mosligi” kabi o‘yinlar orqali yaxshilanadi.

* Lug‘atni rivojlantirish: Yangi so‘zlarni o‘rganish so‘z izlash, krossvordlar rag‘batlantiradigan faol ishtirok orqali qiziqarli va samarali bo‘ladi.

Grammatik amaliyot: o‘quvchilardan aniq jumlar yaratish uchun so‘zlarni o‘zgartirishni talab qiluvchi qiziqarli va interfaol o‘yinlar, masalan, “Sentence Scramble” o‘quvchilarga grammatika qoidalarini o‘rganishga yordam beradi.

* Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish: Rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar va xonadan qochish mashqlari orqali talabalar ingliz tilidagi qobiliyatlarini tanqidiy fikrlash, vaziyatlarni baholash va javoblar topish uchun ishlatishga majbur bo‘lishadi.

* Hamkorlik va muloqot: Talabalar umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashda rejalashtirish va muloqot qilish uchun ingliz tilidan foydalanar ekan, jamoaviy faoliyat hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

* Charades: Til xotirasini va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni rivojlantirish uchun o‘quvchilar so‘z yoki iboralarni jimgina ijro etadilar.

* Tabu: so‘z boyligini oshirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish uchun o‘quvchilar biron bir taqiqlangan so‘zlardan foydalanmasdan atamani tasvirlaydilar.

- * Hikoya zanjiri: O‘quvchilar hikoyaga navbatma-navbat iboralar qo‘shish orqali o‘zlarining ijodkorlik, ravonlik va tinglash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.
- * Yigirmata savol: Tanqidiy fikrlash va deduksiya qilish qobiliyatlarini yaxshilash uchun o‘quvchilar ha/yo‘q savollariga javob berish orqali so‘zni taxmin qilishadi.
- * Xavf: Viktorina uslubidagi o‘yin, und o‘quvchilar grammatika, lug‘at va madaniy terminologiya bo‘yicha malakalarini aniqlash uchun bir nechta toifadagi savollarga javob beradilar.
O‘ylash uchun qo‘shimcha narsalar:
 - * Yoshga mos o‘yinlarni tanlang: murakkablik va qiyinchilik darajasi bolalarning og‘zaki va kognitiv qobiliyatlariga mos kelishi kerak.
 - * O‘yin turlarini o‘zgartiring: turli xil o‘rganish afzalliklarini qondirish va o‘quvchilar qiziqishini saqlab qolish uchun bir qator o‘yinlarni qo‘shing.
 - * O‘yinlarni o‘quv rejasiga bog‘lang: o‘quv maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash uchun o‘yinlarni joriy dars mavzulariga kiriting.
 - * Mulohaza yuritishni rag‘batlantiring: O‘yinlardan so‘ng ishtirokchilar o‘zlari qo‘llagan til ko‘nikmalari va erishgan o‘quv maqsadlarini hisobga oladigan suhbatlar olib boring.
- O‘qituvchilar ingliz tili kurslariga didaktik o‘yinlarni kiritish orqali kognitiv o‘sishni, tilni o‘zlashtirishni va ingliz tilini o‘rganishni yaxshi ko‘radigan dinamik va interaktiv o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Tanqidiy fikrlash va didaktik o‘yinlar ingliz tilini muvaffaqiyatli o‘rganish uchun kuchli kombinatsiyani yaratish uchun birgalikda ishlaydi. Ularning afzalliklarini ko‘rib chiqaylik:
Didaktik o‘yinlarning afzalliklari
 - * G‘ayrat va faollik: o‘rganishni qiziqarli qilish orqali o‘yinlar o‘quvchilarning ishtiyoqi va faolligini oshiradi. Til ko‘nikmalarini yaxshilash va ma‘lumotni saqlash ushbu faol ishtirok tufayli.
 - * Ma‘noli kontekst: O‘yinlar o‘quvchilarga o‘zlarining til ko‘nikmalaridan foydalanishlari va ingliz tilini o‘rganish sababini tushunishlari uchun real sharoit yaratadi.
 - * Past bosimli muhit: O‘quvchilar o‘yinlar tomonidan yaratilgan xavfsiz muhitda hukm qilinishdan tashvishlanmasdan, tilni o‘rganishlari, imkoniyatdan foydalanishlari va xatolardan o‘rganishlari mumkin.
 - * Moslashuvchanlik va xilma-xillik: Didaktik o‘yinlarning katta tanlovi turli xil o‘rganish afzalliklari va usullarini o‘z ichiga oladi, bu esa inklyuzivlikni kafolatlaydi va sinflarni faollashtiradi.
- Ingliz tilini o‘rganishda tanqidiy fikrlashning afzalliklari:
 - * Chuqurroq tushunish: O‘quvchilarni ma‘lumotlarni baholashga, noto‘g‘ri qarashlarni aniqlashga va o‘z nuqtayi nazarini rivojlantirishga undash orqali tanqidiy fikrlash ularga til va uning nozik tomonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.
 - * Muammoni hal qilish ko‘nikmalari: vaziyatlarni tahlil qilish, ko‘plab nuqtayi nazarlarni hisobga olish va ingliz tilida javoblar topish orqali o‘quvchilar muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.
 - * Mustaqil ta‘lim: o‘quvchilarni mustaqil ravishda so‘roq qilish, tekshirish va xulosa chiqarishga o‘rgatish orqali tanqidiy fikrlash mustaqil bilim olishga yordam beradi.
- Samarali muloqot: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, mantiqiy va ishonchli ifodalashni o‘rgansalar, ular ko‘proq malakali muloqotchilarga aylanadi.
Tanqidiy fikrlash va didaktik o‘yinlarning kombinatsiyasi:
Tanqidiy fikrlash va didaktik o‘yinlar birgalikda samarali ta‘lim muhitini yaratish uchun yaxshi ishlaydi. O‘quvchilar o‘yinlar orqali tanqidiy fikrlash mashqlarida ishtirok etishlari mumkin va tanqidiy fikrlash chuqur o‘rganish va introspektsiyani rivojlantirish orqali o‘yinlarning samaradorligini oshiradi.
 - * Munozara o‘yinlari: O‘quvchilar berilgan mavzu bo‘yicha raqobatdosh nuqtayi nazarlarni tadqiq qilish va bahslashish orqali tanqidiy fikrlash va ishonchli muloqot qilishni o‘rganadilar.
 - * Sirli o‘yinlar: Maslahatlar va ma‘lumotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘quvchilar sirlarni yechishda analitik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilaydilar.
 - * Qaror qabul qilish o‘yinlari: Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan, talabala o‘quvchilar ga simulyatsiya qilingan stsenariylar taqdim etiladi va kam ma‘lumotlar asosida qaror qabul qilish so‘raladi.
 - * Ijodiy yozish o‘yinlari: O‘quvchilar o‘zlarining til qobiliyatlari va tasavvurlaridan foydalangan holda hikoyalar, she‘rlar yoki o‘yinlar yaratadilar. Bu tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantiradi.
- Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlarni ingliz tilini o‘qitishga kiritishning ko‘pgina afzalliklari bor. Bu bolalarni haqiqiy dunyoda qiyinchiliklarga va muloqotga tayyorlaydigan qiziqarli, muvaffaqiyatli va qiziqarli o‘quv muhitini yaratadi. Bular birgalikda talabalarga o‘ziga ishongan, tahliliy fikrlaydigan va ingliz tilini yaxshi biladigan foydalanuvchi bo‘lib yetishish imkonini beradi.
- Ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish kontekstida ijodkorlik kognitiv o‘sish uchun zarurdir. Bu shunchaki badiiy ifoda emas; u asl fikrlash, g‘oyalarni yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga

oladi. Keling, ijodkorlikni ragʻbatlantirish ingliz tilini oʻrganuvchilarning kognitiv qobiliyatlarini qanday yaxshilashini koʻrib chiqaylik:

Ingliz tilini oʻrganishda originallikning afzalliklari:

Muammolarni yechishning yaxshilanganligi: Toʻsiqlarni yengib oʻtish uchun ijodkor oʻquvchilarga muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish, bir nechta yechimlarni koʻrib chiqish va tanqidiy fikrlashdan foydalanish tavsiya etiladi.

Kengaytirilgan muloqot qobiliyatlari: Boʻshashgan muhitda talabalar oʻzlarini erkin ifoda etishlari, soʻz boyligini kengaytirishlari va rolli oʻynash, hikoya qilish va yozish kabi ijodiy faoliyatlar orqali yangi soʻzlarni sinab koʻrishlari mumkin.

Kengaytirilgan motivatsiya va faollik: Ijodiy faoliyat tabiiy ravishda qiziqarli va ragʻbatlantiruvchi boʻlib, bu oʻquv jarayonida motivatsiya va faollik darajasini oshiradi.

Chuqurroq tushunish: Ijodiy mashqlar orqali talabalar bilimlarni faol ravishda hazm qiladilar va boshqaradilar, buning natijasida madaniy gʻayrioddiy va lingvistik tushunchalarni chuqurroq tushunish mumkin.

Kognitiv moslashuvchanlik: Ijodiy topshiriqlar orqali oʻrganish talabalarga koʻproq moslasha oladigan, tanqidiy fikrlaydigan va ijodiy muammolarni hal qila oladigan boʻlishga yordam beradi.

Ingliz tilini oʻzlashtirishda oʻziga xoslikni ragʻbatlantirish usullari:

Ochiq mashgʻulotlar: improvizatsiya, ijodiy yozish muammolari va turli talqinlar va echimlarga imkon beruvchi aqliy hujum mashgʻulotlari kabi ochiq mashqlarni targʻib qiling.

Sanʼat va texnologiyani integratsiyalash: Ijodiy ifoda va ishtirokni ragʻbatlantirish uchun musiqa, tasviriy sanʼat va raqamli media kabi turli xil sanʼat turlarini til oʻqitishga kiriting.

Hamkorlikni ragʻbatlantirish: talabalar oʻzaro fikr almashishlari, bir-birining ijodidan ilhom olishlari va bir-biridan bilim olishlari mumkin boʻlgan guruh loyihalarini oʻrnatib.

Muammoga asoslangan taʼlim: oʻquvchilardan haqiqiy dunyoda paydo boʻladigan muammolarni tekshirish, baholash va ularni hal qilish uchun ingliz tilidan foydalanishni talab qiladigan faoliyatni birlashtiring.

Tavakkalchilikni ragʻbatlantirish: Talabalar tavakkal qilishlari, til bilan tajriba oʻtkazishlari va oʻz fikrlarini bildirishlari uchun xavfsiz va ragʻbatlantiruvchi muhitni yarating.

Innovatsion ingliz tilini oʻrganish faoliyatiga misollar:

Komikslar yaratish: Talabalar lugʻat iboralari, grammatika qoidalari yoki qisqa hikoyalarni komikslar bilan tasvirlashlari mumkin.

Qoʻshiq yozish va musiqiy videolar: Talabalar qoʻshiq yozish yoki oʻz gʻoyalari va his-tuygʻularini aks ettiruvchi musiqiy videolar yaratish uchun inglizcha soʻzlardan foydalanishlari mumkin.

Stol oʻyinlarini yaratish: Oʻqishni qiziqarli va qiziqarli qilish uchun talabalar ingliz tili grammatikasi va lugʻatini birlashtirgan stol oʻyinlarini yaratishi mumkin.

Drama va rol oʻynash: Talabalarga turli rollar va stsenariylarni oʻrganishga imkon berish orqali, rol oʻynash mashqlari ijodkorlik va ravonlikni rivojlantiradi.

Raqamli hikoyalar: Talabalar raqamli texnologiyalardan foydalangan holda matn, tasvir, audio va videoni oʻz ichiga olgan multimedia hikoyalarini yaratishi mumkin.

Oʻqituvchilar ingliz tili oʻquv dasturiga ijodkorlikni kiritish orqali bolalarga oʻziga ishongan muloqotchilar, ijodiy fikrlovchi va umrbod oʻrganuvchilar boʻlib yetishishiga yordam berishi mumkin. Oʻqituvchilar koʻrsatuvlarini, muloqotlarini va ingliz tilini chuqurroq rivojlantirishni ragʻbat mumkin boʻlgan hamkorlikdagi oʻquv muhitini yaxshilashi mumkin, bu esa ingliz tilini oʻqitishga oʻz maslahatlarni qoʻshishi mumkin.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda tanqidiy fikrlashni targʻib qiluvchi didaktik oʻyinlarni ingliz tilini oʻrganishga integratsiyalash koʻplab afzalliklarni beradi. Bu oʻquvchilarni haqiqiy muloqot va qiyinchiliklarga tayyorlaydigan qiziqarli, samarali va yoqimli oʻrganish tajribasini yaratadi. Bu kombinatsiya oʻquvchilarga ishonchli, tanqidiy fikrlaydigan va ingliz tilidan samarali foydalanuvchilar boʻlishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. Ortiqova Z. (2019). To develop students creative thinking. // Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 224-229.
2. Ortiqova Z. (2020). Mechanisms of preparing adolescents for social relations in the era of globalization. // Theoretical & Applied Science, (2), 661-664.

3. Sobirjonovich S. I. (2022). Child Thinking and Problem Solving. // European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 111-115.
4. Kochkorbaevna K. B. (2022). The Role and Importance of People’s Oral Creativity in the Development of Primary School Student Speech. // International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(4), 57-61.
5. Kochkorbaevna K. B., & Gulomova O. (2022). Technologies for teaching students to think independently in the process of analyzing literary texts based on an innovative approach. // International Journal Of Culture And Modernity, 13, 115-120.
6. Шахриёр Сафаров “Когнитив тилшунослик”. - Сангзор нашриёти. - Жиззах – 2006.

KREATIV TA'LIMDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Temirova Gulbahor G'ulomovna,

Andijon davlat universiteti

Axborot texnologiyalari kafedrası v.b.dotsenti,

maxfuza_artiqova@mail.ru

Yusupova Nodira Nurdinovna,

Andijon davlat universiteti

Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi,

nodiraxon.yusupova@gmail.com

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining raqamli texnologiyalar borasidagi kompetensiyasi va madaniyatini hamda tanqidiy fikrlash qobiliyati va kreativ axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kreativlik, kreativ fikrlash, kreativ g'oyalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КРЕАТИВНОМ ОБУЧЕНИИ

В статье рассматриваются вопросы развития компетентности и культуры учащихся общеобразовательных учреждений в условиях цифровых технологий, а также способностей критического мышления и творческих информационно-коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: образование, творчество, креативное мышление, творческие идеи.

FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN CREATIVE EDUCATION

The article deals with the development of competence and culture of general education students in the conditions of digital technologies, as well as critical thinking abilities and creative information and communication competences.

Keywords: education, creativity, creative thinking, creative ideas.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining 2020-yil 30 dekabrda 335-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Informatika va axborot texnologiyalari” o'quv dasturida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish konsepsiyasi belgilab berilgan. Informatika va AT ta'limini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlariga ko'ra jamiyatda kutilayotgan yangi texnologik o'zgarishlar sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va AT fanini o'qitish, o'quvchilarda kreativ axborot-kommunikatsion qobiliyat va innovatsion ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarda maktabdan keyingi ta'lim bosqichi yoki mustaqil hayotga qadam qo'yishda zarur bo'ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo'lib xizmat qiladi. [1]

Bugungi kun ta'lim tizimining maqsadi intellektual shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lib, bunda ta'lim mazmunini, o'qitish uslub va vositalarini yangilash ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kreativlik tushunchasini keng ma'noda ko'rib chiqiladigan bo'lsa, uning ijodkorlikdan farqli ekanligini ang-lash mumkin. Ijodkorlik eng yuqori kognitiv jarayon bo'lsa, kreativlik (lot, ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oya-larni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidor-lilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Adabiyotlar sharhi. “*Kreativ fikrlash*” - o'z maqsadlarga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish.[2]

Kreativ fikrlashda ta'limning o'rni qanday?

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi (Lukas va Spenser, 2017). Bu ularga globallashtirish sharoitida jadallik bilan

o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda “21-asr” ko‘nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘rgatish bugungi kun o‘quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanilgan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Maktablarda ham o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning ahamiyati mehnat bozori talabiga ko‘ra ortib bormoqda. Maktablar o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlarini kashf etishlariga, rivojlantirishlariga va aniqlashlariga shu bilan bir qatorda, kreativ qobiliyatlarini namoyon etishlarida muhim o‘rin tutadi. Maktablar o‘quvchilarni o‘zlari yashayotgan jamiyatning ajralmas qismi ekanligini va jamiyatning rivoji uchun o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shishlari mumkinligi va buni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi (Tangard, 2018[13] (accessed on 26 March 2018)).

Kreativ fikrlash o‘quvchilarning tajribalar, hodisalar hamda vaziyatlarni yangicha va mazmunli tarzda talqin etishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bilim olishlariga ko‘maklashadi (Begetto va Kaufman, 007[14]). O‘quvchining tasavvuri va qiziquvchanligi o‘rganish jarayonini tezlashtirishi mumkin, bunda kreativ fikrlash esa tushunishga va o‘zlarining oldiga o‘rganishdan qo‘yilgan maqsad uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi (Begetto, R. and J. Plucker, 2006 [12]), O‘quvchining maktabdagi o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va rag‘batini oshirish uchun barcha o‘quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o‘rganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish uslublari maktabda ta‘lim olishga qiziqishlari sust bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berib, ularga o‘z fikrlarini ifodalash va oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi.

Muhokama. Ta‘lim, Tadqiqotlar va Innovatsiyalar Markazi (CERI) tomonidan olib borilayotgan dasturga ko‘ra, kreativ fikrlash ko‘nikmasi o‘z ichiga 6 ta qo‘chimcha ko‘nikmalarni qamrab oladi. Ular:

1. Tegishli tajriba va ma‘lumotlarni idrok etish, ularga nisbatan o‘z munosabatini bildirish, kuzatish hamda tasvirlash;
2. Mulohazalarni o‘rganish, topishga harakat qilish va mulohaza yuritish;
3. Boshqa fanlarga oid tushunchalar orasidagi bog‘liqliklarni topish va uyg‘unlashtirish;
4. G‘ayrioddiy va fundamental mulohazalarni kengaytirish va ular yordamida fikrlash;
5. Yangicha fikrlash mahsulini oldindan ko‘ra bilish, ifodalash, yaratish va shunga o‘xshash mulohazaga (yechim yoki samaradorlikka) erishish;
6. Yechimning o‘ziga xosligi yoki uning ehtimoliy natijalarini baholay olish.

Boshqa qobiliyatlar kabi kreativ fikrlash qobiliyati amaliy va maqsadli yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin (Lukas va Spenser, 2017[11]). Ayrim o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan fanlardan tashqari boshqa faoliyat turiga yo‘naltirish bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Aslida, o‘quvchilar barcha fanlar kesimida kreativ fikrlay olishlari kerak. Kreativ fikrlash yodlatish usuli orqali o‘qitishdan ko‘ra o‘quvchilarning izlanish va kashf qilish qobiliyatlarini rag‘batlantiradigan yondashuvlar orqali asosiy bilimni egallashga undash bilangina rivojlantiriladi (Begetto, Bayer va Kaufman, 2015[14]). O‘qituvchilar kreativ fikrlash qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Kreativ fikrlash qobiliyati qanday rivojlantirilishini yaxshi tushunish, o‘qituvchilarga o‘zlari o‘rganishlari jara-yonida ijodiy fikrlarni “yuzaga chiqarishlariga” imkon berishi mumkin.

Kreativ fikrlashning shakllantiruvchi shaxsiy omillar

Aqliy ko‘nikmalar

Konvergent fikrlash- muammoga yechim topish uchun izlashning an‘anaviy va mantiqiy strategiyasini qo‘llash, anglash va qabul qilish qobiliyati.

Divergent fikrlash – muammolarga avval taklif etilmagan, yangi, g‘ayrioddiy yoki hayratlanarli javob topishdir.

Tajribalarni o‘rganishga va bilim olishga ochiqlik

Ko‘pgina kreativ odamlar fikrlashga ishtiyoqmand bo‘lib, tajribalarni o‘rganishga va bilim olishga ochiqlik fazilatlariga ega.

Bilim sohasining tayyorligi

Insonda bilim qanchalik ko‘p bo‘lsa va u sohaga oid turli ma‘lumotlarning bir-biriga bog‘liqligini yaxshiroq tushunsa, kreativ g‘oyalarni kashf etish imkoniyati kattaroq bo‘ladi.

Maqsadga yo‘nalganlik va ijodkorlik borasida o‘z-o‘ziga ishonch

Ijodkor va yaratuvchan insonlar – “sa’y-harakat qilishga o‘zlarida xohish istak topa oladigan insonlar (Copley)

Ijodkor insonlar uchun xos bo‘lgan yetakchi xususiyatlardan biri sabr-matонат (Torrence)

Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar

Madaniy me‘yorlar va kutilgan natijalar

Insonning o‘zini ijodiy jihatdan namoyon etishi ijtimoiy vaziyatlar bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Ijtimoiy vaziyatlar madaniy me‘yorlar va kutilgan natijalar yordamida shakllanib boradi hamda kreativ fikrlashga ta‘sir ko‘rsatadi.

Ta‘limdagi yondashuvlar

Maktablar rag‘batlantirishni oshirishi va u bilan bog‘liq ijtimoiy harajatlarni kamaytirish orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi, o‘quvchilarning bilimini sinash tizimining keskn qolipga solinishi va ma‘suliyatning kreativ fikrlashlarini pasaytiradi.

Sinf xonasining psixologik muhiti (salbiy ta‘sir)

Vazifani bajarishning yagona to‘g‘ri yechimi va savolning birdan bir to‘g‘ri javobi bo‘lgan g‘oyani uzoq saqlab turish (erkin ifoda qila olmaslik)

- nima bo‘lgan taqdirida ham mavzu rejasidan tashqariga chiqmaslik
- kreativ va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini noyob qobiliyat deb bilish
- bilimni alohida bo‘limlarga bo‘lingan tarqoq deb o‘ylash
- o‘quvchilarning qiziqishlarini va intilishlarini inobatga olmaslik

O‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholashga qaratilgan topshiriqlarining “turli g‘oyalarni ilgari surish” qismi o‘quvchilarning sohalar kesimida turlicha fikrlash qobiliyatlariga urg‘u beradi: masalan, muammoga turli yechimlarni berish, hikoya shaklida turli g‘oyalar berish yoki g‘oyani vizual shaklda ifoda qilishning turli usullarini yaratish. Ayni shu qismga oid topshiriqlarda o‘quvchilarga ochiq shakldagi senariy va bir-biridan farqli ikki yoki uchta javob berishga undovchi ko‘rsatmalar beriladi. O‘quvchilarning turlicha fikrlash ko‘nikmalarini baholash muayyan topshiriqqa mos bo‘lgan javob variantlari bilan bog‘liq.

O‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholashga qaratilgan topshiriqlarining “kreativ g‘oyalarni ilgari surish” qismida kreativ fikrlash biror maq-sad bilan boshlanib, kutilgan natija yoki g‘oya bilan yakunlanadi. Kreativlik ustida olib borilgan mavjud konsenptual va empirik izlanishlarda ko‘zga tashlanadigan qarama-qarshiliklarga qaramasdan, bu borada mavjud adabiyotlar kreativlikning natijasi ham yangilik ham foydali bo‘lishini tasdiqlaydi. Bunda asosan o‘quvchilarning bo‘limlar kesimida muvofiq va o‘ziga xos mulohazalarni topish qobiliyatlariga e‘tibor qaratiladi (masalan, hikoyada ilgari surilgan asosiy g‘oya, fikr va mulohazalarni vizual ko‘rinishda ifodalash yoki ijtimoiy yoxud ilmiy muammolarga o‘ziga xos yechim topish). Boshqacha aytganda, o‘quvchilardan boshqalarning xayoliga kelmagan muvofiq topshiriqqa tegishli bo‘lgan javob topish so‘raladi.

Xulosa. Kreativ fikrlashlari baholanayotgan o‘quvchilarga kreativ fikrlashga oid topshiriqlar uchun bir soat va matematik savodxonlik, o‘qish savodxonligi hamda tabiiy-ilmiy savodxonlikka oid topshiriqlarga esa ajratilgan vaqtning qolgan qismi beriladi. Kreativ fikrlashga oid topshiriqlar 30 daqiqalik bo‘limlar yoki “klasterlar” dan iborat. Har bir klaster baholanishi nazarda tutilgan alohida qobiliyatlar (turli g‘oyalarni ilgari surish, kreativ g‘oyalarni ilgari surish va g‘oyalarni baholash va takomillashtirish), sohalar (yozma ifodalash, vizual ifodalash, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarni hal qilish), bo‘lim davomiyligi (ilmiy va ijtimoiy kontekstlarda) hamda mavzularning davomiyligidan (5 daqiqadan 15 daqiqagacha bo‘lgan ko‘rsatmalar) iborat.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, ta‘lim oluvchilar e‘tiborini ta‘lim jarayoniga faol jalb etishni ta‘minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 20.04.2017 й., ПҚ-2909-сон. -«Халқ сўзи» газетаси, 2017 й., 79 (6773)-сон; ЎР ҚХТ, 2017 й.
3. Каримов И. А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1994. – 293-бет.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Т.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Т.: TDPU, 2003 y.
7. Mavlyanov A., Abdalova S., Yusupova L.Yu., Mavlyanova I. Inter-faol usullar asosida o‘tiladigan mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilarning mus-taqil fikrlashini rivojlantirish // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2009. - 112 b.
8. Kayumova N.A. O‘qitishning axborot–ta’lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi o‘qituvchilarini tayyorlash. Monografiya. Т.: “Fan va texnologiya”, 2015. -192 b.
9. R.R.Boqiev. “Informatika” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. Т.: TDPU, 2012 y.
10. Авлиёкулов Н.Х. Ўқитишнинг модуль тизими ва педагогик техно-логияси амалий асослари, - Бухоро: - 2000
11. Mavlyanov A., Abdalova S., Yusupova L.Yu., Mavlyanova I. Interfaol usullar asosida o‘tiladigan mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2009. - 112 b.
12. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Т.: “Sano standart”, 2015. – 150 b.
13. Tanggaard, L. (2018), Content-Driven Pedagogy: On Passion, Ab-sorption and Immersion as Dynamic Drivers of Creativity, Springer, [http://vbn.aau.dk/en/publications/contentdrivenpedagogy\(96d07758-fcbe-490c-b090-426c6e096466\).html](http://vbn.aau.dk/en/publications/contentdrivenpedagogy(96d07758-fcbe-490c-b090-426c6e096466).html).
14. “The relationship among schooling, learning, and creativity: “All roads lead to creativity” or “You can’t get there from here”?”, in Kaufman, J. and J. Baer (eds.), Creativity and Reason in Cognitive Development, Cambridge University Press, Cambridge.
15. Temirova G.G., Yusupova N.N. Informatikani o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullari. // Proceedings of the 14th International Scientific and Practical Conference «Scientific Research in XXI Century», №162, Ottawa, Canada, (July 16-18, 2023). ISBN 978-0-458-20903-3, 68-76 bet. <https://archive.interconf.center/index.php/conference-proceeding/article/view/4035>
16. Temirova G.G., Yusupova N.N. Муаммоли таълим усулларида информатика ва ахборот технологиялари фани машғулотида қўллаш хусусиятлари. // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Кемерово. - Выпуск №12, том 3, 31.03.2021. https://disk.yandex.ru/d/5-V_Ud8tz9-apw
17. Temirova G.G., Yusupova N.N. Matematika va tanqidiy fikrlash. // Science and education scientific journal.-In Volume #3 ISSUE#6, June 2022, https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13719_1_3C026CF4FE86C1F84D4E48D5B104CFD987CBAB79.pdf

ZAMONAVIY METODOLOGIYADA SOTSIOMADANIY KOMPETENSIYANING O‘RNI

*Umarova Zebiniso Nizom qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
zebijurayeva@gmail.com*

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim komponentlaridan biri bo‘lgan ijtimoiy-madaniy kompetensiya, uning shakllanishi va rivojlanishida chet tili o‘qituvchisi va talabaning o‘rni kabi masalalar muhokama qilingan. Sotsiomadaniy kompetensiyaning asosiy shakl, mazmun hamda shartlari tahlil etilgan.

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, madaniy kompetentlik, chet tili o‘qitish metodikasi, sotsiomadaniy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, didaktika, o‘quv materiali.*

РОЛЬ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ МЕТОДОЛОГИИ

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как социокультурная компетентность, которая является одной из составляющих современного образования, роль преподавателя иностранного языка и обучающегося в её формировании и развитии. Анализируются основные формы, содержание и условия социокультурной компетентности.

***Ключевые слова:** компетентность, социальная компетентность, культурологическая компетентность, методика преподавания иностранного языка, социокультурная компетентность, коммуникативная компетентность, дидактика, учебный материал.*

THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN MODERN METHODOLOGY

This article deals with issue “socio-cultural competence” which is one of the components of modern education, the role of the foreign language teacher and the student in its formation and development. The main form, content and conditions of sociocultural competence are analyzed.

***Keywords:** competence, social competence, cultural competence, foreign language teaching methodology, sociocultural competence, communicative competence, didactics, educational material.*

Kirish. Bugungi zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va metodlari rivojlanishi barobarida fanga yangidan yangi usul va yo‘nalishlar kirib kelmoqda. Jumladan, muloqot kompetensiyasining yetakchi bo‘g‘inlaridan biri sanalgan sotsiomadaniy kompetensiya nafaqat chet tili o‘qitish metodikasida, balki lingvistika, pedagogika, metodika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa kabi qator fanlar rivoji va eng asosiysi, talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, shaxsiy o‘sishi, bilim ko‘lamini ham madaniy, ham ijtimoiy jihatdan oshirib, jamiyatda samarali faoliyat yuritishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Til, jamiyat va madaniyat kabi tushunchalarni bir-biridan ajratib bo‘lmasligini hisobga olgan holda, kishilar bir-biri bilan o‘z madaniyatini nutqida aks ettirmasdan muloqot qila olmayligini ta’kidlay olamiz. Shunday ekan, sotsiomadaniy kompetensiya – bu tilda ham madaniy, ham funksional jihatdan to‘g‘ri muloqot qila olish qobiliyati sanaladi. Bu o‘z jamiyatiga xos bo‘lgan urf-odatlar, qoidalar, e’tiqodlar va tamoyillarni bilishdir. Sotsiomadaniy kompetensiya, bir so‘z bilan aytganda, o‘zaro munosabatlarda hamkorlik qilish, jamoat faoliyatida faol ishtirok etish, ommaviy muammolarni oson hal etishda zarur bo‘ladigan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda fanning turli tarmoqlarida 2017-yildan keyin jahon andozasidagi o‘qitish uslublari jadallik bilan kirib kela boshladi. Chet tili o‘qitishda ham Amerika Qo‘shma Shtatlari, Finlandiya, Singapur va boshqa rivojlangan davlatlar ta’lim dasturlaridagi metod va usullar joriy qilishga kirishildi. Xususan, lingvokognitologiya, sotsiokulturologiya hamda madaniyatshunoslik kabi qator fan sohalarining oliy ta’lim tizimida o‘rganilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu sohalarini tadqiq etish bo‘yicha yangi ilmiy adabiyotlarga ehtiyoj ortdi. Xususan, rus va yevropalik mutaxassislardan G.A.Vorobyev, V.P.Milrud, M.A.Yugova, D.Lipinskiyene, M.S.Safina, I.Anuziene, T.Y.Kotchenko, A.I.Larionova, Y.V.Zaxarovalarning asar, ilmiy monografiya va maqolalarida bevosita boshlang‘ich ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda ikkinchi chet tilining o‘quvchilarga ta’siri, o‘qitish jarayonida madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanish bosqich hamda sabablari tahlil qilingan. Mazkur muammolarga qo‘shimcha ravishda, tilni o‘qitish bilan birgalikda tili o‘rganilayotgan davlat madaniyati, tarixi, urf-odat, bayram va an‘analarini o‘quvchi ongiga qay holatda va usulda singdirish K.Kramsh, N.Volfson, N.Hinkel, E.Roberts, M.Handford,

G.Kasper singari ingliz va amerikalik ilmiy tadqiqotchilarning ishlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, K.Kramschi o‘zining ta’lim paradoksida o‘qituvchilar yuqorida keltirilgan bir qator bilimlarni berishlari kerak, ammo o‘quvchilar ularni o‘zlashtirishlari uchun bu bilimlarni o‘zlari kashf qilishlari kerak - qanday qilib o‘qituvchilar bir vaqtning o‘zida bilimni ularga berishlari va ularni o‘zlari kashf qilishlari mumkin, degan savolni beradi. Bu savol esa uning ta’lim paradoksidir [2]. O‘qituvchi uchun yana bir dilemma - bu ijtimoiy-madaniy me’yorlarni kimga o‘rgatish kerakligini va birinchi navbatda ularni qanday tizimli tahlil qilishni hal etishdir [7].

Asosiy qism. Professor J.Jalolov chet tili o‘qitishda pedagog tomonidan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishning metodik usuli sifatida o‘zaro chet tilida og‘zaki muloqot chog‘ida suhbatdoshiga hurmat bilan qarash, odob doirasiga kiradigan so‘z va iboralarni qo‘llash (rahmat, marhamat qiling kabilar), birgalashib she’rlar, dialoglar aytish, o‘zi va sheriklari hatti-harakatini odob bilan chet tilida sharhlay olish singari yumushlar o‘quvchini madaniyat sari yetaklashini ta’kidlaydi [3]. Albatta, o‘quvchi chet tilini o‘rganish mobaynida xorijiy shoir, yozuvchi, atoqli olimlarning hayoti, turmushi, ishlari, she’rlari, ertaklari, hikoyalari, romanlari, inglizzabon mamlakatlar xalqlari hayoti, madaniyatlari, urf-odatlar bilan tanishadi. Bu esa dunyoqarashni kengaytiradi, tarbiyaga ijobiy ta’sir qiladi [8].

Xorijiy adabiyotlarda keltirilishicha, T.Kotchenko ta’lim - madaniyatni yosh avlodga to‘liq yetkazish jarayoni, deb hisoblagan. Uning fikricha, madaniyat umuman olganda, ta’limning tarkibiy qismlari: jismoniy, axloqiy, lingvistik, estetik sohalarini bosqichma-bosqich egallashi oqibatida shaxsning o‘z mulkiga aylanadi [9]. Chet tili o‘qitish metodikasi sohasidagi taniqli olim, professor E.I.Passovning ta’kidlashicha, madaniyat jamiyatning moddiy va ma’naviy qadriyatlarining birligi bo‘lib, tarixan ma’lum bir iqtisodiy asoslar negizida shakllangan hamda jamiyatning moddiy va ma’naviy rivojlanishidagi yutuqlari jamlanmasidir [10]. Chet tili shuning uchun ham talaba qanday mutaxassislikni egallashidan qat’iy nazar, mamlakat madaniyatining bevosita tashuvchisi hisoblanadi.

R.P.Milrud sotsiomadaniy kompetensiya bilan birgalikda kommunikativ kompetensiyaning faoliyat komponentini nazarda tutadi [4]. V.V.Safonova esa ushbu kompetensiyasi didaktika bilan bog‘lab, sotsiomadaniy ta’lim maqsadlari chet tili vositasida amalga oshirilishini ta’kidlaydi [6].

Biz lug‘at va grammatika orqali osongina o‘quvchi egallagan bilimni baholashimiz mumkin, biroq sotsiomadaniy kompetensiya yordamida kontekstning ma’nosini anglash hamda ko‘nikmalarni rivojlantiramiz [1]. Aksariyat chet tili o‘rganuvchi talabalarning bilim doirasi o‘zlarini qurshab olgan muhit yordamida shakllansa-da, biroq ular o‘z madaniyatlarini anglash, uni o‘rganish uchun ham aynan mazkur jarayon bilan bir xil miqdorda vaqt sarflashadi. Ingliz tadqiqotchisi A.Pennikuk ta’rificha, ushbu masalada aniq bir tavsiya mavjud emas. Negaki, talabaning bunday qaror qabul qilishi o‘qituvchi nazorati ostida amalga oshmaydi, ammo undan talaba dunyoqarashini oshirish talab etiladi [5].

Kompetensiya ilk bor psixologiya sohasida qo‘llanilgan bo‘lib, agar bu tushunchani ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘lasak, avvalo, bu o‘qitish natijasida sodir bo‘lishini tushunamiz. Aniqrog‘i, talaba dars jarayonida o‘quv materialini o‘rganish barobarida ma’lum kompetensiyaga ega bo‘ladi, bilim, ko‘nikmasini oshiradi, ma’lum darajada kasbiy-insoniy fazilat va qobiliyatlarini shakllantiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya nazariya va amaliyot hosilasidir, ya’ni, nazariy bilimlar va amaliyot, o‘quv fanlari integratsiyasi hamda o‘qitish usullari natijasi hisoblanadi. Kompetensiya bir so‘z bilan aytganda, bilim va ko‘nikmalarni real hayotda qo‘llash demakdir.

Bugungi kunda chet tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonlari shiddat bilan jadallashib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, til bilan muloqotga kirishuvchilar tomonidan til, din, standartlar, qadriyatlar, urf-odat, an’analar, stereotiplar, milliy belgi va xususiyatlar, ijtimoiy fikrlash va dunyoqarash kabilarning farqlanib o‘rganilishiga olib keladi. Fikrimizcha, sotsiomadaniy kompetensiyaning maqsadi – talabalarni turli millat va ularning madaniyati haqidagi bilim hamda qiziqishlarini oshirish, yer yuzida mavjud xalqlarning bir-biridan nechog‘li farq qilishini anglashiga ko‘maklashish, ularni tadqiq etish jarayonida esa ijodiy munosabatda bo‘lish hamda o‘zga madaniyatga nisbatan hurmat uyg‘otishdan iboratdir. Til o‘rgatuvchilarining asosiy maqsadi esa tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida umumiy va maxsus ma’lumotlar berish, talabalarning ularga nisbatan munosabatini yaxshi tomonga o‘zgartirishdir.

Sotsiomadaniy kompetensiya, shuningdek, talabalarda madaniyat va millatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish, mazkur informatsiyalarni zarurat tug‘ilganda qo‘llay olish va boshqa millat vakillariga nisbatan bag‘rikenglik ko‘rsatishni tushunamiz.

Yuqorida keltirilgan R.P.Milrudning so‘zlariga qo‘shimcha ravishda, sotsiomadaniy kompetensiya, bevosita muloqot kompetensiyasining bir qismi sifatida bizga, nafaqat, kommunikatsiya jarayonida, balki dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar, ijtimoiy va siyosiy tushunchalar, globalizatsiya va informatsion texnologiyalar bilan bog‘liq holda rivojlanishga ko‘mak beradi. Bir qator qobiliyat va ko‘nikmalar

shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, sotsiomadaniy kompetensiya shaxsiy qarashlar, ta’lim va mehnatga qiziqishni oshiradi, siyosiy ongni tarbiyalaydi.

Bundan tashqari, sotsiomadaniy kompetensiya tarbiyaviy ahamiyatga ega va bundan tashqari, ta’limning kognitiv maqsadini ham amalga oshiradi. Ya’ni, talabada dunyoni anglash, his qilish va idrok etish kabi kognitologiya bilan bog’liq jarayonlar shakllanadi, natijada, talaba dunyoni ko’p bosqichli tizim sifatida tushuna boshlaydi.

Hech bir shaxs o’z ona tili va uning qiyosiy tahlilisiz, chet tilini o’rganib bilmaganidek, o’zligi, milliyligi, qadriyatlari, xalqining boy an’ana va udumlarini qay darajada qiymatga egaligini anglamasdan, unda sotsiomadaniy kompetentlik shakllanmaydi.

Quyida keltirilgan sotsiomadaniy kompetensiyaning asosiy komponentlarida yuqoridagi fikrimiz o’z tasdig’ini topadi desak xato qilmagan bo’lamiz:

1. Sociocultural knowledge (information about the country of the language being studied, spiritual values and cultural traditions, characteristics of the national mentality);

2. Communication experience (choice of an acceptable communication style, correct interpretation of the phenomena of foreign language culture);

3. Personal attitude to the facts of foreign language culture (including the ability to overcome and resolve sociocultural conflicts during communication);

4. Mastery of methods of using language (correct use of socially marked linguistic units in speech in various spheres of intercultural communication, sensitivity to similarities and differences between native and foreign language sociocultural phenomena).

(1. Ijtimoiy-madaniy bilimlar (o’rganilayotgan til mamlakati, ma’naviy qadriyatlari va madaniy an’analari, milliy mentalitet xususiyatlari to’g’risidagi ma’lumotlar);

2. Muloqot tajribasi (maqbul muloqot uslubini tanlash, chet tili madaniyati hodisalarini to’g’ri talqin qilish);

3. Chet til madaniyati faktlariga shaxsiy munosabat (jumladan, muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy ziddiyatlarni bartaraf etish va hal qilish qobiliyati);

4. Tildan foydalanish usullarini o’zlashtirish (madaniyatlararo muloqotning turli sohalarida nutqda ijtimoiy belgilangan til birliklaridan to’g’ri foydalanish, ona va chet tilidagi ijtimoiy-madaniy hodisalar o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarga sezgirlik).

Ya’ni, tili o’rganilayotgan mamlakat va uning milliy mentaliteti haqidagi ijtimoiy-madaniy bilimlar, kommunikatsion jarayonda muloqot usul va talaffuzining mutanosibligini to’g’ri tanlay olish tajribasi, chet tili madaniyati bilan bog’liq ma’lumotlarga shaxsiy munosabat bildirish hamda tildan foydalanish metodlari (madaniyatlararo muloqotning turli sohalarida nutqda ijtimoiy belgilangan til birliklaridan to’g’ri foydalanish, ona tili va chet tillari o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarga e’tibor berish) kabilar mavjud o’quvchigina sotsiomadaniy bilimlarga ega hisoblanadi.

Sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish jarayonida chet tili o’qituvchisining kognitiv bilim malakasi, motivatsion xarakterga ega bo’lishi katta ahamiyat kasb etadi. Negaki, ijtimoiy-madaniy shakllanish bosqichida o’qituvchidagi malaka, undagi targ’ib qilish mahorati pedagogik faoliyat ishtirokchilari, ya’ni talaba-o’qituvchi munosabatlarida muhim hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, chet tili o’qituvchisining talabalarga tinglab tushunish, o’qish, gapirish va yozish ko’nikmalarini o’rgatishi jarayonida tili o’rganilayotgan mamlakat autentik matn va vazifalarini tanlashi muhim hisoblanadi, ya’ni badiiy asarlardan misollar, dialog va monologlardan namunalar, mashhur asar va kinodiskursdan parchalar, kommunikativ vaziyatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan rolli o’yin kabilar shular jumlasidandir. Badiiy asarlarni o’qish mobaynida talaba o’zga madaniyatga tegishli xalq og’zaki ijodi namunalari, sheva va so’zlashuv uslubiga xos bo’lgan xususiyatlarga duch keladi, uslubiy bo’yoqdor va betaraf so’zlar, frazeologik birliklar bilan tanishadi va ularni muloqot jarayonida qo’llash usullarini o’rganadi. Muloqot qilish, nutqni rivojlantirish, bir so’z bilan aytganda, interaktiv ta’lim metod va usullaridan foydalanish jarayonida pedagog ishining osonlashishi bilan bir qatorda, talaba uchun ham foydali kontent yetkaziladi. Bundan tashqari, chet tili o’qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiya bevosita ikki va undan ortiq shaxs muloqotida yaqqol namoyon bo’ladi. O’yin turlaridan “role-play” topshirig’i berilganda talabalar o’zaro muloqot qilishadi, vaziyat rollarini muhokama va tahlil etishadi, rol ijro qilish jarayonida o’sha madaniyat va jamiyat ishtirokchisi sifatida ijobiy yakuniy natijaga erishish maqsadida harakat qiladi. Bunda talabada yuqorida keltirganimizdek, kognitiv va tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllana boshlaydi. Shundagina talabalarda o’quv materialini tanlash va uni tanqidiy tahlil qilish kompetensiyasi shakllanadi. Chunki u o’rganish obyektiga emas, balki subyektiga aylanadi, uni his qiladi, rivojlanadi, o’z ustida nazoratsiz ishlash boshlaydi.

Zamonaviy chet tili o‘qitish metodikasida sotsiokulturologik kompetensiyani bir nechta metod va texnikalardan foydalanib o‘rgatish mumkin. Fikrimizcha, quyida keltirilgan mashqlarni “student-centered” (darsda asosiy rolda til o‘rganuvchi bo‘ladigan jarayon) yondashuvidan foydalanib o‘qitilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, mazkur kompetensiyani o‘rgatishga harakat qiladigan ko‘plab manbalar “discussion”, ya’ni “muhokama” faoliyatini taklif qiladi. Haqiqatan ham, tadqiqot ishimizning nazariy qismida sotsiokulturologik kompetensiya o‘zaro kommunikatsiya qilish orqali tezroq shakllanishi aytilgan edi. Biroq, munozara darsdagi barcha talabalar uchun ham turli masalalarni chet tilida yuqori darajada muhokama qila olishlari imkonini bermaydi. Hattoki, yuqori darajadagi talabalar ham o‘zga madaniyat va jamiyat to‘g‘risida muhokamaga kirishishdan oldin biroz bo‘lsa-da, tayyorgarlikka muhtoj bo‘ladi. Shularni hisobga olgan holda biz ijtimoiy-madaniy bilimlarni o‘rgatishga xizmat qiluvchi dars rejasidan namuna keltirishga va chet tili o‘qituvchisi uchun bir nechta interaktiv o‘yinlar hamda ular haqida ma’lumotlar berishga harakat qildik.

Demak, darsning “warming-up” (kirish) qismida quiz (turli savol-javob jarayoni)lardan foydalanish eng muvaffaqiyatli faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Quizlar nafaqat ilgari o‘tilgan mavzularni mustahkamlash, balki yangi beriladigan ma’lumotlarni o‘rgatish uchun ham samaralidir. Bunda o‘qituvchi quiz-test (tezkor savol-javob) yoki true/false (to‘g‘ri-noto‘g‘ri javobni topish) turlaridan o‘quvchilarning darajasiga qarab foydalanishi mumkin. Masalan, madaniyatlar orasidagi farq va o‘xshashliklarni tanishtirishda quyidagi quiz-testdan foydalanish mumkin:

Choose the odd one out of the following items:

- a) Teahouses
- b) Snow
- c) Education system

Bunda o‘quvchi faqat bir madaniyatgagina xos bo‘lgan javob variantini tanlashi kerak bo‘ladi. Bundan savol turlari orqali o‘quvchilarni darsga osongina jalb qilish mumkin.

Darsning asosiy qismida o‘qituvchi tomonidan darsga aloqador bo‘lgan, ikki madaniyat o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni yaqqol o‘zida namoyon etadigan materiallar, ko‘rgazmali qurollar, video va rasmlardan foydalanishni tavsiya qilgan bo‘lar edik. Negaki, o‘quvchiga yangi mavzu ko‘rgazmalar orqali o‘rgatilganda, uning bilimi yanada mustahkamlanadi. “Noticing” (payqab olish yoki e’tibor qaratish) texnikasi orqali o‘quvchi video tomosha qilayotganda yoki boshqa materiallar bilan mashg‘ul bo‘lganida, o‘qituvchi undan turli o‘ziga xos xususiyatlarga e’tiborli bo‘lishni so‘raydi va kuzatilgan materialdagi “target culture” (o‘z madaniyati) bilan source culture (o‘rganilayotgan madaniyat) solishtiriladi. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchidagi passiv kuzatuvchanlikni aktiv ishtirokka aylantiradi.

Yana bir texnikalardan “reformulation” (qayta shakllantirish, ya’ni o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlash)ni misol keltirishimiz mumkin. Bunda talaba biror matn yoki hikoyani o‘qiganida uni o‘z sherigiga qayta aytib berishi orqali ma’lumot bazasi xotirada yaxshi muhrlanadi va chet tilida gapirish qobiliyati rivojlanadi. Bunda o‘rgangan bilimlari mustahkamlanib, oddiy usul orqali madaniyat va til o‘rganishga asos bo‘ladi.

Darsning xulosalash qismida ham sotsiokulturologik kompetensiyani shakllantirish, o‘zga mamlakat tarixi, madaniyati, xalqi to‘g‘risidagi bilimlarni mustahkamlashda talabalar uchun bir qancha texnikalar mavjud va bu orqali ular o‘zlari izlanib, ma’lumotlarga ega bo‘lishlari mumkin. Jumladan, “action log” (bajarilgan ishlar jurnali)lar yozish. Bunda dars davomida bajarilgan ishlar haqida yozma mulohaza yuritish uchun ishlatiladigan daftar shakllantirilgan bo‘lib, u o‘qituvchi uchun foydali fikr-mulohazalarni ham beradi. Talabalar buni har bir darsdan keyin yoki har bir dars oxirida yozadilar. Shuningdek, har bir talaba ingliz tilida so‘zlashish maqsadini, nimaga erishganini, yangi jamiyat va madaniyat to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildiradi. “Reformulation” orqali talabalar og‘zaki nutqini rivojlantirsa, mazkur texnika ularning yozish qobiliyatini o‘stiradi.

Yana bir texnika bu “research” (tadqiqot olib borish) hisoblanadi. Bu texnika yordamida o‘qituvchi talabadagi boshqa madaniyatlarga bo‘lgan qiziqishlarni oshiradi, ya’ni birinchi darsdan so‘ng ulardan o‘zlari qiziqqan madaniyat haqida manbalardan ma’lumot topib kelishlarini so‘raydi. Keyingi darsda talabalar guruhdoshlari bilan o‘rgangan materiallarini tahlil qiladilar. Bunday turdagi topshiriqlar talabalardan uzoq muddatli qiziqishni ham talab qilishi mumkin. Bunday turdagi mashqlar va topshiriqlar talabalarga nafaqat yangi bilimlarni egallash, balki o‘z ustlarida ishlash, izlanishlar olib borishlariga ko‘mak beradi. Shu bilan bir qatorda, boshqa til, madaniyat va ijtimoiy hayot haqida o‘z fikrlarini erkin ayta olish va ma’lumot almashish jarayonini rivojlantiradi, deb ayta olamiz.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, hozirgi zamonaviy chet tili o‘qitish metodikasida sotsiomadaniy kompetensiyani o‘rni beqiyos. Uni rivojlantirish bosqich va komponentlari to‘g‘ri va istiqbolli tuzilgan va tanlangan o‘quv materiallari, turli chet tili o‘qitish usullariga bog‘liq. Hozirgi jamiyat o‘ziga o‘z sohasida

mukammal, barcha soha va yangiliklardan boxabar, ruhan va ma’nan o’zligini tanigan shaxslarining qabul qiladi. Sotsiomadaniy kompetensiyaga ega insongina nafaqat o’z millat va madaniyatini, balki boshqa xalqlar, ularning boshqalarga o’xshamagan jihatlarini o’rganadi va hurmat qiladi. Shunday ekan, sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish nafaqat chet tili o’qituvchisi balki boshqa fan o’qituvchilari tomonidan ham integrallashtirilgan holda o’qitilishi, amaliyotda qo’llab, charxlanishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Hudson, T. “Indicators for pragmatic instruction”, in G. Kasper and K. Rose (eds) *Pragmatics in Language Teaching*, Cambridge: Cambridge University Press. 2001. P. 283.
2. Kramersch, C. (1993) *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford: OUP.
3. Jalolov, Jamol Jalolovich. *Chet til o’qitish metodikasi: chet tillar oliy o’quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik* / J.J. Jalolov. — Toshkent: “O’qituvchi”, 2012. — 432 b.
4. Milrud, V.P. *Competence in language learning*. Foreign Languages in School. 2004.
5. Pennycook, A. *The Cultural Politics of English as an International Language*. London. 1994.
6. Safonova, V.V. *Cultural studies in the modern language education*. Foreign Languages in School. 2001.
7. Wolfson, N. (1989) *Perspectives: Sociolinguistics and TESOL*. Rowley, Mass.: Newbury House.
8. Хошимов Ў., Ёкубов И. *Инглиз тили ўқитиш методикаси*. Тошкент: «Шарк», 2003, — 304 б.
9. Котченко Т. Е. Влияние этнокультурного и лингвистического материала на мотивацию изучения иностранного языка // *Теоретическая и дидактическая филология*. 2010. -С. 173.
10. Пассов Е. И. *Культурообразная модель профессиональной подготовки учителя: философия, содержание, реализация* // *Иностранные языки*. 2002.
11. https://methodological_terms.academic.ru/
12. <https://socialjusticeandeducation.org/2021/06/28/what-is-sociocultural-competence-how-does-identity-fit-into-it/>

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARGA KOMBINATORIKANING ASOSIY QOIDALARINI TUSHUNTIRISH METODIKASI

Xudayarov Sa‘nat Samadovich,

*Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
s.s.xudayarov@buxdu.uz*

Safarov Fayoz Obloqulovich,

*Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
f.o.safarov@buxdu.uz*

Hozirgi kunda ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun matematika fanidan Brayl yozuvli kitoblar mavjud emas, shuni inobatga olgan holda maqolada ko‘zi ojiz va qisman ko‘rish qobiliyatiga ega o‘quvchilarga tushunarli bo‘ladigan masalalar keltirib o‘tilgan. Bu masalalar ko‘zi ojiz va qisman ko‘rish qobiliyatiga ega nogiron o‘quvchilar uchun tasavvur qila olinadigan va mavjud jismlar bilan kombinatsiyalarni tushuntirish imkoni bo‘lgan masalalar tuzilgan va bir qancha masalalar yechib ko‘rsatilgan. Kombinatorikaning asosiy qoidalari bu qo‘shish va ko‘paytirish qoidalari hisoblanib, kombinatorika masalalar yechimini topishda asosiy formulalar hisoblanadi. Kombinatorikaning yana muhim o‘rinlashtirish, o‘rin almashtirish, guruhlashlar formulalari aynan yuqoridagi qo‘shish va ko‘paytirish formulalaridan foydalangan holda kelib chiqadi. Demak, bizning asosiy maqsadimiz o‘quvchilarga kombinatorikaning qo‘shish va ko‘paytirish qoidalarini turli xil metodlar bilan tushuntirish.

***Kalit so‘zlar:** kombinatorika tarixi, qo‘shish qoidasi, ko‘paytirish qoidasi, kam ko‘ra olish, kundlik metodlar, aqliy hujm metodi.*

МЕТОДИКА РАЗЪЯСНЕНИЯ ОСНОВНЫХ ПРАВИЛ КОМБИНАТОРИКИ СЛЕПЫМ УЧАЩИМСЯ

В настоящее время не существует книг Брайля по математике для слабовидящих учащихся, поэтому в статье представлены вопросы, понятные слепым и слабовидящим учащимся. Эти задачи предназначены для слепых и слабовидящих учащихся, где можно представить и объяснить комбинации с существующими объектами, а также решить несколько задач. Основными правилами комбинаторики являются правила сложения и умножения, они же являются основными формулами решения комбинаторных задач. Наиболее важные формулы комбинаторики для перестановки, группировки выводятся с использованием приведённых выше формул сложения и умножения. Поэтому наша главная цель – объяснить учащимся правила сложения и умножения комбинаторики разными методами.

***Ключевые слова:** история комбинаторики, правило сложения, правило умножения, близорукость, ежедневные методы, метод мозгового штурма.*

METHOD OF EXPLAINING THE BASIC RULES OF COMBINATORICS TO BLIND STUDENTS

Currently, there are no Braille books on mathematics for blind students, given that the article deals with issues that are understandable to blind and visually impaired students. These problems can be presented to blind and visually impaired students by formulating problems that can explain combinations with existing objects and solving a series of problems. The basic rules of combinatorics are the rules of addition and multiplication, they are also the basic formulas for solving combinatorial problems. The most important combinatorics formulas for placement, permutation and grouping are derived using the above addition and multiplication formulas. So, our main goal is to explain to students the rules of addition and multiplication of combinatorics using different methods.

***Keywords:** history of combinatorics, addition rule, multiplication rule, myopia, daily methods, brainstorming method.*

Kirish va muammo bayoni. Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab hayotiy ehtiyojlar tobora kengayib borgan. Insoniyat dastlabki matematik tushunchalarni matematik bilimlar mazmuni so‘zlar orqali amalga oshirgan. Har bir mavzu bo‘yicha matematik atamalar bilan bog‘liq til vositalarini o‘rgatishda tabiiy vaziyatlarni yaratib berish kerak. O‘quvchilar faoliyatini notanish iboralar va atamalarni faqatgina eslab

qolishga emas, balki nutqda bog‘likliklar va munosabatlarni ifodalashga yordam beradigan modellar, gaplarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish lozim. Bu eslab qolinishi kerak bo‘lgan maxsus ibora va atamalar sonini ancha qisqartiradi. Matematika darslarida og‘zaki nutq vositalari turli xildagi ko‘rgazmali qurollar bilan birgalikda qo‘llanishi lozim. Aytish joizki keltirilgan material, bir tomondan bayon qilingan masalaga og‘zaki bayoniga illyustrasiya sifatida xizmat qilsa, boshqa tomondan matematik tushunch va atamalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ochib berish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ko‘zi ojiz va shu kabi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda aniq fanlarga qiziqishni uyg‘otish muhimdir masala hisoblanadi. Agar o‘quvchining matematik masalalarni yechishiga qiziqishi bo‘lsa, bunday vaziyatda darslarning samaradorligi ham yuqori bo‘ladi. Ana shunday vaziyatlarda eng samarali yo‘l bu didaktik o‘yinlardan foydalanishdir. Har xil didaktik o‘yinlar jarayonida yuzaga keladigan o‘quvchidagi ijobiy his-tuyg‘ular o‘quvchining o‘zi bilmagan holda ixtiyoriy diqqatini rivojlantiradi. Har bir eshitayotgan ma‘lumotlarini tahlil qilib boradi hamda o‘quvchining xotirasi va xatti-harakatlarini ijobiy tarafga o‘zgartiradi.

Kombinatorika masalalarning yechimlarini tushuntirish jarayonida [1-7] ko‘plab metodlar, interfaol usullardan foydalanish mumkin. Shuni inobatga olgan holda o‘qituvchi har bir mavzuga mos bo‘lgan va samara beruvchi metodlardan foydalanishi kerak deb hisoblayman. Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga ko‘proq og‘zaki usullardan foydalangan holda dars o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Aqliy hujum metodlar haqida tushuncha. [6]

“Aqliy hujum”- g‘oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g‘oyalarni ilgari suradilar (generatsiya kiradi). U ishtirokchilarni o‘z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga rag‘batlantiradi. “Aqliy hujum”ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi- yangi g‘oyalarni yaratishdir. Bu usul muammoni hal qilayotgan kishilarning ko‘proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa. Ularning hech bo‘lmaganda bittasi ayni muddao bo‘lishi mumkin.

“Aqliy hujum”ning qoidalari:

1. Fikr va g‘oyalar hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
2. Bildirilgan fikr va g‘oyalar takliflar berish to‘xtatilmaguncha muhokama qilinmaydi, baholanmaydi;
3. Bildirilgan har qanday g‘oya va fikrlar hisobga olinadi;
4. Qancha ko‘p g‘oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi;
5. Bildirilgan g‘oya va fikrlarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin;
6. Barcha aytilgan takliflar yozib boriladi;
7. Takliflarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Matematikaning kombinatorika deb ataluvchi bo‘limida chekli yoki muayyan ma‘noda cheklilik shartini qanoatlantiruvchi to‘plamni qismlarga ajratish, ularni o‘rinlashtirish va o‘zaro joylashtirish, ya‘ni kombinatsiyalar, kombinatorik tuzilmalar bilan bog‘liq masalalar o‘rganiladi.

Masalan: Aytaylik qo‘limizda bir donadan olma, nok va mandarin bor. Bu mevalarni iste‘mol qilish ketma-ketligi qanday bo‘lishi mumkin?

$A = \{olma, nok, mandarin\}$ to‘plam elementlaridan masala shartini qanoatlantiruvchi kombinatsiyalarni hosil qilamiz.

Bu kombinatsiyalar quyidagicha bo‘ladi:

- 1) $\langle olma, nok, mandarin \rangle$;
- 2) $\langle olma, mandarin, nok \rangle$;
- 3) $\langle nok, olma, mandarin \rangle$;
- 4) $\langle nok, mandarin, olma \rangle$;
- 5) $\langle mandarin, nok, olma \rangle$;
- 6) $\langle mandarin, olma, nok \rangle$

Bu jarayonda olti xil holat bo‘lishi mumkin. Demak, kombinatsiyalar soni oltita.

{Bu so‘z lotincha “combination” so‘zidan olingan bo‘lib, birikma, birlashma, tuzulma, tutashma ma‘nolarini anglatadi.}

Kombinatorika turli sohalarida qo‘llaniladi. Jumlada, matematika, kimyo, biologiya, fizika, lingvistika, axborot texnologiyalari va boshqa sohalar bilan ish ko‘ruvchi mutaxassislar kombinatorikaning xilma-xil masalalariga duch keladilar. Kombinatorikaning ba‘zi elementlari eramizdan oldingi II asrda hindistonliklarga ma‘lum edi. Ular hozirgi vaqtda guruhlashlar deb ataluvchi kombinatorik tushunchalardan foydalanishgan. Eramizning XII asrida Bxaskara Acharya o‘zining ilmiy tadqiqotlarida guruhlash va o‘rin almashtirishlarni qo‘llagan. Umuman olganda kombinatorikaning dastlabki rivoji qimor o‘yinlarini tahlil qilish bilan bog‘liq. Ba‘zi atoqli matematiklar, masalan, B.Paskal, Yakob Bernulli, L. Eyler, P.L.Chebishev turli o‘yinlarda (tanga tashlash, soqqa tashlash, qarta o‘yinlari va shu kabilarda) ilmiy jihaddan asoslangan

qaror qabul qilishda kombinatorikani qo‘llashgan. XVII asrda kombinatorika matematikaning alohida bir ilmiy yo‘nalishi sifatida shakllana boshladi. B. Paskal o‘zining “Arifmetik uchburchak haqida traktat” va “Sonli tartiblar haqida traktat” (1665-y.) nomli asarlarida hozirgi vaqtda binomial koeffitsiyentlar deb ataluvchi sonlar haqida ma’lumotlar keltirgan.

Kombinatorika iborasi G. Leybnisning “Kombinatorik san’at haqida mulohazalar” nomli asarida birinchi bor 1665-yilda keltirilgan. Bu asarda birlashmalar nazariyasi ilmiy jihatdan ilk bor asoslangan. O‘rinlashtirishlar bilan o‘rganishni birinchi bo‘lib Yakob Bernulli shug‘ullangan va bu haqdagi ma’lumotlarni 1713-yilda bosilib chiqqan “Ars conjectandi” (Bashorat qilish san’ati) nomli kitobining II-qismida bayon qilgan. Hozirgi vaqtda kombinatorikada qo‘llaniladigan belgilashlar XIX asrga kelib shakllandi.

Kombinatsiya- bu kombinatorikaning asosiy tushunchasi. Bu tushuncha yordamida ixtiyoriy to‘planning qandaydir sondagi elementlaridan tashkil topgan tuzilmalar ifodalanadi. Kombinatorikada bunday tuzilmalarning o‘rin almashtirishlar, o‘rinlashtirishlar va guruhlar deb ataluvchi asosiy ko‘rinishlari o‘rganiladi.

Endi kombinatorikaning sodda, ammo muhim qoidalari bilan tanishib chiqamiz.

Qo‘shish qoidasi:

1-masala: Uydan maktabga to‘rtta yo‘l bilan borish mumkin. Uydan maktabga necha xil usulda borib kelish mumkin?

Yechish: O‘quvchida uydan maktabga borishda to‘rtta yo‘ldan ixtiyoriy birini tanlash imkoniyati bor, maktabdan uyga qaytib ketishda esa yana ixtiyoriy to‘rtta yo‘ldan birini tanlash imkoniyati bor. O‘quvchida maktabga borishda har bir tanlagan yo‘li uchun to‘rtta imkoniyat bor demak, maktabga jami $4+4+4+4=16$ ta usulda borib kelish mumkin.

Qo‘shish qoidasi: A obyektidan n ta usul bilan, B obyekt esa m ta usul bilan tanlanishi mumkin bo‘lsa, u holda A yoki B obyektini n + m ta usul bilan tanlash mumkin.

2-masala: A‘lochi 7 nafar o‘quvchidan fizika va matematika fanlaridan fan olimpiadasida ishtirok etish uchun 2 kishini tanlab olish kerak. Buni necha xil usulda amalga oshirish mumkin.

Yechish: Bu masalani yechish uchun o‘quvchilarni nomerlab chiqamiz, birinchi o‘quvchini 1 raqmi bilan, 2-o‘quvchini 2 raqami bilan shu tarzda 7-o‘quvchini 7 raqami bilan nomerlab chiqamiz natijada $A = \{1,2,3,4,5,6,7\}$ to‘plam hosil bo‘ladi. Agar matematika fani olimpiadasiga birinchi o‘quvchini tanlasak u holda fizika fani olimpiadasiga qolgan 6 ta o‘quvchidan ixtiyoriy birini tanlashimiz mumki, agar matematika fani olimpiadasiga 2-o‘quvchini tanlasak fizika fani olimpiadasiga qolgan 6 ta o‘quvchidan birini tanlashimiz mumkin. Shu tarzda matematika fani olimpiadasiga 7-o‘quvchini tanlasak fizika fani olimpiadasiga qolgan 6 ta o‘quvchidan birini tanlashimiz mumkin. Demak, kombinatsiyalar soni $6+6+6+6+6+6+6=42$ ta ekan.

Ko‘paytirish qoidasi.

3-masala: Matbuot tarqatuvchi do‘konida besh xil konvert va to‘rt xil marka sotilmoqda. Konvert va markani necha xil usulda sotib olish mumkin?

Yechish: Masala o‘qib berilgandan so‘ng kimda qanday fikr borligi so‘raladi. Berilayotgan fikrlarga e‘tiroz berilmasligi kerak, o‘quvchi fikrini oxirigacha tugatmaguncha gapini bo‘lmaslik kerak. Masalani yechish uchun berilgan takliflar tugagandan so‘ng o‘qituvchi berilgan takliflarga qo‘shimcha qilishi va hozirgi vaziyatga mos biror berilgan fikrni inobatga olib masalani yechishi lozim. Bu masalani tushunarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi sinfda bor bo‘lgan jismlardan yoki o‘zi bilan olib kelgan jismlardan foydalanib tushuntirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi yoki konvert va markalarni nomlarini o‘g‘il va qizlarga yoki ruchka va daftarga almashtirib tushuntirish ham mumkin bunda o‘qituvchining qanchalik pedagogik mahoratiga ega ekanligiga bo‘g‘liq. Agar konvertlarni $A = \{a_1, a_2, a_3, a_4, a_5\}$ deb, markalarni $B = \{b_1, b_2, b_3, b_4\}$ belgilab olamiz. Agar A to‘plamdan a_1 markani tanlasak B to‘plamdan a_1 marka uchun B to‘planning b_1, b_2, b_3, b_4 markalaridan ixtiyoriy birini olish mumkin, demak ko‘rinib turibdiki ixtiyoriy 5 ta konvertdan biri tanlanganda 4 ta markadan ixtiyoriy birini tanlash mumkin ekan. Demak, masala shartiga ko‘ra A va B to‘plamlar bir vaqtda bajarilishi kerak ya‘ni AB bir vaqtda bajarilishi kerak, demak kombinatsiyalar soni 4 va 5 sonlarni ko‘paytmasiga teng.

Ko‘paytirish qoidasi: Agar A obyekt dastlab n ta usul bilan, B obyekt esa m ta usul bilan tanlanishi mumkin bo‘lsa, u holda A va B juftlik nm ta usul bilan tanlash mumkin.

4-masala: 6-A sinfda 10 ta fan o‘qitiladi. Dushanba kuni 4 ta dars, ammo ular turli bo‘lishi kerak. Dushanba kuniga dars jadvalini necha xil usulda tuzish mumkin.

Yechish: 1-darsga 10 ta fandan ixtiyoriy birini tanlash mumkin, ikkinchi darsga esa qolgan 9 ta darsdan birini tanlash mumkin, 3-darsga qolgan 8 ta darsdan birini tanlash mumkin, 4- darsga esa qolgan 7 ta darsdan birini tanlash mumkin. Demak, 1-obyekt deb 1-soatni olsak, 2-obyekt deb 2-soatni olsak, 3-obyekt

deb 3-soatni olsak, 4-obyekt deb 4-soatni olsak, u holda bu 4 ta obyekt bir vaqtda bajarilishi kerak, ko‘paytirish qoidasiga ko‘ra masala javobi 10,9,8 va 7 sonlarni ko‘paytmasiga teng bo‘ladi.

Yuqoridagi masalalarni ko‘rish qobiliyati past yoki umuman ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lmagan o‘quvchilarga har xil metodlarni qo‘llagan holda tushuntirish kerak.

Mustaqil ravishda ishlash uchun masalalarni keltirib o‘tamiz.

1-masala. $\{1, 2, 3, 4\}$ to‘plamdan uchta a, b, c sonlari tanlandi (bir xil bo‘lishi shart emas). a^{b^c} soni 4 ga bo‘linadigan nechta kombinatsiya bor?

2-masala: 0,1,2,3 raqamlaridan nechta uch xonali son tuzish mumkin. Raqamlari takrorlanadigan va takrorlanmaydigan hollarni qarang.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, har bir inson u qanday holatda bo‘lishidan qat’i nazar bilim olish huquqiga ega, bu konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan. Men o‘ylaymanki, mahoratli pedagoglarimiz ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun yangi innovatsion metodlarni ishlab chiqishadi. Bu maqolada aqliy hujum metodidan foydalanish ko‘rsatildi.

Adabiyotlar:

1. Susan Carney, Karen Scammell and others. Teaching Students with Visual Impairments. Saskatchewan Learning – 2003. 130 p.

2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Фан, 2006.

3. Zunnunov A, Maxkamboyev U. Didaktika: Oily o‘quv yurtlari talabarlari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.: “Sharq” 2006

4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil. 312 b

5. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (OO‘Y uchun) Toshkent. “O‘qituvchi” 2004 yil. 328 b

6. Jumayev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2006 yil. 256 b.

7. Jumayev M.E, Matematika o‘qitish metodikasi (KHK uchun) - Toshkent. - “Ilm Ziyoi”. - 2011 yil.

TURLI YOSH BOSQICHLARIDA XULQ-ATVOR DEPRIVATSIYASINING NAMOYON BO‘LISHI

*Xasanboev Azizbek Botirali o‘g‘li,
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada psixik deprivatsiya uzoq muddat davomida subyekt uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan psixik ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini cheklab qo‘yuvchi psixik holat ekanligi masalasiga urg‘u berilgan. Bundan tashqari psixik deprivatsiyaning turli yosh davrlarida namoyon bo‘lishi mexanizmlari yoritilgan bo‘lib turli yosh davrlarida deprivatsiyani yuzaga kelishiga ta‘sir etuvchi omillar va ularning shaxs xulq-atvorda turlicha ifodalanishi masalalari olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida yoritib berilgan. Jumladan oilada voyaga yetayotgan farzandlar bilan mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar shaxsining shakllanishiga, psixik rivojlanishiga qanday omillar ta‘sir etishi mumkinligi muammosini, o‘zaro solishtirib qiyoslab berishga harakat qilingan.

Калит сўзлар: депривация, эҳтиёжлар, изоляция, эмоционал алоқалар, турли ёш давлари, илк болалик даври, боғча ёши даври, кичик мактаб ёши, ўсмирлик ёши, ўспиринлик даври.

ПРОЯВЛЕНИЕ ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ДЕПРИВАЦИИ НА РАЗНЫХ ВОЗРАСТНЫХ ЭТАПАХ

В данной статье подчёркивается тот факт, что психическая депривация - это психическое состояние, ограничивающее возможность удовлетворения важных для субъекта психологических потребностей в течение длительного времени. Кроме того, на основе научных исследований учёных разъяснены механизмы проявления психической депривации в разные возрастные периоды, раскрыты факторы, влияющие на возникновение депривации в разные возрастные периоды, а также вопросы различного их выражения в личностном поведении. В частности, была предпринята попытка сравнить и противопоставить проблему того, какие факторы могут влиять на формирование личности и психическое развитие детей, растущих в семьях, и детей, воспитывающихся в детских домах.

Ключевые слова: депривация, потребности, изоляция, эмоциональные связи, разные возрастные периоды, раннее детство, детский сад, младшая школа, подростковый возраст.

MANIFESTATION OF BEHAVIORAL DEPRIVATION AT DIFFERENT AGE STAGES

This article emphasizes the fact that mental deprivation is a mental state that limits the possibility of satisfying psychological needs important for the subject for a long time. Besides, on the basis of scientific researches of scientists the mechanisms of manifestation of mental deprivation in different age periods are explained, the factors influencing the occurrence of deprivation in different age periods, as well as the issues of their different expression in personal behavior are revealed. In particular, an attempt was made to compare and contrast the problem of what factors can influence the personality formation and mental development of children growing up in families and children brought up in orphanages.

Keywords: deprivation, needs, isolation, emotional ties, different age periods, early childhood, kindergarten, junior school, adolescence.

Kirish. Deprivatsiya nisbatan qiyin, og‘riqli va ba‘zan shaxsni vayron qiluvchi holat bo‘lib, frustratsiyaga nisbatan mustahakamligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Ba‘zi holatlarda turli-tuman ehtiyojlar deprivatsiyalashgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun deprivatsiya tushunchasidan insonning ehtiyojlarini qondirish manbaidan uzoq muddat ayrilishi natijasida paydo bo‘ladigan psixik holatlari turkumini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Deprivatsiya turlari qanchalik rang-barang bo‘lsa ham, psixologik jihatdan ularning namoyon bo‘lishi o‘xshashdir. [1]

Deprivatsiyalashgan shaxsning psixik holatida havotirlanish, qo‘rquv, o‘zidan, atrofidagilardan, o‘z hayotidan chuqur qoniqmaslik kuzatiladi. Bu holat hayotiy faollikning yo‘qolishida, depressiyaning ortishida, ba‘zan tajovuzkorlikning kuchayishida o‘z aksini topadi. [1]

Asosiy qism. Inson shaxsining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni o‘rganish, oilaviy xususiyatlarni chuqur tahlil qilish va ularni taqqoslash bugun yanada dolzarb muammoga

aylanmoqda. Hozirda bolalar tarbiyasi bilan ko‘plab muassasalar shug‘ullanishadi. Ko‘plab mamlakatlarda sayr qilish guruhlaridan tortib bolalar uylarigacha tipdagi muassasalar takshil etilgan. Ba’zi muassasalarda bolalar faqat kunduzlari bo‘lishsa, boshqalarida 5-6 kun bo‘lib, hafta oxirida ota-onalari bag‘riga qaytadilar. Uchinchi tipdagi muassasalarda esa bolalar doim bo‘lishadi, ularning yaqinlari kam hollarda xabar olishadi. Bunday tashkilotlar yopiq tipdagi muassasa deb yuritiladi.

Mazkur tipdagi bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bolalar shaxsining shakllanishiga, psixik rivojlanishiga qanday omillar ta’sir etishi mumkinligi muammosi vujudga keldi. Ko‘pgina mualliflarning fikricha, bunday muhit bolalar ruhiyatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oiladan, ota-ona g‘amho‘rligidan benasib bolalar taqdiri, ayniqsa ularning aqliy taraqqiyoti masalasi xavotirga sabab bo‘lishi mumkin.

R.Spits tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, agar bolalar bu erda hayotining birinchi yilidanoq bo‘lishsa, ularda adaptatsiya (moslashish) ertaroq ro‘y beradi. Bolalarga xizmat ko‘rsatayotgan kattalarning o‘zaro munosabatlariga xos xususiyatlarni yaxshi biladilar, rasmiy va norasmiy ierarxiyalarga qat’iy rioya qiladilar. Ayni paytda internatda yashovchi bola shaxslararo munosabatlar ierarxiyasini etarlicha aniq his qiladi va o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi.[2]

Ota-ona mehridan judo bo‘lgan bolalar tarbiyasida normal oilada tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ko‘plab muammolarga duch kelinadi. Ular uchun psixologik jihatdan boshqalardan yotsirash, huquqbuzarlikka oid harakatlarni sodir etishga moyillik xosdir. Bola tomonidan zerikarli deb baholanadigan muhit unda boshqalar bilan aloqaga kirishish ehtiyojini vujudga keltiradi, hamda hissiy zo‘riqish, xavotirlanish va tajovuzkorlik kabi hislarni paydo bo‘lishiga olib keladi. Deprivatsiya sharoitida bolalarda tajovuzkor, passiv xulq-atvor va emotsional munosabat tipi shakllanadi. Agar real hayotda o‘zini tenglashtira oladigan ideal obraz mavjud bo‘lsa, u holda bolada ijtimoiy talablarga mos (adekvat) xulq-atvor tipi shakllanib boradi.

Ba’zan yaxshi oilada tarbiyalanayotgan bolalar ham qandaydir fojeaviy vaziyat ta’sirida maxsus internatlarga tushib qolishi mumkin. Bu holda bola uchun ikkiyoqlama baxtsizlik ro‘y beradi. Birinchisi ota-onadan ajralib qolishi bo‘lsa, ikkinchisi yashash uchun kutilmagan sharoitga tushib qolishidir.

Mazkur muassasadagi kattalar yoki bolalar bilan munosabatlar uni dahshatga soladi. Hayotiy tajribaning etarli emasligi tufayli bolada butun hayot shunday davom etadi degan his paydo bo‘ladi. Yangi kelgan bola bilan avvaldan tarbiyalanayotgan bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham ancha muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Har bir yangi kelgan bola muloqot jarayoniga o‘zi bilan birga qandaydir yangi madaniyatning bir bo‘lagini olib kiradi. Yetakchilik tabiatiga ega, ma’nan kuchli yangi kelgan bola o‘z ortidan tengdoshlarini ergashtirishi mumkin.

Hayot sharoiti har qancha yaxshi tashkil etilgan bo‘lmasin oilaga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda muhimdir. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, ota-onasi g‘amxo‘rligidan benasib bo‘lgan bolalar oilalarda tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan psixik taraqqiyot jihatidan ortda qolishlari mumkin. Bolalikning barcha bosqichlarida ularning rivojlanishi va salomatligida negativ xususiyatlarni kuzatish mumkin. **Har bir yosh bosqichida bu xususiyatlar turlicha va o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.** Voyaga etayotgan kishi shaxsi shakllanishi uchun jiddiy asoratlarni vujudga keltiradi.

Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola hayotining birinchi yilidanoq oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan ortda qola boshlaydi, ularda ma’yuslik, befarqlik, vaqtichog‘likning yo‘qolishi kuzatiladi. Shaxsning ichki tuzilmalari bir yoshgacha shakllanganligi tufayli mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi shaxsining shakllanishida ayrim muammolar paydo bo‘la boshlaydi. Ular kattalarga yaqinlashmay ishonchsizlik, passivlik bilan munosabatda bo‘ladilar.

Ikkinchi, uchinchi yoshlarda esa mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida yuqoridagi xususiyatlarga qo‘shimcha yana qiziquvchanlikning pasayishi, nutqning rivojlanishida orqada qolish, predmetli xarakterlarni o‘zlashtira olmaslik, mustaqillikning yo‘qolishi kuzatiladi.

Uch-yetti yoshda barcha faoliyat turlarida (hatto o‘yinda ham) passivlik namoyon bo‘ladi, nutqning qashshoqligi, diqqatni to‘play olmaslik, tengdoshlari bilan munosabatlaridagi nizolar shu yoshdagi bolalar uchun xosdir.

Internat tipidagi bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan psixologik tadqiqotlar natijalari mazkur yosh davrida psixikaning ehtiyoj-motivatsion sohasi va aqliy rivojlanishida og‘ishlar mavjudligidan dalolat beradi. Bu o‘z navbatida bolalarda obrazli tafakkurning rivojlanishdan orqada qolishiga, faoliyatning ichki rejasini tuzish va o‘quv materialini o‘zlashtirishda qiyinchiliklarning ortib borishiga olib keladi. Nutqning yaxshi rivojlanmaganligi yozish, o‘qish, hisoblash, fazoviy tasavvurlar shakllanishiga salbiy ta’sir etadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ning o‘smirlik davridagi taraqqiyoti atrofda kishilar bilan o‘zaro munosabatlarida ham o‘z aksini topadi. Bular o‘smir shaxsining barqaror va muhim xususiyatlariga bog‘liqdir. **10-11 yoshli o‘smirlarda** kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muhimligiga, foydaliligiga ko‘ra munosabatlar tipi shakllanadi.

Kechinmalarning yuzakligi, axloqiy boqimandalik, “Boshqalarga bog‘lanib qolishdan saqlanish” ham kuzatiladi. O‘quv materiallarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, intizomni qo‘pol ravishda buzish o‘smir uchun xosdir. Ba‘zan mehribonlik uyidan qochishga urinish, daydilik, o‘g‘rilik va boshqa deviant (og‘ishgan) xulq-atvor shakllarini ham rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining barchasi uchun kattalar bilan muloqotning cheklanganligi xosdir. Bir tomondan kattalar tomonidan mehr-muhabbat ko‘rish, insoniy iliqlik, erkalash, ijobiy aloqalar va e‘tiborning ortishiga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Boshqa tomondan esa bu ehtiyojlarni to‘la qondirilmaslik hissi paydo bo‘ladi. Kattalarning bolalarga kam murojaat qilishi (normal oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlariga nisbatan 4-10 marta kam), hissiy qashshoqlik, bir xil mazmunlilik, barcha hatti-xarakatlarga aralashish, xulq-atvorni cheklash, tarbiyachilarni bir guruhdan boshqa guruhga tez-tez o‘tib turishi yoki boshqa muassasaga o‘tib ketishi kabi holatlar ham bola ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Bolalarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun ularda boshqalar uchun kerakligini va qadrililigini anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash, o‘zini mukammal shaxs deb his qilish uchun imkoniyatni vujudga keltirish juda muhimdir. Bolalar bilan to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, ta‘lim - tarbiya jarayonida yosh va individual hususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishi, qobiliyati va intilishlariga mos holda faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish deprivatsiya muhitining salbiy ta‘sirini kamaytirishga olib kelishi mumkin. Oila muhitiga yaqinlashtirilgan eng qulay shart-sharoitlar bola shaxsining shakllanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Komunikativ faoliyatning maxsus vazifasi faqatgina muloqotning ichki kechinma ekanligida emas, balki ichki kechinmalar orqali boshqa kishi qadr-qimmatiga aylanishidir.

Bolalar hissiyoti muloqot vositasi sifatida tobora ijtimoiy namunalarga o‘tib boradi, ularning muloqot sohasiga kirishishi esa komunikativ faoliyat rivojlanishidan dalolat beradi. Bolalar uylarida tarbiyalanayotgan go‘daklarda muloqotning yetarli emasligi sababli emotsional sohada ko‘plab nuqsonlar kuzatiladi. Ularning his-tuyg‘ulari oilada yashovchi bolalarnikiga nisbatan kam miqdorda va kam ifodalanish tabiatiga ega. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida kattalarning hissiy holatlarini farqlay olmaslik, ijobiy va salbiy emotsiyalarni ajrata olmaslik namoyon bo‘ladi.

Ta‘sirchanlikning kuchsizligi sababli go‘dakning bilish jarayonlari rivojlanishi tormozlanadi, predmetli-manipulyativ harakatlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik seziladi, natijada umumiy psixik taraqqiyotdan orqada qolish kuzatiladi.

Hayotining birinchi yarim yilida hamma bolalar ham ijobiy, ham salbiy emotsiyalarni ajrata olmaydilar. Biroq befarqlikka salbiy munosabat bildirishadi.

Hayotining ikkinchi yarim yilida oilada tarbiyalanayotgan bolalar kattalarning salbiy ta‘siriga negativ emotsiyalar bilan javob berishsa, bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar ijobiy emotsiyalar bilan javob berishda davom etadilar. [3]

Ota-onasiz qolgan bolalarda kattalar ta‘siriga nisbatan emotsional munosabatlar rang-barang bo‘lmaydi. Kulgu, quvonchli qiyiqirqlar, aniq tabassum, jonli harakatlar kuzatilmaydi.

Bola hayotining birinchi yilida kattalarning salbiy emotsiyalari oldingiday idrok qilinmaydi. Ularning ichidan o‘ziga qaratilgan e‘tiborni ajratib oladi, bu unga kattalar bilan munosabat o‘rnatishga turtki bo‘ladi, shu yosh uchun xos bo‘lgan ijobiy ifodali harakatlar bilan aks ettiradi.

Hayotining ikkinchi yilida bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji murakkablashadi, kattalar bilan hamkorlikka muhtoj bo‘ladi, kattalarning ijobiy va salbiy emotsiyalarini farqlaydi.

Ota-onasiz bolalar esa kattalar bilan aloqa va hamkorlikka ehtiyoj sezmaydilar. Munosabatlarga ta‘sirchanlik, ayniqsa kattalarning bahosiga munosabat ilk yoshdagi bola muloqotining muhim tarkibiy qismidir. Bola qanchalik kattalar bahosiga qiziqsa va to‘g‘ri baholasa, shunchalik kattalardan maqtoov eshitish uchun o‘zining xatti-harakatlarini to‘g‘rilab boradi.

Psixik taraqqiyotning navbatdagi bosqichi inqiroz (krizis) bilan bog‘liq. Uch yoshdagi inqiroz bolaning hissiy sohasiga ta‘sir etadi va quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi. [4]

-tanqidga nisbatan kuchli affektiv reaksiya, hatto eng kichik tanqidga ham kuchli affekt bilan javob berish;

-faoliyatdagi yutuqni his qilish, maqtanchoqlik, o‘ziga yuqori baho berish;

-hissiyotlarni namoyishkorona ifodalash.

-“Men”, “O‘zim” dagan yangi xususiyatlarning paydo bo‘ladishi.

To‘liq oilad ulg‘ayayotgan farzandlarga nisbatan mehribonlik uyidagi bolalar muloqoti emotsionalligi va hajmiga ko‘ra cheklangandir, amaliy faoliyat darajasiga ko‘ra intizomiy sohaga ko‘proq yo‘naltirilgan, baholashning salbiy qutbiga tegishlidir.

Muloqotni bunday tipda tashkil etish natijasida o‘tish davriga xos bo‘lgan shaxsning yangi psixologik xususiyatlari shakllanishi kuzatilmaydi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida butun

maktabgacha yoshning ohiriga qadar e'tibor va mehr-muxabbatga bo'lgan ehtiyoj asosiy o'rinda turaveradi. Birgalikdagi o'yin faoliyatida vaziyatli-ish o'yinlarini modellashtirish jarayonida ular o'zlarini ancha erkin, qulay va emotsional jihatdan xotirjam his qiladilar. Muloqot vositalari motiv va ehtiyojlarga mos kelmaydi, his-tuyg'ularni mimika (yuz ifodasi) orqali aks ettirilishi ham bir xil tipda va qashshoqdir.

Oilda tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan mehribonlik uyida tarbiyalanayotganlar tengdoshlariga kam ehtiyoj sezadilar, eng kuchli emotsional qo'zgalish sharoitida kattalarga intiladilar. Qiziquvchanlik, hayratlanishlar, quvonch va qayg'uni yolg'izlikda boshdan kechiradilar, boshqalarni g'am-tashvishlarini his qilmaydilar.

Kuchli emotsiyalarni vujudga keltiradigan predmetlar vaziyatlidir. “Sen nimani yoqtirasan” degan savolga xonada mavjud predmetlarni nomini sanash orqali javob beradilar. Ba'zilar esa “Bilmayman”, “Hech narsani” degan javob bilan cheklanishadi. Ular hayot tarzidan hech qachon shikoyat qilishmaydi, hech narsadan norozi bo'lishmaydi.

Mazkur holatlar **kichik maktab yoshida ham davom** etadi. Deprivatsiya sharoitida yashayotgan maktabgacha yoshdagi bolalarga xos emotsional xususiyatlar kichik maktab yoshida ham davom etadi. O'quv faoliyati bilan bog'liq tarzda maxsus xususiyatlarga ega bo'ladi. O'qish bilan bog'liq narsalaremotsional reaksiyani vujudga keltirishi mumkin. Biroq bu yoshdagi bolalar ham his-tuyg'ularini anglay yoki bir-biridan farqlay olmaydilar. [4]

Ota-onasiz qolgan bolalarda himoyaviy emotsional reaksiyalardan nafrat, qo'zgalish, ayblash, tahdid, dushmanlik kabi munosabatlar shakllanadi. Bu shaxsning kuchsizligi, vaziyatga bog'lanib qolish oqibatidir. Salbiy vaziyatlarda esa atrofdagi kishilar va hayot sharoitlari ayblanadi. Kattalarning ijobiy munosaabtiga bo'lgan ehtiyoj va kattalarning muloqot uslubi, frustratsiya favqulodda murakkab va qarama-qarshi vaziyatni vujudga keltiradi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida ichki mexanizmlarning yaxshi taraqqiy etmaganligini turli tipdagi himoya mexanizmlari tomonidan o'rni to'ldiriladi, ya'ni kompensatsiya qilinadi.

Stenik hislar o'rniga astenik hislar ustunlik qiladi. Maktabgacha yoshda emotsional himoya reaksiyalari, salbiy emotsiyalardan paydo bo'lishi kuzatiladi. Kattalar bilan munosabatlar yanada tarmoqlanib, murakkablashib boradi. Bu turli darajada chuqurlashib borayotgan hissiy o'zgarishlarga bog'liqdir.

O'smirlik davri ko'pgina bolalar uchun mehribonlik uyida bo'lishdan so'nggi davrdir. Mazkur davr barcha bolalar uchun inqirozli, qiyin davr hisoblanadi, ayniqsa mehribonlik uyida tarbiyalanayotganlar uchun yanada havfli bosqich sanaladi.

Cehiyalik tadqiqotchilar Y.Langmeyer va Z.Mateycheklarning fikricha, ota-ona mehriiga bo'lgan ehtiyoj, deprivatsiyaning asorati mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch hissining yo'qolishi bilan izohlanadi.

“Men siymosi” o'zini o'zi anglashning tarkibiy tuzilmasi sifatida kognitiv (bilish) affektiv (hissiy) xulq-atvor faoliyatining birgalikdagi mahsulidir.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'zlari haqida do'st sifatida juda kam yozadilar, vaholanki ularda deprivatsiya sharoitida yashaganlari tufayli do'stona aloqalarga bo'lgan ehtiyoj juda kuchli bo'lishi kerak edi. Bu mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o'smir va o'spirinlarda muloqotning intim-shaxsiyatli tomoniga nisbatan e'tiborning kuchsizligidan dalolat beradi. Do'stning mavjudligi o'smir uchun o'zini-o'zi baholash mezoni hisoblanadi. O'z navbatida shaxsning xususiyat va sifatlariga, do'stlar va boshqalar uchun muhim bo'lgan xususiyatlariga e'tiborning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Mehribonlik uyida bolalar tengdoshlarining tor guruhi bilan muloqotda bo'lishga majburlar, shuning uchun tanlash imkoniyati ikkinchi o'ringa o'tib qoladi. O'z ixtiyori bilan mazkur barqaror hamda muqarrar bo'lgan munosabatlarni o'zgartira olmaydilar.

Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarda hissiy aloqalarga bo'lgan ehtiyojlarning rivojlanishi ham buzilgan deb taxmin qilish mumkin. O'smirlardagi “Men-siymosi” da o'zini do'st deb tasavvur qilish, ichki dunyosini tushunish muhim o'rin egallamaydi. Bu bilan ular o'z tengdoshlaridan keskin farq qilishadi. Etim bolalardan hech biri o'zini yaxshi ko'radmi yoki yo'qmi aniq aytay olmaydi, chunki ularda o'zini o'zi anglash etarli darajada rivojlanmagan. [1]

Hissiy-irodaviy sifatlar taraqqiyotiga ham kam e'tibor beriladi. Kayfiyat va xulq-atvorni boshqarish to'g'risida ham kam tashvishlanadilar. Tadqiqotlar mazkur o'smirlarning o'zini tuta bilmasliklari o'ta qo'zgaluvchan ekanliklarini ko'rsatgan.

Muayyan sharoit ta'sirida o'smirlar emotsional-irodaviy sohaga xos rivojlanishdagi nuqsonlarni katta muammo sifatida qabul qilmaydilar. Yopiq tipdagi ta'lim muassasasidagi qat'iy belgilangan hayot sharoiti ular shaxsiy hayotini tashkil etishiga imkon bermaydi. Salbiy irodaviy, hissiy sifatlar muloqot jarayoniga xalaqit bergandagina anglab etiladi.

Adabiyotlar:

1. Лангмейер Й, Матейчек З, Психическая депривация в детском возрасте. Прага: Авицениум, Мед издательство, 1984.
2. Психическая депривация: Хрестоматия Сост Н.Н.Крыгина–Магниторск: Из-воМаГУ 2003.
3. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – СПб: СОЮЗ, 1997.
4. Воспитание детей раннего возраста. Под ред. Г.М. Ляминой. Изд. 2-е перераб. И доп. М., «Просвещение», 1976.
5. Голубева Л.Г. Гимнастика и массаж для самых маленьких: Кн. для родителей. – М.: Просвещение: Учеб. лит., 1996. – 78 с.
6. Дети социального риска и их воспитание / Под ред. Л.М. Шипицыной. – СПб., 2003.

OPPORTUNITIES FOR PREPARING STUDENTS FOR SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES ON THE BASIS OF AXIOLOGICAL APPROACHES

*Xudaykulova Zarifa Ummatkulovna,
Lecturer at Gulistan State University*

This article explores opportunities for preparing students for spiritual and educational activities using axiological approaches. An axiological framework, emphasizing values and ethics, can provide a foundation for spiritual and educational development. Through a literature review and analysis, key themes emerge around the importance of values education, fostering spiritual intelligence, and integrative spiritual pedagogy. Practical strategies are discussed for educators to cultivate students' spiritual growth in an educational context. The article highlights the relevance of an axiological paradigm in modern education and the novel prospect of a spiritually-oriented pedagogy to promote holistic student development. Integrating an axiological approach with spiritual education can better equip students with the moral compass and existential competencies needed to thrive in today's world.

Keywords: *axiology, values education, spiritual intelligence, holistic education, integrative pedagogy.*

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVYI-MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Ushbu maqola aksiologik yondashuvlardan foydalangan holda talabalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini o'rganadi. Qadriyatlar va axloqni ta'kidlaydigan aksiologik asos ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish uchun asos bo'lishi mumkin. Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali qadriyatlar ta'limining ahamiyati, ma'naviy aqlni tarbiyalash va integral ma'naviy pedagogikaning ahamiyati atrofida asosiy mavzular paydo bo'ladi. Ta'lim sharoitida o'quvchilarning ma'naviy o'sishini tarbiyalash uchun pedagoglar uchun amaliy strategiyalar muhokama qilinadi. Maqolada zamonaviy ta'limda aksiologik paradigmaning dolzarbligi va talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan ma'naviy yo'naltirilgan pedagogikaning yangi istiqbollari ta'kidlangan. Aksiologik yondashuvni ma'naviy ta'lim bilan birlashtirish o'quvchilarni bugungi dunyoda rivojlanish uchun zarur bo'lgan axloqiy kompas va ekzistensial kompetensiyalar bilan yaxshi qurollantirishi mumkin.

Kalit so'zlar: *aksiologiya, qadriyatlar ta'limi, ma'naviy intellekt, yaxlit ta'lim, integrativ pedagogika.*

ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

В этой статье исследуются возможности подготовки студентов к духовной и просветительской деятельности с использованием аксиологических подходов. Аксиологическая структура, подчёркивающая ценности и этику, может обеспечить основу для духовного и образовательного развития. Благодаря обзору и анализу литературы выявляются ключевые темы, связанные с важностью воспитания ценностей, развития духовного интеллекта и интегративной духовной педагогики. Обсуждаются практические стратегии для педагогов по содействию духовному росту студентов в образовательном контексте. В статье подчёркивается актуальность аксиологической парадигмы в современном образовании и новые перспективы духовно-ориентированной педагогики для содействия целостному развитию учащихся. Интеграция аксиологического подхода с духовным образованием может лучше вооружить учащихся моральными ориентирами и экзистенциальными компетенциями, необходимыми для процветания в современном мире.

Ключевые слова: *аксиология, ценностное воспитание, духовный интеллект, целостное образование, интегративная педагогика.*

Introduction. *Relevance of the topic.* In an increasingly complex and pluralistic world, there is a growing recognition of the need to prepare students not just academically, but also spiritually and ethically. Educational institutions play a crucial role in shaping the values, beliefs, and character of future generations. However, modern education often places a disproportionate emphasis on knowledge and skills acquisition, neglecting the spiritual and moral dimensions of human development [1]. This imbalance has led to calls for a more holistic approach to education that integrates academic learning with spiritual and ethical growth [2].

Axiological approaches, which focus on the study of values and value systems, offer a promising framework for addressing this need.

The relevance of exploring axiological approaches in education stems from several factors. First, there is a mounting body of evidence suggesting that spiritual and moral development are essential for overall wellbeing and success in life [3]. Students who possess strong values, a sense of purpose, and ethical reasoning skills tend to be more resilient, motivated, and socially responsible [4]. Second, in a globalized world marked by cultural and religious diversity, fostering interfaith understanding and respect is paramount. Axiological education can help students develop an appreciation for different value systems and cultivate a pluralistic worldview [5]. Third, as societies grapple with complex moral dilemmas posed by technological advancements and environmental challenges, equipping students with ethical discernment skills is crucial [6]. Axiological approaches can provide students with a framework for navigating moral complexities and making principled decisions.

While the importance of values education and spiritual development has been acknowledged in educational discourse, there remains a paucity of research on integrating axiological approaches with spiritual and educational activities. Much of the existing literature on values education focuses on inculcating specific moral virtues or character strengths [7]. However, there is a need for a more comprehensive and pluralistic approach that recognizes the diversity of value systems and spiritual traditions. Additionally, research on spiritual education often takes place within the context of religious institutions, with less attention given to its application in secular educational settings [8]. This article aims to address these gaps by exploring the potential of axiological approaches in preparing students for spiritual and educational activities across diverse contexts.

The novelty of this research lies in its interdisciplinary approach, bridging insights from axiology, spirituality, and pedagogy. By examining the intersection of these fields, the article offers a fresh perspective on the role of values and spirituality in education. Moreover, the article moves beyond theoretical discussions to propose concrete strategies for educators to integrate axiological approaches into their teaching practice. The goal is to provide a practical framework that can be adapted to various educational settings, from primary schools to higher education institutions. In doing so, the article contributes to the growing body of knowledge on holistic education and offers novel insights for educators seeking to foster students' spiritual and moral development.

Methods and literature review. To explore the opportunities for preparing students for spiritual and educational activities using axiological approaches, a comprehensive literature review was conducted. The review encompassed academic articles, books, and conference proceedings from the fields of education, philosophy, psychology, and religious studies. Databases such as ERIC, PsycINFO, and JSTOR were searched using keywords such as "axiology", "values education", "spiritual education", "holistic education", and "integrative pedagogy". The search was limited to English language publications from the past two decades to ensure the currency and relevance of the sources.

The literature review employed a thematic analysis approach to identify key themes and patterns across the sources [9]. The sources were initially screened for relevance based on their abstracts and keywords. Those that met the inclusion criteria were then read in full and coded using a qualitative data analysis software. The codes were iteratively refined and grouped into broader categories and themes. The emergent themes were then analyzed in relation to the research questions and synthesized to generate insights and recommendations.

In addition to the literature review, the article also draws on the author's own experiences as an educator and researcher in the field of values education. These experiences provide a grounded perspective on the practical challenges and opportunities of implementing axiological approaches in educational settings.

Axiology is the branch of philosophy concerned with the study of values and value systems. It encompasses questions about what is intrinsically valuable, how values are formed and justified, and how they guide human behavior [10]. Axiological approaches to education emphasize the importance of helping students develop a clear understanding of their own values and how they relate to the values of others [11]. This involves not only teaching about specific moral virtues or principles but also fostering students' capacity for moral reasoning, empathy, and ethical decision-making.

One of the key insights from the axiological literature is the recognition that values are not fixed or universal but are shaped by cultural, historical, and personal contexts [12]. This means that an effective values education must be sensitive to the diversity of value systems and avoid imposing a singular moral framework. Instead, it should aim to help students navigate the complexities of moral pluralism and develop a reflective and critical stance toward their own and others' values [13].

Another important axiological concept is the distinction between intrinsic and instrumental values. Intrinsic values are those that are valuable in and of themselves, such as love, beauty, and truth. Instrumental values, on the other hand, are valuable as means to an end, such as wealth or status [14]. Axiological approaches to education prioritize the cultivation of intrinsic values, recognizing that they are essential for human flourishing and wellbeing [15].

Spiritual intelligence is a construct that has gained increasing attention in recent years, particularly in the context of education. It refers to the ability to access and utilize spiritual resources to solve problems and find meaning in life. Spiritual intelligence encompasses a range of capacities, including self-awareness, transcendence, empathy, and existential reasoning. Research suggests that spiritual intelligence is positively associated with mental health, resilience, and academic performance.

Integrating spiritual intelligence into education involves creating opportunities for students to explore their own spirituality and connect it to their learning and development. This can take many forms, such as contemplative practices, reflective writing, and interfaith dialogue. The goal is not to promote any particular religious or spiritual tradition but rather to help students develop a deeper understanding of their own spiritual beliefs and how they inform their values and actions.

One of the challenges of incorporating spiritual intelligence into education is the potential for conflict with secular norms and values. In many educational contexts, there is a strict separation between religion and education, and discussions of spirituality may be seen as inappropriate or even unconstitutional. However, proponents of spiritual education argue that spirituality is a fundamental aspect of human experience and that ignoring it in education is a disservice to students. They call for a more inclusive and pluralistic approach to spirituality that respects diverse beliefs and traditions.

Integrative spiritual pedagogy is an approach to education that seeks to holistically address the cognitive, affective, and spiritual dimensions of learning. It recognizes that students' spiritual beliefs and practices are not separate from their academic and personal development but are integral to it. Integrative spiritual pedagogy aims to create a learning environment that is conducive to spiritual growth and exploration while also promoting academic excellence and critical thinking.

One of the key principles of integrative spiritual pedagogy is the importance of creating a safe and inclusive learning community. This involves establishing norms of respect, openness, and non-judgment, and fostering a sense of belonging and connection among students. It also involves acknowledging and valuing the diverse spiritual and cultural backgrounds of students and creating opportunities for them to share their perspectives and experiences.

Another important aspect of integrative spiritual pedagogy is the use of contemplative practices, such as meditation, mindfulness, and reflective writing. These practices can help students cultivate inner awareness, emotional regulation, and empathy, as well as deepen their understanding of their own beliefs and values. Research suggests that contemplative practices can have a positive impact on students' mental health, academic performance, and social-emotional learning.

Integrative spiritual pedagogy also emphasizes the importance of service learning and social justice education. By engaging students in community service and advocacy work, educators can help them develop a sense of purpose and social responsibility, as well as apply their spiritual values in practical ways. Service learning can also foster cross-cultural understanding and interfaith cooperation, as students work alongside people from diverse backgrounds toward common goals.

Results. The literature review and analysis revealed several key themes and insights related to the opportunities for preparing students for spiritual and educational activities using axiological approaches. These themes are discussed below.

One of the most prominent themes in the literature was the importance of values education in fostering students' spiritual and moral development. Values education refers to the explicit teaching of moral principles, virtues, and ethical reasoning skills. It aims to help students develop a clear understanding of their own values, as well as the values of others, and how to apply them in real-life situations.

However, the literature also highlighted the challenges of implementing values education in a pluralistic society. Different cultures and communities may have different value systems, and there is a risk of imposing a dominant moral framework on students from diverse backgrounds. To address this challenge, researchers recommend a dialogical and inclusive approach to values education that encourages students to critically reflect on their own and others' values.

Another key theme in the literature was the importance of fostering spiritual intelligence in students. Spiritual intelligence refers to the ability to access and utilize spiritual resources to solve problems and find meaning in life. It encompasses a range of capacities, including self-awareness, transcendence, empathy, and existential reasoning.

Бўлажак ўқитувчиларда компетенцияни ривожлантириш мавзуси назарий ва амалий жиҳатдан етарлича ўрганилмаган. Олий таълим тизимидаги педагогик жараён муносабатларида, хусусан, самарали позитсияни намоён этишида бўлажак ўқитувчиларда компетенцияни шакллантириш долзарб аҳамиятга эга. педагог ва талабаларнинг касбий этикасига, бурч ва мажбуриятларига мувофиқ.

Калит сўзлар: *талабалар ва ёшларни ахлоқий тарбиялаш, маънавий компетенцияни ривожлантириш, давлат ва жамиятдаги иқтисодий, илмий, ижтимоий ўзгаришлар динамикаси, инсон салоҳияти, ақлий ва жисмоний саломатлиги.*

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ – КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Развитие компетентности у будущих педагогов недостаточно изучено в теоретическом и практическом плане. Формирование компетентности у будущих педагогов имеет актуальное значение во взаимоотношениях педагогического процесса в системе высшего образования, в частности, в проявлении эффективной позиции в соответствии с профессиональной этикой и обязанностями педагога и учащихся.

Ключевые слова: *нравственное воспитание учащихся и молодёжи, развитие духовной компетентности, динамика экономических, научных, социальных изменений в государстве и обществе, человеческий потенциал, психическое и физическое здоровье.*

Introduction. The state policy in the field of education in our country is recognized as one of the priority directions for social development. In recent years, great attention has been paid to the improvement of the legal basis of the educational system, including the organization of educational processes in higher education institutions. For example, Article 4 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" recognizes the priority of education as the main principles of the state policy in the field of education, does not allow discrimination in the field of education, provides equal opportunities for education, humane, democratic nature of education and upbringing, social protection of pedagogues in society. guaranteed, openness and transparency in the field of educational activities, etc., determine the importance of relations based on general social norms and rules, manifested in the content of ethics, duty, social laws and requirements, in the educational process. Also, in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 14, 2018 No. PQ-3907 "On the measures to raise the moral, moral and physical maturity of young people, to raise the quality of their education system to a new level" , raising the quality of education to a new level in terms of content, increasing the prestige of the teaching profession, raising young people to be spiritually, morally and physically perfect, raising the system of providing them to a new level in terms of quality, with a high morale, firm life position, selfless with a broad outlook and educating patriotic youth; priority tasks such as increasing the value and prestige of pedagogic staff, strengthening their material, moral and social protection⁴, justify the relevance of our research work on the topic "Technology for developing deontological competence in future foreign language teachers".

In the world education system, many researches and projects on the development of education are being carried out, especially the development of all components of pedagogical professional training is of great importance. In our country, in order to improve the mechanisms for the development of pedagogical professional competences, a modern material and technical base has been created in educational institutions, and innovative educational programs have been developed.

In 2017-2021, the action strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan defines the task of "raising a highly educated and intellectually developed generation based on the achievements in the educational system of developed countries, creating a pool of competent scientific and pedagogical personnel in higher education institutions."

At the same time, in many reforms implemented in our country, in the process of developing civil society based on democratic principles, the need to further improve the professional competences of pedagogues was emphasized in the higher education system. In the conditions of market relations, resistance to strong competition, which takes priority in the labor market, shows the need for each specialist to have professional competence, to increase it consistently. In the implementation of these tasks, it is necessary to create effective innovative models based on the principles of multi-level coherence, continuity and consistency in the context of education, to develop the professional competencies of pedagogues.

In connection with the development of globalization and international integration, the expansion of socio-economic relations, there is a need for mechanisms that allow rapid exchange of information on professional competences, and these issues determine the relevance of this topic.

In higher educational institutions in the field of pedagogy, it is important to increase the intellectual potential of future teachers, to enrich their worldview, to introduce them to innovative educational technologies, new, innovative forms, methods and tools of teaching, to familiarize them with the qualities of professional competence and creative ability of pedagogues.

Literature analysis and methodology. Among the scientists of our republic, L. Akhmedova, U. Begimkulov, N. Muslimov, B. Rahimov, N. Taylokov, Sh. Sharipov and others conducted scientific researches on socio-pedagogical, acmeological issues in the field of education, and in these studies, they directly improved the professional competencies of specialists in certain areas. issues are mentioned.

Also, pedagogic scientists H.Abdukarimov, N.Azizkho‘jaeva, A.Aliev, Yu.A.Akhrorov, A.A.Verbitsky, R.H.Zhoraev, B.R.Zhoraeva, J.G‘. It was also studied in the works of Yoldoshev, S.M. Markova, G.M. Makhmutova, A.A. Hamidov, F.R. Yuzlikaev.

In the scientific studies of scientists such as V.Baydenko, A.Zalevskaya, E.Zeer, I.Zimnyaya, O.Polyakov in the countries of the Commonwealth of Independent States, the issues of analysis and systematization of methods of formation and improvement of professional competences in various processes were considered.

However, the lack of development of the integrative content and methodical conditions for the development of professional and pedagogical competence of officers-teachers of higher military educational institutions based on innovative approaches requires conducting scientific research in this direction.

Results. Modernizing the educational process in higher education institutions, developing the professional competence of future teachers in improving the quality level of the system of training pedagogues, equipping them with modern professional knowledge, qualifications and skills related to the field, creative use of scientific and technical innovations, and the ability to solve prospective tasks independently. development of skills is one of the important tasks. Modernization of the higher education system (visually modern - updated, modern, rapid growth) requires an innovative approach to the educational process.

V.A. Slastenin explains the innovative approach to the pedagogical process by introducing innovations into the purpose, content and form of organizing, teaching and educating cooperative activities of teachers and students.

The concept of "competence" entered the field of education as a result of psychological scientific research. In the State Educational Standard of General Secondary Education approved by the decision of the Cabinet of Ministers on April 6, 2017 No. 187, the concept of competence is defined as the ability to apply existing knowledge, skills and abilities in daily activities.

Discussion. Professional competence does not mean the acquisition of separate knowledge and skills by a specialist, but the acquisition of integrative knowledge and actions in each independent direction.

Also, competence requires constant enrichment of professional knowledge, learning new information, understanding important social requirements, finding new information, processing it and being able to use it in one's work. Professional competence is evident in complex processes, performing ambiguous tasks, using

conflicting information, being able to have a plan of action in an unexpected situation, and other similar situations.

Professional-pedagogical competence refers to specialists who have perfectly developed their professional skills, can effectively design and manage the teaching process, and can successfully apply educational reforms, modern requirements, and innovative paradigms in the teaching process.

Therefore, the future teacher will achieve professional competence by consistently enriching his professional-pedagogical knowledge, assimilating new information, searching for new knowledge with a deep understanding of the requirements of the time, processing them and effectively applying them in his practical work. It should be mentioned that there are a number of qualities based on pedagogical professional competence, the essence of which can be explained as follows.

Social competence - ability to show activity in social relations, possession of skills, ability to engage in communicative dialogue with subjects in professional-pedagogical activities.

2. Special competence is preparation for organizing professional-pedagogical activities, rational solution of professional-pedagogical tasks, realistic evaluation of activity results, consistent development of BKM, based on this competence, spiritual (psychological), methodological, informational (informational), creative (non-standard), innovative and communicative competence is noticeable. They represent the following content:

- psychological competence - the ability to create a healthy psychological environment in the pedagogical process, to organize positive communication with students and other participants of the educational process, to be able to understand and eliminate various negative psychological conflicts in time;

- methodological competence - methodically rational organization of the pedagogical process, the ability to correctly define the forms of educational or educational activities, to choose methods and tools in accordance with the purpose, to use them effectively;

- informational competence - searching for, collecting, sorting, processing necessary, important, necessary, useful information in the information environment and using them quickly, purposefully and effectively;

- creative competence - a critical and creative approach to pedagogical activity, the ability to demonstrate one's creativity skills, the ability to find comprehensive and diverse solutions to problems;

- innovative competence - putting forward new ideas on improving the pedagogical process, improving the quality of education, increasing the effectiveness of the educational process, and successfully implementing them into practice;

- communicative competence - to communicate sincerely with all participants of the educational process, to be able to listen to them, to have a positive influence on them.

- personal competence - consistently achieving professional growth, increasing the level of competence, demonstrating one's internal capabilities in professional activity;

- technological competence - mastering advanced technologies that enrich professional-pedagogical BKM, being able to use modern tools, techniques and technologies;

Conclusion. In conclusion, it should be said that in the individual development programs aimed at improving the professional-pedagogical competence of the future teacher, it is recommended that the current level of pedagogical knowledge, skills and personal qualities and prospective tasks aimed at the development of this competence are mentioned. This, in turn, is a product of effective activity in constantly monitoring the dynamics of professional development of future teachers at various levels, as a result of which the parts of competence that should be paid attention to the professional competence of a pedagogue are clearly visible, and this gives an impetus to its development. In educational processes conducted by a teacher with high professional-pedagogical competence, the process of covering each subject and topic will help the students to become high-potential and competitive personnel in the future. First of all, this serves as the main factor for the development of the society, since the training of highly qualified pedagogic personnel ensures the development of young people with intellectual potential in the future.

References:

1. Law No. 637 of the Republic of Uzbekistan "On Education". - T., 2020.
2. On the strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947. February 7, 2017.
3. Comensky Ya.A. Selected pedagogical essays. - T. 1. - M. : Pedagogy, 1982. - 656p.
4. Medvedeva G.P. Professional-ethical basic social work: ucheb.posobie. - M. : Academy, 2007. - 272 p.

5. Kant I. Critique of practical reason // Soch.: v 6 t. - T. 4. - M. : Mysl, 1965. - S. 311-505.
6. Gotsis G., Cortezi Z. Philosophical Foundations of Workplace Spirituality: A Critical Approach // Journal of Business Ethics. - 2008. - P. 575-600
7. Gaus G. F. What is Deontology? Part One: Orthodox Views // Journal of Value Inquiry. - 2001, - No. 1. - P. 27-42.
8. Levitan K.M. Pedagogical deontology. - Ekaterinburg: Delovaya kniga, 1999. - 272 p.
9. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. - Р/на-Дону, 2003.
10. Ochilova N.R. How to influence your attitude towards a person. Academy.Scientific methodical magazine. № 11 (50), 2019 18-21 Russian impact factor: 0.19 ISSN 2412-8236 (Print) ISSN 2542-0755 (Online)
11. Ochilova N. R. The main features of Western Europe medieval, modern philosophy and philosophical views in the 9th-12th centuries in central asia. Journal of Critical Reviews . ISSN-2394-5125. Vol 7, Issue 14, 2020. 193-199. DOI:<http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.14.34>
12. Ochilova N. R.. East And West: Integration And Cooperation In The Process Of Globalization. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2020.2(11),543-546.
13. Ochilova N. R. The role of aesthetics in shaping the younger generation. Multidisciplinary Research SJIF Impact Factor :5.614 ISI I.F. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal March 2020. 123-125
14. Ochilova N. R. The importance of understanding national identity in Education of the young neighboring. «scientific progress» Journal ISSN: 2181-601 // Volume:1, ISSUE:6 APRIL 2021. 209-214. www.scientificprogress.uz
15. Ochilova N. R. Problems of science № 3 (62), 2021 Russian impact factor: 0.17 Scientific methodical magazine. ISSN 2413-2101 (Print) ISSN 2542-078X Online) Moscow 2021. 37-41
16. Ochilova N. R. The Role of Aesthetics in Shaping the Younger Generation . International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 2, February - 2021, Pages: 102-103. The Research Paper is Original and Innovative. It is Peer-Reviewed. Washington DC, USA <http://www.ijeais.org/ijamsr> ijamsreditor@gmail.com
17. Ochilova N. R.. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential «scientific progress» // Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz
18. Ochilova N. R. Journal Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. central // Asian journal of social sciences and history. 2022/11/17. T3, №11, p-116-118
19. Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - // Problems of Science, 2019, Publisher LLC "Olimp", No. 10 (46), 38-40
20. Ochilova N. R. Modern civilization: similarities and differences. // Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26
21. Ochilova N. R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. // International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, r-11-13

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИНГ ИНТЕРФАОЛ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Тухташева Рушана Садуллаевна,
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети
2-босқич докторанти*

Мазкур мақолада олий таълим муассасаларида масофавий таълимнинг самарадорлигини оширишда интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштиришнинг аҳамияти ҳақида фикр-мулоҳазалар билдирилган. Педагогларнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштиришда касбий маҳоратидан фойдаланиши, самарали мулоқот жараёнини ташиқил этишининг муҳимлиги алоҳида таъкидланган. Масофавий таълимда интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштириши юзасидан таклиф ва тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: масофавий таълим, интерфаол мулоқот, педагогик таҳлил, олий таълим муассасаси, талабалар, жараён, такомиллашув.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ИНТЕРАКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ

В данной статье комментируется важность совершенствования процесса интерактивного общения в повышении эффективности дистанционного образования в высших учебных заведениях. Подчеркнута важность использования педагогами своих профессиональных навыков в совершенствовании процесса интерактивного общения и организации эффективного процесса общения. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию процесса интерактивного общения в дистанционном образовании.

Ключевые слова: дистанционное образование, интерактивное общение, педагогический анализ, вуз, студенты, процесс, совершенствование.

IMPROVING THE PROCESS OF INTERACTIVE COMMUNICATION OF DISTANCE EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

This article comments on the importance of improving the process of interactive communication in increasing the effectiveness of distance education in higher education institutions. The importance of teachers using their professional skills in improving the process of interactive communication and organising an effective communication process is emphasised. Suggestions and recommendations for improving the process of interactive communication in distance education are given.

Keywords: distance education, interactive communication, pedagogical analysis, university, students, process, improvement.

Кириш. Сўнги йилларда Янги Ўзбекистонда таълим соҳасини ривожлантириш, Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш, бу жараёнда олий таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш бўйича янги тизим шаклланди. Бугунга келиб республикада олий таълим муассасаларининг сони 200 га яқинлашди. Ёшларни олий таълим билан камров даражаси сезиларли ошди. Ҳозирги кунда олий таълим муассасаларида 40 мингга яқин профессор-ўқитувчилар фаолият олиб бормокда[1:3]. Таълим соҳасида жаҳон таълим стандартларига фаол интеграциялашувини таъминлаш учун олий таълим муассасаларининг таълим сифатини ошириш ва инновацион ривожлантиришга қаратилган ишлар амалга оширилди. Бунинг натижасида олий таълим тизимида масофавий таълимга бўлган эҳтиёжнинг ҳам тобора ошиб борилаётгани яққол номоён бўлди. Бу бир жиҳатдан, олий таълимдаги талабларнинг ортиши ва касбий таълимни тез-тез ўзгартириш зарурати билан боғлиқдир.

Масофавий ўқитиш – бу масофадан туриб ўқитиш, қайсики ўқув машғулотларининг барчаси ёки кўп қисми телекоммуникацион ва замонавий ахборотлаштириш технологиялар асосида олиб борилиши билан таснифланади. Масофавий ўқитиш технологияси бўйича барча топшириқлар масофадан туриб бажарилади, топшириқлар эса олий ўқув юрти томонидан топширилади. Масофавий ўқитишда ўқув жараёни кетма-кет келадиган мулоқотда бўлиш ва мулоқотда бўлмаган даврлардан иборат. Ўқитиш шакллари барча турлари, ўқув жараёни мулоқотда бўлиш даврида ва мулоқотда бўлмаган даврида ўз хусусиятига кўра қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 3 октябрдаги “Олий таълим ташкилотларида масофавий таълим шаклини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 559-сон қарори билан масофавий таълимнинг мақсади, тамойиллари ва вазифалари, масофавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган талаблар, масофавий таълимни бошқариш бўйича дастурий таъминотга қўйиладиган талаблар, масофавий таълимга талабаларни қабул қилиш ва ўқув жараёнини ташкил қилиш, масофавий таълим сифати мониторинги тартиби белгиланиб олинди. Дунёнинг ривожланган мамлакатлари олий таълимнинг барча шакллари, жумладан, масофавий таълимни кенгайтириш, сифатини ошириш, ҳар бир инсон учун таълим олиш ҳуқуқини, тенгликни таъминлаш чораларини кўрмоқда. Халқаро тажрибалар ўрганилиб, таҳлил қилинганда, масофавий таълимнинг ягона ҳуқуқий тартиби ёки сиёсати йўқлиги кузатилди. “Масофавий таълим ўқув режалари ва ўқув дастурларига мувофиқ, таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда, масофадан туриб олишга қаратилган.

Масофавий таълимни ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади”[2:95].

Асосий қисм. Бугунги кунда ОТМда масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштириш долзарб педагогик жараён сифатида ҳам эътироф этилмоқда. Чунки талабалар ва педагоглар масофавий таълимда кўпинча интерфаол мулоқотда бўлавермайди. Яъни нафақат талаба балким педагог ҳам мазкур жараёнда техника воситаси орқали мулоқотда бўлади. Бу ўз-ўзидан интерфаол мулоқотга таъсир қилади. Лекин ўз ишининг устаси ёки моҳир педагог бундай вазиятлардан ҳеч ҳам чўчимайди. Масофадан бўлса ҳам жонли мулоқот каби дарс ўтадилар. Энди мазкур терминларнинг мазмун-моҳиятига бироз тўхталиб ўтамыз.

Педагогик мулоқот – билиш ёки баҳолаш характеридаги ахборот алмашув жараёнида икки ёки ундан ортиқ шахс (ўқитувчи, ўқувчи)нинг ўзаро таъсирга эга фаолияти[3:56]. Интерфаол (“Inter” – бу ўзаро, “act” – ҳаракат қилмоқ) – ўзаро ҳаракат қилиш (ёки ким биландир суҳбатда, мулоқотда бўлиш)ни англатади. Мазкур вазиятда янада кўшимча, ҳамкорлик педагогикаси (ҳамкорлик педагогик технологияси) – таълим берувчилар ва таълим олувчиларнинг ўзаро мулоқотига асосланган шаклда таълим беришга йўналтирилган тизимни таъкидлаб ўтиш жоиздир.

Педагогик мулоқот масофавий таълимда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмайди. Аксинча янада такомиллашиши зарур. Педагогик мулоқотда ўқитувчи (педагог)нинг талабалар билан мулоқоти таҳлил қилиниб, ҳар дарс бўйича хулоса чиқариб бориш керак. ОТМда масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштиришда мулоқотнинг асосий вазифалари бош унсур сифатида хизмат қилади. Мулоқотнинг вазифалари:

- шахсни таниш, ахборот алмашиш;
- келгуси педагогик мулоқотни моделлаштириш ва таҳлил этиш;
- мулоқотдан олинadиган тасаввурлар;
- мулоқот юзасидан фикрлаш ва фикр алмашиш;
- педагогик мулоқотни ташкил этишнинг техникаси ва технологияси;
- ишга ижодий ёндашиш ва бошқаларда ўз аксини топади.

Педагогик мулоқот деганда, одатда, ўқитувчининг ўқувчи билан дарс мобайнида ва дарсдан ташқари бўладиган аниқ педагогик функцияларга эга ва қулай психологик муҳитни яратиш, шунинг билан бирга, бошқа хилдаги психологик оптимал илмий фаолият ва педагог билан ўқувчилар ўртасидаги муносабатларга йўналтирилган профессионал мулоқот шакли тушунилади (А.А. Леонтьев). Масофавий ўқитиш усулидан фойдаланишнинг камчилиги – ўқитувчи ва талаба ўртасидаги бевосита мулоқот ва психологик бирликнинг чегараланганлигидир[4:143].

Мазкур чегараланиш ОТМда масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштиришдаги муаммолардан бири эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш керак. Бевосита мулоқот билан виртуал мулоқот педагог иш жараёнида бирдек аҳамият касб этсагина мазкур муаммони бартараф этиш осон кечади. Мулоқот педагогик фаолиятдаги энг муҳим касбий қурол педагогик маҳоратнинг асосий таркибий қисмларидан биридир. Педагогик мулоқот бу ўқитувчининг ўқувчилар билан дарсда ва дарсдан ташқари вақтда энг қулай мулоқот муҳитини яратишда қаратилган касбий муносабатдир. Нотўғри педагогик мулоқотдан ўқувчилар кўрқув, ишончсизлик пайдо бўлади, эътибор, диққат, ишчанлик пасаяди, нутқ динамикаси бузилади, мустақил фикрлаш пасаяди.

Педагогик мулоқот психологик жараён сифатида қуйидаги функциялари билан характерланади: шахсни билиш; ахборот алмашиши; фаолиятни ташкил этиш, бошқалар учун қайғуриш; ўзини тасдиқлаш. Мулоқот шахсни ўзини тасдиқлаш функциясини ҳам бажаради. Педагогнинг вазифасини

ўқувчига ўзининг “менлиги”ни англашга ўзининг шахсий аҳамиятини билишга, ўзига баҳо беришга ўргатиши керак.

Ўқитувчи дарсни режалаштира туриб, фақат ахборот беришни эмас, балки талабаларни ўз фикрларини билдириш, ўзини тасдиқлаш учун имоният ҳам яратиш керак. Педагогик мулоқот бу ўқитувчи профессионал фаоллигининг бир кўриниши бўлиб, бунда таълим ва тарбия вазифалари ўқитувчи ҳамда ўқув тарбия жараёнининг бошқа иштирокчилари ўртасидаги ўзаро таъсир воситаси билан ҳал қилинади [5:70]. Юқоридаги фикрларга асосланиб педагогик мулоқотни қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

- ўзаро ижодий фаолиятга қизиқтиришига асосланган мулоқот;
- ўзаро дўстликка асосланган мулоқот;
- мулоқот-масофа;
- мулоқот-қўрқитиш;
- мулоқот-ҳазил-мутоиба.

Мулоқот бошқаларни тушунишга бўлган эҳтиёж ва қобилиятни шакллантириш, ўзини тушунишга эҳтиёж туғдиришдир. Мулоқотдаги камчиликлар:

- ❖ эҳтиётсизлик, шахсиятпарастлик, суҳбатдошини ортиқча мажбурлаш;
- ❖ пассивлик, ўзини жуда юқори ва паст қўйиш;
- ❖ ҳаддан ташқари жонбозлик кўрсатиш[6:6].

Ўзаро таъсирнинг энг синалган ва самара берадиган усули эса, мулоқот. Масофавий таълимда ҳам мулоқот ўқитувчининг талабаларнинг ўзини номоён қилишига имкон берадиган мотивацияси бўлиши керак. Лекин, фаол бўлмаган мулоқотда талаба ўзининг фикрини тўлиқ етказиб бермасдан, педагог маърузаси билан чегараланиб қолиш эҳтимоли жуда юқори. Масофавий таълимда биринчи навбатда фаол мулоқот жараёнини шакллантириш ва такомиллаштириш орқалигина педагогик самарадорликка эришилади. Лекин масофавий таълим Ўзбекистондаги ОТМда янги тизим десак муболаға бўлмайди. Ҳозирги вақтда ОТМда масофавий таълимни жорий этиш билан бирга тизимдаги камчиликлар, муаммоларни ҳам теран ўрганишимиз ва ечимлар топишимиз, тажриба орттириш орқали соҳани такомиллаштириб бораверамиз.

Лекин аксарият талаба ва профессор-ўқитувчилар таълим олишнинг ушбу шакли бўйича амалий тажрибага эга эмас. Шунингдек, талабаларнинг билимини орттириш сифатли ва мазмунли, кизиқарли ўқув материаллари, контентларни тайёрлашдаги, уларни мослашувчан муҳитга мувофиқлаштириш масалалари қийинчилик туғдириши мумкин. Асосий муаммолардан бири талабаларнинг таълим олишни бошқариш қобилиятида кўринади.

Айрим талабалар учун масофавий таълим ўзлаштиришда бир қатор ноқулайликларни юзага келтирмоқда десак, адашмаган бўламиз. Аммо бундаги муаммоларни таълимнинг мазкур замонавий шаклигагина боғлаб талқин қилиш адолатдан бўлмайди. Чунки талабаларнинг бир қисми таълим олиш учун ўзларига мутаносиб жадвал шакллантира олмайди. Улар имтиҳон яқинлашгач ўрганишни бошлашлари сабабли яхши натижага эришолмайди. Бу типдаги талабалар учун таълим олишнинг биринчи семестри ўқишнинг энг муаммоли даври ҳисобланади. Айрим талабалар шу даврнинг ўзидаёқ ўқув фаолиятини тўхтатиб, масофавий таълим бўйича ўзларида нотўғри фикр шакллантириб олишади. Масофавий таълим профессор-ўқитувчилар ва талабалардан одатдагидан бутунлай бошқача кўринишдаги ёндашувни талаб қилади.

Амалий тажрибалар шуни кўрсатадики, масофавий таълим жуда талабчан таълим шаклидир. Масофавий таълимнинг сифатига мотивация, интизом, талаба ва профессор-ўқитувчиларнинг фидойилиги тегишлича таъсир қилади. Ҳозирда масофавий таълим шаклини ташкил этишда етарлича ҳуқуқий асослар мавжуд эмаслиги, инфратузилманинг етишмаслиги, АКТдан фойдаланишдаги муаммолар маълум маънода тўсиқ бўлмоқда[7:100].

Бугунги кундаги рақамли трансформация шароитида олий таълимнинг янада самарали ўқитиш шакллари билан бири бўлган ва ўқув жараёнини кенгайтириш имконини берувчи масофавий таълим технологияларидан фойдаланиш зарурати сезилмоқда.

Ўзбекистоннинг ўз олдига қўйган асосий мақсад инновацион илмни ривожлантиришдан иборат. Илмга асосланган иқтисодий ташкил этиш замирида яшаш тарзи, ҳаёт кечириш сифатини яхшилаш вазифаси турибди.

Мазкур жараёнлар хусусида Президентимиз Ш.Мирзиёев: “Таълим сифатини ошириш – Янги Ўзбекистон тараққиётининг яқкаю ягона тўғри йўлидир. Юсуф Хос Ҳожиб бобомиз айтганларидек: “Заковат бор жойда улуғлик бўлади, Билим бор жойда буюклик бўлади”. Шунинг учун ушбу соҳада бошлаган ислохотларимизни давом эттиришимиз, таълим даргоҳларига бориб, ўқитувчи ва

мураббийлар билан кўпроқ мулоқот қилиб, ўқув-тарбия ишлари сифатини ошириш бўйича улар қўйган масалаларни биргаликда ҳал этишимиз керак” [8:2] – дея таъкидлаб ўтган эди.

Масофавий ўқитиш тизимининг истиқболлиги шундаки, бу тизим шахнинг энг асосий ҳуқуқларидан бири – таълим олиш ҳуқуқини амалга оширишни таъминлайди. Масофавий ўқитиш тизимининг мақсадга мувофиқлигини баҳолашда, албатта унинг ижтимоий самарадорлигини эътиборга олиш лозим. Масофавий таълим соҳасида ҳам барча ташкилий ишлар яхши натижа беради дея олмаймиз. Соҳада мавжуд камчиликлар ҳам мавжудлигини олимларимиз ҳам қайта-қайта айтиб ўтмоқдалар.

Самарқанд давлат университети ректори, профессор, Ўзбекистон Республикаси фан арбоби, Олий Мажлис Сенати аъзоси Рустам Холмуродов куйидагича баҳолайди: “Шароф Рашидов номидаги Самарқанд Давлат университетининг қабул квоталарини оширишга шошилмаяпмиз. Сиртки ва масофавий таълимдан воз кечяпмиз. Чунки бугун Ўзбекистонда масофавий таълимни ташкил қилиш учун ресурслар етарли эмас. Мени ҳайрон қолдираётган энг катта масала бу – айрим хусусий университетлар жойи, ўқитувчиси бўлмай туриб, масофадан ўқитиш учун талабаларни қабул қилаётгани бўлди. Афсуски, улар ҳам 4 йилдан кейин Ўзбекистон номидан диплом беради. Тажрибаларим асосида айтаман, таълимда янгиликлар қилишга шошилмаслик керак. Бунинг учун, аввало, таълим маданиятини шакллантиришимиз лозим. Биргина мисол, бугун масофавий таълим олишга, ўз устида мустақил ишлашга тайёр талаба борми ёки масофавий таълимни сифатли олиб бориш лаёқатига эга профессор-ўқитувчилар неча фоизни ташкил қилади?!

Энг муҳим масала – масофавий таълимни ташкил этиш учун технологияларимиз етарлими?! Ваҳоланки, айти омилланинг биттаси бўлмаса ҳам, таълимда сифат таъминланмайди. Бугун бизга ўртамайна таълим керак эмас. Геосиёсий вазиятларда Ўзбекистон ўзини мустақил, эркин тутиши учун аҳолининг интеллектуал салоҳияти юқори бўлиши шарт. Натижада, биз яхши олий таълим муассасалари билан бирга, малакали профессор-ўқитувчиларни ҳам бой берамиз. Бугун улар қўл билан санарли даражада кам”[9:6].

ОТМда масофавий таълимни жорий этишда шошма-шошарликка, эътиборсизликка йўл қўйиб бўлмайди. Аввало соҳодаги камчиликларни таҳлил қилиш шарт. Бу масофавий ўқитиш тизимида энг аҳамиятли омиллardan биридир. Масофавий таълим ОТМнинг бозор иқтисоди шароитида фақат ўз-ўзини моддий таъминлаш воситасига айланмаслиги зарур. Айрим чет эл тажрибалари масофавий ўқитиш тизимининг самарадорлигини кўрсатди, масофавий ўқитиш тизимида тингловчининг олдиндан тайёргарлик кўриши ва аппарат-техник воситалари билан таъминланганлик даражаси, компьютерга эга бўлиши ва интернетга уланиши, ҳамда бу тизимда ишлай олиш малакаларига эга бўлиши талаб қилади. Шу билан бирга талабаларнинг дарсга иштироки ва дарсда ўқитувчи-ўқувчининг интерфаол мулоқот жараёнини ташкил этиш ва такомиллаштириш зарур. Юқоридаги таҳлилларни ҳисобга олган ҳолда олий таълим муассасаларида масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёнини такомиллаштириш бўйича қўйидаги таклифларни илгари сураман:

- масофавий таълим ташкил этиш жараёнида талабаларнинг педагогларга бўлган фикр-мулоҳазаларини инобатга олиш ва тажрибага эга ўқитувчиларни саралаш;
- фақатгина илмий даражага эга ўқитувчиларни жалб қилмасдан ёш ўқитувчилар фаолиятини ҳам таҳлил қилиб, уларга дарс саотларини ажратиш;
- масофавий таълимнинг интерфаол мулоқот жараёни бўйича хорижда илмий тадқиқот ишларини олиб борган олимлар иштирокида маҳорат дарсларини ташкил этиш;
- масофавий таълимда интерфаол мулоқот жараёни такомиллаштириш бўйича семинарлар, ўқув курслари, давра суҳбатлари, учрашувлар, конференциялар ўтказиш;
- профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг масофавий таълимда ўзаро интерфаол мулоқотини таъминлашга ёрдам берадиган ускуналар ва узлуксиз интернетдан фойдаланишни йўлга қўйишда амалий ёрдам бериш в.ҳ.к.

Хулоса. Масофавий ўқитиш барча таълим олиш истаги бўлганларга ўз малакасини узлуксиз ошириш имконини яратади. Бундай ўқитиш жараёнида барибир янгидан-янги педагогик тажрибалар амалиётга жорий қилинади ва соҳа ривожланади. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъбири билан айтганда “бундай янгиланиш жараёнларида устоз-мураббийларимизнинг ишга, ҳаётга муносабати ва масъулияти тубдан ўзгариб, уларнинг доимий изланиб, янгиликка интилиб яшаётгани, илғор таълим технологиялари ва методикаларини пухта ўзлаштириб бораётгани, ҳеч шубҳасиз, ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда [10:1].

Адабиётлар:

1. Тошқулов А. Олий таълимдаги ислохотлар шиддат олса, оладики, асло ортга қайтмайди. Ўзбекистонда олий таълим №3. – Тошкент.: Sano-standart МЧЖ. 2022. – 104 б. (2-9-бетлар).
2. Қаранг: Маматалиев Т. Замоनावий таълим тараққиётида масофавий таълим имкониятлари. //жур. Ўзбекистонда олий таълим №4. – Тошкент.: Sano-standart МЧЖ. 2022. (94-100-бетлар).
3. Джураев Р.Х ва бошқ. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент 2008, 135 б.
4. Омонов Ҳ.Т., Хўжаев Н.Х., Мадьярова С.А., Эшчонов Э.У. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент.: Тошкент молия институти – 2007. – 190 б
5. Абдуллаева Ш.А., Ахатова Д.А., Собиров Б.Б., Сайтов С.С. Педагогика. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “ФАН” нашриёти. – Тошкент.: 2004. – 200 б.
6. Қодиров Ш. Педагогик маҳорат. – Наманган, НамМПИ. 2006. – 98 б.
7. Маматалиев Т. Замоनावий таълим тараққиётида масофавий таълим имкониятлари. //жур. Ўзбекистонда олий таълим №4. – Тошкент.: Sano-standart МЧЖ. 2022. (94-100-бетлар).
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. газ//“XXI asr” ижтимоий-сиёсий газетаси. 22-dekabr 2022-yil 51 (997). “Шарқ”. – Тошкент. – 6 б.
9. Рустам Холмуродов. Таълимдаги ягона имтиёз – фақатгина яхши билим бўлиши керак.//жур. Ўзбекистонда олий таълим №4. – Тошкент.: Sano-standart МЧЖ. 2022. Сухбатдош. Садоқат Махсумова
10. “Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига “Янги Ўзбекистон” газетаси №195(451), 2021 йил 30 сентябрь, пайшанба сони. 1-б

ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИКНИНГ КРЕАТИВЛИК ПОТЕНЦИАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

*Хайдарова Олия Каххаровна,
Иқтисодиёт ва педагогика университети
Педагогика ва ўқитиш методикаси кафедраси доценти*

Креативлик шахс мустақил фикрлаш сифатлари намоён бўлишининг энг асосий ва фаол шакли ҳисобланади. Унга берилган таърифлар бир-биридан жиддий фарқ қилса-да, унинг баъзи умумий жиҳатларини кўрсатиш мумкин, булар: биринчидан, креативликлик натижаси сифатида олинган маҳсулотнинг сифат жиҳатидан янгиликка эга бўлиши; иккинчидан, ушбу жиҳатларнинг креативликнинг дастлабки асосларида мавжуд бўлмаганлиги; учинчидан, ҳар қандай креативлик фаолияти интеллектуал изланишни тақозо этиши билан белгиланади.

***Калит сўзлар:** креатив фикр, замонавий ихтисослаштирилган мактаблар, ўқувчи қобилияти, изланувчанлиги, тафаккури, ижодий изланиш, зеҳнлик, топқирлик, синчковлик, қизиқувчанлик, изланувчанлик, инновацион ёндашув.*

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА

Творчество – самая основная и активная форма проявления самостоятельно мыслительных качеств человека. Хотя данные ему определения существенно отличаются друг от друга, можно выделить некоторые его общие аспекты, а именно: во-первых, качество продукта, полученного в результате творчества, является инновационным; во-вторых, отсутствие этих сторон в первоначальных основах творчества; в-третьих, любая творческая деятельность определяется тем, что она требует интеллектуального исследования.

***Ключевые слова:** творческое мышление, современные специализированные школы, способности учащихся, любознательность, мышление, творческий поиск, склад ума, находчивость, старательность, любознательность, любопытство, инновационный подход.*

THE ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE POTENTIAL

Creativity is the most basic and active form of manifestation of a person's independent thinking qualities. Although the rates assigned to it differ significantly from each other, it is possible to indicate some of its general aspects, namely: firstly, the quality of the product obtained as a result of creativity is innovative; secondly, the absence of these sides in the original foundations of creativity; thirdly, any creative activity is determined by the fact that it requires intellectual research.

***Keywords:** creative thinking, modern specialized schools, students' abilities, curiosity, thinking, creative search, mindset, resourcefulness, diligence, curiosity, inquisitiveness, innovative approach.*

Кириш. Замонавий таълим барча турдаги таълим муассасаларида фаолият юритаётган ўқитувчи, педагогларнинг ўз фаолиятларини креатив ижодкорлик асосида ташкил этиш маҳоратига эга бўлишларини тақозо этмоқда.

Мамлакатимизда жадал ривожланаётган ижтимоий-иқтисодий шароитларда шаклланаётган умумтаълим тизимида, креатив фикрлайдиган шахсни тарбиялашга катта эътибор қаратилмоқда. Ҳозирги даврда, таълим тизимининг энг муҳим вазифаларидан бири сифатида турли ҳаётий шароит ва вазиятларда онгли тарзда қарорлар қабул қила оладиган, ностандарт фикрловчи креатив шахсни тарбиялаш биринчи даражали муаммо сифатида майдонга чиқди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида ушбу муаммога тўхталиб, “Биз, “Янги Ўзбекистон мактаб остонасидан бошланади” деган улуғ ғоя асосида мамлакатимизда мактаб таълимини умуммиллий ҳаракатга айлантириш бўйича бошлаган ишларимизни янги босқичга кўтарамиз. Юртимизда мутлақо янгича мазмун ва шаклдаги замонавий ихтисослаштирилган мактаблар тизимини яратиш бўйича давлат дастурлари ишлаб чиқамиз ва ижрога қаратамиз”, деб алоҳида таъкидлаб ўтдилар.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Билиш фаолияти кўп қиррали, мураккаб жараён бўлиб, таълим жараёнида унинг самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқувчи қобилияти, изланувчанлиги, тафаккури, кузатувчанлиги ва ижодий ёндашувига боғлиқ. Шунинг учун ҳам билиш жараёнида ижод муҳим ўринни эгаллайди.

Ижод – инсоннинг фан, техника, маданият ва бошқа соҳаларда ижтимоий аҳамиятга эга бўлган янгилик яратиши, кашф этиши билан боғлиқ мураккаб психологик жараёндир. Унда инсон тафаккури, хотираси, тасавури, диққати, иродаси фаол иштирок этади, ижодда билим, тажриба, истеъдод намоён бўлади. Абу Наср Фаробийнинг таърифига кўра “ижод – билиш жараёнида шундай улуғ фазилятки, инсон уни эгаллаши учун бошқа ҳамма фазилятларини ишга солиши керак”. Дарҳақиқат, ижод қилиш жараёнида инсон изланади, кузатади, тадқиқотлар олиб боради, натижаларни таҳлил қилиб мантикий хулосалар чиқаради. Хулосанинг тўғри ёки нотўғри эканлиги тажрибада синаб борилади.

Муаммоли масала ва вазиятларни ҳал қилар экан, педагогнинг масала ечимини топишга ижодий ёндашиши унда ҳиссий-иродавий сифатларнинг ривожланишига ёрдам беради. Педагог ўз олдига муаммоли масалаларни қўйиш орқали мавжуд билимлари ва ҳаётий тажрибаларига зид бўлган далиллар билан тўқнаш келади. Бунинг натижасида ўз устида ишлаш, мустақил ўқиб ўрганишга нисбатан эҳтиёж сезади. Педагогнинг илмий-тадқиқот ишлари ва илмий ёки ижодий лойиҳаларни амалга ошириши унда креативлик потенциални янада ривожлантиради.

Креативлик шахс мустақил фикрлаш сифатлари намоён бўлишининг энг асосий ва фаол шакли ҳисобланади. Унга берилган тарифлар бир-биридан жиддий фарқ қилса-да, унинг баъзи умумий жиҳатларини кўрсатиш мумкин, булар: биринчидан, креативлик натижаси сифатида олинган маҳсулотнинг сифат жиҳатидан янгиликка эга бўлиши; иккинчидан, ушбу жиҳатларнинг креативликнинг дастлабки асосларида мавжуд бўлмаганлиги; учинчидан, ҳар қандай креативлик фаолияти интеллектуал изланишни тақозо этиши билан белгиланади.

Натижа. Ижодий изланиш натижасида ҳосил бўладиган билим мазмуни янги техник ечим, бадиий асар, математик формула, назария, қонуният кабилар креатив шаклларда жамиятга тақдим этилади. Улардан жамият баҳраманд бўлишига эришилгандагина, ижод ҳақиқий тўлақонли намоён бўлади.

Ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини қуйидаги белгиларига кўра таснифлаш мумкин: креативлик тури (техник, технологик, ташкилотчилик, иқтисодий, ижтимоий, маънавий, педагогик, дидактик, аралаш); креативлик даражаси (моно ижод, мульти ижод, мега ижод); креативлик қамрови (ихтисослик, мутахассислик, билим соҳаси, тармоқлараро, миллий, минтақавий, халқаро, минтақалараро); креативликнинг давомийлиги (қисқа муддатли, ўрта муддатли, узок муддатли); креативликнинг мураккаблик даражаси (оддий, мураккаб, жуда мураккаб); креативликнинг шакли (инновацион, илмий-тадқиқотчилик, таълимий, инвестицион, аралаш).

Янги сифат – креативлик маҳсули – фақатгина икки ёки ундан ортиқ нисбатан автоном тизимлар битта янги тизимга бирикканида юзага келади. Айнан уларнинг янги тизим доирасида ўзаро таъсирлашуви янги сифатнинг юзага келишини белгилаб беради. Бошқа соҳалар билан туташ билим соҳалари, амалий ҳаётда эса одатда ўтиш даврларида креативлик потенциали юқори ҳисобланади.

Турли-туман, ўзаро қарама-қарши жиҳатларни бириктириш креативликнинг энг муҳим манбаларидан бири саналади. Бунинг муҳим жиҳати янги ҳосил қилинган жиҳатнинг дастлабки маҳсулотда мавжуд бўлмаганлигидир. Аналогия бўйича хулоса чиқариш креативликнинг яна бир манбаидир. Турли буюмлардаги умумийликни кўра олиши абстракт тафаккур билан боғлиқ. Агар, икки воқеа қайсидир жиҳатдан бир-бирига ўхшаш бўлса, у сабаб-оқибат боғлиқлигида ўз аксини топади. Аналогия бўйича хулоса чиқариш креативликнинг санъат ва фалсафа билан боғлиқ турларида муҳим аҳамият касб этади.

Энг умумий жиҳатларига кўра креативлик фаолияти турларини уч гуруҳга бўлиш мумкин: а) принципаал жиҳатдан янги ечимларни илгари суриш; б) ушбу янгиликнинг амалий қўлланиш имкониятларини аниқлаш мақсадида уни деталлаштириш, конкретлаштириш, ишлаб чиқиш; в) янги ғояларни ҳаётга татбиқ этиш, у ёки бу моддий шаклда келтириш билан боғлиқ фаолият.

Яратилган креативлик маҳсулини маъноси ва мураккаблигига кўра уч гуруҳга ажратиш мумкин: рационализаторлик таклифи – энг оддий ижодий ишланма бўлиб, мавжуд ва аввалдан қўлланилган тизим, жараён ва вазиятларнинг айрим таркибий қисмларини такомиллаштиришга йўналтирилган янги фикр; ихтиро – юқори даражада техник ишланма ҳисобланиб, мавжуд бўлганларидан жиддий фарқ қилувчи техник ечим; кашфиёт – моддий дунёнинг илгари маълум бўлмаган объектив мавжуд қонуният, хосса ва ходисаларни аниқланиши.

Зеҳнлилик, топқирлик, синчковлик, қизиқувчанлик, изланувчанлик сифатлари, мустақил ва танқидий фикрлашнинг таркиб топтирилиши шахс креативлик фаолиятини ташкил қилишнинг асосий омиллари ҳисобланади. Таълим жараёнларининг ушбу асосда ташкил этилиши ўқитувчи ва ўқувчи мулоқотини индивидуал ва дифференциал ёндашувга асосланган инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этади. Педагогикада инновацион ёндашувни жорий этишда креативлик фаолиятининг маънавий, дидактик, технологик, ташкилотчилик каби турларидан кенг фойдаланиш мумкин.

Маънавий ижодкорлик – ўқитувчи ва ўқувчилар орасида маънавий-ахлоқий соҳада янги сифатли натижа берувчи такрорланмас, ўзига хос ёндашувга асосланган фаолият туридир.

Дидактик креативлик – ўқув материални танлаш, лойиҳалаш ҳамда ўқувчилар ўзлаштиришининг янги йўналишларини ишлаб чиқишга асосланган фаолият туридир.

Технологик креативлик – юқори натижаларга эришиш имконини берувчи янги тизимлар, жараёнлар ва вазиятларни излаш ҳамда яратиш билан боғлиқ фаолият тури бўлиб, у ўқитувчи ва ўқувчининг фаолиятини бутунлай қамраб олувчи ижодкорликнинг энг мураккаб тури ҳисобланади.

Ташкилотчилик креативлиги – режалаштириш, назорат, ресурсларни тақсимлаш ва сафарбар қилиш, ташқи муҳит билан алоқа, ўқувчилар ва ўқитувчи орасидаги боғланишнинг янги усуллари яратишни ташкил қилиш ва бошқаришдаги ижодкорликдир.

Муҳокама. Ўқувчининг креативлиги унинг ўзига хос усул билан масала ечиши, иншо ёзиши, тажриба ишлари, меҳнат вазифаларини бажариши билан боғлиқ вазиятларда мустақил фикрлаши билан намоён бўлади. Ўқувчининг ижоди – ўзлаштирилган билимларни амалиётдаги далил ва ходисаларга боғлай олиш, олинган натижаларни тўғри баҳолаб, таҳлил қилиши, аввалги эгалланганлари билан умумлаштира олишдир. Бу жараёни технологик ижодкорлик янгилик элементларини аниқ технологияга ўтказиш, бир технологияни янги, самаралироғига тубдан ўзгартиришга қаратилганлиги билан бойитади.

Креатив фаолиятни ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бу жараёнга психологик жиҳатдан етарлича тайёр эмасликлари мураккаблаштиради. Аниқ метод, шакл, воситаларга интилиш уларни бошқаларни тан олмасликларига олиб келади. Бу психологик ҳолат сифатида турли шаклларда бўлиши мумкин, жумладан: азалдан умуман фикр ва мулоҳазаларни қабул қилмаслик; умумий қабул қилинган нуқтаи назардан қатъий ҳимояланиш; янги мазмун ва воситаларга нисбатан эски методларни қўллаш; янги методларда эски шаклларнинг сақланиб қолиниши; умуман янги масалани анъанавий ечиш усуллари кабилар.

Машғулотларни ташкил қилишда ўқувчилар хулқ-атворида сезиларли таъсир ўтказувчи мақсадларни аниқлаш ва ҳисобга олиш зарур. Бу борада ўқитувчи кўпроқ якуний натижага қадар босқичма-босқич амалга ошадиган оралиқ мақсадларни излаш ва улардан фойдаланиши керак бўлади. Ўқувчилар хулқ-атворини муайян йўналишга солишга қаратилган мақсад орқали исталган лойиҳани барқарор, аниқ қилиб бажариш мумкин.

Одатда замонавий ўқитувчиларни замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратга мослаштиришда уларнинг объектив имкониятларидан келиб чиқиб ёндашиш, танланган касб ва фаолият талабларига шахс имкониятларининг идентификатсиялашуви мақсадга мувофиқ саналади. Масалан, ўқитувчилик касбини танлашда нафақат бу касбни севиш, болалар билан мулоқотга киришиш истаги, балки, замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратнинг шахсга нисбатан қоядиган жисмоний, психологик ва ижтимоий талаблар унинг имкониятлари доирасида бўлиши касбий билим, малака ва кўникмаларни ўзлаштиришга ёрдам беради. Шу боис, замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратида масаланинг мазкур жиҳатларини назарий асослаш ва замонавий ўқитувчиларнинг касбий имкониятларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш керак.

Замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратига дастлабки салоҳиятли тайёрлиги айтилиши вақтдаги амалий тайёрлигининг асоси ҳисобланади. Шунинг учун таълим муассасаларидаги касбий тайёргарликни шакллантириш жараёнида замонавий ўқитувчиларда замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратни амалга ошириш учун етарли бўлган касбий билим, малака ва кўникмаларни шакллантириш лозим бўлади. Касбий билим – аниқ меҳнат фаолияти доирасида бажариладиган ишлар учун зарур бўлган ахборотлар ва ўзлаштирилган назарий маълумотлар бирлашмасидир.

Замонавий ўқитувчиларнинг ўзлаштириш лозим бўлган касбий билимлар мутахассис шахсининг сифат даражасига қўйиладиган малакавий талаблар мазмунидан келиб чиқиб белгиланиши замонавий ўқитувчининг касбий-педагогик маҳоратни ривожлантириш жараёнининг самарадорлигини белгиловчи муҳим мезон саналади.

Хулоса. Таъкидлаш жоизки, олий таълим муассасаларидаги ўқув фаолиятининг маҳсули бу касбий билимларнинг ўзлаштириш жараёни ҳисобланади. Лекин баъзида шундай вазиятлар ҳам

18. Murodov J. J. (2023). Talabalarni jismoniy tarbiya va sport darslarida harakatlarga o‘rgatish jarayonlari: Jahongir Jorayevich Murodov, Buxoro Davlat universiteti “Sport faoliyati” kafedrasida o‘qituvchisi. // Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2), 256-260.
19. Muratov D. (2022). Пути повышения интереса к учебному процессу у учащихся, не интересующихся занятиями физического воспитания в школе. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 21(21).
20. Murodov J. J. (2022). Women’s sports is a key link of physical culture.
21. Мurodov Ж. Ж., & Турсунова Ф. Ё. (2022). Пути повышения интереса к учебному процессу у учащихся, не интересующихся занятиями физического воспитания в школе. // Вестник науки и образования, (5-2 (125)), 27-30.
22. Murodov J. J., & Charos K. (2022). Innovative approaches to physical education of school students.
23. Muratov D. (2021). Women’s sports is a key link of physical culture. // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).

TALABALAR PRAGMATIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI PEDAGOGIK MODELLASHTIRISH

*Yuldoshev Rustam Dilshod o'g'li,
Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti, tayanch doktoranti*

Ushbu maqolada, talabalar pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonininig kommunikativ kompetensiyasining bir qismi bo'lgan-pragmatik kompetensiya, pragmatik kompetensiyaning vazifalari, og'zaki nutqni rivojlantirish, muomala madaniyati, muloqotni yaxshilaydigan ko'nikmalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pragmatika, kommunikativ kompetensiya, pedagog, kompetensiya, pragmatik kompetensiya, muloqot, muomala madaniyati, ijtimoiy moslashuvchanlik, og'zaki nutq.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

В данной статье говорится о прагматической компетентности, задачах прагматической компетентности, развитии устной речи, проблемной культуры, навыках, улучшающих общение, которые являются частью коммуникативной компетентности процесса формирования прагматической компетентности студентов.

Ключевые слова: прагматика, коммуникативная компетентность, педагог, компетентность, прагматическая компетентность, общение, проблемная культура, социальная гибкость, речь.

PEDAGOGICAL MODELING OF THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PRAGMATIC COMPETENCES

This article talks about pragmatic competence, the tasks of pragmatic competence, the development of oral speech, problem culture, skills that improve communication, which are part of the communicative competence of the process of developing students' pragmatic competence.

Keywords: pragmatics, communicative competence, teacher, competence, pragmatic competence, communication, problem culture, social flexibility, oral speech.

Kirish. Hozirgi kunda lingvistik yo'nalishdagi talabalarda chet tilida og'zaki va yozma ko'nikmani shakllantirishda asosan monolog va dialoglarga tayanilib, muloqotning pragmatik faktorlari ko'p hollarda e'tibordan chetda qolib kelinmoqda. Til ko'nikmalarini rivojlantirilayotganda talabalar tildagi ibora va birikmalarni yot oladilar ammo ularni ma'lum bir vaziyatda foydalanish holatlariga duch kelganda ko'p hollarda ulardan noto'g'ri foydalaniladi buning asosiy sababi esa pragmatik kompetensiyaga til o'rganish jarayonida bee'tibor bo'lishdadir.

Til faoliyati hodisasining mohiyati uning ijrochisi shaxs tomonidan belgilanadi va bu shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarga kiradi. Nutqdagi oshkora va yashirin ma'nolarni tadqiq tahlil qilish, insonning o'zligini nutqi orqali namoyon etishi kabi masalalarni o'rganish bugungi o'zbekona tafakkur tarzi, milliy mafkura va milliy g'oya tushunchalarining mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan insonning ob'ektiv olamdagi ijtimoiy faoliyati in'ikosi bo'lgan uning «harakat»dagi, «jonli» nutqini tadqiq etish faqat nazariy tilshunoslik uchungina emas, balki uning psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik geografiya, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika kabi umumtarmoqlari uchun ham katta ahamiyatga egadir. Insonning ob'ektiv olamdagi barcha ijtimoiy xatti-harakatlari uning nutqiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun inson nutqini o'rganish uning ma'naviy olami bilan tanishish imkonini beradi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ maqsad, nutqiy vaziyatning ta'siri bilan aloqador masalalarni hamda lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanishini o'rganadi. “Pragmatika” (yunoncha pragmos — ish, harakat, bajarilgan, degan ma'noni anglatadi) aslida XIX-XX asrlarga oid falsafiy tushunchadir. “Pragmatika” atamasini birinchi marta amerikalik olim Charlz Sanders Pirs kiritgan. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm keng tarqala boshladi. Amerika va Yevropa tashviqotining kengayishi uchun Charlz Pirs, Karnap, Charlz Morris va Vitgenshteynlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. “Pragmatika” atamasi XX asr 30-yillarning oxirlarida Ch. U. Morris tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan. Ammo lingvistik tadqiqotlar sohasi sifatida pragmatikani aniqlash va

shakllantirish 60-yillar oxiri va 70-yillarning boshlarida Z. Vendler tomonidan nutq aktlarining mantiqiy va falsafiy nazariyalari ta'siri ostida o'rganildi. 60 - 70-yillarda til belgilarining nutqdagi amaliy qo'llanishiga hos kontekstual xususiyatlarini o'rganish bilan tilshunoslikda pragmatik yo'nalish yuzaga kela boshladi.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarda “pragmatik kompetentli” va “pragmatik kompetensiya” atamaları keng qo'llaniladi. “Kasbiy kompetensiya” atamasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan ma'lum kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlar ro'yxatini anglatadi. Kompetensiyalar “bilim, uquv va ko'nikmalar” nuqtayi nazaridan shakllantirilishi ajablanarli emas va pedagogik universitetlar bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali aniqlanadi. G.T. Maxkamovning so'zlariga ko'ra, tilni professional darajada bilish “tilning butun tizimini uning qiyosiy tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mutaxassislik sifatida chuqur bilish; nutqni ona tili va o'rganilayotgan til tuzilmalaridagi diskursni anglash va farqlarini bilish; chet tilida so'zlashuvchilar dunyosi manzarasi to'g'risida bilimlarni kengaytirish orqali bilingval ongni shakllantirish; nutq faoliyatining barcha turlari va qoidalarini, nutqning turli kommunikativ-pragmatik registrlarida lisoniy va nolisoniy xatti-harakatlarning strategiyalari va taktikalarini bilish; o'rganilayotgan til(lar) mamlakatlari hayotining turli xil muloqot vositalari va ijtimoiy-madaniy jihatlarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini bilish” (2010, 108-bet). Sh.Safarovning qaydicha, pragmatikani keng ma'noda anglamoq darkor, u tilshunoslikning semantika va sintaksis sohalarida o'rganiladigan masalalarni ham qamrab oladi va o'ziga xos umumlashtiruvchi yo'nalish vazifasini o'taydi. Shunga nisbatan, pragmatik nazariya so'zlovchi va tinglovchining gap yoki matn propozitsiyasini bir xilda qabul qilishini e'tiborga oladi (Safarov 2008:43). Pragmatikaning uzatilishi va qabul qilinishiga nisbatan taqsimoti turli yo'nalishdagi tadqiqotlarni umumiy soha atrofida birlashtirishga imkon yaratadi. Ch.Morris bergan ta'rifdayoq pragmatikaning sotsiolingvistik va psixolingvistikdan uzoq turmasligi ayon bo'lgan edi. Chunki insonga ta'sir ko'rsatishning lisoniy mexanizmlari tadqiqi bu yo'nalishlarning barchasi uchun bir xilda xosdir. Ularning barchasi yagona bir pragmatik munosabatning turli jihatlarini bilan qiziqadi. Aniqrog'i, lisoniy ta'sir mexanizmlarining sinov-tajribalar orqali o'rganilishi (sotsiolingvistik va psixolingvistikada) qabul qiluvchi pragmatikasini o'rganish uchun qulay bo'lsa, nutqiy aktlar va deytik iboralar tahlili esa axborotni uzatuvchining pragmatikasini namoyon qiladi. Oxirgi holatda asosiy e'tibor lisoniy shaklning so'zlovchi maqsadini ifodalashga naqadar mos kelishi masalasi muhimlashadi. Tilning pragmatik imkoniyatlarini bilish, o'z navbatida, boshqa mundarijadagi pragmatikani, ya'ni axborot yoki xabar pragmatikasini yuzaga keltiradi. Ushbu turdagi pragmatik mazmun tarjima pragmatikasiga ham taalluqli Til birliklari vositasida bajariladigan ta'sir haqida gap ketganida tadqiqotchilar “pragmatika” terminiga murojaat qilishga o'rganib qolganlar va “pragmatik ma'no”, “pragmatik axborot”, “pragmatik vazifa” kabi birikmalarda qo'llanilayotgan bu tushunchaga izoh berishni ham hech kim o'ylab o'tirmaydi. Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Pragmatika tushunchasi, odatda, ta'sir ko'rsatish imkoniyati bilan bog'liq holda qaralib, muloqot sharoitida yuzaga keladigan mazmun orqali anglashiniladi. Shunga binoan, biz pragmatikani tilning va uning alohida birliklarining, nutqiy tuzilmalarning adresatga ta'sir o'tkazish xususiyati sifatini talqin qilishni ma'qul ko'ramiz. Shuningdek, pragmatik mazmun nutqiy birliklar yoki matnda ifodalangan axborotning adresat ongida yangi tushunchalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lgan qismidir. “Pragmatik vositalar” tushunchasi qo'llanilishida esa ma'noni yoki uning komponentlarini ifodalovchi lisoniy vositalar nazarda tutiladi, ammo ushbu vositalarning assotsiativ aloqalari matn, nutqiy birliklarning pragmatik mazmunini shakllantirishi shart. Gapiruvchi shaxsning tinglovchi diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqitirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'liqlashtirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotativ ma'nosini, ya'ni pragmatik ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.

V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish lingvopragmatikaning boshlang'ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon bo'ladi: “Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo'lmaganidek va buning uchun eng asosiysi o'yin mahorati, layoqatiga ham ega bo'lish lozim” bo'ladi. Bizning qarashimiz bo'yicha, so'zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. Shuning uchun ham to'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarning o'ziningina

bilish yetarli emas, soʻzlash va toʻgʻri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ega boʻlish lozim. Nutqiy faoliyat - til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega boʻlishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning oʻzi har qanday shaxs uchun maolom imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega boʻlishning oʻzi insonni soʻzlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni bilishni taqazo etadi.

Tilshunoslikning Pragmalingvistika bosqichi quyidagi muammolarga bogʻliq boʻlgan turli yondashuvlar va qarashlar bilan tavsiflanadi:

- ❖ Aloqa jarayonida lingvistik shaxsiyat
- ❖ Tilning amaldagi va kontekstdagi sifati;
- ❖ Muloqotning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;
- ❖ Ogʻzaki muloqotning talqini jihati;
- ❖ Til insonning amalga oshiradigan faoliyati vositasi sifatida.

Sh.Safarov pragmalingvistikaga berilgan taʼriflarni umumlashtirib, tadqiqotchilarning bu boradagi asosiy gʻoyalarini quyidagicha tasniflaydi:

- ❖ kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- ❖ lison muloqot ishtirokchilarining oʻzaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;
- ❖ lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bogʻliq hodisadir.

“Pragmatik kompetensiyaga koʻra, odamning nutqni qurish qoidalarini, shuningdek, kommunikativlarning oʻzaro taʼsirining xususiyatlariga va ijtimoiy va madaniy kontekstga muvofiq turli kommunikativ funksiyalar uchun soʻzlarni talqin qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini tushunish taklif etiladi. Pragmatik kompetensiya chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Biz yuqorida pragmatik kompetensiya haqida chet el tilshunoslarining ayrim fikrlarini keltirdik. Oʻquvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish masalasi oʻzbek tilshunoslarining ham ilmiy qarashlarida oʻz ifodasini topgan. Pragmatik kompetensiya, birinchi navbatda, kommunikativ qobiliyatning amaliy tomoni bilan bogʻliq. Pragmatik kompetensiyaga muvofiq, oʻquvchilar zarur kommunikativ vazifalarni bajara oladigan lingvistik bilimlarga ega boʻlishlari kerak Pragmatik kompetensiya har xil turdagi kommunikativ vazifalarni bajarishning muhim tarkibiy qismidir. Buni quyidagi chizma orqali koʻrish mumkin.



Zamonaviy metodologiya shuni koʻrsatadiki, pragmatik kompetensiya, oʻz navbatida, quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

Diskursiv - ogʻzaki va yozma nutqda semantik va mantiqiy muloqotni qurish va tushunish qobiliyati. Bundan tashqari, ushbu komponent muloqot sharoitlari, kommunikativ vazifa va soʻzlovchining maqsadi asosida fikrni ifodalashning toʻgʻri vositalarini tanlash qobiliyatini oʻz ichiga oladi.

Mahalliy tadqiqotchi Sh.P.Rahimova diskursiv kompetensiyaga quyidagicha taʼrif beradi: “Diskursiv kompetensiya - bu oʻqish va tinglash jarayonida matnlarning har xil turlarini tushunish asosida ogʻzaki va yozma nutqda turli funktsional uslublarning yaxlit, izchil va mantiqiy bayonotlarini (muloqotlarini) qurish qobiliyatidir.

Funksional - vazifalarni hal qilish, kerakli maʼlumotlarni topish, maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz fikrini bildirish, shuningdek, suhbatdoshni muloqot harakatiga undash yoki uni biror narsaga ishonitirish qobiliyatini oʻz ichiga olgan kommunikativ maqsadga erishish qobiliyati.

Xulosa. Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, kommunikativ-pragmatik modelning oʻqitish mazmuni interaktiv va affektiv taʼlim strategiyalarini talab qiladi; ularning mujassamlashgan va yaxlit rivojlanishi kommunikativ-pragmatik kompetensiyani shakllantirishga va dialogik nutqni oʻzlashtirishga olib keladi. Demak, pragmatik kompetensiyani til oʻrganish jarayoniga qoʻshish tilni ijtimoiy muhitda toʻgʻri qoʻllay olish imkoniyatini berish bilan bir qatorda suhbat jarayonini mazmunli va muvaffaqiyatli oʻtqizish imkonini ham beradi. Maʼlum yosh davrida bola soʻzlarni aniq talaffuz qilishi, grammatik jihatdan toʻgʻri jumlar

tuzishi va muayyan atamalarni qo‘llashi mumkin, ammo u pragmatika qoidalariga rioya qilmasa, ya‘ni nutq vaziyati haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa, muloqotda muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holatning oldini olish uchun o‘quvchida pragmatik kompetensiyani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Махкамova Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка: Монография. –Ташкент: «Фан» Академии Наук Республики Узбекистан, 2010. –207 с.
2. Sultonqulova Gulzodaxon Tilning lingvopragmatik xususiyatlari // Journal of new century innovations 46_Issue-2_February_2024.
3. Aznaurova E.S. Badiiy so‘z pragmatikasi - Toshkent: Mavzu, 1988. 28-bet.
4. Hakimov M. Study of the Pragmatics of Uzbek Language - Farg‘ona, 2011.
5. Cummings L. Pragmatics: A Multidisciplinary Perspective. – Edinburgh: EUP, 2005. 336 p.
6. Abdullayeva G.G. Sinxron tarjima-murakkab kognitiv jaraynlar majmui//Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv: til, tafakkur, madaniyat. Buxoro. BuxDU. 2016. 138-139 b.
7. Dijk T.A. van. Pragmatics and poetics // Pragmatics of language and literature. – Amsterdam: North Holl. publ. comp., 1976. – p 23-57.
8. Axmedova, S. R. (2021). Chet tillarni o‘rganish va undagi metodlarning ahamiyati. // Science and Education, 2(11), 1076-1080.
9. Lyons J. Semantics. Vol. 2-3. – Cambridge: Cambridge Univ. Press, 1977. – 897 p.
10. Safarov Shaxriyor (2008) “Pragmalingvistika ” 6-7-betlar.
11. Olloqova M. O. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish // Pedagogik mahorat, №6, 2021 126-bet.
12. Rahimova Shahnoza Pulatovna. Chet tili yozma nutqini (yozma diskurs) rivojlantirish universitet ta‘lim bo‘yicha. // “Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi”. 2022-yil 5-son.
13. Olloqova, O. (2022). O‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Mug‘allim N6/7.

BO‘LAJAK MAKTAB O‘QITUVCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Xolmirzayev Nuriddin Abdullayevich,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiya maktab o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining zarur va majburiy tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy-madaniy kompetensiya to‘liq o‘rganilmagan, keng tadqiqotlar olib borilmagan. Keyingi vaqtlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya to‘g‘risida o‘rganish boshlangan. Shuning uchun ushbu konsepsiyani aniqlashtirish, o‘rganish, umuman pedagogika fanidagi o‘rni hamda ahamiyatini belgilash imkonini beradigan tadqiqotlar zarurligi bildiradi.

Kalit so‘zlar: *bag‘rikenglik, ijtimoiy-madaniy ehtiyoj, intellekt, motivatsion tuzilma, madaniyatli shaxs, "ziddiyatli voqeliklar", ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО ШКОЛЬНОГО УЧИТЕЛЯ

В статье социокультурная компетентность рассматривается как необходимая и обязательная составляющая профессиональной компетентности школьного учителя. Однако следует отметить, что социокультурная компетентность до конца не изучена, обширных исследований не проводилось. Позже началось изучение социокультурной компетентности. Поэтому необходимо уточнить это понятие, изучить, определить его место и значение в науке педагогики.

Ключевые слова: *толерантность, социокультурная потребность, интеллект, мотивационная структура, цивилизованный человек, «конфликтующие реальности», компетентностный подход в образовании.*

THEORETICAL BASIS OF FORMATION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF THE FUTURE SCHOOL TEACHER

The article considers sociocultural competence as a necessary and obligatory component of school teacher's professional competence. However, it should be noted that sociocultural competence is not fully studied, extensive research has not been conducted. The study of sociocultural competence started later. Therefore, it is necessary to clarify this concept, to study, to determine its place and significance in the science of pedagogy.

Keywords: *tolerance, socio-cultural need, intelligence, motivational structure, civilised person, ‘conflicting realities’, competence approach in education.*

Kirish. Ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha ma’lumotlarda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim mazmunini yangilashning eng muhim kontseptual pozitsiyasi sifatida baholanadi. Ta’lim mazmuni millatning gullab-yashnashi yoki uning to‘g‘ridan to‘g‘ri tanazzulga uchrashining sharti bo‘lishi mumkin. Chunki u ko‘p jihatdan yosh avlodning aql-idrok darajasini, ularning ma’naviy qiyofasi mavjudligini belgilaydi. Davlat va xususiy sektorlarning raqobatbardoshligi, mamlakatning iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy farovonligi, uning sivilizatsiyalashgan dunyo hayotida yetakchiligi – shu va boshqa ko‘plab milliy muammolarni hal etish ta’lim mazmuni bilan bog‘liq.

Bizning fikrimizcha, ta’lim inqirozi, jamiyatning ma’naviy-axloqiy inqirozi sharoitida va ayniqsa, yosh avlod ta’lim inqirozi vakillarida bu yondashuvning eng to‘g‘ri ta’rifi ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yuqori darajada rivojlangan ijodiy intellektga, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, talab qilinadigan barcha faoliyat usullarini o‘zlashtirgan barkamol shaxsni ifodalovchi umum madaniy va kasbiy vakolatlarining yaxlit majmui asosida shaxsiy kasbiy va ijtimoiy sohadagi ijodiy konstruktiv faoliyatni olib boradigan shaxsni shakllantirishni o‘z ichiga olishi kerak.

Umumta’lim maktabi o‘qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim tizimidagi maktab ichida qo‘shimcha malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ko‘p tomonlama rivojlangan mutaxassisni tayyorlash faqat aniq shakllantirilgan bilimlar bazasida qurilishi mumkinligini inkor etib bo‘lmaydi. Ammo shuni ham ta’kidlash kerakki, kompetensiyaga

asoslangan yondashuv yordamida ushbu bilimlar bazasi olingan bilimlarni amaliy hayotda va kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llash uchun zarur bo'lgan bir qator eng muhim shaxsiy ko'rsatkichlar bilan samarali ravishda to'ldirilishi mumkin.

Pedagog olim S.M.Kolovanning tadqiqotida “Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya bag'rikenglik va ochiqlikning mavjudligi, madaniyatlararo muloqotning aniq kasbiy muammolarini hal qilish uchun muayyan vaziyatda ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va qo'llash uchun o'z tajribasi va qobiliyatini safarbar qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi[7].

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning ahamiyati va mazmunini aniqlashda biz faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, o'qituvchilarning fikrini, xususan, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir etuvchi muammolarini ko'rib chiqayotib, ularni tasdiqlaydigan E.Giddensning ajralmas munosabatlar va doimiy o'zaro ta'sir etuvchi fikrini ta'kidlashimiz mumkin. U "Bizning shaxsiyatimiz va dunyoqarashimiz biz mavjud bo'lgan madaniyat va jamiyatning eng kuchli ta'sirini boshdan kechiradi. Shu bilan birga, kundalik harakatlarimiz orqali biz faoliyatimizda amalga oshirilayotgan madaniy va ijtimoiy kontekstlarni faol ravishda qayta yaratamiz va o'zgartiramiz"[7,41] degan fikrni ilgari suradi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya, bizning fikrimizcha, bilimning bir yoki bir nechta o'zaro bog'liq sohalari bo'yicha har qanday mutaxassisni - kasbiy faoliyati insonparvarlik qadriyatlariga, o'quvchiga qadriyat sifatida munosabatda bo'lishga, uni tushunish va shaxsiy rivojlanishida yordam beradigan xohish va qobiliyatga asoslangan o'qituvchini aniq ifodalaydi. Shu bilan birga, mavzu va ijtimoiy-madaniy kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlikni yana bir bor muhim ekanligi ko'rinadi. Bo'lajak o'rta maktab o'qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi uning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi tarkibida va ijtimoiy-madaniy kompetensiya o'qituvchining integratsiyalashgan shaxsiy va kasbiy sifati, uning o'quvchilar bilan samarali o'zaro munosabatlarini ta'minlash, ularning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi anglashni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlar shuni ta'kidlashga imkon beradiki, o'qituvchilar, pedagoglar, o'qituvchilarning qo'shimcha kasbiy ta'limi talabalar bilan o'zaro munosabatlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, bu talabaning shaxsiyati, uning xususiyatlari va ehtiyojlarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish qobiliyati va avtodiagnostika, ta'lim muhitini monitoring qilish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, ularda insonparvarlik qadriyat yo'nalishlarini, o'zini o'zi anglash va xushmuomalalik, fikrlash va bag'rikenglikni rivojlantirish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Ta'lim sifatiga bo'lgan talablarning kuchayishi, an'anaviy ta'lim paradigmasidan insonparvarlikka keng ko'lamlil o'tish, bu ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisining shaxsiyatiga, shuningdek, insonning o'z imidjini qurishida muhim rol o'ynaydigan faoliyat subyekti sifatida qaralishi kasbiy ta'lim darajasida malaka oshirish kurslarida o'qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

G.S.Savolaynenning fikriga ko'ra, “Bo'lajak maktab o'qituvchisi nafaqat savodxon, intellektual shaxs, balki o'z sohasi va tegishli sohalarda malakali, jadal rivojlanayotgan jamiyatda madaniyatli shaxs va boshqa odamlar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lish, nafaqat topshirilgan vazifa uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, balki o'z hayotining mazmuniga aylanishi mumkin bo'lgan vazifani mustaqil tanlaydigan mutaxassisni tayyorlash muhim [1,77] hisoblanadi.

Asosiy qism. Bo'lajak maktab o'qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini tabiiy ravishda o'qituvchining ehtiyojlari va yo'nalishiga, uning qiziqishlari va imkoniyatlariga, shuningdek taqdim etilgan shartlarga mos keladigan faoliyatning ma'lum bir turiga bo'lgan ehtiyojini amalga oshirish qobiliyati deb hisoblash mumkin.

N.V.Jukova ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning refleksiv va bashoratli tabiatini ta'kidlab, ijtimoiy-madaniy kompetensiya ijtimoiy va madaniy bilish kontekstlari mazmunini aks ettirish mezonlarini shakllantirishga ta'sir qiladi, shuningdek, bilish subyektining oldindan ko'rish tuzilishi bilan belgilanadigan shaxsiy madaniyat darajalaridan biri deb, hisoblaydi. I.A.Zimnyaning fikricha “Madaniyatli shaxs - o'z faoliyatining barcha shakllarida ma'lum jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanish me'yorlariga javob beradigan shaxs” ekanligi ta'kidlanadi. I.A.Zimnyaya o'zining fikrini davom ettirib, “Umumiy inson madaniyati murakkab tizimli ravishda shakllangan bo'lib, uning mazmunini aks ettiruvchi o'zagi insonning dunyoga, o'ziga, o'zgalarga, mehnatga, tabiatga munosabati bo'lib, xulq-atvor madaniyatida ifodalanadi va ichki madaniyatni nazarda tutadi. Shu jumladan xushmuomalalik, qadr-qimmat, boshqalarga hurmat, mas'uliyat, o'zini o'zi boshqarish [3] ekanligini ta'kidlaydi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko'p madaniyatli dunyoda insonning muvaffaqiyati uchun eng muhim asosdir.[4] O'z guruhi ichida ham, boshqa guruhlar vakillari bilan ham muloqot qilishda ijtimoiy-madaniy kompetensiya darajasini baholashning asosiy mezonlari shaxsning xatti-harakatlarining muayyan vaziyatga

va umuman ijtimoiy kontekstga muvofiqligi sifatida tan olinadi va uning samaradorligi muloqot jarayonida kerakli natijalarga erishish bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning maqbul darajasiga erishish shaxsning barcha sohalarini - intellektni, motivatsion tuzilmalarni, xulq-atvor ko'nikmalarini va qobiliyatlarini har tomonlama jalb qilish orqali mumkin. Shu sababli, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning optimal darajasini insonda turli xil odamlar, shu jumladan turli yo'llar bilan unga o'xshamaydiganlar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga imkon beradigan maxsus bilim, ko'nikma va ko'nikmalar tizimining mavjudligi sifatida aniqlash mumkin: etnik-madaniy, diniy, irqiy, ijtimoiy va mafkuraviy. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning o'z guruhi a'zolari bilan ham, turli yo'llar bilan bir-biriga o'xshamaydigan boshqa guruhlar vakillari bilan ham muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlarini nazarda tutadi.

Shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini tabiiy ravishda shaxsning ehtiyojlari va yo'nalishiga, uning manfaatlari va imkoniyatlariga, shuningdek, u tomonidan taqdim etilgan shartlarga mos keladigan ma'lum bir faoliyat turiga (ijtimoiy-madaniy) ehtiyojni anglash qobiliyati, - deb qaralishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini kasbiy va faoliyat tomonlarini ajratib ko'rsatiladi. O'qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini uning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi tarkibida ko'rib chiqish mumkin va uni o'qituvchining integral shaxsiy va kasbiy sifati, uning talabalar bilan samarali o'zaro munosabatini ta'minlash, ularning dinamikaga muvaffaqiyatli kirishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan, ko'p madaniyatli jamiyat, o'z taqdirini o'zi belgilash va unda o'zini o'zi anglash [2,35] ekanligi G.S.Savolaynen tomonidan ilgari suriladi.

O'qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi - bu mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash qobiliyati, atrofda voqelikning situatsion xususiyatlarini baholash va ushbu vaziyatlarda to'g'ri yechimlarni topish qobiliyatidir.

E.F.Zeyer "ijtimoiy kompetensiya" tushunchasining ko'p qirraliligini, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, ta'lim va tarbiyada "ziddiyatli voqeliklar"[5] terminologik jihatida zaif qo'llanilishini tavsiflaydi.

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat talablari, ta'lim tizimining institutsional cheklavlari va shaxsning subyektiv imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Shuning uchun kompetensiyaga asoslangan ta'lim paradigmasi, birinchi navbatda, resurs yondashuvi mantiqida o'ylab topilgan. A.M.Kondakov kompetensiyani "vaziyatni o'zgartirish uchun maqsadlarni belgilash va unga erishish uchun o'z va boshqa resurslarni birgalikda tashkil etish" [8,230] deb tushunadi.

Bunday sharoitda maktab o'qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish tarixan ijtimoiy-madaniy hudud tomonidan belgilab qo'yilgan shaxsning subyektiv xususiyatlari va shaxsning jamiyatdagi faoliyati ijtimoiy-madaniy makonning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni belgilab beruvchi muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktabi o'qituvchisining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish uchun maktabdagi o'quv jarayonining yangilangan nazariy va uslubiy asoslarida kompetensiyaviy yondashuvining boshqa o'qituvchilar bilan integral bog'liqligini ko'rib chiqish va asoslash zarur.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning mohiyati, mazmuni va tuzilishini ochib berish, shuningdek, texnologiyaning yangi yo'nalishlari va uni shakllantirish usullarini asoslash uchun ulardan foydalanish aspektidagi ontologik, shaxsga yo'naltirilgan, madaniy, andragogik va aksiologik yondashuvlar.

Albatta, qo'shimcha kasb-hunar ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga yondashuvlarni integratsiyalashda eng muhimi, bizningcha, kompetensiyaga asoslangan yondashuvdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariyasini o'zlashtirish katta pedagogik tajribaga ega bo'lgan barcha avlod maktab o'qituvchilari uchun ham, yangi o'qituvchilar uchun ham dolzarb ehtiyojdir.

Pedagog olimlar A.Y.Kuzmin, V.L.Matrosov, V.D.Shadrikov kompetensiyaga asoslangan yondashuvning quyidagi ta'rifini beradi: Bu "e'tiborni ta'lim natijasiga qaratadigan yondashuv, natijada olingan ma'lumotlarning bilimlari yig'indisi emas, balki shaxsning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisobga olinadi." [10]

I.V.Kovalenko va O.P.Matorin ta'kidlaganidek, kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omili va uni modernizatsiya qilish muvaffaqiyatining zarur shartidir [9].

Zamonaviy postindustrial jamiyatda ishchilarning ijtimoiy va kasbiy funksiyalari sezilarli darajada o'rganish qobiliyati, tashkilotchilik, mustaqillik, muloqot qilish, o'z-o'zini tartibga solish, mas'uliyat, amaliy aql, ishonchlilik, rejalashtirish qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qilish kabi fazilatlar o'zgardi [6] degan fikrni E.F.Zeyer o'zining "Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv" nomli maqolasida ilgari suradi.

Xulosa. Hozirgi vaqtda o'qituvchi shaxsi muammosi pedagogik faoliyatning subyektivi sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga qodir, ta'lim psixologiyasida markaziy o'rinni egalladi. Kompetentlik yondashuvi

nuqtayi nazaridan o‘qituvchining shaxsiyati yaxlit individuallik, aniq belgilangan yaxlitlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Ta’limning umumiy madaniy qadriyatlari o‘qituvchining madaniyat subyekti sifatida ijodkorlik, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tobora murakkablashib borayotgan ijodiy pedagogik faoliyat muammolarini hal qilish uchun o‘zini o‘zgartirish, munosabatlarni rivojlantirish va namoyon qilish qobiliyatini tushunishga imkon beradi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining psixologik-pedagogik asoslari ijtimoiy-madaniy kompetensiya integratsiyalashgan shaxsiy va kasbiy sifat ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, unda qadriyat bilimdan kam emas va balki muhimroq rol o‘ynaydi.

Maktab o‘qituvchisining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi konsepsiyasining muhim ta’rifi o‘qituvchining nazariy, uslubiy, texnologik malakasi darajasining ajralmas tavsifi bo‘lib, o‘qituvchining yuqori darajada rivojlangan umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalari majmuini o‘zida mujassam etgan, ularning faoliyatini samarali amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Саволайнен Г.С. Компетентный подход в системе дополнительного профессионального образования учителей // Инновации в непрерывном образовании. 2010. № 1.
2. Саволайнен Г.С. Социокультурная компетентность как стратегия подготовки учителя к социокультурному взаимодействию в образовательном процессе. // Вест. Красноярского гос ун-та. Серия «Гуманитарные науки». – 2006. № 3.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2007. – 256 с.
4. Злотникова Т.С. Толерантность в современном обществе: опыт междисциплинарных исследований: сборник научных статей / под научн. ред. М.В. Новикова, Н.В. Нижегородцевой. – Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2011. - 357 с.
5. Зеер Э.Ф. Самоопределение человека в современных конфликтующих реальностях Э.Ф.Зеер. – Екатеринбург: РГППУ, 2009
6. Зеер Э.Ф. Компетентный подход к образованию // Образование и наука 2005. №3.
7. Казаков А.В. Формирование социокультурной компетентности специалистов сферы обслуживания в системе дополнительного образования: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: МГУ им. М.А. Шолохова – ГОУВПО. - Москва, 2013
8. Кондаков А.М. Модели образовательного выбора и ведущие компетентности как образовательные ресурсы для развития личности, общества и государства / А.М.Кондаков // Мир психологии. – 2004. – № 2.
9. Коваленко В.И., Маторина О.П. Новые требования к педагогической деятельности преподавателя вуза: теоретико-методологический аспект // Культурная жизнь, 2011. – №1.
10. Профессиональный стандарт педагогической деятельности по ред. Кузьмина А.Я., Матросова В.Л., Шадрикова В.Д. // Вестник образования. – 2007. – №7.

OILAGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNI EMPIRIK O‘RGANISHNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI

*Nuralieva Dildora Mamurjonovna,
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrası dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa dokori (PhD)*

*Olimova Yorqinoy Mashrapovna,
Farg‘ona davlat universiteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi*

Oilaga psixologik xizmatning psixologik mexanizmlari ijtimoiy psixologik tamonlardan farqlanib turadi. Psixologik mexanizmning muhim xususiyati bu inson psixikasining xususiyati bo‘lib, u neyrofiziologiya bilan, inson miyasining tuzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning shakllanishiga inson psixikasining kerakli xususiyatlari, shuningdek, unga ta‘sir etuvchi atrof – muhitni muhim sharoitlarini tashkil qilib ta‘sir etish zarurdir. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishda oila a‘zolarining individual psixologik xususiyatlari kirib ketadi.

Kalit so‘z: oilaga psixologik xizmat, oila, munosabatlar, shaxs, neyrofiziologiya, oilaviy diagnostika, qabilaviy munosabatlarni, kichik guruh, psixologik mexanizmlari.

МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ОКАЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ СЕМЬЕ

Психологические механизмы психологического обслуживания семьи отличаются от социально-психологических аспектов. Важной особенностью психологического механизма является особенность психики человека, связанная с нейрофизиологией, строением головного мозга человека. Повлиять на его формирование необходимо путём организации необходимых особенностей психики человека, а также важных условий окружающей среды, влияющих на неё. Индивидуально-психологические особенности членов семьи учитываются при оказании психологической помощи семье.

Ключевые слова: семейная психологическая служба, семья, отношения, личность, нейрофизиология, семейная диагностика, родоплеменные отношения, малая группа, психологические механизмы.

THE METHODOLOGY OF ORGANIZING AN EMPIRICAL STUDY OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO THE FAMILY

Psychological mechanisms of psychological service to the family differ from social psychological aspects. An important feature of the psychological mechanism is the feature of the human psyche, which is related to neurophysiology, the structure of the human brain. It is necessary to influence its formation by organizing the necessary characteristics of the human psyche, as well as the important conditions of the environment that affect it. Individual psychological characteristics of family members are included in the provision of psychological services to the family.

Keywords: psychological service to the family, family, relationships, personality, neurophysiology, family diagnostics, tribal relations, small group, psychological mechanisms.

Kirish. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishning mexanizmlari o‘ziga xos murakkab tadqiqiy jarayon hisoblanib, boz ustida etnopsixologik xususiyatlar mujassamlashgan bo‘lsa, bunda oilani hududlar kesimida ham ajratish lozim bo‘ladi. Ta‘kidlashicha, “arxaik” qadriyatlar hududlarda bu kunga qadar oqlanib, avloddan avlodga “o‘tib” kelmoqda (Samarov R.C. [132, B.10-15]). O‘zbek oilalari, bundan mustasno emas. Masalan, Vodiya – Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida, oilaviy an‘ana va qadriyatlarda, jumladan kelin tushirish, qiz uzatish, kuyov ko‘rish kabilarda “arxaik” qadriyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat o‘z navbatida oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyotida psixolog tomonidan inobatga olinishi lozim. Amaliyotda, ba‘zan qo‘llanilgan psixologik metodikalar shunchalik “quruq ball” tarzida amal keltiriladi, chunki foydalanilgan so‘rovnomalar etnopsixologik axborotlarni olishga mo‘ljallanmagan emas. Geografik va ijtimoiy muhitning ta‘siri natijasida saqlanib kelayotgan “arxaik” qadriyatlar er-xotin munosabatlarini tartibga keltirishda psixolog uchun ta‘sir vositasi bo‘lishi mumkin.

Agarda, ijtimoiy psixologiyada katta va kichik guruhlarini o‘rganishda ijtimoiy fasilitatsiya, identifikatsiya, ijtimoiy ta’sir, taqlid qilish, xulq-atvor reaktivligi, yuqish va shuningdek shaxs xususiyatlarini o‘rganuvchi umumpsixologik kategoriyalar konformizm, motivlar, refleksiya kabi jarayonlar o‘rganilishini inobatga olsak (SHibutani T.[165, B.544]). Bunda, oilaga psixologik xizmat bilan bog‘liq jarayon ham shu tarzda kechishini nazarda tutish lozim bo‘ladi. Oila oldida turgan muammo va uni hal qilish, buning uchun sharoitni vujudga keltirish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy psixologik mexanizm tushunchasi XX asrning oxirlarida V.N. Voronin, V.G. Krısko, G.M. Andreeva, G.V. Dovjin, M.V. Iontsevar tamonidan fanga kiritildi.

Ijtimoiy psixologik mexanizm tushunchasini quyidagi psixolog olimlar o‘rganib o‘z fikrlarini aytib o‘tdilar. Bular V.N. Varonin, M.V. Iontseva, G.V. Dovnik, O.O. Siderovalardir. Ularning fikricha ijtimoiy-psixologik mexanizmlar o‘ziga xos maxsus tashkil qilingan sharoitlar sifatida ko‘rinib, insonni jamiyatdagi hulq-atvoriga maqsadga yo‘naltirilgan holda ta’sir etish jarayonidir.[59] Bu jarayonning natijasi sifatida shaxsni guruhdagi yoki bir butun guruhdagi effektiv shakllanayotgan hulq-atvor modeli hisoblanadi. [59] Bunday yondoshishda quyidagi omil muhim hisoblanadi, ya’ni muloqatni amalga oshirayotgan alohida individ yoki guruhdagi individlar hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy-psixologik mexanizm tushunchasini bir qancha talqinini ko‘rib chiqadi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik mexanizmi bir xil talqini uchramaydi.

Ijtimoiy-psixologik mexanizm va psixologik mexanizm tushunchalari o‘rtasida prinsipial farqlar mavjuddir.

V.N.Varonin. M.V.Iontseva, G.V.Dovnik, O.O.Siderovalarning fikricha ijtimoiy-psixologik mexanizmlar o‘ziga xos maxsus tashkil qilingan sharoitlar sifatida ko‘rinib, insonni jamiyatdagi hulq-atvoriga maqsadga yo‘naltirilgan holda ta’sir etish jarayonidir. Bu jarayonning natijasi sifatida shaxsni guruhdagi yoki bir butun guruhni effektiv shakllanayotgan hulq-atvor modeli hisoblanadi.

Bunday yondoshishda quyidagi omil muhim hisoblanadi, ya’ni muloqotni amalga oshirayotgan alohida olingan shaxsni ishtirokini emas, balki shaxsni sotsiumdagi ishtirokini muhimligini ko‘rsatib o‘tadilar.

Ijtimoiy psixologiyada katta va kichik guruhlarini o‘rganishda quyidagi ijtimoiy jarayonlarni o‘rgandilar. Bular ijtimoiy fasilitatsiya, identifikatsiya, ijtimoiy ta’sir, taqlid qilish, hulq-atvor reaktivligi, yuqish va shuningdek shaxsni xususiyatlarini o‘rganuvchi umumpsixologik kategoriyalar konformizm, motivlar, refleksiyalarni o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodikasi. “Mexanizm” so‘zi texnikada paydo bo‘lgan. “Mexanizmi tushuntirishda quyidagi misolni o‘zlarining ilmiy ishlarida, V.N.Varonin, M.V.Iontseva, G.V.Dovjik, O.O.Sviridova va boshqalar ko‘rsatib berganlar. Ular bu tushunchani quyidagicha tushuntiradilar. “Yo‘lda yog‘och va tosh yotibdi. Bular shunday bir predmetlar, lekin inson paydo bo‘lib yog‘ochni toshni ustiga qo‘ydi va richagni yaratdi, ya’ni oddiy mexanizmi yaratdi. [59 (B.263-273.)] Oilaga psixologik xizmat bilan bog‘liq jarayon ham xuddi shuningdek ko‘rinishga ega bo‘lgan jarayondir. Oila oldida turgan muammo va uni hal qilish, buning uchun sharoitni vujudga keltirish muhim hisoblanadi. Bu mualliflarni yuqorida keltirgan misoli haqida gapirib K.A. Arjanova ular bu jarayonni uchta sharoitda tashkil qilgan holda amalga oshirishlari haqida ko‘rsatadi. Bular birinchidan-konformost’ (psixikani xususiyati), ikkinchidan – guruhiy bosim (mahsus tashkil qilingan sharoit, stimul), uchinchi – individni harakat modelini natija sifatida o‘zgarishi.[41 (B.263-273.)] Bu jarayon oilaga psixologik xizmatda ham aynan ko‘rinadi. Oiladagi qulaylik bo‘lishi uchun oila a’zolarini psixologik xususiyatlarini oilani birligiga qaratilishi. Buning uchun oila a’zolarini o‘zaro muloqatda, ehtiyojlarini qondirishda bir-biridan ma’suliyatni talab qilish. Bu albatta guruhiy bosimni vujudga keltiradi. Bular natija sifatida xar bir oila a’zosini oila birligiga ta’sir etuvchi modellarni shakllanishiga va oila a’zolarini shu modeldan kelib chiqqan holda o‘zgarib borishiga olib keladi.

Olimlar bu yerda sun’iy sharoitni vujudga keltirishga qattiq diqqatni qaratganlar. Bunda ma’lum bir predmetlar mexanizm sifatida amal qiladi va ma’lum bir natijani olish uchun atrofga ta’sir o‘tkazadi. Oila va oilaga psixologik xizmat o‘ziga xos mexanizmlarni shakllantiradi. Oiladagi krizis va uni bartaraf etish uchun psixolog o‘ziga xos izlanishlarni olib boradi. Bu yerda oila va psixolog o‘rtasida bo‘ladigan amaliy jarayonlar muhim hisoblanadi.

Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy-psixologik va individual psixologik mexanizmlarni o‘rni va ahamiyati kattadir. SHuni ayti joyizki mexanizm-bu hodisalarni bir butun holda harakatga keltiruvchi, qismlarning birligini tashkil etuvchi jarayondir. Bunda oilaga psixologik xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik va individual psixologik omillar nazarda tutiladi. Ular kirizisli oilalarni me’yorlashtirishda yordam beradi.


Oila haqida ko‘plab ta’riflar berilganiga qaramay Stolyarenko L.D., Samigin S.I. larning bergan ta’riflari ilmiy tadqiqot ishi uchun qiziq hisoblanadi: “Oila– bu odamlarni ijtimoiy guruhi bo‘lib, u oilaning

xar bir a’zosini o’zini saqlashi, o’zini ko’rsatishi, o’zini hurmatini qondirishga qaratilgan ehtiyojlar hisoblanadi” [146] Ya’ni yuqorida ko’rsatilgan uchta jarayonni boshidan kechiradi.

K.A.Arjanova, mazkur jarayonni uchta sharoitda tashkil qilgan holda amalga oshirishni ko’rsatib o’tgan. Bular:

- konformlik (psixikani xususiyati);
- guruhiy bosim (maxsus tashkil qilingan sharoit, stimuly);
- individni xulq-atvorinini natija sifatida o’zgarishi (Arjanova K.A. [41]).

Natija. Oilada psixologik xizmat ko’rsatish tizimini takomillashtirish, vazifalar ko’lamini belgilab olish uchun ajralish arafasida turgan o’zbek oilalarida turmush qurish motivlarini o’rganish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun anketa so’rovidan foydalanamiz. (1-rasm).



1-rasm. Sinaluvchi jinsi. Ijtimoiy so’rovnoma natijasi

Muhokama. Ushbu tadqiqotimiz davomida “Nikohga ma’naviy tayorgarlik”, “Juftliklar ustanovkasi” so’rovnomasi, “Oilaviy hayotdan qoniqish” so’rovnomasi, “Oilada rollar taqsimoti”, Oilaviy muhitni o’rganish shkalasi, metodikalaridan foydalanildi. Tadqiqotimizda jami 300 respondent qatnashishdi. Bulardan 118 nafar erkak, 182 nafar ayollardan iborat. Sinaluvchilarning asosiy qismi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markaziga murojaat etgan fuqarolardan tashkil topgan. Tadqiqot oilaviy ahvoli jihatdan 4 guruhga bo’lib o’rganildi. Bular:

1. Turmush qurmaganlar.
2. Sog’lom oilalar.
3. Ajrashish arafasidagi oilalar.
4. Ajrashgan oilalar.

Sinaluvchilar asosan o’zbek oilalarida oila qurish motivlarini o’rganishda empirik tadqiq etilgan.

Анализ сочинений студентов также показал улучшение качества работ в экспериментальной группе. Пример сочинения на тему "Моя будущая профессия" в начале и конце эксперимента продемонстрировал следующие изменения:

До эксперимента: "Моя будущая профессия – инженер. Я хочу работать на заводе и проектировать новые машины."

После эксперимента: "Моя будущая профессия – инженер, но не просто проектировщик машин. Я мечтаю о создании экологически чистых и энергоэффективных устройств, которые помогут уменьшить загрязнение окружающей среды и улучшить качество жизни людей."

Таким образом, видна не только более детализированная и оригинальная мысль, но и проявление личной инициативы и интересов.

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают гипотезу о том, что сочинение является эффективным средством для развития творческих способностей студентов. Значительное увеличение показателей креативности в экспериментальной группе показывает, что методика написания сочинений способствует развитию таких важных аспектов, как беглость, гибкость, оригинальность и детализация мыслительного процесса.

Кроме того, анализ сочинений показал, что студенты стали более уверенно выражать свои мысли, проявлять индивидуальность и творческое мышление. Эти навыки являются ключевыми для их дальнейшего профессионального и личностного развития.

В заключение можно отметить, что внедрение регулярных заданий на написание сочинений в образовательный процесс способствует существенному повышению уровня творческих способностей студентов. Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение долгосрочного влияния данного метода на креативность и профессиональную успешность выпускников.

Заключение. Результаты проведенного исследования подтвердили гипотезу о том, что сочинение является эффективным средством для развития творческих способностей студентов. Экспериментальные данные продемонстрировали значительное увеличение показателей креативности у студентов, регулярно выполнявших задания на написание сочинений. Наиболее заметный рост был зафиксирован по параметрам оригинальности, беглости, гибкости и детализации мыслительного процесса.

Анализ сочинений, выполненных студентами до и после эксперимента, выявил существенное улучшение качества их работ. Студенты стали более уверенно выражать свои мысли, проявлять индивидуальность и демонстрировать творческое мышление. Эти изменения свидетельствуют о том, что методика написания сочинений способствует развитию критически важных навыков, необходимых для дальнейшего профессионального и личностного роста.

Полученные результаты подчеркивают важность создания педагогических условий, направленных на стимулирование творческой активности студентов. Поэтапная организация учебного процесса, включающая выявление и развитие индивидуальных интересов, создание

мотивационных ситуаций и предоставление свободы выбора тем и проектов, способствует активному участию студентов в образовательном процессе и развитию их творческого потенциала.

Таким образом, интеграция сочинений в учебную деятельность студентов способствует не только развитию их творческих способностей, но и повышению качества профессиональной подготовки. Дальнейшие исследования могут быть направлены на изучение долгосрочного влияния сочинений на креативность и профессиональную успешность выпускников, а также на разработку и внедрение новых методик, способствующих развитию творческого мышления в различных областях знаний.

Исследование показало, что сочинение как средство развития творческих способностей студентов является эффективным и перспективным направлением в педагогике высшей школы. Внедрение данной методики в образовательный процесс может существенно повысить уровень креативности и готовности студентов к решению нестандартных задач в профессиональной деятельности.

Литература:

1. Брунер, Дж. Психология познания. Москва: Прогресс, 1977. - 494 с.
2. Выготский, Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика, 1991. - 93 с.
3. Лейтес, Н. С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия. Москва: Педагогика, 1984. - 215 с.
4. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 1999. - 712 с.
5. Брунер, Дж. Психология познания. Москва: Прогресс, 1977. 494 с.
6. Торранс, Э. Психология творчества. Москва: Прогресс, 1987. 496 с.
7. Ковалёв, С. В. Психология личности. Москва: Академия, 2002. 320 с.
8. Гильфорд, Дж. Структура интеллекта. Санкт-Петербург: Питер, 2003. 560 с.
9. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. Москва: Прогресс, 1969. 420 с.
10. Гарднер, Г. Структуры разума: Теория множественного интеллекта. Москва: Каро, 2007. 512 с.
11. Амосов, Н. М. Разум человека. Москва: Наука, 1977. 300 с.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Xojiyeva Nasiba Baxodirovna,
Buxoro Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning dolzarbligi, mamlakatimizda kadrlar tayyorlashga bo‘lgan e‘tibor, ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha m‘yoriy qonunlar ijrosini ta‘minlash, o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi metodikalarni takomillashtirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muloqot madaniyati, ijtimoiy muomala ko‘nikmalari, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy mas‘uliyat, ijtimoiy adekvatlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat yondashuvlar asosida olib borilishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetentlik, ta‘lim sifati, metodika, muloqot madaniyati, ijtimoiy muomala ko‘nikmalari, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy mas‘uliyat, ijtimoiy adekvatlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, faoliyatli yondashuv.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассматривается актуальность развития социальной компетентности у будущих учителей начальных классов, внимание к подготовке кадров в нашей стране, обеспечение соблюдения нормативных актов по повышению качества образования, совершенствование методик, развивающих социальные компетенции у педагогов, совершенствование культуры общения учителей начальных классов, навыков социального общения, самоконтроля, социальной ответственности, социальной адекватности, творчества, в ней говорится, что деятельность, направленная на эффективное развитие социальных компетенций, таких как инициатива, осуществляется на основе подходов.

Ключевые слова: социальная компетентность, качество образования, методика, культура общения, навыки социального общения, способность к самоконтролю, социальная ответственность, социальная адекватность, креативность, инициативность, деятельностный подход.

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation. In the article, the relevance of the development of social competence in future primary school teachers, the emphasis on personnel training in our country, ensuring the implementation of new laws to improve the quality of education, improving the methodologies that develop social competencies in teachers, the communication culture of primary school teachers, social treatment skills, self-management skills, social responsibility, social adequacy, creativity, it is stated that activities aimed at the effective development of social competencies, such as Initiative, are carried out on the basis of approaches.

Keywords: social competence, quality of education, methodology, culture of communication, skills of social treatment, self-management ability, Social Responsibility, social adequacy, creativity, initiative, active approach.

Kirish. Innovatsion ta‘lim jarayonlari mazmunida ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy drayver – ta‘lim hisoblanib, jahondagi rivojlangan davlatlar tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “... bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni tarkib toptirish”[1] masalasi dolzarb vazifa sifatida qayd etilmoqda. Ta‘lim mazmuni va sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro hujjatlar, xususan, Incheon deklaratsiyasi (Incheon declaration 2015), Jahon ta‘lim forumi (World Education Forum, 2000), Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Ming yillik deklaratsiyasida” (UN “Millennium Declaration”, 2000) zamonaviy ta‘lim yondashuvlarga tayanib, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni ijtimoiy va huquqiy kompetentli qilib tarbiyalashga doir tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon miqyosida ta’limning xalqarolashuviga asoslangan holda ilmiy-tadqiqot markazlari, ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini innovatsion-integratsion yondashuvlar asosida kasbiy va shaxsiy sifatlarga, zamonaviy dunyo uchun zarur bo’lgan muayyan hayotiy ko’nikmalarni egallashga yo’naltirilgan ta’lim olish va o’z – o’zini ijtimoiy rivojlantirish masalasi dolzarb muammo sanaladi.


Mavzu metodologiyasi. Oliy ta’lim jarayonida o’quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarining noan’anaviy shakllarini ishlab chiqish, ularning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash hamda ularda ijtimoiylashuvni faollashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda[2]. Mamlakatimizda asosiy e’tiborni inson kapitali bo’lgan sifatli ta’limga qaratish, zamonaviy ta’lim-tarbiya berish orqali bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida akmeologik dunyoqarashni, hayot uchun zarur bo’lgan ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” PF-60-son farmondagi 20-, 41-, 42-maqsadlar, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida” PQ-3160-son, 2020-yil 15-maydagi “O’zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko’nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to’g’risida”gi 287-sonli qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarda ham Oliy ta’lim jarayonida bo’lajak kadrlarni ehtiyojlarga asoslangan holda sifatli tayyorlash, ularning zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan ijtimoiy kompetensiyalarga ega mutaxassislar sifatida tarbiyalash masalasi har doimgidan ham dolzarb etib belgilangan.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz Oliy ta’lim jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni, faol fuqarolik rozitsiyasini rivojlantirish, milliy tarbiyaga ustuvorlik berish asosida hayotiy kompetentlikni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari A.Akramov, O.Abdug’aniyyev, Sh.Barotov, A.Begmatov, A.Mavrulov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, S.Nishonova, S.Norboyeva, D.Ro’ziyyeva, B.Xodjayyev, M.Xo’jayyev, M.Sharifxo’jayyev, B.Shermuxammadov, J.Yuldashev, M.Kaxxarova, M.Qirg’izboyev, M.Quronovlar tomonidan o’rganilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlari olimlari A.Gayazov, V.Gladik, V.Jernov, V.Jurova, N.Irrolitova, T.Luginina, Z.Mazir, Yye.Mitina, L.Orinina, Yu.Rodlesnaya, O.Roluxin, L.Rudchenko, Sh.Xayrulin, O.Yariginlarning tadqiqotlarida o’quv jarayonlarida talabalarda ijtimoiylikni tarkib toptirish, ularda madaniyatini shakllantirishning falsafiy, psixologik va pedagogik masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. Xorijlik olimlar Yye.Banks, V.Berg, G.Biyesta, V.Link, D.Brown, B.Ward, M.Boun, C.Mutchlarning ishlarida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirishning turli jihatlarini taddiq etilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni o’rganish va tahlil qilish, kuzatish, test, so’rovnoma, modellashtirish, redagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanishi jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni

Bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy kompetensiyaning uzluksiz rivojlanishi va takomillashuvini ta’minlaydi[4].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligi: muloqot madaniyati, ijtimoiy muomala ko‘nikmalari, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, ijtimoiy mas‘uliyat, ijtimoiy adekvatlik, ijodkorlik va tashabbuskorlik kabi talablardan iborat:

1. Muloqot madaniyati:

- nutq tortiqligi va nutq ohangini to‘g‘ri tanlash;
- tinglash va suhbatlashish qobiliyatiga ega bo‘lish.

2. Ijtimoiy muomala ko‘nikmalari:

- turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqot o‘rnatish;
- guruh balansini saqlash va guruh ishi ko‘nikmalari.

3. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati:

- hissiyotlarni boshqara olish va reaksiyalarni nazorat qilish;
- stress va qiyinchiliklarni barqaror belgilar bilan yyengib o‘tish.

4. Ijtimoiy mas‘uliyat:

- umumiy va shaxsiy mavzulardagi muammolarni hal qilishga kompleks yondoshish;
- ijtimoiy adolat va insonparvarlik g‘oyalarini ravonlashtirish.

5. Ijtimoiy adekvatlik:

- o‘zgarayotgan ijtimoiy vaziyatlarga tez moslasha olish;
- uzoq muddatli ijtimoiy va kasbiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash.

6. Ijodkorlik va tashabbuskorlik:

- yangi ylar hal qilish yo‘llarini izlash va taklif qilish;
- o‘quvchilar va boshqalar bilan ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu talablar zamonaviy o‘qituvchilarning ijtimoiy barkamolligining asosiy ko‘rsatkichlarini ifodalaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligiga qo‘yiladigan yuqoridagi asosiy talablardan tashqari, quyidagi qobiliyat va sifatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Empatiya va qabul qilish:

- o‘quvchilarning hissiy holatlarini tushuna olish;
- o‘quvchilarga nisbatan ijobiy munosabat bildirish.

2. Kommunikativ va pedagogik madaniyat:

- nutq madaniyati, leksik boyligi vanutq axloqiga ega bo‘lish;
- umumiy madaniyat, xushmuomalalilik va mehribonlikni namoyon etish.

3. Axloqiy-ma’naviy rivojlanganlik:

- yuksak insoniy fazilatlar, qadryatlar va me’yorlarga amal qilish;
- o‘zining axloqiy-ma’naviy ideallarini amalga oshira olish.

4. Tahlil va refleksiya qobiliyati:

- o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qila olish va xatoliklar ustida ishlash;
- kasbiy tajribani umumlashtirish va yangi amaliy echimlar izlash.

Ushbu qobiliyat va sifatlar o‘qituvchining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini yaxshilash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uzluksivlik va uzviylik, maqsadga yo‘naltirilganlik, maxsuldorlik, muvofiqlik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘ziga xos mezonlar bilan belgilanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni mezonlari

№	Mezonlar	Faoliyat mazmuni
1	Uzluksivlik va uzviylik	jarayon bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, uzluksiz ravishda amalga oshiriladi
2	Maqsadga yo‘naltirilganlik	o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan
3	Mahsuldorlik	dasturdagi tadbirlar orqali o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligi oshib boradi
4	Muvofiqlik	o‘qituvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etiladi

Shu tarzda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dasturi o‘z samarasini beradi va barqaror natijalarni ta’minlaydi. Jumladan, kadrlar layoqatini oshirish, motivasiya va qo‘llab-quvvatlash, tizimli monitoring va

nazorat, tashkiliy-uslubiy ta'minotni olib borishga xizmat qiladi. ushbu jarayonda har bir natijadorlik quyidagilarga asoslanadi:

Kadrlar layoqatini oshirish - o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish, tajribali mutaxassislar jalb qilingan seminar va treninglar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Motivasiya va qo'llab-quvvatlash - o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirish, erishilgan natijalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdan iborat.

Tizimli monitoring va nazorat - o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini doimiy kuzatib borish, olingan natijalarni taxlil qilish va sifat ko'rsatkichlarini baholashni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy-uslubiy ta'minot - zarur o'quv-uslubiy adabiyotlar, tavsiyalar va innovatsion usullarni joriy etish, kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Tajriba tadqiqot davomida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini yuqorida keltirilgan bosqichlar asosida birgalikda amalga oshirish natijasida ularda ijtimoiy kompetentlikka egalik ko'nikmasiga tizimli va samarali rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qildi. Ushbu faoliyat quyidagilarni e'tiborga olgan holda olib borildi.

Ilmiy asoslangan yondashuvlar:

-ushbu yo'nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar va aniq dalillar asosida ishlash;

-zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar va ijobiy xorijiy tajribalarni o'rganish.

Milliy madaniy xususiyatlarni hisobga olish:

-o'zbekistonning ijtimoiy-madaniy an'analari va qadriyatlariga asoslanish;

-mahalliy sharoitlar va o'quvchilarning etnik, diniy, yosha ehtiyojlarini inobatga olish.

Ijtimoiy hamkorlik:

-ota-onalar, jamoatchilik va boshqa ijtimoiy institutlar bilan samarali hamkorlik;

-ijtimoiy topilganlik va ishonchni mustahkamlash.

Davom ettiriluvchanlik va rivojlanish:

-o'qituvchilarning kompetentligi doimiy ravishda yangilanib va takomillashib borishi;

-shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish va kasbiy o'sish istiqbollarini yaratish.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar o'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni yaxlit va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

O'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni yaxlit va samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat yondashuvlari [5]

№	Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar	Faoliyat mazmuni
1	Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	-zamonaviy axborot manbalari, platformalar va dasturlarni qo'llash -masofaviy ta'lim shakllaridan foydalanib, kengaytirilgan muloqot imkoniyatlaridan foydalanish
2	Ijtimoiy loyihalar va tadbirlar	-o'quvchilar va ota-onalar bilan ijtimoiy yo'nalishdagi loyihalar amalga oshirish -mahalliy va xalqaro darajadagi ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish
3	Kasbiy va shaxsiy rivojlanish	-o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini oshirish -ijodkorlik, tashabbuskorlik hamda etik-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash
4	Uzoq muddatli professional aloqalar	ijtimoiy sohada ishlayotgan boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik -chet el o'qituvchilari va mutaxassislar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish
5	Ijtimoiy tajriba va malakani oshirish	-boshqa maktablarda va tashqarisida tajriba almashish bo'yicha tadbirlarda ishtirok etish -o'quvchilar, ota-onalar va boshqa ijtimoiy guruhlarga xizmat ko'rsatish va maslahatlar berish

O'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun ushbu yo'nalishlarni kompleks ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'qituvchining ijtimoiy kompetentsiyasi nafaqat yoqimli shaxsiy fazilatlar to'plami, balki o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omildir. Bu o'qituvchiga nafaqat bilimlarni uzatish, balki o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan uyg'un munosabatlarni o'rnatish, o'rganish va rivojlanish

uchun qulay muhit yaratishga imkon beradi. Ushbu omillarning barchasini hisobga olgan holda, "innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish" tadqiqot mavzusi juda dolzarbdir. Uning natijalari kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishga va zamonaviy dunyoda samarali ta'lim tizimini yaratishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, tadqiqot mavzusi kelajakdagi o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xos innovatsion metodologiyasi bo'lib, u tadqiqot davomida yaratiladi va sinovdan o'tkaziladi. Ushbu uslub an'anaviy usullardan farq qilishi, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olishi va kelajakdagi o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentsiyasini rivojlantirishda aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 6 p. 26.P.
2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. - Toshkent, 2015. - 94 bet.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности - новая парадигма результата образования // Высшее Образование сегодня. — 2003. - № 5.
4. Richard E. Boyatzis. David C. McClelland: For The Wiley Encyclopedia of Personality and Individual Differences Volume IV: Clinical, Applied and Cross – Cultural Research. December 5, 2016
5. J.Raven (1984). Competence in modern society: Its Identification, Development and Release. – UK. P.220

“LIFELONG LEARNING” KONSEPSIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

*Xakimova Nargiza Supxanovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD*

Maqolada "lifelong learning" konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida anketali so‘rovnoma, intervyu va literatura tahlili metodlari qo‘llanildi. Natijalar lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiyani oshirish, pedagogik kompetensiyani rivojlantirish va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashning muhimligini tasdiqladi. Ushbu model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda samarali usul sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *lifelong learning, bo‘lajak o‘qituvchilar, shaxsiy sifatlar, pedagogik kompetensiya, o‘z-o‘ziga ishonch, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish.*

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ «LIFELONG LEARNING»

В статье разработана модель развития личностных качеств будущих педагогов на основе концепции "lifelong learning". В ходе исследования использовались методы анкетного опроса, интервью и литературного анализа. Результаты подтвердили важность развития навыков обучения на протяжении всей жизни, повышения уверенности в себе и мотивации, развития педагогической компетентности и улучшения показателей личностного развития. Данная модель рекомендуется как эффективный метод повышения профессиональной подготовки будущих педагогов и развития их личностных качеств.

Ключевые слова: *lifelong learning, будущие учителя, личностные качества, педагогическая компетентность, уверенность в себе, мотивация, личностное развитие.*

MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF PERSONAL QUALITIES OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE “LIFELONG LEARNING” CONCEPT

The article develops a model for developing the personal qualities of teachers who will be based on the "lifelong learning" concept. In the course of the study, methods of questionnaire survey, interview and literature analysis were used. The results confirmed the importance of developing the skills of lifelong learning, increasing self-confidence and motivation, developing pedagogical competence and improving indicators of personal development. This model will be recommended as an effective way to improve the professional training of teachers and develop their personal qualities.

Keywords: *lifelong learning, will be teachers, personal qualities, pedagogical competence, self-confidence, motivation, personal development.*

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimida yangiliklar kiritish, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonini mukammallashtirish va ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish masalalari o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zini o‘zi rivojlantirish, doimiy o‘qish va yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik bo‘lajak o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan fazilatlar sirasiga kiradi. Shu ma'noda, "lifelong learning" konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Lifelong learning" konsepsiyasi, ta'limning uzluksiz jarayoni sifatida, insonning butun hayoti davomida bilim olish va malaka oshirishni nazarda tutadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Adams (2007) o‘z tadqiqotida avstraliyalik o‘rta maktab o‘qituvchilarining lifelong learning ko‘nikma va atributlariga bo‘lgan qarashlarini o‘rgangan holda, bu ko‘nikmalarni rivojlantirishning o‘qituvchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Akyol (2016) bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘ziga ishonch, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya va lifelong learning tendensiyalari bo‘yicha o‘rganish olib borib, bu faktorlarning o‘qituvchilar faoliyatida muhimligini qayd etadi.

O‘zbekistonda ham ta'lim tizimida lifelong learning konsepsiyasini tatbiq etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Valiyeva (2023) o‘z maqolasida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini o‘rganib chiqib, bu jarayonlarning samaradorligini ta'kidlagan. Garcia-Toledano va boshqalar (2023) esa

universitet talabalari orasida lifelong learningni rivojlantirishning shaxsiy, ijtimoiy va o‘qitishga o‘rganish kompetensiyalari bo‘yicha o‘qituvchilar qarashlarini tahlil qilgan. Mazkur maqolada lifelong learning konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqiladi va bu jarayonda o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va o‘zini rivojlantirish omillari o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Adams (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, avstraliyalik o‘rta maktab o‘qituvchilarining lifelong learning ko‘nikma va atributlariga bo‘lgan qarashlari tahlil qilingan. Bu tadqiqotda o‘qituvchilar faoliyatida lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhimligi ta’kidlangan. Lifelong learning ko‘nikmalari, o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishi uchun zarurdir. Adamsning tadqiqoti, lifelong learning konsepsiyasining o‘qituvchilar faoliyatida qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berdi.[1] Akyol (2016) o‘z tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘ziga ishonch, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya va lifelong learning tendensiyalari bo‘yicha modellashgan o‘rganish olib borgan. Ushbu tadqiqot natijalari, o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida lifelong learning tendensiyalari va motivatsiyaning muhimligini ko‘rsatdi. Akyolning tadqiqoti, bo‘lajak o‘qituvchilarning lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.[2]

Valiyeva (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va o‘zini rivojlantirish jarayonlari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot natijalari, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda lifelong learning konsepsiyasining ahamiyatini ta’kidlagan. Valiyeva, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash jarayonida lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini qayd etadi.[3] Garcia-Toledano va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, universitet talabalari orasida lifelong learningni rivojlantirishning shaxsiy, ijtimoiy va o‘qitishga o‘rganish kompetensiyalari bo‘yicha o‘qituvchilar qarashlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot natijalari, universitet talabalari orasida lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish mumkinligini ko‘rsatdi. Garcia-Toledano va boshqalar, lifelong learning konsepsiyasining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilgan.[4]

Metodlar. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqish uchun ko‘p bosqichli tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi. Tadqiqotda quyidagi metodlar ishlatildi:

Anketali so‘rovnomalar: O‘qituvchi bo‘lishni maqsad qilgan talabalar orasida anketali so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomalar lifelong learning ko‘nikmalarini, o‘z-o‘ziga ishonchni, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani va pedagogik kompetensiyani o‘lchashga mo‘ljallangan.

Intervyular: So‘rovnomadan keyin, tanlangan respondentlar bilan chuqur intervyular o‘tkazildi. Bu intervyular orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning lifelong learning konsepsiyasiga bo‘lgan qarashlari va bu jarayondagi shaxsiy rivojlanishlari haqida batafsil ma’lumot to‘plandi.

So‘rovnomalar va intervyular natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilindi va natijalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning lifelong learning konsepsiyasiga bo‘lgan qarashlari va bu jarayondagi shaxsiy rivojlanishlari haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi.

Lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish: Respondentlarning 85% (n=170) lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirishni muhim deb hisoblashdi. Ushbu respondentlar lifelong learning ko‘nikmalarining o‘z pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishida muhim rol o‘ynashini ta’kidladilar.

O‘z-o‘ziga ishonch: So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, respondentlarning 78% (n=156) o‘z-o‘ziga ishonch darajasini oshirish lifelong learning konsepsiyasi orqali amalga oshirilishi mumkinligini qayd etishdi.

O‘qishga bo‘lgan motivatsiya: Respondentlarning 82% (n=164) lifelong learning konsepsiyasi o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi deb hisoblashdi.

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish: Intervyular natijalariga ko‘ra, respondentlarning 88% (n=176) pedagogik kompetensiyani rivojlantirish uchun lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur deb hisoblashdi.

O‘zini rivojlantirish: Respondentlarning 80% (n=160) o‘zini rivojlantirish jarayonida lifelong learning konsepsiyasi muhim rol o‘ynashini ta’kidladilar.

Shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari: So‘rovnomalar va intervyular natijalari bo‘yicha, respondentlarning 84% (n=168) lifelong learning konsepsiyasi shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda yordam beradi deb hisoblashdi.

O‘qituvchilar faoliyatida samaradorlik: Respondentlarning 86% (n=172) lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘qituvchilar faoliyatida samaradorlikni oshirish mumkinligini ta’kidladilar.

Natijalar asosida ishlab chiqilgan model bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda quyidagi asosiy omillarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur. O‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish orqali ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishi ta‘minlanadi. Lifelong learning konsepsiyasi orqali o‘qituvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun lifelong learning ko‘nikmalarini o‘zlashtirish zarur. Lifelong learning konsepsiyasi shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu model lifelong learning konsepsiyasini bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda samarali usul sifatida qo‘llashni tavsiya etadi.

Muhokama. Mazkur tadqiqotning natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning lifelong learning konsepsiyasi asosida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, respondentlarning katta qismi lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Bu ko‘nikmalar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan eng muhim omillardan biri ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda o‘z-o‘ziga ishonch va o‘qishga bo‘lgan motivatsiya lifelong learning konsepsiyasi orqali oshirilishi mumkinligi aniqlandi. Respondentlarning aksariyati o‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiya darajasining oshishi ularning pedagogik faoliyatida ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur ekanligi aniqlandi. Ushbu topilmalar lifelong learning konsepsiyasining o‘qituvchilar faoliyatida muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Ushbu muhokamalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiyani oshirish, pedagogik kompetensiyani rivojlantirish va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning lifelong learning konsepsiyasi asosida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning muhimligini aniqlash va bu jarayonni yaxshilash uchun model ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot natijalari lifelong learning konsepsiyasining o‘qituvchilar faoliyatida va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlari uchun lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Ushbu ko‘nikmalar o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini samarali amalga oshirishlariga yordam beradi. Lifelong learning konsepsiyasi orqali o‘z-o‘ziga ishonch va motivatsiya darajasini oshirish mumkin. Bu faktorlar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ularning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun lifelong learning ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Lifelong learning konsepsiyasi shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bu konsepsiya orqali o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan model bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda samarali usul sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu model lifelong learning konsepsiyasini bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlar, lifelong learning konsepsiyasini o‘qituvchilar faoliyatida yanada chuqurroq o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, bu konsepsiyani amaliyotda qo‘llash va natijalarini tahlil qilish orqali o‘qituvchilar faoliyatini yanada samarali qilish imkoniyatlari o‘rganilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Adams, D. (2007). Lifelong learning skills and attributes: The perceptions of Australian secondary school teachers. *Issues in Educational Research*, 17(2), 149-160.
2. Akyol, B. (2016). Teacher self-efficacy perceptions, learning oriented motivation, lifelong learning tendencies of candidate teachers: A modeling study. *Eurasian Journal of Educational Research*, 16(65), 19-34.
3. Valiyeva, Q. I. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va o‘zo‘zini rivojlantirishi. // *Journal of science, research and teaching*, 2(12), 153-158.
4. García-Toledano, E., Gracia-Zomeño, A., Farinho, P., & Picado, L. M. C. M. (2023). Analyzing Teachers’ Perception of the Development of Lifelong Learning as Personal, Social and Learning to Learn Competence in University Students. // *Education Sciences*, 13(11), 1086.
5. Nissilä, S. P., Karjalainen, A., & Koukkari, M. (2022). It is the shared aims, trust and compassion that allow people to prosper: Teacher educators’ lifelong learning in competence-based education.
6. Axmadjonova, M. F., & Xaydarov, M. E. (2022, April). Uzluksiz ta‘lim tizimida menejerlik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari. // *In E Conference Zone* (pp. 185-187).

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!


1. “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2024-yil 6-son (105)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.06.2024 Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.06.2024 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.</p>
--	--	--